


GO‘ZAL NORMURODOVA

O‘ZBEKISTON TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

GO'ZAL NORMURODOVA

O'ZBEKISTON TARIXI

(XVI-XIX-ASRLAR BIRINCHI YARMI)

DARSLIK

(tarix mutaxassisligi talabalari uchun)

Samarqand -2022

UO‘K 9(575.1)
KBK 63.3 (5)
N 79

Normurodova G.B. O‘zbekiston tarixi (XVI-XIX-asrlar birinchi yarmi). Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 208 bet.

Darslikda 60220300-Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim mutaxassisligi o‘quv rejasida asosiy fan sifatida o‘qitilayotgan “O‘zbekiston tarixi” fanining XVI-XIX-asrlar birinchi yarmiga tegishli mavzularning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Xususan, darslikda XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixiga taaluqli masalalar yoritilgan.

Mas’ul muharrir:
D.A. Alimova

tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
X. Yunusova
N. Allayeva

O‘zbekiston milliy universiteti
professori, tarix fanlari doktori
O‘zR FA Tarix instituti
katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

M.Nasrullayev

Samarqand davlat universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti

Mazkur darslik Samarqand davlat universiteti kengashining 2022 yil 30-avgust 1-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8852-2-6

© G. Normurodova, 2022
© Samarqand davlat universiteti, 2022

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarix fani rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi va O‘zbekiston tarixining turli davrlariga oid bo‘lgan tadqiqotlar ko‘laming kengayishiga olib keldi. O‘zbekiston davlatchiligi va xalqi tarixini o‘rganishning dolzarbliji «har bir davlatning betakror tarixi va madaniyatining haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanishi»ni¹ e’tiborga olgan holda muhim hisoblanadi.

XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Markaziy Osiyoda kechgan murakkab siyosiy voqeliklarga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot barqarorligini ta’minlashda xonliklarda yashagan mehnatkash, ijodkor xalq qatlamlarining roli muhim bo‘lgan. Zero, ular o‘zlarining ko‘p asrlik an’ana va tajribalari bilan keyingi davr rivojiga munosib hissasini qo‘shib borgan. Bugungi kunga kelib, o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosi jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholangan.

Mazkur darslikda O‘zbekiston xalqining XVI-XIX-asrlar birinchi yarmi, ya’ni Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘li, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga oid masalalar ochib beriladi. Kitobda O‘zbekiston davlatchiligi va xalqi tarixiga taaluqli ma’lumotlar tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar, xususan, respublika olimlari², rus va xorijlik

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағищланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъзуза.— Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

² Зияев Х. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. – Т., 1973; Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Т.: Фан, 1976; Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII – первой половине XIX века: ремесло, торговля и пошлины. – Т.: Фан, 1991; История Узбекистана / Отв. ред. Мукминова Р.Г. – Т.: Фан, 1993; Ахмедов Б. Тарихдан сабоклар. – Т.: Ўқитувчи, 1994; Бобобеков Х. Кўқон тарихи. - Т., 1996; Сагдуллаев А. ва б. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 2000; Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. -Т.: Шарқ, 2001; Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва хукуки тарихи. – Т.: Адолат, 2004; Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. – Т., 2005; Вохидов Ш., Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX-XX аср бошлари). – Т.: Янги аср авлоди, 2006; Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университети, 2007; Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2-х т. Т.1.– Т.: Узбекистан, 2008; Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. – Урганч, 2009; Бабаджанов

tadqiqotchilarining³ ilmiy izlanishlarida o‘rin olgan muhim nazariy-metodologik tamoyillar, ma’lumotlarga asoslanib yoritib berilgan.

Darslik O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunida ko‘rsatib o‘tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlari va tajribasidan to‘la bahramand bo‘lish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglab etishga ko‘maklashish hamda dunyo miqyosida mavjud bo‘lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb maqsad va vazifalarni echishga qaratilgan.

“O‘zbekiston tarixi” darsligi 60220300-Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “O‘zbekiston tarixi” fanining o‘quv dasturi va rejasiga mos ravishda tayyorlangan. Ta’lim jarayonida o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan ehtiyojni hamda talabalarni yangi tahrirdagi darsliklar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Б.М. Какандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Ташкент, 2010; История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). Отв.ред. Д. Алимова. – Т.: Фан, 2012; Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари XVI-XIX асрнинг ўрталарида. – Т., 2017; Аллаева Н. Хива хонлиги дипломатияси (XVI-XIX асрлар). – Т., 2018; Нормуродова Г. Бухоро амирлиги ижтимоий стратификацияси ва аҳоли қатламларининг жамият ҳаётидаги ўрни. – Т.: Наврӯз, 2019; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи: Иккинчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019; Замонов А., Субхонов Ф. Бухоро хонлигининг Аштархоний хукмдорлари. – Тошкент, 2021.

³ Бартольд В.В. История Туркестана. Узбекские ханства // Сочинения, Т. II, часть 1. М.: Наука, 1963; Бейсембиев Т. “Та’рих-и Шахрухи” как исторический источник. - Алматы: Наука, 1987; Burton Y. The Bukharans a Dinastic, Diplomatic and Commercial History. 1500-1702. – Great Britian, 1997; History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. -UNESCO Publishing, 2003; Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2004; Россия – Средняя Азия: Политика и ислам в начале XVIII – начале XIX века.– М., 2010.Т.1. ва бошқалар.

MAVZU: MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGINING O‘RNATILISHI VA BUXORO XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Reja:

- 1.XV-asrning oxirida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy ahvol va Dashti Qipchoq bilan aloqalar.
- 2.Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligining o‘rnatilishi.
- 3.Buxoro xonligining tashkil topishi va Shayboniylarning davlatni markazlashtirish yo‘lidagi siyosati.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, Temuriylar, tarqoqlik, shayboniylar, chingiziylar, Buxoro xonligi, legitimatsiya, markazlashtirish.

1. XV-asrning oxirida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy ahvol va Dashti Qipchoq bilan aloqalar

Birinchi va Ikkinci Renessans poydevori bo‘lib kelgan Markaziy Osiyo mintaqasining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi kattadir. Bu mintaqada yuksak madaniyat yaratgan xalqlar uzoq, murakkab tarixiy taraqqiyotni bosib o‘tib, asrlar davomida tarixiy, ma’naviy-madaniy jihatdan yaqin munosabatlarda bo‘lganlar. Ushbu salohiyatli mintaqa xududi turli davrlarda “Turon”, “Turkiston”, “Movarounnahr”, “O‘rta Osiyo” va nihoyat “Markaziy Osiyo” nomlari bilan atalib kelinmoqda. Tabiiyki, bu mintaqalar xududiy jihatdan biroz farq qilgan. Turon - Markaziy Osiyoning qadimiy nomlaridan bo‘lsa, Turkiston o‘rta asrlar tarixiy-geografik adabiyotlarida uchraydigan nomi hisoblanadi. Arabchada “daryoning narigi tomoni” degan Movarounnhar geografik atamasi esa, Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi keng xududni anglatgan nom sifatida qo‘llanilgan. Keyinchalik O‘rta Osiyo nomi bilan va

hozirgi kunda Markaziy Osiyo nomi ostida ancha keng geografik xudud tushuniladi.

XV-asr oxiri - XVI-asrning boshlari Markaziy Osiyo mintaqasida Temuriylar davlatining inqirozi va yangi davlatlarning (Buxoro, Xiva, Qozoq xonliklari) tashkil topishi hamda kuchlar nisbatining tez-tez o‘zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, XV asrning oxiri Movarounnahr uchun nihoyatda siyosiy tarqoqlik kuchaygan davr bo‘ldi. Movarounnahr xududi etnomadaniy va iqtisodiy jihatdan bog‘langanligiga qaramay, bir-biridan mustaqil davlatchalarga ajralib ketgan edi. Xususan, Movarounnahrda Temuriylardan Sulton Abu Sa‘idning (1451-1469) o‘g‘illari, dastavval Sulton Ahmad Mirzo (1469-1494), so‘ngra Sulton Mahmud Mirzo (1495-1497), Boysunqur Mirzo ibn Sulton Mahmud (1495-1499) va Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Mahmud (1498-1500) lar davrida siyosiy tarqoqlik va beboshliklar nihoyat darajada kuchaydi.

1495-1497-yillarda Samarqand taxti uchun Boysunqur Mirzo, uning ukalarisi Sulton Mas‘ud Mirzo va Sulton Ali Mirzolar, Andijon hokimi Umarshayxning o‘g‘li Bobur Mirzolar o‘rtasida kurashlar boradi. Shunday vaziyatda, Boysunqur Mirzo tomonidan Shayboniyxonidan yordam so‘raladi, fursatdan foydalangan Shayboniyxon lashkar tortadi. Biroq Boysunqur Mirzo so‘nggi fursatda Shayboniyxonidan yordam kutmasdan Samarqandni tark etdi. Boysunqur Mirzoning ukasi Sulton Mas‘ud Mirzo bilan ittifoqqa kirgan Bobur Mirzo 1497-yilda Samarqandni qamaldan so‘ng egallaydi. Lekin qisqa vaqt (100 kun) hukmronlikdan so‘ng, ya’ni Farg‘onadagi hokimiyat uchun kurashlarning keskinlashuvi natijasida, u Andijonga qaytib ketishga majbur bo‘ladi.

Xorazm bu davrda rasman merosiy mulk sifatida Temuriy hukmdor Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506) davlati tarkibida bo‘lib, bu yerda uning rasmiy noibi sanalgan qo‘ng‘iroq urug‘idan chiqqan So‘fiylar sulolasiga vakillari hukmronlik qilgan. Yuqorida

keltirilgan mulkler hukmdorlari boshqalarni o‘ziga bo‘ysundirish uchun harbiy harakatlar olib borar va qo‘sni viloyatlar ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turar edi. Bunday aralashishlar odatda tinch aholini talon-taroj qilish bilan tugar edi. Shunday qilib, XV-asrning oxiri – XVI-asr boshlarida Samarqand, Buxoro va Xisor mulklerini bir-biridan mustaqil ravishda Temuriylar, Toshkent viloyatini mo‘g‘ul xoni Mahmudxon (1487-1509), Xorazmni So‘fiylar sulolasining vakili Chin So‘fiy (1505-yil vaf.) boshqarayotgan edi.

Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik va tinimsiz janglar iqtisodiyotning tanazzuliga va xalq tur mush darajasining keskin ravishda tushib ketishiga olib keldi. O‘sha davr mualliflaridan Muhammad Solih, Bobur Mirzo, Fayzulloh ibn Ro‘zbehon, Xondamirlar Movarounnahrda tartibsizliklar va bosqinchilik yurishlari nihoyatda avjiga chiqqanligini ta’kidlaydilar. Iqtisodiy hayot izdan chiqqan, tovar-pul va savdo munosabatlariga putur etgan sharoitda, raiyat ahli Temuriylarni qo’llab-quvvatlamay qo‘yadi. Bunday vaziyat Shayboniyxon uchun ayni muddao bo‘lib, bundan tashqari, ayrim mahalliy hukmdorlar va din peshvolari uni turli yo‘llar bilan qo’llab-quvvatlay boshladilar.

Movarounnahr va Dashti Qipchoq bilan aloqalari.

Movarounnahr va Xorazmning shimolida joylashgan xududlarning arab, fors va turkiy manbalarda “Dashti Qipchoq”, ya’ni Qipchoq cho‘li deb atalishi XI-asrdan e’tiboran boshlangan. Dashti Qipchoq ikki qismga: g‘arbiy va sharqiy qismga bo‘lingan. Uning sharqiy qismi Yoyiq (Ural) va Sirdaryoning quyi oqimidan Balxash ko‘ligacha bo‘lgan yerlar va g‘arbiy qismi Yoyiq, Volga daryolaridan to Dneprgacha bo‘lgan xududlar (Volganing o‘rtasi va quyi oqimi, Qrim va janubiy Rusiya yerlari)ni o‘z ichiga olgan. Qipchoqlar bu shu yurtda istiqomat qilgan turkiy tilli qabilalarning umumiyl nomi bo‘lgan. Ular yashaydigan xudud keng cho‘l maydonlarini qamrab olgan bo‘lib, aholi ko‘chmanchi va yarim

ko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan. Keskin kontinental iqlim, yog‘ingarchilikning kamligi xududdagi aholining turmush tarzini belgilab bergen.

Dashti Qipchoq orqali qadim-qadimlardan beri O‘rta Osiyon Sharqiy Yevropa bilan, xususan Rus, Volgabo‘yi bulg‘orlari, Qozon xonligi, Qrim bilan bog‘lovchi savdo yo‘li o‘tar edi. Bu cho‘llardan Xitoy bilan Yevropani bog‘lovchi Buyuk ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i ham o‘tar, uning shahobchalari yirik shaharlarni bog‘lar edi. Oltin O‘rda markazlashgan davlatga aylangan vaqtida Buyuk ipak yo‘lining asosiy tarmog‘i xuddi ana shu shimoliy tarmoq bo‘lgan edi. Xo‘jalikning rivojlanishi, savdo sotiqning ravnaqi, nisbiy siyosiy barqarorlik shaharlarning rivojlanishiga olib keldi. G‘arbda Saroy Berka, Saroy Botu, Xojitarxon, Sharqda Sig‘noq, So‘zoq, Arquq, O‘zgan, Yassi shaharlari bu davrda Dashti Qipchoqning asosiy savdo, hunarmandchilik va siyosiy markazlari bo‘lgan.

Ma’lumki, 1236-yilda Chingizzxonning nabirasi Botuxon Dashti Qipchoqda tarixda Jo‘chi ulusi nomi bilan mashhur bo‘lgan Oltin O‘rda davlatini barpo etgan edi. XIV-asr boshlaridayoq Oltin O‘rda ikkiga - Oq O‘rda va Ko‘k O‘rdaga bo‘linib ketadi. Oq O‘rda tarkibiga Sirdaryo havzasasi, Orol dengizidan Ishim va Sarisuv daryolarigicha bo‘lgan shimoliy-sharqiy yo‘nalishdagi xududlar kirgan. Oq O‘rda tarkibida bir necha uluslar bo‘lib, shulardan eng yirigi Shaybon ulusi bo‘lgan. Xiva xoni Abulg‘ozixonning yozishiga ko‘ra, Shaybon bu ulusni 1238-yilda Botuxondan olgan. Ulusning qolgan yerlari esa, jumladan Qora dengiz va Darband hamda Rus knyazliklarining g‘arbiy chegaralarigacha bo‘lgan yerlar Ko‘k O‘rda ixtiyorida bo‘lgan. Bunda ko‘rinadiki, Ko‘k O‘rda qudrati ulusda sezilarli bo‘lgan va shuning uchun Ko‘k O‘rdaga nisbatan ilgarigi Oltin O‘rda tushunchasi ishlatalgan.

XV-asrning birinchi choragida Oltin O‘rdada siyosiy kurashlar avj oladi. Xususan, XV-asr 20-yillarida Shaybon ulusida⁴ bir nechta xonlik bo‘lgan va ulusda siyosiy kurashlar va tartibsizliklar kuchayib boradi. Mahmud Ibn Valining aytishicha, XV-asrning boshida ulus xoni Davlatshayx o‘g‘lon bo‘lgan. Uning o‘limidan keyin (1425) xonning balog‘atga yetmagan o‘g‘li Abulhayrxon taxtdan tushiriladi va hokimiyat dastlab Oq so‘fi keyinchalik esa, uning o‘g‘li Jumaduqxon qo‘liga o‘tgan. Abulhayrxon Jumaduqxon xizmatiga kirgan. Jumaduqxon Shaybon ulusining aksariyat xududlarini bo‘ysindirgan bo‘lsa-da, ulus parchalanishining oldini ololmadi. Bundan ko‘rinadiki, Abulhayrxon davlati tuzilishi arafasida Shaybon ulusi mayda-mayda qismlarga bo‘lingan edi.

Ma’sud ibn Ko‘histoniyning “Tarixi Abulhayrxon” asari ma’lumotiga ko‘ra, keyinchalik qabila sardorlari, boshliqlarining madadiga tayangan Abulhayrxon katta harbiy kuch to‘plab, XV-asrning 20-yillarida Sharqiy Dashti Qipchoq yerlarini asta-sekin egallaydi. Qisqa vaqt ichida, ya’ni 1428-1431-yillarda Abulhayrxon mayda qismlarga bo‘linib ketgan Shaybon ulusining katta bir qismini birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. 1428-1468-yillarda Abulhayrxon O‘zbek ulusida hukmronlik qiladi.

XV-asrda Movarounnahr va Dashti Qipchoq xalqlari o‘rtasida savdo-sotiq aloqalari muntazam olib borilgan. Bu davrda O‘zbek ulusida siyosiy hokimiyat uchun tinimsiz kurashlar olib borilgan bo‘lsa-da, samarqandlik va buxorolik savdogarlar Dashti Qipchoqqa uzliksiz qatnab turgan. XV asr 40-yillarida Oltin O‘rdada, Mo‘g‘uliston va Temuriylar davlatida siyosiy kurashlar avj olgach, Abulhayrxon asosiy e’tiborini Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan viloyatlariga qaratadi. 1446-yilda Sirdaryoning o‘rta oqimida joylashgan Sig‘noq, Oqqa‘rg‘on, Arquq, O‘zgand va Suzoq

⁴ Akad. Bo‘riboy Ahmedov ma’lumotiga ko‘ra, Shaybon ulusi Ural tog‘ining etaklari, Tobol, Yoyiq, Ural, Ilek, Irg‘iz daryolari o‘rta oqimida, Orol dengizi, Sarisuv daryolari bo‘ylab ko‘chib yurgan. Qarang: B. Axmedov. Tarixdan saboqlar. - B. 65-70.

shaharlarini o‘ziga buysundiradi. Shu yili davlat poytaxti Tura (g‘arbiy Sibir) dan Sig‘noqqa ko‘chiriladi. Endilikda, ko‘chmanchilar Sirdaryo bo‘yidagi yerlarni ishg‘ol qilib, Temuriylarning yon qo‘schnisiga aylanadi. Shu davrdan Movarounnahr shahar va qishloqlarini tez-tez talon-taroj qilib, Temuriylarning siyosiy kurashlariga aralashib, goh u, goh bu hukmdorni quvvatlab borgan.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan Temuriylar o‘rtasida Xorazm uchun katta kurash olib borilgan. 1431-yilda Abulhayrxon Xorazmni bosib olgach, Temuriy Shohruh Mirzo unga qarshi katta qo‘sish yuborgan va ular quvib chiqarilgan. 1435-yilda ko‘chmanchilar Xorazmni ikkinchi marta talab qaytadilar. 1440/41-yilda ko‘chmanchilar Mozandaronga bostirib kiradi va Temuriylar qo‘shiniga zarba beradilar. Buning natijasida, Temuriylar tomonidan bunday strategik chegaralarni qo‘riqlash uchun navbatchilik tizimi kuchaytiriladi.

1447-yilda Shohruh Mirzo o‘limidan va Mirzo Ulug‘bekning Xurosondaligidan xabar topgan Abulhayrxon Samarqand, Buxoro atroflariga harbiy yurishlar uyushtiradi. Mirzo Ulug‘bekning (1409-1449) Xurosonni tark etishi, Xurosoning qo‘ldan ketishi bularning barchasi ana shu hujumning oqibati bo‘ldi. 1449-yil Mirzo Ulug‘bek o‘limidan so‘ng, Abulhayrxonning Movaraunnahrning ichki ishlariga aralashuvi yanada kuchaydi.

Abulhayrxon bilan Temuriylar o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida so‘z yuritilganda, Temuriy Abu Sa‘idning Abulhayrxon yordamida Samarqand taxtini egallashini misol keltirish mumkin. Fayzulloh ibn Ro‘zbehoniyning “Mehmonnomai Buxoro” asariga ko‘ra, bu yordami uchun Abu Sa‘id “qimmatbaho tosh va sarpolar” bilan taqdirlangan. Abulhayrxon buyrug‘i bilan, Ulug‘bek Mirzoning qizi Robiya Sulton beginm Abulhayrxonga uzatilgan. Bu nikohdan keyinchalik Suyunchxo‘ja va Ko‘chkunjixonlar tug‘ilgan.

1460-yilda ko‘chmanchi o‘zbeklar va qalmoqlardan iborat elchilar Hirotda Abu Sa’id tomonidan qabul qilingan. Bu davrda Abu Sa’idning ko‘chmanchi o‘zbeklar bilan munosabatni yaxshilashga e’tibor qaratishdan maqsadi, uning raqiblari Temuriy Muhammad Jo‘qiy va Husayn Boyqarolarning O‘zbek ulusida bo‘lib, Abu Sa’idga qarshi harakat qilishlari bo‘lgan. Zero, Abulhayrxon o‘limidan oldin undan harbiy yordam so‘rab Sulton Husayn Boyqaro murojaat qilgan edi. Lekin Abulhayrxonni kasal bo‘lib vafot etishi munosabati bilan bu yordam yakuniga etkazilmadi.

2. Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligining o‘rnatalishi

Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) Abulhayrxon o‘g‘li va vorisi Shohbudoq sultonning eng iqtidorli farzandi bo‘lgan. Shohbudoqning ikkinchi o‘g‘li Mahmud sulton edi. Shayboniyxon yoshligini Samarcand, Buxoro kabi ilm-fan va madaniyat markazlarida o‘tkazib, bu shaharlardagi maktab va madrasalarda juda yaxshi ta’lim oladi. Shayboniyxon turk va fors tillarini mukammal bilgan, tarixiy asarlar yaratilishida ishtirok etgan, she’r va g‘azallar yozgan hamda ahli ilm, ulamolar orasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan shaxs edi. Shayboniyxon tarbiyasiga bu qadar katta e’tibor berilishidan maqsad, kelajakda uni taxt vorisi bo‘lishiga ma’lum darajada tayyorlangan.

Shohbudoq sulton vafotidan keyin Dashti Qipchoqda vaziyat keskin o‘zgargan. O‘zbeklar ulusidagi siyosiy tarqoqlik, Abulhayrxon xonadoni vakillarining tazyiq ostiga olinishi Shayboniyxon uchun ham bu mamlakatga yo‘lni bekitdi. Natijada, Shayboniyxon bir necha yil quvg‘in va darbadarlikda yashashga majbur bo‘ldi. Bu vaqtida u goh temuriylarga, goh Mo‘g‘uliston xonlariga xizmat qildi. Shayboniyxon bir muncha vaqt Buxoro hokimi Darvesh Muhammad Tarxon huzurida xizmat qilgan.

Shayboniyxon ularga xizmat qilish chog‘larida ustalik bilan o‘z kuchi va imkoniyatini ham tobora oshirib bordi hamda 1490-yillarning boshlarida Dashti Qipchoq qabilalarini birlashtirib xonlik taxtiga o‘tirdi. Dastlab Dashti Qipchoqdagi xududlarni o‘z davlatiga qo‘sib olish bilan band bo‘lgan bo‘lsa, 90-yillarning oxirlaridan u Movarounnahr xududlarini egallahsga kirishdi.

Shayboniyxonning Temuriylarga qarshi kurashayotgan dastlabki yillari hal qiluvchi yordamni Toshkent taxtini egallagan mo‘g‘ul xoni Mahmudxonga berdi. Mahmudxon Shayboniyxonni Temuriylarga qarshi kurashda o‘ziga ittifoqchi qilish niyatida unga ixtiyoriy ravishda O‘tror shahrini in’om qildi. Lekin Shayboniyxon Mahmudxon umidlarini chippakka chiqardi. 1498-yilda Mahmudxon qo‘sinchilari Samarqandni bo‘ysundirish uchun o‘z harakatini boshlaganda, uning xududlariga Shayboniyxon qo‘sinchilari tahdid sola boshlaydi. Natijada, Mahmudxon Toshkentga chekinadi.

1500-yilga kelib vaziyat yana o‘zgaradi. Shayboniyxon qo‘sinchilari Samarqand va Buxoroni Mahmudxon yordami bilan egallaganligi haqida Bobur, Binoiy va Muhammad Solih asarlarida ma'lumotlar bor. Mahmudxon Shayboniyxonidan Temuriylarga qarashli boshqa xududlarni egallahsh uchun yordam umidida bu ishni qilgan edi. Lekin Shayboniyxon bu xududlarga o‘zi da’vogarlik qila boshlagach, Mahmudxon yana Temuriylarga yordam bera boshlaydi. Shayboniyxon esa uzoqni ko‘zlagan holda, ya’ni o‘z hokimiyatini kuchaytirish maqsadida Movarounnahrning siyosiy va iqtisodiy jihatdan kuchli ta’sirga ega bo‘lgan amirlar bilan do‘stona munosabat yuritishga intiladi.



Muhammad Shayboniyxon

Umuman olganda, Shayboniyxonning Movarounnahrni qo‘lga kiritishda qo‘l kelgan omillardan yana biri, bu Temuriylar o‘rtasida kechgan kurashlarda harbiy qo‘shinni kengaytirish harakatlari bo‘lgan. Bunda ba’zan yollanma askarlar safiga qo‘shni ko‘chmanchi qabilalardan olingan. Shunday jalg qilingan dashtiqipchoqlik bo‘linmalarga o‘zbek sultonlari qatorida Muhammad Shayboniyxon ham boshchilik qildi. Movarounnahr yuqori tabaqadoiralari bilan tanishish, Samarqand hukmdori Ahmad Sultonga xizmat qilish davomida tajriba orttirgan Shayboniyxon, keyinchalik Movarounnahrni Temuriylardan tortib olishda shu omillarga tayanib muvaffaqiyatlarga erishdi. Bora-bora Shayboniyxon qo‘shini tajribali otliqlardan iborat bo‘lib, ular kutilmagan zarba berish usullariga ega edi. Xondamir va Xasanbek Rumlular Shayboniyxon qo‘shinini “yashindek tez, shiddatli” deb ta’riflagan edi. Hattoki, Bobur Mirzoning o‘zi ham uning harbiy sarkardalik mahoratiga tan bergen holda, jang vaqtida qo‘llagan “to‘lg‘ama”, ya’ni o‘rab olish, “sochilib qochish” kabi usullarni e’tirof etgan.

1498-1500-yillarda Samarqandda Temuriylardan Sulton Ali Mirzo hukmronlik qilgan bo‘lib, amalda esa Samarqand Muhammad Mozitarxon va Xo‘ja Ahror Valiyni o‘g‘li Xo‘ja Yahyo kabi kuchlar tomonidan boshqarilgan. Biroq ular o‘z faoliyati bilan Samarqand aholisining noroziligini uyg‘otgan edi. Bunday imkoniyatdan foydalangan Shayboniyxon 1498-yilda Samarqandga yurish qiladi, ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi. Chunki, shahar mudofaasi aholi qatlamlarining birgalikdagi kuchi bilan qattiq himoya qilinadi, natijada Shayboniyxon shimolga chekinadi. Boshqa tomondan, ayni

paytda Muhammadiyor Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod” asari va “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Muhammad Mozitarxon va Xo‘ja Yahyolar Temuriylardan Zaxiriddin Muhammad Boburga Samarqandni topshirish tarafdori bo‘lishgan. Sulton Ali Mirzo va uning tarafdorlari esa, Shayboniyxonni qo‘llab-quvvatlagan edi. Shu jihatdan ular orasida qarama-qarshilik paydo bo‘ladi.

Keyinroq, 1500-yilda Sulton Ali Mirzo shaharni Shayboniyxonga jangsiz topshiradi va uni o‘zining hukmdori deb tan oladi. Bunda Sulton Ali Mirzoning maqsadi, Shayboniyxon homiyligida o‘z hokimiyatini saqlab qolishdan iborat bo‘lgan. Biroq Shayboniyxonning niyatlari tamomila boshqa edi. Tez orada, u Xo‘ja Yahyo va Temuriylarning boshqa tarafdorlarini fitna tayyorlashda ayblab qatl ettiradi. Shaharda qoldirilgan qo‘shin talonchilikni avj oldiradi. Talon-tarajiliklar samarqandliklar orasida norozilikni kuchaytiradi. Samarqandni eng obro‘li ulamolaridan biri Xo‘ja Abdulkarim Bobur Mirzoga maktub yozib uni Samarqandga chorlaydi.

1494-yilda Farg‘onada Temuriy Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng taxtni egallagan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Sohibqiron bobosi davlatini birlashtirishni o‘z oldiga maqsad qiladi. Uning 1495-1496-yillarda Samarqandga ikki marta amalga oshirgan yurishi muvaffaqiyatsiz yakun topadi. 1497-yilda esa Samarqandni egallaydi va yuz kun hukmronlik qiladi.

1500-yilda 19 yashar Bobur Mirzo shahar ahlining chorlovi bilan Samarqandga kelgach, shahar darvozalari qo‘zg‘olonchilar tomonidan ochib beriladi. Shundan keyin to‘satdan berilgan zARBAGA bardosh bera olmagan Shayboniyxon qo‘shini tor-mor etiladi va Samarqandda Bobur hukmronligi o‘rnataladi. Tez orada, Shayboniyxon Movarounnahrni tark etib Turkiston atroflarida qo‘shin to‘plab yana Samarqandni qo‘lga kiritishga tayyorlanadi. Samarqandda bu vaqtida vaziyat juda og‘ir edi. Chunki tinimsiz

jangu jadallar xalq xo‘jaligini izdan chiqargan edi. Xazinada mablag‘ umuman yo‘q edi, shaharda oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelib ocharchilik ostonasida turgan. Bunday sharoitda katta qo‘shin tuzishning iloji yo‘q edi. Vujudga kelgan vaziyatdan foydalangan Shayboniyxon 1501-yil bahorida Movarounnahrga yangi yurish uyushtiradi. Bobur Toshkent xoni Mahmudxon bilan bog‘lanib yordam so‘raydi. Lekin yordam kelishini kutib o‘tirmay, Zarafshon qirg‘og‘idagi Saripul qishlog‘i yonida Shayboniyxon qo‘shinlarini qarshi oladi. Boburning shoshma-shosharlik bilan qilgan harakati uning mag‘lubiyatiga olib keladi va qo‘shinning qolgan qutgani bilan Samarqandga chekinishga majbur bo‘ladi.

Shayboniyxon Samarqandni qamal qiladi, qamal chog‘ida shahardagi oziq-ovqat taqchilligi, suv tanqisligi va ochlik ko‘lankasi shahar himoyachilariga tobora ko‘proq xavf sola boshlaydi. Bunday vaziyatda Bobur Mirzo raiyatning ayrim qismini shahardan chiqarib yuborishga majbur bo‘ladi. Lekin vaziyat barqarorlashmagach, uning o‘zi ham 1501-yilning ikkinchi yarmida shaharni tark etishga majbur bo‘ladi va tog‘asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga yordam so‘rab boradi.

Keyingi siyosiy vaziyat Shayboniyxon foydasiga o‘zgaradi va u bir necha yo‘nalishlarda janglar olib borib, turli yillarda Movarounnahr va Xurosonning bir qator viloyatlarini bosib oladi. 1501-1502-yillarda Jizzax, O‘ratepani egallab, 1503 yil boshida Shayboniyxon Toshkent tomon yurish qiladi va birlashgan Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxon ibn Yunusxonlar va Bobur Mirzo qo‘shinlarini engib Toshkent va Shohruxiya shaharlarini bosib oladi. 1504-yil baxorida Farg‘ona vodiysi zabit etiladi. O‘sha yilning o‘zidayoq hozirgi Afg‘onistonning shimolida joylashgan Qunduzni egallab, Husayn Boyqaro mulkclarini zabit etishga tayyorlana boshlaydi. Uning Xuroson va Xorazmni egallahidan maqsadi, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy, ham janubiy tarmoqlari ustidan

nazorat o‘rnatishdan iborat edi. Bundan tashqari, Shayboniyxon Temuriylar davlati mavjud ekan o‘zini xavfsiz his eta olmas edi.

Husayn Boyqaro Hisor, Xuttalon, Ko‘lob, Badaxshon va boshqa mulk egalari bo‘lgan Temuriylar bilan ittifoq tuzadi. Ularga Bobur Mirzo ham qo‘shiladi. Bobur Mirzo bu davrga kelib Qobulni egallagan edi. Lekin bu ittifoq uzoq yashamaydi, chunki ular o‘rtasida kuchli qarama-qarshiliklar mavjud edi.

Shayboniyxon ukasi Mahmud Sulton bilan Xorazmga yurish boshlaydi va o‘n oylik qamaldan so‘ng 1505-yilda Urganch egallanadi⁵. Bu vaqtda o‘zaro kurash bilan band bo‘lgan Xusayn Boyqaro va Badiuzzamon yarashib qo‘s Shinlarini birlashtiradilar. Lekin birgalikda harakat qilishga ulgura olmaydilar. 1506 yil may oyida Husayn Boyqaro bevaqt olamdan o‘tadi. Uning qarorgohidagi amirlar hokimiyatni ikki o‘g‘il Badiuzzamon va Muzaffar Xusaynga bo‘lib beradi. Ikki hokimiyatchilik vaziyatni yanada og‘irlashtiradi. Faqat 1506-yilning kuziga kelibgina Temuriylar qo‘sini Balxni qamal qilgan Shayboniyxon qo‘sini qarshi otlanadi. Yo‘lda ularga Bobur kelib qo‘shiladi. Lekin Balx egallanganligi haqida xabar olingach yurish to‘xtatiladi. Bu juda katta xato edi, chunki Shayboniyxonning qamal qilib holdan toygan qo‘sini engish imkoniyati boy berilgan edi.

1507-yilning may oyida Shayboniyxon qo‘sini Hirota yurish qiladi va Temuriylar qo‘sini tor-mor etadi. Keyinroq Gurgan va Astrobod egallangach, XVI-asr birinchi o‘n yilligiga kelib Shayboniylar davlati tarkibida Janubiy Turkmaniston va Xorazm ham kirdi.

Shunday qilib, Shayboniylar davlati shimolda yirik qozoqlar ittifoqi bilan chegaradosh bo‘lsa, janubda Eronning Safaviylar davlati (1501-1736) bilan yaqinlashgan edi. Bu vaqtda Safaviylar davlati asoschisi Shoh Ismoil I (1487-1524) butun G‘arbiy Eronni

⁵The Shaybanids. Mukminova R.G. // History of Central Asia. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. Volume V. - UNESCO Publishing, 2003. – P.35.

o‘z hokimiyat ostiga birlashtirgan bo‘lib, Shayboniyxonning janub va g‘arbgan tomon harakatlarini to‘xtatishga jazm qiladi. 1510-yilning qishida Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi qo‘shinning bir qismi Xuroson tomon yo‘l olgan bo‘lsa, qo‘shinning bir qismi Samarqandga qaytib ketadi. Bu orada ikki davlat hukmdorlari o‘zaro maktub almashib, bir-birlarini jangga chorlayotgan edi. Nihoyat, Movarounnahrdan asosiy kuchlarni etib kelishini kutib o‘tirmagan Shayboniyxon Shoh Ismoil bilan jangga kirishadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Shayboniyxonidan norozi ayrim separatistik kuchlar mazkur jangga kirishishni istamaganlar va shu bois, kuchlar nisbati jang taqdirini hal etgan. Hal qiluvchi jang 1510-yil dekabrda Marv yaqinida bo‘ldi. Bu jangda Shayboniyxon qo‘shini mag‘lubiyatga uchrab, xonning o‘zi halok bo‘ladi. Shoh Ismoil buyrug‘i bilan, uning boshidan judo etilgan tanasi keyinchalik Samarqandda dafn etildi.

Shunday qilib, tarix sahnasida Shayboniylar davlati tashkil topgach, davlatning nomi Chingizzon naslidan bo‘lgan Shaybon nomi bilan yuritilgan. Bu davlat to 1601-yilgacha qariyb yuz yil yashadi. XVI-asrning birinchi o‘n yilligi oxirida davlat tarkibiga – Sirdaryo oldi shaharlaridan Turkiston, Arquq, Sayram, Savran, butun Xorazm, Chorjuy, Janubiy Turkmaniston asosiy markaz Marv bilan, Xurosonning Mashhad, Astrobod va Damg‘on viloyatlari bilan birga Balx, Hirot kabilalar kirgan.

3. Buxoro xonligining tashkil topishi va Shayboniylarning davlatni markazlashtirish yo‘lidagi siyosati

Shayboniyxon o‘limidan so‘ng o‘sha davr taomiliga ko‘ra, taxtga oldin Shayboniyxonning amakisi Suyunchxo‘jaxon ibn Abulhayrxon, keyin 1510-yilning o‘zidayoq boshqa amakisi Ko‘chkunchixon ibn Abulhayrxon (1510-1530) o‘tiradi. Biroq Shayboniyxon o‘limidan so‘ng, davlatda tahlikali vaziyat boshlanib,

Shayboniylar hatto Xurosonni qaytarib olishga qaratilgan harakatni boshlashga ham qodir bo‘lmay qoladilar. Vujudga kelgan vaziyatdan Bobur Mirzo foydalanishga harakat qiladi. Ismoilshoh yordamida u 1511-yilda Samarqandni egallaydi, Shayboniylar esa Movarounnahr xududini tark etadilar. Lekin Boburning shialar mazhabi talablari asosida rasmiy marosim o‘tkazgani mahalliy aholining norozi bo‘lishiga olib keladi, natijada uning obro‘yi keskin tushib aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmay qo‘yadi. 1512-yil Shayboniyxonning jiyani Ubaydulla Sulton ibn Sulton Mahmud Movarounnahrga bostirib keladi. 5000 kishilik qo‘shin bilan ularga qarshi chiqqan Bobur Mirzo engiladi va Hisor tomonga chekinadi. Ubaydulla Sulton yana Samarqandni egallaydi. Shoh Ismoil Boburga yordam uchun o‘sha davrning tajribali lashkarboshilaridan biri Amir Ahmadni (Najmi Soniy) 12 ming kishilik qo‘shin bilan yuboradi. 1512-yil noyabrda G‘ijduvon yaqinidagi hal qiluvchi jangda eronliklar engiladi. Bobur Mirzo va Shoh Ismoil ittifoqi shu tariqa barbod bo‘ladi. Bobur Mirzo yana Qobulga ketishga majbur bo‘ladi. 1525-yilda u Hindistonni egallab, Boburiylar imperiyasiga asos soladi.

Ko‘chkunchixon olamdan o‘tgach qisqa muddat uning o‘g‘li Abusaidxon hukmdor bo‘ladi (1531-1533/34). 1534-yildan taxtga rasman Ubaydullaxon (1533-1540) o‘tiradi. 1512-1533-yillarda u Buxoro hokimi edi. Bu davrda Samarqand poytaxt bo‘lsa-da, Buxoroning nufuzi yil sayin ortib boradi. Ubaydullaxon Shayboniylar orasidan eng iqtidorli xonlardan biri bo‘lgan. 1533-yilda poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chiriladi. Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, Xuroson va Xorazm ustidan qisqa muddat bo‘lsa-da, Shayboniylar hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ladi. Lekin 1540-yilda uning vafotidan keyin mamlakatda boshlangan siyosiy nizo, oilaviy taxt talashuvlar kuchayadi. Bu kurashda shayboniyzodalarning har biri taxtga

da'vogarlik qilish imkoniyatiga ega ekanliklari taxtning otadan farzandga o'tish tartibini yuzaga keltiradi.

Abdullaxon I ibn Ko'chkunchixon (1540-1541)ning qisqa muddat hukmronligidan so'ng, mamlakatda ma'lum qo'shhokimiyatchilik yuzaga keladi. Xususan, Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizzon (1541-1550) va Samarqandda Abdulatifxon ibn Ko'chkunchixon (1541-1551) o'z hukmronligini o'rnatadi. XVI-asrning 50-yillaridan siyosiy kurashning yanada kuchayishi natijasida, Samarqandda Ko'chkunchixon avlodlari (1541-1578), Buxoroda Ubaydullaxon avlodlari (1541-1557), Toshkentda Suyunchixo'ja Sulton avlodlari (1540-1583), Karmana va Miyonqolda Jonibek Sulton (Abulhayrxon nevarasi) avlodlari (1512-1598) mustaqil ravishda hukmronlik qila boshladilar.

Bundan tashqari, Balx va Badaxshonda Shayboniylardan Pirmuhammadxon, Toshkent va Turkistonda Navro'z Ahmadxon, Karmana va Miyonqolda Iskandarxonlar mustaqil bo'lib olgan edilar. Abdulatif o'limidan keyin Samarcand taxti Toshkent hukmdori Navro'z Ahmadxon (Baroqxon, 1551-1556) tomonidan egallanib, amalda o'z hokimiyatini tan oldirish uchun boshqa shaharlarga bir necha marta yurishlar qildi. Movarounnahrni idora qilgan Navro'z Ahmadxon o'z nomidan tangalar zarb ettirdi va uning nomi xutbaga qo'shib o'qildi.

Buxoroda esa, dastlab Shayboniyxon nevarasi Muhammadyor Sulton (1550-51), keyin Balx hukmdori Pirmuhammadxon I (1557-1561) bir yilga qolmay hukmronlik qildi. Keyin yana Muhammadyor Sulton va Burxon Sultonlar* boshqardi. Bu orada Baroqxon Burxon Sultonlar ittifoqchiligidida Miyonqol hukmdorlari Iskandarxon va Abdullaxonga qarshi kurashlar olib bordi. 1550-1557-yillar voqealari tahlil etilgan "Abdullanoma" asari va xorijlik elchi Antoni Jenkinson ma'lumotlarida, "bu yerda hukmdorlar ikki

* Бурхон Султон – Убайдуллахоннинг невараси (Муҳаммад Раҳим ўғли).

yoki uch yildan ko‘proq podsholik qilishga umid qilmaydilar, chunki uni yo o‘ldiradi, yo quvib yuboradilar, bularning barchasi mamlakat va savdogarlarni xonavayron qildi” deb bejizga qayd etilmagan edi.

Bu davrda davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo‘ybor xojalarining mavqeい baland hisoblanib, Xoja Muhammad Islom va uning o‘g‘li Xoja Sa‘dlar Iskandar Sultonning o‘g‘li Abdulla Sulton, ya’ni Abdullaxon II ni qo‘llab-quvvatlaydilar. 1557-1561-yillarda sulola an’anasiga ko‘ra, Balxda qolgan Pirmuhammadxon nomiga xutba o‘qitilib, tangalar zARB etilgan bo‘lsa-da, 1557-yildan Buxoroda amalda Abdullaxon II hukmronlik qila boshlaydi. Abdullaxon II (1557–1598) hukmronlik qilgan davrda Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatga asos soldi. XVI asr oxirida manbalarga ko‘ra, Rossiyada Xorazmdan tashqari butun O‘rta Osiyo “Buyuk Buxoro” (“Buxariya”, “Velikaya Buxariya”) deb atalgan.

1561-yilda Abdullaxon II Pirmuhammadxon bilan aloqalarni uzib otasi Iskadar Sultonni (1561-1583) xon deb e’lon qiladi. Iskandarxon nomigagina hukmdor bo‘lib, amalda davlat boshqaruv

ishlariga deyarli aralashmagan. Abdullaxon II markazlashgan davlatni barpo etish yo‘lida Movarounnahr, keyin Xorazm va Xuroson, undan keyin Sayram, Turkiston, Farg‘ona, hozirgi Qirg‘iziston xududlarini egalladi hamda ko‘lami Temuriy Shohrux Mirzo davlatidan qolishmay-digan davlat tuzishga erishdi.

Abdullaxon II.



Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi uning 1583-yilda (otasi o‘limidan so‘ng) taxtga rasmiy ravishda o‘tirib o‘zini xon, deb e’lon qilishi bilan kuchaydi.

Hokimiyatni markazlashtirish yo‘lida u bir qancha xududlarni buysundirishga erishdi. Bunda u barcha turkiy qabilalar, Jo‘ybor xojalari va diniy vakillar yordamiga tayandi. Shuningdek, Abdullaxon g‘alabasiga boshqa Shayboniy sultonlar o‘rtasida kuchayib ketgan ziddiyatlar ham yordam beradi. 1557-yil Buxoro, 1567-yil Kesh viloyati, 1569-yil Samarqand (1578-yilda uzil-kesil), 1573-yil Balx, 1574-yil Hisor, 1582-yil Toshkent, Sayram, Turkiston, Farg‘ona⁶ va 1584-yilda Badaxshon egallangan. 1595-yil uchinchi martadan so‘ng Xorazm bosib olindi. Abdullaxonning uzoq yillar olib borgan uzlusiz urushlari Shayboniyxon vafotidan so‘ng mayda qismlarga bo‘linib ketgan Movarounnahrni qayta birlashtirish, Shayboniyxon davlatini qayta tiklash hamda markaziy davlatni kuchaytirishga qaratildi.

Markazlashgan davlat tuzish jarayonida Abdullaxon II Shayboniy sultonlar va amir, beklarning boshboshdoqligi bilan kurashdi va hatto o‘z qarindosh-urug‘larini ham ayamadi. Mamlakat xududlarini kengaytirishga qaratilgan asosiy harakatlar shundan keyingina kuchayib ketdi. Shayboniy sultonlari noroziligi esa, ayirmachilik harakatlarning avj olishiga olib keldi. Buning natijasi o‘laroq, Abdullaxon hukmronligining oxirgi yillarida Shayboniylar davlatining ahvoli tobora og‘irlashdi. Bu hol tashqi siyosiy muvaffaqiyatsizliklarda ham namoyon bo‘ldi. Masalan, shimol tomonda Abdullaxonning ittifoqchisi Qozoq xoni Tavakkal (1586-1598)ning Toshkent va uning atrof xududlarini bosib olishi, janubda Eron shohi Abbos I (1587-1628) Xurosandan Abdullaxon qo‘shinlarini siqib chiqara boshladi. Shuningdek, janubga tomon qilingan harakatlar Boburiy Akbarshoh tomonidan to‘xtatiladi.

⁶ Хоғиз Таниш Ал-Бухорий. Абдулланома (Шарафномайи шохий. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.8.

Shunday qilib, Abdullaxon qariyb 40 yil hukm surdi, lekin ichki siyosiy nizo va urushlarni tamoman bartaraf qila olmadi. Tinimsiz harbiy urushlar raiyat qatlamlari ahvolini og‘irlashtirgan edi. Bularning barchasi Shayboniyalar davlatining Abdullaxon II dan keyingi tanazzulini belgilab berdi. Uning vafotidan so‘ng, o‘g‘li Abdulmo‘minxonning hukmronligi olti oydan oshmadi va 1598 yilda bir guruh fitnachilar tomonidan qatl etildi. Shayboniyalar davlatining so‘nggi inqirozi Pirmuhammadxon II (1598-1601) ning so‘nggi hukmronligi davri bilan uzil-kesil barham topdi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.XV asrning oxiri – XVI-asr boshlarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy inqiroz holatini qanday izohlaysiz?
- 2.Muhammad Shayboniyxonning mustaqil davlatni tashkil toptirish yo‘lidagi sayi-harakatlarini qanday baholaysiz?
- 3.Buxoro xonligning markazlashgan davlat sifatida yuksalib borishi sabablarini ko‘rsatib bering?
- 4.Abdullaxon II ning davlatni markazlashtirish yo‘lidagi ichki va tashqi siyosati to‘g‘risida misollar keltiring?

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 1.Abulg‘ozi. Shajarai turk. – Toshkent, 1990.
- 2.Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnykh (Geografiya). Vved. per. prim. ukzateli B.A. Axmedova. –Tashkent: Fan, 1977.
- 3.Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, 1989.
- 4.Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1- va 2- jildlar. – Toshkent 1966/1969.
- 5.Ziyaev X. XVIII asrda O‘rta Osiyo va Ural bo‘ylari. – Toshkent, 1973.
- 6.Axmedov B. O‘zbek ulusi. – Toshkent: Nur, 1992.

- 7.Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
- 8.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
- 9.Sagdullaev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000;
- 10.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000;
- 11.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 12.Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi: Ikkinchi kitob. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2019.

MAVZU: BUXORO XONLIGI ASHTARXONIYLAR DAVRIDA

Reja:

- 1.Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar hukmronligining o‘rnatilishi.
- 2.Ashtarxoniyalar davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosati.
- 3.Bahodir Yalangto‘shbiy – davlat arbobi va harbiy qo‘mondon.

Kalit so‘zlar: Ashtarxoniyalar, Joniylar, legitimatsiya, Buxoro xonligi, markazlashtirish, siyosiy boshboshdoqlik, amirlar, beklar, inqiroz.

1. Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar hukmronligining o‘rnatilishi

Shayboniy xonlaridan Abdulmo‘minxon o‘limidan keyin Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar kuchayadi. Bu davrning ayanchli ahvolini Muhammad Yusuf Munshi quyidagicha: “... butun xonlik xududida tartibsizliklar va yakka hukmronlik avj oldi, hech kim bir-biriga buysunishni xohlamas edi”,

deb ta’riflagan edi. Mamlakatdagi ichki vaziyatdan foydalangan Eron shohi Abbos I Shayboniylar ixtiyoriga o’tgan Xuroson yerlarini qaytarib olish maqsadida, Mashhad, Sabzovor va Hirot shaharlarini egalladi va hatto, Balx mulki ham amalda uning qo‘l ostiga o’tdi. Qozoq sultoni Tavakkal esa, Movarounnahrning Axsi, Andijon, Toshkent va Samarqandning Miyonqolgacha bo‘lgan yerlarini bosib oldi va Buxoroga yurish qildi. Bir necha kunlik qamaldan so‘ng, u Pirmuhammadxon qo‘smini tomonidan mag‘lubiyatga uchradi va olingan jarohat tufayli keyin olamdan o’tdi.

Movarounnahr hokimiyatiga Ashtarkoniylar sulolasining kelishi to‘g‘risida gapirilganda, avvalo bu sulolaning kelib chiqishiga to‘xtalib o‘tish lozim. Ashtarkoniylar Jo‘chining o‘n uchinchi o‘g‘li To‘qay Temurga borib taqalib, Jo‘chining katta o‘g‘li Botuxon To‘qay Temurga 14 ulusni (Mang‘ishloq, Xoji Tarxon (Astraxan) va Shimoliy Kavkazdagi yerlar) mulk qilib bergen edi. 1556-yilda Astraxan va uning atrofidagi yerlar Rus podshosi tomonidan ishg‘ol etilgach, To‘qay Temur nasliga mansub bo‘lgan Yormuhammad o‘z oila a’zolari bilan Buxoro xoni Iskandarxon hukmronlik qilgan yillarda (1561-1583) Buxoroga keladi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Iskandarxon Yormuhammad va uning yaqinlarini izzatikrom bilan kutib olib, qizi Zuhro xonimni uning o‘g‘li Jonibek Sultonga turmushga beradi. Bu nikohdan uch o‘g‘il Dinmuhammad, Boqimuhammadxon va Valimuhammad tug‘ilgan. Keyinchalik, Dinmuhammad Abdullaxon II zamonida Nishopur hokimi bo‘lgan. Abdulmo‘min vafotidan so‘ng (1598), Xurosonda ham siyosiy vaziyat yomonlashgach, Dinmuhammad bir yil davomida Sabzavordan Marvgacha va Marvdan Seyistongacha bo‘lgan yerkarni o‘ziga buysundirdi. 1599-yilning iyun oyida Shoh Abbos I Dinmuhammadga qarshi qo‘sini tortadi, natijada Hirot yaqinidagi Puli solor mavzeida bo‘lgan urushda ko‘pgina askarlar kabi Dinmuhammad ham vafot etadi. Ushbu vaziyatdan so‘ng,

Dinmuhammad ukalari Boqimuhammadxon va Valimuhammadlar Movarounnahrga qochadilar.

Buxoro xoni Pirmuhammadxon II ning Qozoq xoni Tavakkalga qarshi yurishlarida va ayniqsa, Buxoro yaqinidagi hal qiluvchi jangda Boqimuhammadxon va uning ukasi Valimuhammad qo'shin boshida turib, g'alabani ta'minlashda asosiy vazifani bajardi. Shundan keyin, ko'rsatilgan xizmatlari uchun Boqimuhammadxon Samarqand viloyati hokimi etib tayinlandi. Lekin Boqimuhammadxon noiblik mansabi bilan qanoat qilmadi va o'z atrofida hamfikr amirlarni to'plab bordi. 1601-yilda Pirmuhammadxon bilan Boqimuhammad o'rtasida adovat boshlanadi, bu kelishmovchilik Samarqand yaqinidagi Bog'ishamol mavzeida bo'lgan jangda yakun topadi. Bu jangda Buxoro qo'shnlari son jihatdan ko'p bo'lsa-da, biroq Boqimuhammad qo'li baland keldi. Shundan so'ng, Boqimuhammad Buxoro xonligi taxtiga asosiy da'vogar sifatida o'tirdi (1601-1605).

Shunday qilib, 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola Joniylar (Joni Muhammad nomidan) yoki Ashtarkoniylar (kelib chiqish o'rni bo'yicha) qo'liga o'tadi. Ba'zi asarlarda, Buxoro taxtiga Boqimuhammadxon dastlab o'z otasi Jonimuhammadni o'tqazgan va uning nomidan tangalar ham zarb etgan deyiladi. Lekin Joni Muhammad Buxoro taxtidan voz kechgan, buning asosiy sababi, u qonuniy asosi va hokimiyatning mustahkamligi uchun ona tomondan Shayboniylar avlodи bo'lgan o'g'illari o'tirishini ma'qul ko'rgan. Ashtarkoniylar Shayboniylarning madaniy va harbiy-siyosiy sohalardagi an'analarini davom ettirdi. Ashtarkoniy xonlari o'zlaridan oldingi sulolalar singari muqaddas oilalar bilan qon-qarindoshlik aloqalarini bog'laganlar va o'zlariga sayyid unvonini olganlar (xususan, Dinmuhammad). Shu yo'l orqali, ular musulmon jamiyatida muhim mavqeiga ega bo'lganlar.

Taxtga o'tirgan Boqimuhammadxon oldidagi dastlabki muhim vazifalardan biri, mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlash turardi.

Shu boisdan, hukmronlikning ilk kunlaridan davlat apparatini islohot qilish, qo'shinni mustahkamlash ishlari boshlab yuboriladi. Uning davriga kelib, Marv, Balx kabilardagi siyosiy kuchlar boshboshdoqlik yo'lini tuta boshlaydilar. Shu bois, Xurosonda ham Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadida harakat qiladi. Harbiy yurishlar natijasida Balx qo'lga kiritilib, ukasi Valimuhammadga valiahd mulki sifatida in'om etiladi. Umuman, Boqimuhammadxon Andxud, Shibirg'on, Maymana, Foryob, Murg'ob daryosigacha bo'lgan yerkarni hamda Bag'lon, Badaxshon, Hisorni ham Buxoro xonligiga buysundiradi. Mashaqqatli janglardan so'ng Qozoq xoni Keldimuhammadning shimol tomondan hujumini qaytarishga muvaffaq bo'ladi. Boqimuhammadxon qisqa muddat hukmronligi davomida Shayboniylar davrida nufuzga ega bo'lgan Jo'ybor xo'jalari bilan aloqani mustahkamladi.

Boqimuhammadxon mamlakatni birlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, islohotlari to'liq natijasini bermasdan turib og'ir kasalga chalinishi sababli 1605-yilda vafot etadi. Uning o'rniga taxtga ukasi Valimuhammadxon (1605-1611) o'tiradi. Valimuhammadxon hukmronlik davrida Balx va Hirot uchun kurashlar davom etadi. Janubiy sarhadlarni mustahkamlash va shimaldan Qozoq sultonlari xavfini bartaraf etish uchun Eron safaviylari bilan bitim tuzadi. Valimuhammadxonning Buxoro va Balx munosabatlarida balxlik amirlarga suyanishi Buxoro amirlari kayfiyatiga salbiy ta'sir qilgan. Yuqoridagi jarayonlardan so'ng, saroy ahli tomonidan hukmdorga qarshi fitna tayyorlanishi, mamlakatda nufuzi baland bo'lgan ba'zi amirlarning Valimuhammadxon bilan hisoblashmasdan o'zlaricha siyosat yuritishi kuchayadi. Natijada, bunday vaziyatda muxolif kuchlar Valimuhammadxonning jiyanlari Imomqulixon va Nodirmuhammaddan foydalanishadi. Fitnadan xabar topgan Valimuhammad 1608 yilda Eronga qochib boradi. 1611-yilda 80 ming atrofidagi Eron qo'shini bilan Movarounnahr xududiga

bostirib kirmoqchi bo‘ladi. Lekin katta kuchga tayangan Imomqulixon unga qarshi jangda g‘alaba qozonadi.

Ta’kidlash lozimki, bu davrga kelib nufuzi ortgan bek, amir va biylarning o‘zboshimchaligi haddan ortishi natijasida, tinimsiz davom etgan siyosiy nizo va kurashlar, boshboshdoqlik kuchaydi. Bu kuchlar o‘z mustaqilligini mustahkamlash maqsadida, o‘z ta’sir doirasiga dahl qila olmaydigan xonni taxtga o‘tqazish, markaziy hokimiyatni kuchayib ketmasligidan manfaatdor edi, bu o‘z navbatida hokimiyatni markazlashuviga to‘sinq bo‘lgan omillardan bo‘ldi.

Valimuhammadan so‘ng taxtga Imomqulixon ibn Dinmuhammad o‘tirdi (1611-1642) va Balx hokimligi ukasi Nodirmuhammadga berildi. Imomqulixon hukmronligi davrida Buxoro xonligi Ashtarkoniylar davlati qudratining yuqori cho‘qqisiga erishgan. Tarixiy manbalarda, bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy barqarorlik to‘g‘risida fikr yuritiladi. Imomqulixon dastlabki siyosiy faoliyatida davlat mudofaasini amalga oshirishga intildi. Bu davrda mamlakatga shimol tomondan Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga siyosiy xavf solgan qalmoq, jung‘or (oyrot) va qozoqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Bundan tashqari, bu davrga kelib o‘zboshimchaligi ortib ketgan mahalliy hukmdorlar amir va beklarning harakatini susaytirishga erishdi. Imomqulixonning hokimiyatni markazlashtirish siyosatida uning yaqin amirlaridan bo‘lgan Yalangto‘sh Bahodirning ham xizmati munosib hisoblanadi.

Shu bilan birga, Imomqulixon Eron shohlariga qarshi kurashishda Qozoq sultonlari bilan ittifoq ham tuzgan. Qozoqlarni o‘z tarafiga og‘dirish uchun masalan, Ishimsultonga Toshkent, Yassi va ular atrofidagi qo‘rg‘onlarni in’om etadi. Lekin qozoqlar in’om etilgan yerlar bilan cheklanmasdan, Toshkent va xonlikning shimoliy-sharqiy chegaralariga keng hujumlar uyushtiradi. 1613-yilda Imomqulixon Turkistonning chegaralaridan tortib, Ashpara va

Qoratovning chekkalarigacha qozoqlar, qoraqalpoqlar va qalmoqlarni ta’qib etib zarba berdi. Shu tariqa, Toshkentni o‘z tasarrufiga kiritib, o‘g‘li Iskandarni Sultonni shahar hokimi etib tayinladi. Iskandar Sulton ko‘chmanchilarning uzoq yillik talon-tarojlari natijasida, xarobaga aylangan inshootlarni qayta tiklash hamda shahar ijtimoiy hayotini yaxshilash maqsadida aholiga boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko‘paytirdi. Bunga qarshi Toshkentda qo‘zg‘olon ko‘tarilib buning oqibatida Iskandar Sulton o‘ldirildi. Bu xabarni eshitgan Imomqulixon g‘azab kelib o‘z qo‘smini bilan Toshkentni qamal qildi va qo‘zg‘olonchilarni qirg‘in qiladi.

1621-yilda Tursun Sulton boshchiligidagi qozoqlar hujumiga qarshi qo‘mondon Yalangto‘sh Bahodir boshchiligidida katta qo‘sini yuborilgan. 1623-yilda Tursun Sulton Movarounnahrga qarshi yurish qilib Shohruxiyani egallaydi. Samarqand va Miyonqol hududlari qozoqlar tomonidan talon-taroj qilinadi. Natijada, Buxoro xoni qozoqlar bilan sulkh bitimi tuzishga qaror qiladi. Tuzilgan sulhga ko‘ra, xonlik chegarasi Shohruxiyadan o‘tishi belgilanadi. Keyinchalik, ichki kurashlarda o‘ldirilgan Tursun Sulton o‘limidan keyin Buxoro xonligi chegarasi oldingi xududigacha kengaydi. 1628-yilda Yalangto‘sh qo‘sini Abulay Sultonni Toshkent ostonasida mag‘lub etdi. Imomquliqon buyrug‘i bilan, 1636-yilda Yalangto‘sh Bahodir boshchiligidagi Buxoro qo‘sini Sayram, Dashti Qipchoqqacha yurishlar qildi.

Imomqulixon davrida sug‘orish tizimiga katta e’tibor qaratildi. Chunonchi, 1614-1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho‘liga kanal chiqarildi. 1633-yilda Qo‘sishqo‘rg‘onda ham kanal qazildi. Bunday amalga oshirilgan ishlar natijasida, bir qator qishloq va qarovsiz yerlar obod bo‘ldi. Bu hukmdor mamlakatda ichki ahvolni yaxshilashga urindi. Uning davrida madaniy hayot bir muncha jonlandi. Imomqulixon saroyida bir muncha vaqt Hofiz Tanish Buxoriy, Abulg‘ozixonlar bo‘lgan. Uning davrida 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy va 1637-yilda Mag‘oki Ko‘rpa

masjidlari barpo etildi. 1621-yilda Samarqandda “Zafarnoma” asarining miniatyura rasmlar asosida yangi nusxasi yaratildi. Hukmronligining so‘nggi yillariga borib ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan Imomqulixon taxtdan voz kechishga qaror qildi va taxtni ukasi Nadr Muhammadga topshirib 1643-yilda Makkaga haj safariga jo‘nab ketdi. Keyinroq Makkadagi Ka’baga kiraverish darvozalaridan biriga oltin va kumush tutquchli yog‘och zina qurdiradi. Madinada esa ziyoratchilar uchun Chorbog‘ qurdiradi. 1644-yilda vafot etgan xon Madinaga dafn etiladi.

Nodirmuhammadxon Buxoro xonligi taxtiga o‘tirganiga qadar 1606-1642-yillarda Balx hokimi vazifasini bajargan bo‘lsa, 1642-1645-yillar davomida markaziy hokimiyatni boshqardi. Uning davrida siyosiy vaziyat keskin o‘zgaradi. U xonlik xududlarini o‘z o‘g‘illari va nabiralariga suyurg‘ol qilib taqsimlab, boshqarish huquqini berdi. Bu markaziy hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keldi. Uning amir va beklar bilan til topisha olmasligi natijasida, saroyda amaldorlari, qabila boshliqlarining tazyiqi ostiga olinishi norozilikni yana kuchaytiradi. Shimoldan ko‘chmanchi qabilalarning hujumga o‘tishi ahvolni yanada og‘irlashtirdi. 1645 yilda Toshkentga qalmoqlar hujumi xonga qarshi muxolif guruh uchun fitnaga imkoniyat yaratadi. Nodirmuhammadxon o‘g‘li Abdulazizzon boshchiligida katta qo‘sinni qalmoqlar ustiga yuboradi, norozi beklar esa uni 1645-yil aprelda O‘ratepada xon qilib ko‘tarishadi. Bu xabardan so‘ng, Nodirmuhammadxon Balxga yo‘l oladi va taxtni qaytarib olish maqsadida Hindistonda hukmronlik qilayotgan Shoh Jahon (1627-1657)dan yordam so‘raydi. Hindistondan yuborilgan qo‘sish yordam o‘rniga Balx va uning atroflarini egallab oladi va ikki yil davomida ularning nazoratida bo‘ladi. 1648-yilga kelib Abdulazizzon va Nodirmuhammadxon tomonidan amalga oshirilgan hujum natijasida hind qo‘sishini orqaga qaytib ketishga majbur qiladi. Shundan

so‘ng, akasi singari Makkaga haj safariga jo‘nashni istagan Nodirmuhammadxon Eronning Simnon viloyatiga kelib vafot etadi.

Abdulazizzon (1645-1681) hukmronligi davrida ichki ziddiyatlar o‘sishi, mahalliy zodagonlarining siyosiy mustaqilligining oshishi natijasida markaziy davlat apparati zaiflashadi. Markaziy hokimiyatning kuchsizlanganidan foydalangan xivaliklar va qozoqlarning Movarounnahrga hujumlari avj oldi. Shu bois, Abdulazizzon hukmronligining asosiy davri jangu-jadalda o‘tdi. Xususan, Xiva xonlari 1658-yilda Karmana va Vardonzeni talon-taroj qilib, 1662-yilda Buxoroga yetib keladilar. Shuningdek, Balx mojarolari tufayli inisi Subhonqulixon Balxni mustaqil boshqardi. Qisqa qilib aytganda, Abdulazizzon davrida Movarounnahr va Balx viloyatlari xorazmliklar hamda qozoqlar hujumlari tufayli inqiroz yoqasiga kelib qolgandi. Natijada, qarib qolgan xon taxtni ukasiga topshiradi.

1681-yilda taxtni egallagan Subhonqulixon (1681-1702) hukmronligi yillarida ham mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat o‘zgarmadi. Mahalliy hukmdorlarning siyosiy mavqeい yanada kuchaydi, ayniqsa Balx hokimiyati uchun kurashlar yanada avj oldi. Bu davrda Buxoro-Xiva ziddiyatlari saqlanib qoldi. Xivaliklar Abulg‘ozixon va uning o‘g‘li Anushaxon boshchiligidida Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga harbiy yurishlar uyushtirdilar. Xususan, 1684-yilda Xiva xoni Anushaxon Samarqand amirlari tomonidan o‘z hokimiyatini tan olinishiga va nomiga xutba o‘qitilishiga erishadi. Shunday bo‘lsa-da, biroz fursat o‘tgach Subhonqulixon qatag‘on qabilasi yetakchisi Mahmudbiy qo‘shini yordamida xivaliklarni mamlakatdan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. U hatto Xiva xoniga qarshi fitna uyushtirib, Anushani taxtdan ag‘darib o‘ldirishga erishadi. Uning o‘g‘li Arangxon ham buysundirilib, Subhonqulixon nomiga xutba o‘qitilishi buyuriladi. Natijada, Xiva xonligi qisqa muddatda bo‘lsa-da Buxoro xonligi tarkibiga kiritiladi.

Lekin Subhonqulixon mamlakatda markaziy hokimiyatni mustahkamlashga erisha olmadi. Ayniqsa, markaziy hokimiyatning Balxdagi mavqeい zaiflashib ketib, mahalliy siyosiy kuchlar, xususan yirik amirlar nufuzi oshib bordi. Shunday amirlardan qatag‘on biyi Mahmudbiy otaliq xivaliklarni Buxorodan haydashga yordam bergach, nufuzi yanada oshdi va 1688-1697-yillarda Balx hokimiyatini o‘z qo‘liga olishga erishadi. Tinimsiz olib borilgan janglar davlat xazinasining bo‘shashga ham olib keladi. Vaziyatdan chiqish uchun Subhonqulixon qo‘srimcha soliqlar joriy etib, bir necha yillik soliqlarni oldindan yig‘ib olishga buyruq beradi. Bu o‘z navbatida, xalq noroziliginini kuchaytirdi va vaziyatni yanada og‘irlashtirdi.

Buxoro xonligida murakkab vaziyatga qaramay, Subhonqulixon davrida Buxoro va Balxda katta qurilishlar, obodonchilik amalga oshirilgan. Masalan, uning farmoni bilan Buxoroda Dorush-shifo nomli shifoxona, Arkda Salomxona va Jome’ masjidi, Balxda madrasa va boshqa qurilishlari shular jumlasiga kiradi. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan kutubxonasi bo‘lgan.

Subhonqulixonning o‘g‘li Ubaydullaxon (1702-1711) mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlikni tugatishga hamda markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan so‘nggi ashtarxoniy hukmdor bo‘ldi. U Samarqand, Hisor, Termiz va Balxga harbiy yurishlar qilib ularni sultanatga bo‘ysindirdi. Uning davrida janglar vaqtida payhon qilingan hosil uchun dehqonlarga xaq to‘lanishi, uning raiyat aholisi o‘rtasida obro‘yini ko‘tarishga xizmat qildi. Boshqaruv apparatida o‘ziga sadoqatli guruhni yuzaga keltirish maqsadida, Ubaydullaxon dehqon va hunarmandlar farzandlarini davlatni boshqarish ishlariga jalg etdi. Bu borada tarixchi Mir Muhammad Amin Buxoriy “nasl-nasabsiz kishilar yuqori davlat lavozimlariga tayinlandi” deb yozgan edi.

Ubaydullaxonning hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan siyosatida dastlab ichki siyosiy muxolif guruhlarga qarshi kurash olib borildi. “Ubaydullanoma” asarida yozilishicha, Ubaydullaxon o‘zining dastlabki boshqaruvida hokimiyatni bo‘lishni talab qilgan ukasi Asadullaxonga qarshi kurashdi. Shuningdek, keyinchalik Balxda alohida hokimiyat o‘rnatgan jiyani Muhammad Muqimxon va uning otalig’i Mahmudbiy otaliqlar qarshiliginini engib, 1707-yilda Balxni buysundiradi. Shu tarzda bu xon o‘z mavqeini mustahkamlash va ayirmachi siyosiy kuchlarni bostirishga harakat qildi. Boshqa tomondan, Ubaydullaxon davlat boshqaruvi apparatida ko‘plab amaldorlarni mansabidan chetlashtirdi. Shuningdek, u mamlakatda katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Jo‘ybor shayxlarining soliq imtiyozlarini bekor qildi. Natijada, Ubaydullaxonning bu harakatlari unga norozi kuchlarning ko‘payishiga olib keladi.

Uning davrida Dashti Qipchoqdan qalmoqlarning Toshkentga bostirib kirishiga qarshi Buxoro qo‘smini faol harakat olib boradi va ularni chekinishga majbur etadi. Davlat xazinasini boyitish hamda mamlakat moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida, 1708-yilda pul islohotini o‘tkazadi. Islohotga ko‘ra, mavjud kumush tangalardan to‘rtta kumush tanga qayta zarb etiladi. Ya’ni, tarkibning 35 foizini kumush tashkil etuvchi har bir tangadan tarkibining 9 foizini kumush tashkil etuvchi 4 ta tanga yasaladi va uning qiymati avvalgi tanga bilan bir xil etib belgilanadi. Natijada, islohot ko‘zlangan maqsadni bermaydi, xonlik aholisining kuchli noroziligiga sabab bo‘ladi va qo‘zg’olonlar ko‘tariladi.

Shunday qilib, Ubaydullaxonning davlat birligini ta’minlash yo‘lida qilgan sayi-harakatlari oxir-oqibatda baribir samara bermadi. Fitnalar ko‘payib, viloyatlarning buysunmasligi odatiy holga aylanadi. Natijada, 1711-yilda Ubaydullaxon o‘zi ham fitna qurbanini bo‘ladi. Ubaydullaxon o‘limidan keyin, Buxoro xonligida Samarqand, Hisor, Toshkent, Balx, Badaxshon viloyatlari

hokimlarining harbiy-siyosiy qudrati yanada oshadi. Markaziy hokimiyatning kuchsizlanganidan foydalangan qo'shni davlatlar o'z siyosiy maqsadlarini ko'zlay boshlaydi.

Ayniqsa, taxtga o'tqazilgan Subhonqulixonning 16 yashar o'g'li Abulfayzxon (1711-1747) davrida ahvol yanada murakkablashdi. Abulfayzxon taxtga o'tirgan paytdayoq Ubaydullaxonning siyosatini davom ettirishga harakat qilishiga qaramasdan, uning urinislari tez orada siyosiy kuchlar tomonidan chek qo'yildi. Natijada, u qudratli amir va beklar qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanadi. Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi" va Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat ul-xoni" asarlari ma'lumotiga ko'ra, uning davrida Movarounnahrda markaziy hokimiyatga buysunmaslik (anarxiya) yuzaga keldi, "siyosiy tarqoqlik, har qaysi viloyat hokimining mustaqil bo'lishi va raiyatning mazlumligi"⁷ kabi holatlar bilan kechdi.

Natijada, amalda hokimiyat nazorati yirik qabila sardorlari qo'l ostiga o'tgan. Shunday sharoitda mang'it urug'idan bo'lgan va saroyda otaliq mansabini yuritgan Muhammad Hakimbiy (otasi Xudoyorbiy otaliq)ning nufuzi tobora ortib bordi. Biroq ko'pgina amirlarni bu holat qanoatlantirmadi, xususan Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas shular jumlasidan edi. Mang'it-kenagasarlar raqobati xonlikda uzoq yillar saqlanib qolgan. Ibrohimbiy kenagas 1722-yilda xonga qarshi chiqib, Xiva xonlari avlodidan bo'lgan Rajab Sultonni o'ziga kuyov qilib Samarqand hokimi deb e'lon qildi va alohida hokimiyat tashkil etdi (Samarqand xonligi). 1725-yilda Vobkent yaqinida Abulfayzxon va Rajab Sulton qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ladi. Jang Rajab Sulton qo'shini mag'lubiyati bilan tugaydi. Harbiy yurishlar kutilgan natijani bermagach, Rajab Sulton Qozoq sultonlaridan yordam so'raydi. Manbalarga ko'ra, qozoq sultonlari Movarounnahrga yurish qilib,

⁷ Абдурахман Даулат Толе (Тали). История Абдулфайз-хана. Пер., предисл., прим. и указ. А.А. Семёнова. - Ташкент: Изд-во АН. Уз.ССР, 1959. - С.37.

1723-1729-yillar davomida Zarafshon vohasiga talon-taroj yurishlarini amalga oshiradi. Muhammad Yoqub ibn Doniyolbiy Buxoriyning “Gulshan ul-mulk” asarida yozilishicha “ko‘chmanchilar yetti yil davomida Samarqand va Buxoro o‘rtasida joylashgan dehqonchilik yerlariga tinimsiz bosqinlar uyshtirdilar, natijada Movarounnahrda qattiq ochlik boshlandi”.

Buxoro xonligidagi parokandalikdan Eron va Afg‘onistonda o‘z mavqeini tobora mustahkamlab borayotgan Nodirshoh afshor (1736-1747) ustalik bilan foydalanadi. Nodirshohning o‘g‘li Rizoquli boshchiligida yuborilgan qo‘shin 1736-1737-yillarda Balxni qo‘lga kiritgach, Amudaryodan kechib o‘tdi⁸ va Muhammad Hakimbiy boshchiligidagi xonlik qo‘shinini Qarshi yaqinida mag‘lubiyatga uchratadi. Qarshi shahri qamalda qoladi. Lekin Elbarsxon boshchiligidagi Xiva qo‘shinlari Abulfayzxonga yordam berish uchun harakat boshlaganini eshitgan Rizoquli Balxga chekindi.

1740-yilda Nodirshohning o‘zi katta qo‘shin bilan Buxoro ustiga yurish qiladi. Eron qo‘shini hujumini bartaraf qilishga kuchi etmasligini anglagan Abulfayzxon Muhammad Hakimbiy boshchiligidagi vakillarni Nodirshoh huzuriga yuboradi. Nodirshoh bilan muzokara olib borgan Muhammad Hakimbiy sulh tuzishga muvaffaq bo‘ladi. Boshqa tomondan, muzokara orqali Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o‘tib o‘z mavqeini yanada mustahkamlaydi. Shundan so‘ng, *amiri kabir* unvoni ostida Nodirshohning noibi sifatida xonlik boshqaruvini o‘z qo‘liga tutadi. Buxoro va Eron o‘rtasidagi sulh kelishuviga ko‘ra, Abulfayzxon Eron hukmdori Nodirshohga tobe ekanligini tan oladi. Kelishuv shartlariga ko‘ra, Buxoro xonligi Eron qo‘shini safiga 10 ming askar etkazish, 200 ming xarvar (eshak yukiga teng) don berish majburiyatini oladi. Shundan so‘ng, Nodirshoh xonlik boshqaruvini ishonchli noib sifatida Muhammad Hakimbiyga topshiradi. Eronga tobelikni tan

⁸ History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003. – P.54; Азamat Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: 2000. –Б. 269.

olinishi Abulfayzxon nufuziga putur etkazadi. Uning o‘limidan keyin mamlakatda hokimiyat amalda Muhammad Hakimbiy o‘g‘li Muhammad Raximbiy, ya’ni mang‘itlar xonadoniga qarashli sulola qo‘liga o‘tadi.

Shunday qilib, Ashtarkoniylar sulolasini hukmronligining oxirgi davridagi ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik, o‘zaro kurashlar, ayirmachilik kayfiyatidagi harakatlar va bosqinlar mamlakat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini butkul izdan chiqardi. Nodirshoh mamlakatni egallagach, qo‘sishimcha soliq va majburiyatlar ahvolni yanada og‘irlashtirdi. Xonlikda qo‘zg‘olonlar boshlanadi. Bu qo‘zg‘olonlarni bostirishga yuborilgan qizilboshlari qo‘sini o‘zining tartibsiz harakatlari bilan aholi noroziligidagi sabab bo‘ldi.

2. Bahodir Yalangto‘sh – davlat arbobi va harbiy qo‘mondon

Bahodir Yalangto‘sh 1576-yilda Nurota hokimi, olchin urug‘i peshvolaridan bo‘lgan Boyxojibiy oilasida tug‘ilgan. Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor” (“Olijanob kishilar botirligiga oid sirlar dengizi”) asarida yozilishicha, amirning asl oti Xatoy Bahodir bo‘lib, Yalangto‘sh esa uning laqabi bo‘lgan. Boyxojibiy Shayboniyxonlar saroyi xizmat qilganligi sababli, uning o‘g‘li Yalangto‘sh ham hukmdor xonadon vakillari xizmatida ulg‘ayadi. Yalangto‘sh Bahodir dastlab Buxoro xoni Abdullaxon II homiyligiga olingan, so‘ngira munosib xizmatlari uchun 1593-1595-yillarda Bulung‘ur, Loyish va Kattaqo‘rg‘onda tumanboshi lavozimida faoliyat yuritgan. Buxorodan tashqari, u 1595-1598-yillarda Bag‘dodda ta’lim olgan.

Keyinchalik O‘rta Osiyodagi murakkab tarixiy bir sharoit, ya’ni Shayboniylar davlatining tanazzulga yuz tutishi, hokimiyatni qo‘lga olish uchun guruhlar o‘rtasidagi kurashlar natijasida yangi ashtarkoniylar sulolasini maydonga chiqdi. Yalangto‘sh Bahodir shu

sulolaning sadoqatli xizmatchisi sifatida mohir siyosatchi va davlat arbobi bo‘lib tanildi. U 19 yoshida Buxoro xoni Dimmuhammad homiyligiga olingan Yalangto‘sh Bahodir, keyinchalik mamlakat siyosiy maydonida tanilib mavqeini oshib borishi Imomqulixon (1611-1642) davrida kuchayadi. Ma’lumki, Buxoro xonligida markazlashtirish siyosatini olib borgan Imomqulixon davri Ashtarxoniyalar sulolasiga hukmronligi yillaridagi eng rivojlangan va kuchaygan bosqich sanaladi. Davlat boshqaruvini yuritishda qo‘llab-quvvatlagani va sadoqatli xizmatlari uchun Imomqulixon 1612-yilda Yalangto‘sh Bahodirni Samarqand viloyati hokimi etib tayinlaydi va u umumiylis hisobda qirq yil Samarqandni boshqargan.

Buxoro xoniligi hududining daxlsizligini ta’minalash yo‘lida Yalangto‘sh Bahodir shimolda qozoq kuchlari Esimxon, Tursun sulton va Abulay sulton, janubda Xuroson uchun Eron Safaviylariga qarshi kurashlarda jonbozlik va botirlik ko‘rsatgan.

Abdulazizzon (1645-1681) taxtga kelishi bilan, Yalangto‘sh bu xonni ham qo‘llab-quvvatlab qo‘shni sarhadlarga urush olib borgan. Jumladan, Boburiylar imperiyasiga qarashli bo‘lgan Qobulga va Eronga ham yurishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, 1648-yilda Abdulazizzonning 200 minglik qo‘shini tarkibida Balxni Boburiylardan qaytarib olish jangida g‘alaba qozongan. Bundan tashqari, Ashtarxoniyalar davrida uzluksiz kurashlar olib borgan isyonkor hokimlar kurashi va isyonlarini bostirishda ham faol qatnashgan.

Yalangto‘sh Bahodir o‘z davrining eng badavlat kishilaridan sanalib, manbalarda uning boyligi nufuzli podsholarnikidan qolishmasligi tasdiqlanadi. Bu xususida, Maxmud ibn Vali “Nodir Muhammadxon davrida martabasi yuqorilashib, uning otalig‘i etib tayinlandi. Darayi Suf, Mulgon, Kohmard viloyatlari; Tulkichi, Sayqonchi, Zerangi, Kilagi, Hazorai Nekudari qabilalarining yurtlari, G‘azna, Qandahor, Zamindovar, G‘ur, Xuroson

hududlarigacha bo‘lgan qabilalar yerlari unga iqto‘ tariqasida in’om etildi», deb qayd etadi.

Yalangto‘sh Bahodirning ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tarixiy xizmati katta. Ilm va san’at ahlini qadrlagan ushbu amir faoliyati davomida o‘z shaxsiy mablag‘ini masjid, xonaqoh, hammom, ko‘prik, maktab va madrasalar qurish, ijtimoiy guruhlarning moddiy ta’minotiga sarflagan. Yalangto‘sh davrida Samarqandning avvalgi Jome’ masjidi va madrasasi, ya’ni Amir Temurning Jome masjidi va Bibixonim madrasasi buzilgan bo‘lib, shahar aholisi shunday masjid va madrasalarga muhtoj edi. Buning ustiga o‘sha davrda Registon maydonida Mirzo Ulug‘bek qurdirgan madrasa ta’mir talab bo‘lib qolgan, Ulug‘bekning Mirzozi karvonsaroyi haroba holida, Muqatta masjidi va Ulug‘bek xonaqosi esa butkul yo‘q bo‘lib ketib, ularning o‘rnida va hozirgi Registon maydonida shahar bozori joylashgan edi. Yalangto‘sh ushbu maydonni obod holga keltirish va shahar aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqib, Ulug‘bek karvon-saroyining saqlanib qolgan qismi va poydevorlariga o‘zgartirishlar kiritadi.

Ushbu ma’rifatparvar hokimning bevosita tashabbusi va farmoni bilan Registon maydonidagi vayronalikka yuz tutgan hashamatli Mirzo Ulug‘bek madrasasida ta’mirlash ishlari olib borildi va batamom buzilib ketgan Mirzo Ulug‘bek qurdirgan xonaqoh, Mirzoyi hammomi va karvon saroylari o‘rnida hashamatli inshootlar - Sherdor madrasasi (1619-1636) va Tillakori madrasa-masjidi (1646-1660) bunyod etilgan. 1619-1636-yillarda qad ko‘targan Sherdor madrasasini Yalangto‘sh Bahodir ustozi Xoja Hoshimga (Mahdum A’zamning nabirasi) bag‘ishladi. U qurdirgan me’morlik obidalaridan yana biri Dahbeddag'i Mahdumi A’zam majmuasidir. Yalangto‘sh Bahodir 1656 yili 80 yoshida vafot etadi, vasiyatiga ko‘ra Dahbeddag'i Mahdumi A’zam xonaqohiga, piri Xoja Hoshim qabrining oyoq tomoniga ko‘milgan.

Savol va topshiriqlar:

- 1.XVII asrda Ashtarxoniy hukmdorlarining davlatni markazlashtirish siyosatiga doir fikr-mulohazalarini bildiring?
- 2.XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida kechgan ijtimoiy-siyosiy parokandalik omillarini ko‘rsatib bering?
- 3.Subhonqulixon davrida Buxoro-Xiva munosabatlarining yomonlashuv sabablari nimalardan iborat edi?
- 4.Yalangto‘sh Bahodirning davlat arbobi sifatida Buxoro xonligi va O‘zbekiston tarixida tutgan o‘rni to‘g‘risida fikrlar bildiring?
- 5.Balx mulkining Buxoro xonligi siyosiy hayotida o‘rni qanday bo‘lgan?
- 6.Ashtarxiylar sulolasи inqirozi sabablarini misollar bilan izohlang.

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 1.Abulg‘oziy Bahodurxon. Shajarayi turk / Mas’ul muharrir B.Axmedov. Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
- 2.Maxmud ibn Vali. More tayn otnositelno doblestey blagorodnykh. // Vved, per. i prim. Ukaz. B.Axmedova. – T.: Fan, 1977.
- 3.Muhammad Yusuf Munshi. Mukimxanskaya istoriya. Per., pred. i prim. A. Semyanova. – Tashkent, 1956.
- 4.Mir Muhammad Amin Buxari. Ubaydullaname. Per. s tadj. i prim. A.A. Semenova. - Tashkent, 1957.
- 5.Abduraxman Daulat Tole (Tali). Istorya Abdulfayzxana. Per., predisl. i prim. A.A.Semyanova. - Tashkent: AN. Uz.SSR, 1959.
- 6.History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
- 7.Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.

8. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
9. Azamat Zijo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2001.
10. Istorya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
11. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
12. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2021.

MAVZU: BUXORO XONLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT (XVI- XVIII-ASRLAR BIRINCHI YARMI).

Reja:

1. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davlatining boshqaruvi tizimi.
2. XVI- XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligida yer-suv munosabatlari.
3. Savdo aloqalari, hunarmandchilik va soliq tizimi.

Kalit so‘zlar: XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmi, Buxoro xonligi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, soliq tizimi.

1. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davlatining boshqaruvi tizimi

Shayboniylar va Ashtarkoniylar davlatining boshqaruvi tizimi Chingizzon (1206-1227) va Amir Temur (1370-1405) davlatlari boshqaruvi an’analariga asoslangan. Shu bilan birga, Muhammad Shayboniyxon tomonidan dashtliklarga xos bo‘lgan ayrim o‘zgarishlar kiritilgan. Shayboniy sultonlari Temuriylardan farqli o‘laroq, egallab olingan yerlarni boshqarishni faqat o‘z sulolasiga vakillariga topshirgan. Davlat tepasida qabila va urug‘larning boshliqlari tomonidan saylab qo‘yilgan xon turgan. Lekin davlatni

boshqarishda uning huquqlari qisman cheklangan edi. Urush va sulh masalalaridan tortib, to shahzodalarinng tarbiyachi (otaliq, atka)larini tayinlashgacha bo‘lgan har qanday tadbir qabila va urug‘ boshliqlarining, diniy vakillarning, sultonlar va sarkardarlar (Chingizzon naslidan bo‘lgan)ning maslahatisiz amalga oshmagan. Bundan ko‘rinadiki, xon huzurida chaqirilib turiladigan bunday kengashlar Shayboniylar davlati boshqaruvida katta rol o‘ynagan. Shayboniylar davrida oliy hukmronlik dastlab otadan farzandga emas, balki sulolaning yoshi katta vakiliga o‘tgan. Lekin Abdullaxon II davriga kelib, hokimiyat otadan farzandga o‘tgan.

Ashtarkoniylar davrida esa, oilaviy taxt vorisligiga amal qilingan va odatda taxtga siyosiy elita orasidan qo‘llab-quvvatlanganlar kelgan. XVI-XVIII-asrlarda “xon ko‘tarish” marosimida hukmdor oq kigizga o‘tqazilib, to‘rt tomonidan xon avlodi, obro‘li amirlar va din peshvolari vakillari tomonidan ko‘tarilgan. Davlat boshqaruvi qoidalari esa shariat qonun-qoidalariga, qadimiylariga va yasoq qonunlariga qat’iy rioya qilingan.

Boshqaruv tizimida mavjud amal va unvonlar - ma’muriy, harbiy va hamda diniy toifalarga bo‘lingan. Xondan keyingi muhim mansab naqib hisoblangan. Mazmuni “sardor, boshliq, etakchi” ma’nosini bergen bu mansab ancha keng vakolatga ega bo‘lib, xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan sanalgan. Davlatning ichki va tashqi siyosatida hamda harbiy masalalarida oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Tarixchi olim A.Zamonovning ta’kidlashicha, naqiblik merosiylilik xususiyatiga ham ega bo‘lgan va faqat Payg’ambar avlodlari xonadoni vakillari bu lavozim sohiblari bo‘lishi mumkin edi.

Boshqaruv tizimiga tegishli muhim mansablardan biri otaliq (atka, bek atka) sanalgan. U avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas’ul hisoblangan. Ushbu amal hokimiyatning joylardagi viloyat - mulklardagi siyosatini belgilashda katta

ahamiyatga ega bo‘lgan. Zero, oliv hukmdor mamlakat qismlari - viloyatlarni sulola namoyondalari shahzodalarga taqsimlab bergan. Balog‘at yoshiga etmagan shahzodalar, to ulg‘ayib mustaqil faoliyat ko‘rsatguniga qadar, otaliqlar hokimiyatni boshqargan. Ashtarxoniyalar davridan boshlab, otaliqning markazdagi mavqeい kuchaya boshlagan. “Ubaydullanoma” asarida otaliqqa *umdat al-umaro*, ya’ni “butun amirlar tabaqasi tayanchi” degan ta’rif berilgani aytildi.

Devonbegi (bosh vazir) davlatning moliya, soliq, yer-suv masalalari nazorati kabi vazifalarni boshqargan. Qayd etish lozim, bu davrda ijroiya tizimi bo‘lgan devonlarning ahamiyati yo‘qolib, ularning ayrimi dargohdagi ba’zi xizmatlarda mujassam topib borgan. Xonning chiqargan hukmi, yorliq va boshqa rasmiy hujjatlarini o‘z egalariga etkazishga parvonachi javobgar bo‘lgan. Dargohga tushgan arzlarni qabul qilib, javobni berish, mamlakatdagi tartiblarga amal qilinishini nazorat qilish dodxoh zimmasiga yuklangan. Shuningdek, u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va hatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish ishlarini bajargan. Ko‘kaldosh mansabi dargohdagi muhim lavozimlardan biri hisoblangan. Bu lavozimga xon va sulolaning eng yaqin kishilaridan qo‘yilib, uning zimmasida xon olib borayotgan siyosat daxlsizligi va unga kishilarning munosabati kabi ishlarni nazorat qilish turgan.

Xon bilan shahzodalar o‘rtasidagi aloqalarni, sulola ichki munosabatlariga oid tadbirlarni yo‘lga qo‘yishni xon yasovuli olib borgan. U shahzodalarni xon tomonidan qabul qilish, arzlar, iltimoslarini etkazish kabi ishlarni bajargan. Dargohda xavfsizlik, tartib, keldi-kettidan xabardorlik kabi ishlar eshikog‘aboshi zimmasida bo‘lgan. Ta’kidlash lozimki, o’sha davrda davlat xizmatchilari bir vaqtning o‘zida, harbiy faoliyat bilan ham shug‘ullangan.

Dargoh faoliyatida katta mavqeiga ega bo‘lgan lavozimlardan biri shayxulislom lavozimi bo‘lib, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni yuqori bo‘lgan. Sud ishlari qozilar tomonidan olib borilib, mamlakat miqyosida esa bu tizimga bosh qozi etakchilik qilgan. Harbiylar orasida huquqiy masalalarini askar qozilar hal etgan. Diniy-ahloqiy masalalar nazorati rais (muhtasib) zimmasida bo‘lgan. Shuningdek, xonlikda huquqiy masalalarini hal etishda muftiy lavozimi ham muhim sanalgan.

Din peshvolari nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki iqtisodiy munosabatlarga ham jalb etilganlar. Xususan, vaqf mulklari bilan shug‘ullanuvchi maxsus xizmatlarga sadr, sudur kabi amallar tayinlangan. Umuman olganda, xonlikning siyosiy elitasi tarkibida ma’lum sonli diniy vakillar tabaqasi – ulamolar bo‘lib, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri kuchli edi. XVI-asrning o‘rtalaridan boshlab Jo‘ybor shayxlari mavqeい juda oshib ketadi va ular oliy hukmdor taqdirini hal qilish darajasiga ko‘tariladilar. Qishloqlarda katta-katta yerlarga va shaharlarda yirik ko‘chmas mulklarga ega bo‘lgan shayxlar yirik zodagonlar va amaldorlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Shunday qilib, Buxoro xonligida markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo‘lida to‘plangan bo‘lsa, mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari va ularning idorasida faoliyat yuritgan davlat xizmatchilaridan iborat bo‘lgan. XVI-XVIII-asrlarda Buxoro xonligi ma’muriy jihatdan viloyat va tumanlarga bo‘lingan. Mirza Badi’ devonning “Majmua al-arqom” asariga ko‘ra, 100 ming tanobdan iborat sug‘orildigan yerlar *tumanga*, 50 ming tanobdan iborat *hazoraga*, 25 ming tanob sug‘oriladigan yer *nimhazora*, 10-15 ming tanob sug‘oriladigan yer *obxo‘ri*, 400 tanob sug‘oriladigan yer *qariya* kabilarga bo‘lingan. Viloyatlarni yirik mansabdor hokimlar boshqargan. Buxoro shahri davlatning ma’muriy-siyosiy markazi sanalib, qonunchilik hujjatlari shu shaharda yuritilgan. Poytaxtda

boshqaruv apparatini asosini tashkil etgan ko‘p sonli amaldorlar jamlangan edi.

Abdullaxon II davrida Balx viloyati hokimligini valiahdga topshirishi an’anasi shakllangan bo‘lsa, Ashtarxoniyalar davriga kelib bu an’ana mustahkamlandi.

2. XVI- XVIII asr birinchi yarmida Buxoro xonligida yesuv munosabatlari

XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligi – Movarounnahr, Xurosoning alohida viloyatlari va ma’lum vaqtarda Xorazm ham kirgan. Xususan, Muhammad Shayboniyxon davrida Sirdaryo bo‘yi shaharlaridan Turkiston, Arquq, Sayram, Sabron, butun Xorazm, Farg‘ona vohasi, Turkmanistoning janubiy qismi, shuningdek, Xurosonning Xirot va Mashxad singari qismlari kirgan. Uning o‘limidan so‘ng, Xuroson Safaviylar tarkibiga, Xorazm ham mustaqil bo‘ldi. Shayboniylardan Ubaydullaxon va ayniqsa, Abdullaxon II lar davrida Xuroson va Xorazmning ayrim qismlari kiritilgan. Abdullaxon II o‘limidan so‘ng, Xorazm yana o‘zini mustaqilligini tikladi.

Ashtarxoniyalar davlati yerlari ham Shayboniyalar davlatining ma’lum xududlarini qamrab olgan bo‘lib, Balx viloyati Qunduz, Juzg‘on, Shibirg‘on kabi xozirgi shimoliy Afg‘oniston tumanlarini o‘z ichiga olib kirgan. Ashtarxoniyalar o‘z mulklari ichida Balxga bo‘lgan xavotirlari kuchli edi. Shu bois, Balxni Eron Safaviylari, Hindiston va Xiva xonlari hujumidan doimo saqlashga harakat qilganlar. Farg‘ona ham dastlab bu davlat tarkibiga kirgan. Buxoro xonlari hokimiyyati bu yerda O‘zgandga qadar yoyilgan edi. Shimolda Ashtarxoniyalar davlati Sayram, Talas vodiysi va Turkiston shaharlari kirgan. G‘arbda Xiva xonligi xududi bilan

chegaradosh bo‘lgan. Janubda Chorjo‘ydan to Marv xududi chegaralarigacha mustahkam ushslashga harakat qilingan.

Buxoro xonligida kechgan tarqoqlik, ayniqsa XV-XVI-asrlar, XVI-asr o‘rtalarida, XVII asr oxiri - XVIII-asrlar birinchi yarmi chegaralarida tinimsiz va o‘zaro urushlar kuchayishi natijasida, iqtisodiy hayotni izdan chiqishi va qishloq ho‘jaligida dehqonlarning xonavayron bo‘lishiga olib kelgan. Ba’zi hollarda, ular o‘z yerlarini tashlab ketishga majbur bo‘lgan, bu hol ayniqsa, Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida ko‘p uchragan. Jumladan, Shayboniylar hukmronligining dastlabki davrida xalq xo‘jaligi tushkunligi Temuriylar davridagi yuksalish bilan solishtirilganda, nisbatan pasayishi holatini boshidan kechirdi. Buning asosiy sabablari qatorida, siyosiy ziddiyatlar va kurashlarning oqibati, qo‘lga kiritilgan yangi yer-mulklarni boshqarishdagi mulkdorlarning tajribasizligi, Buyuk Ipak Yo‘li tanazzuli, iqlimiyl o‘zgarishlar ta’sirini ko‘rsatish mumkin.

Hokimiyatning Shayboniylar qo‘liga o‘tishi mamlakat yer-mulkning qayta taqsimlanishi va zodagonlar tarkibining yangilanishiga olib keldi. Jumladan, Temuriylar va ularga yaqin bo‘lgan zodagonlardan tortib olingan yerlar, karvonsaroy, savdo hunarmandchilik korxonalari, tegirmon, uy va saroylar Shayboniylar hamda boshqa o‘zbek sultonlari orasida taqsimlab olindi. Zodagonlarning mahalliy hukmdorlar bilan bog‘liq o‘rta bo‘g‘inigma dastlabki davrlarda o‘z nufuzini saqlab qoldi. Lekin keyingi davrlarda ularning ham mulklari ko‘chmanchi zodagonlarga olib berildi. Ayniqsa, taxxon mulki sohiblariga qaqqhatqich zarba berildi.

O‘sha davrdagi yer egaligi asosan to‘rt toifaga bo‘lingan:

1. Davlat yerkari Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida – *mamlakai devoni, mamlakai podshoxi, zamini mamlaka, mamlakai sultoni* deb yuritilgan. Ushbu turdagil yerkari davlatga qarashli yerkari bo‘lib, bu yerkarni sotish, hadya etish, vaqfga berish faqat xonning

ixtiyorida bo‘lgan. Davlat yerlariga shuningdek, *zamini mavat*, *zamini mayita* deb nomlangan, ishlov berilmagan yoki tashlandiq yerlar ham kirgan. Bunday yerlar agar dehqonlar tomonidan ishlov beriladigan bo‘lsa, xiroj to‘lashi lozim bo‘lgan.

2. *Mulk* yerlari, asosan ikki mulkdorga xususiy mulk egasi va davlatga tegishli bo‘lgan. Ular o‘z navbatida, daromadni bo‘lishgan, 3/1 xususiy mulk egasiga, 3/2 qismi davlatga tegishli bo‘lgan. Mulk yerlari merosiy bo‘lgan, uni sotish mumkin bo‘lgan. Mulk yerlari yirik mulkdorlarga tegishli bo‘lishi bilan birga, kichik mulkdor dehqonlarga ham tegishli bo‘lgan.

Bu davrda xususiy mulk yerlari orasida *mulki hurri xolis* toifasi alohida ajralib turgan. Bunday soliq imtivozi berilgan yerlar ma’lum shaxslarga tegishli bo‘lib, ularga davlat oldidagi xizmatlari uchun berilgan.

3. *Vaqf* yerlari, ya’ni diniy va hayriya muassasalari madrasa, maktab, maqbaralar, xonaqolar, yetimxona, shifoxonalarga tegishli bo‘lgan yer-mulklar bo‘lib, bunday yerlarining aksariyati soliq to‘lagan. Faqat ayrimlarigina keng miqyosda xayriya faoliyati bilan shug‘ullanganligi sababli ozod etilgan. Shuningdek, qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar bo‘lgan.

Yerga egalik qilishning shartli turlari orasida *iqta*, *suyurg‘ol*, *tанho*, *tiul*, *tarxon* kabilar bo‘lgan. Iqta atamasi XIV-asrning ikkinchi yarmidan boshlab garchi muomaladan chiqib, o‘z o‘rnini “suyurg‘ol” atamasiga bo‘shatib bergen bo‘lsa-da, XVI-asr ayrim manbalarida uchratish mumkin. Suyurg‘ol hukmron sulola vakillariga, davlat arboblari, harbiy boshliqlariga berilib, bunday yerlardan davlat g‘aznasi uchun xiroj olingan. XVI-asr uchun suyurg‘ol, iqta kabi mulklar deyarli bir, tenglikka ega bo‘lgan. XVI-asrdan boshlab, tanho deb nomlangan yer egaligi keng yoyilib borib, kichik xizmatlar uchun berilgan, tanxodorlar bir necha uylardan tortib qishloqlargacha bo‘lgan yer-mulkлага egalik qilib, bundan tushgan daromad tanxodorning o‘ziga rasmiylashtirilgan.


Tarxon mulki esa mustaqil sanalib, turli soliq-to‘lovlardan ozod etilgan. Tarxонни turli qatlamlar olishi mumkin edi. Lekin Shayboniylar davrida tarxon mulki Temuriylar davriga nisbatan ahamiyati kamaygan.

Shayboniylar sulolasining so‘nggi yillarida xususiy yer egaligining rivojlanishi va juda ko‘p yerlarning turkiy zodagonlar qo‘lida to‘planishi ularning mavqeini shu qadar oshirdiki, xon hokimiyati XVII asr boshlaridan e’tiboran o‘zining avvalgi katta salmog‘ini yo‘qota bordi. Mazkur zodagonlarning har biri markaziy hokimiyatdan deyarli yoki butunlay mustaqil bo‘lishga intildilar.

Qishloq xo‘jaligini qayta tiklash ishlari Muhammad Shayboniyxon davrida boshlanib, bir qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bu borada o‘z yerlarini tashlab ketgan dehqonlarni qaytarish va ularga soliq imtiyozlarini berish va “devon (davlat) soliqlari”ning mavqeini doimiy bo‘lib qolishiga qaratilgan ishlar shular jumlasiga kirgan. Sug‘orish inshootlarining yangilanib qurilishi ham qishloq xo‘jaligida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, Shayboniyxon davrida suv ayirg‘ich-ko‘prikning ko‘tarilishi Zarafshon daryosini suv bilan ta’minlagan. Abdullaxon II topshirig‘i bilan, 1582 yilda Zarafshon vodiysining shimolida joylashgan Nuroto tog’ tizmasidan oqib tushadigan Oqchob soyining darasi ichiga “Abdullaxon bandi” suv ombori bino qilinadi va Nurota vohasining sharqiy qismida joylashgan Jo‘sh va Oqchob atroflari sug‘orilib obod etiladi.

XVI-asrda Zarafshon daryosi suvi taqsimotini nazorat qiluvchi Puli Karmana, Puli Mehtar, Puli Jondor va boshqa suvayirg‘ichlarning roli katta bo‘ldi. Puli Karmana orqali Buxoroga boriladigan suv 21 ravvoqdan iborat bo‘lib, u Buxoro tumanlariga taqsimlangan. Demak suvni taqsimlash bo‘yicha ko‘rilgan choralarda ravvoqlarning o‘rni muhim sanalgan. XVIII-asr Buxoro risolasiga ko‘ra, sug‘orish kanallarida suvning yo‘nalishi maxsus suv inshooti - ravvoq orqali nazorat qilingan. Bir ravvoq suvi 100

ming tanob yerni sug‘organ. Bunday yer maydoni ma’muriy-xududiy birlik bo‘lgan tumanga teng bo‘lgan. Sug‘orish uchun suvlar odatda etmagan va bunday vaziyatdan asosan dehqonlar qiynalgan. Ayniqsa, urushlar davomida buzilgan sug‘orish inshootlarini qayta ta’mirlash, qurish xalq zimmasiga yuklangan.



Nuroto tumanidagi Oqchob yaqinidagi Abdullaxon bandi

Sug‘orish ishlari bo‘yicha qilingan ishlar kanallar tarmoqlarini va obilkor yerkarni kengaytirgan. Bunday yerlardan davlat g‘aznasiga va uning xo‘jayiniga katta daromad tushgan. XVI-XVII-asrlar boshlarida ayrim sug‘oriladigan yerlar Jo‘ybor shayxlariga berilgan. Jo‘ybor xojalarining moddiy manbalari asosi avloddan-avlodga o‘tib boradigan mol-mulkardan tashkil topgan. Ular o‘z mol-mulkari hisobidan turli bunyodkorlik, qurilish ishlarini amalga oshirgan, ichki va tashqi savdo, hattoki boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlarga bosh-qosh bo‘lganlar.

Ashtarkoniylar davrida qishloq xo‘jaligini tiklash, xususan sun’iy sug‘orish sohasida muayyan ishlar qilingan. Xususan, Imomqulixon davrida 1614-1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho‘liga kanal qazilib, bir qator qishloqlar va qarovsiz yerlar obod

qilingan. 1633-1634-yillarda uning buyrug‘i bilan Qo‘shqo‘rg‘onda ham kanal qazilgan.

80-yillarda xivaliklarning hujumi natijasida xonlikning katta viloyatlarida ekinzorlarning suv ta’minoti yo‘qoladi, natijada Samarqand, Qarshi va Farg‘ona xududlarida ochlik kuchaygan. “Dastur ul-mulk” asarida, dehqonlarning “tariq va bug‘doydan noni bo‘lmagan” deyiladi. Keyingi Xiva xonlari va Nodirshohning istilosи ham mamlakatda sug‘orish inshootlari, ekin ekiladigan maydonlarning xonavayron bo‘lishiga olib keldi.

Dehqonchilikda asosan donli ekinlar, paxta ekilgan. Paxtadan, asosan kiyim-kechak tikishda foydalanilgan. XVII-asr hujjatlarida paxta Rossiyaga ham sotilganligi qayd etiladi. Ayrim hududlarda ipakchilik bilan shug‘ullanilgan. Poliz mahsulotlari etishtirish ham dehqonchilikning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan. Mamlakatda etishtirilgan qovun dunyodagi uzoq mamlakatlarda ham ma’lum va mashhur bo‘lgan. Bog‘dorchilik ham mamlakat xalq xo‘jaligining rivojlangan tarmog‘i bo‘lgan. Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Farg‘ona vodiysi bog‘dorchilikning asosiy markazlari bo‘lgan. Xonlikning hosildor yerlaridan biri Zarafshon vohasi hisoblangan.

Bu davrda uzumchilikni rivojlantirishga katta e’tibor berilgan. Quritilgan uzumlar, ya’ni mayizlar eksport qilingan. Bundan tashqari, turli vino, uksus, sirop mahsulotlari etishtirishga ham katta e’tibor berilgan. Ba’zi tumanlarda pillachilik bilan shug‘ullanilgan bo‘lib, hujjatlarda “pilla solig‘i” to‘g‘risida gapiriladi. Tut ko‘chatlari oldi-sotdi mahsuloti hisoblangan. Masalan, 1562-yilgi vasiqaga ko‘ra, Jo‘ybor shayxi Xoja Islom Qorako‘l viloyatida 70 dan ziyod tut daraxtlarini yetishtirgani aytilgan. Rus elchisi Ivan Fedotyev ma’lumotiga ko‘ra, 1669-1670-yillarda Buxoroda bir pud ipakni narxi 60 rublga teng bo‘lgan.

3. Savdo aloqalari, hunarmandchilik va soliq tizimi

Temuriylar davlatining tanazzuli, nafaqat siyosiy tarqoqlik, balki moliya tizimining izdan chiqishida ham namoyon bo‘ldi. Pul muomalasining izdan chiqqanligi xalq turmushiga ta’sir ko‘rsatganligini tushunib yetgan Shayboniyxon 1507-yilda pul islohoti o‘tkazish haqida farmon beradi. Pul islohoti iqtisodiyotni tartibga solish, savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o‘tkazilgan edi. Islohot davomida kumush, mis chaqa pullar zARB etildi. Kumush tangalarning og‘irligi 4,8 grammidan 5,2 grammga etkazilishi ularning xarid kuchini oshirdi va inqiroz jarayonini ma’lum darajada to‘xtatdi. Ilgari 1 kumush tangaga 36 ta mis tanga berilgan bo‘lsa, endi 1 ta eski kumush tangaga 30 ta mis tanga beriladigan bo‘ldi. 36 ta mis tanga yangi og‘irlashgan kumush tangaga almashtiriladigan bo‘ldi. Tangalar Shayboniyxon nomi bilan zARB etilgan. Tanganing chetlarida “*Muhammad Shayboniyxon, Sulton*” deb yozilgan. Pul islohoti mamlakatda pul muomalasini barqarorlashtirgan bo‘lsa-da, uning samarasidan uzoq muddat foydalanilmadi. Chunki Shayboniyxonning o‘limidan keyin mamlakatdagi siyosiy beqarorlik pul muomalasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bois, pul islohoti uzoq davom etdi, xususan Ubaydullaxon Samarqand va Buxoro shaharlarida tangalar zARB ettirib, pul islohotini o‘tkazdi. Bu davrda Shayboniylar sulolasini boshida Buxoroda Ubaydullaxon, Samarqandda Ko‘chkinchixon turardi va ular mustaqil siyosat yuritardi. Ko‘chkinchixon davrida, ya’ni 1525-yilga kelib tanga bosishning umumdavlat mezoniga o‘tilib, bir misqolli (4,8 gramm) tanga muomolaga kiritildi. Bir misqolli kumush tanganing qiymati 20 ta mis pulga to‘g’ri kelishi belgilangan.

Shayboniylar sulolasining qudratli hukhdorlaridan Abdullaxon II ning mamlakatni birlashtirish muvaffaqiyatli tadbirlaridan keyin, pul islohoti o‘tkazilib uni barqarorlashtirish imkoniga ega bo‘lindi.

Abdullaxon II davrida zarb etilgan yuqori qiymatli oltin, kumush va mis tangalar xarid quvvatini oshirishga xizmat qildi. Agar ungacha pul zarb qilishga hatto oddiy fuqaroga ham ruxsat etilgan bo'lsa (buning uchun xazinaga ma'lum miqdorda soliq to'langan), endilikda pul zarb qilish markazlashtiriladi. 1580-yillarning oxiriga kelib, pul asosan Buxoroda zarb qilinadigan bo'ladi. Kumush va mis tangalar Samarkand, Toshkent, Balxda ham zarb qilingan, yangi kumush tanga 30 ta mis tangaga tenglashgan. Abdullaxon II ning islohoti pul muomalasini tartibga soldi va xazina daromadining oshishiga xizmat qildi.

XVII-asr birinchi yarmiga kelib, past qiymatli tangalarning chiqarilishi ko'zga tashlanib bordi. Xususan, Ashtarxoniyalar davrida kumushning qiymati 5-10 % ga kamayib bordi. Mahmud ibn Vali ma'lumotiga ko'ra, Movarounnahr va Balxda yuqori qiymatli tangadan tortib, kumushning to'rtdan bir hajmiga teng tangalar ham muomilada yurgan.

XVII-asr ikkinchi yarmida bozorlarni past qiymatli tangalar egallab, aholining xarid talabi oshib bordi. Buni oldini olish maqsadida, 1708-yilda o'tkazilgan pul islohoti amaldorlarning o'zboshimchaligi, hokimiyatni markazlashtirish, davlatning moliya sohasini mustahkamlash, savdo va hunarmand ahli manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan edi. Biroq mazkur islohot aynan savdo va hunarmand ahlining moliyaviy ahvolini og'irlashtirgach, aholi qatlamlarining noroziligini keltirib chiqardi. Natijada, xalq qo'zolon ko'tarildi. Qo'zg'olon tezda bostirilib, yangi tangalar uchun yangi kurs belgilandi. Bunga ko'ra, yangi tanga Ubaydullaxonning oldingi 2 ta past qiymatli tangasiga tenglashtirildi. XVIII-asrdan boshlab oltin tangalar "ashrafiy" doimiy ravishda zarb etila boshlandi. Zamondosh muallifning ma'lumotiga ko'ra, bir oltin tanga 50-80 kumush tangaga tenglashtirilgan. Pul bozoridagi bunday xilma-xillik savdoni qiyinlashtirib, chayqovchilikni keltirib chiqargan.

Buxoro xonligida ishlab chiqarish, tovar-pul munosabatlarining barqarorlashtirilishi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Buxoro xonligi Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Qozoq, Sibir va boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni amalga oshirgan. Buxoro va Samarqandning ixtisoslashgan bozorlari o'z davrining yetakchi savdo markazlari rolini saqlab qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Balx shaharlari nafaqat ichki savdoda, balki tranzit savdosida muhim o'rin tutgan. Ichki savdo, asosan aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. Bu davrda savdo yo'llari tarmog'i kengaydi. Xususan, bu davrda xonlikning Buxoro-Balx-Qarshi yo'nalishdagi karvon yo'li mintaqasi siyosiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etgan.

XVI-asrdan boshlab mintaqadagi siyosiy beqaror vaziyat sababli, O'rta Osiyo Rossiya bilan savdo aloqalarida ko'proq manfaatdor bo'la boshladi. 1558-yil dekabrda Antoni Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig'i bilan Buxoroga keladi va xududdagi savdo holati bilan tanishadi. XVI-asrda Rossiya bilan bo'lган savdo munosabatlarida asosan, ip-gazlama matolar va undan tayyorlangan mahsulotlar asosiy rol o'ynadi. Buxoroda bo'lган Antoni Jenkinson "Buxoroda savdogarlarning har yilgi yig'ilishi bo'lib, bu yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib qurultoy o'tkazishini", qayd etgan.

Shuningdek, xonlik bu davrda Qozon, Astraxan va No'g'ay knyazliklari bilan savdo aloqalari olib borgan. Shahrisabz, Qarshi, Andijon, O'ratepa, Xo'jand, Marg'ilon kabi shaharlarda ham savdo rivojlanib, ularning safiga Sig'noq, Arg'uq, Yassi, Sabron shaharlari ham qo'shiladi. Ichki va tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan omillaridan biri bu turli savdo inshootlari - timlar, toqilar, karvonsaroy, rabotlarning barpo etilishidir.

Maxsus karvonsaroylarda hind, afg'on, rus va boshqa savdogar va sudxo'rlar yashagan. XVI-XVIII-asrlarda Samarqand va Buxoroga xorijlik fors, arab, turk, tatar, gruzin, arman va ko'chmanchi savdogarlar ham kelishgan. O'z navbatida, Evropadan keltirilgan mahsulotlar *farangi* deb atalgan. Hindistondan oilb kelingan tovarlar Qobul orqali xonliklarga keltirilgan. Zahriddin Bobur yozganidek, "Hindistondan qullar, oq matolar, shakar va dorivor o'simliklar keltirilgan". 1793-1794-yillarda O'rta Osiyoda bo'lgan Blankennagelning yozishicha, Buxoro karvonlari qarshiliksiz Qobul va Hindistonga borib kelib turgan. O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi yuk tushirib ortiladigan shahar Mo'lton bo'lgan.

Mahsulot ishlab chiqarish nafaqat shaharlar, balki qishloqlarda ham o'sgan. Natijada, shahar va qishloqlar o'rtasida savdo aloqalari rivojlandi. Mamlakatda yer osti boyliklarini qazib olishga e'tibor kuchaydi. Toshkent viloyatida temir va feruza, Buxoro viloyatida oltin, Farg'ona, Samarqand, Shahrisabz hududlarida marmar, oltingugurt, va qurilishda ishlatiladigan toshlar qazib olingan. XVI-asr manbalarida neft qazib ham olinib harbiy ishda keng qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar bor.

XVI-XVIII-asrlarda shaharlarda hunarmandchilikning deyarli barch tarmoqlari juda rivojlangan edi. Prof. G.Agzamovaning ta'kidlashicha, XVI-asr qozixona hujjatlarida 60 dan ortiq hunarmandchilik turlari qayd qilingan. Hunarmandchilik turlarining bu qadar ko'pligi uning chuqur ixtisoslashganligidan dalolat beradi. Masalan, to'quvchilikning salsa, ro'mol, chit va qimmatbaho matolar to'qiydigan sohalar mavjudligi hujjatlarda o'z aksini topgan.



XVIII-asr. Oftoba

Tarixiy hujjatlarda Toshkent va Samarqandda cho‘yan quyuvchi ustaxonalar mavjudligi haqida so‘z boradi. Bu mintaqada uchun yangi soha bo‘lib, rudani qayta ishlash chuqurlashganidan dalolat beradi. Temir, po‘lat, cho‘yandan tashqari metallsozlikda bronza va mis ham keng qo‘llanilgan. Bronza va misdan chiroyli ishlangan va badiiy jihatdan katta qiymatga ega bo‘lgan ko‘za, kosa, tovoq kabi mahsulotlar tayyorlangan va bu mahsolotlarga xorijda ham talab katta bo‘lgan.

Shaharlarda eng taraqqiy qilgan sohalardan biri temirchilik bo‘lgan. Metallning turli xillari temir, mis, bronza, cho‘yan, kumush, oltin, kabilardan turli-tuman uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, binolar qurilishida ishlatiladigan turli temir moslamalar, zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarilgan. Hunarmandchilikda quroq-yarog‘ ishlab chiqarish alohida ahamiyat kasb etgan. Buxoroda ishlab chiqarilgan qilich, pichoq, xanjar,sovut, qalqon, dubulg‘a, oltin bilan bezatilgan yoyslar jahon bozorida eng qimmat narxlarda sotilgan. Tosh, yog‘och, alebastrga badiiy ishlov berish ham juda rivojlangan. Bobur Mirzo “eng yaxshi qog’oz Samarqandda chiqariladi”, deb qayd etib o‘tganidek, Samarqand qog‘ozlari Siyob yaqinida “*qog‘izi abrishumi*” va

“qog‘oz iпaki” nomli yarim ipak va ipakdan tayyorlangan. Biroq XVIII-asr II-yarmiga kelib, ijtimoiy-siyosiy voqeiliklar sababli qog‘oz ishlab chiqarish pasayib inqirozga uchraydi.

Qayd etish lozimki, bu davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlanishi, badiy bezalishi bo‘yicha Temuriylar davridagi mahsulotlarga juda ham o‘xhash bo‘lgan. Lekin shu bilan birga, bu mahsulotlar sifat va texnik mukammallik jihatidan Temuriylar davridagi mahsulotlarga unchalik tenglasha olmagan. Shu sababga ko‘ra, Shayboniylar davrida Rossiya va G’arb mamlakatlariga eksport mahsulotlari miqdor jihatidan ko‘paygan bo‘lsa-da, uning narxi ancha pastligi tufayli olinadigan foyda ham kamaygan. Bu davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan faqat Samarqand qog‘ozigina jahon bozorida o‘z etakchilik o‘rnini saqlab qolgan edi.

XVI-asr, ya’ni o‘rta asrlarning so‘nggi siyosiy davri boshlangan davrda O‘rta Osiyo ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotida shaharlarning roli juda katta bo‘lgan. O‘sha davr shaharlari savdo, hunarmandchilik, madaniyat markazlari bo‘lish bilan bir qatorda xon, amir, hokim va beklar qarorgohlari sifatida hudud siyosiy markazlari rolini ham bajargan. Bunday shaharlar orasida ayniqsa Samarqand, Buxoro, Toshkent kabilarning ahamiyati katta bo‘lgan.

Temuriylar davrida eng yirik shahar bo‘lgan Samarqand o‘z nufuzini XVI-asrda ham yo‘qotmadi. Shahar Shayboniyxon va uning dastlabki vorislari davrida mamlakat poytaxti rolini o‘ynadi. Boburning guvohlik berishicha, Samarqand Movarounnahrning eng ko‘rkam shahri bo‘lgan. Shahar madaniyatining rivojlanish darajasi Temuriylar davridan kam bo‘lmasligi. Ayniqsa, Shayboniyxon va Kuchkunchixon davrida yangi masjid, madrasalar, xonaqolar barpo etilgan, eskilar ta’mirlangan. Lekin shu bilan birga, poytaxtning Buxoroga ko‘chirilishi shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’sir ko‘rsatmay qolmagan, albatta. XVIII-asrning 20-yillarida ko‘chmanchilar hujumlari natijasida, shahar hayoti izdan chiqa boshlaydi. Shahar aholisining ancha qismi ko‘chib ketishga majbur

bo‘ladi. Bu davrda shaharda ko‘plab milliy, etnik guruhlar istiqomat qilgan.

XVI-asrning 30-yillarida Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Buxoroga ko‘chiradi. Ubaydullaxon, uning o‘g‘li Abdulazizzon va ayniqsa, Abdullaxon II davrida Buxoroda keng ko‘lamdagi qurilish ishlari olib boriladi. Shahar hududi kengayadi. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro, nafaqat ma’muriy, balki savdo-hunarmandchilik va madaniyat markaziga ham aylanadi. Qurilgan me’morchilik obidalarining aksariyati pishiq g‘ishtdan barpo etilgan. Shuning uchun ularning katta qismi hozirga qadar saqlanib qolgan.

Buxoro xonligining markazi Zarafshon vohasi edi. Eng yirik shaharlar Samarcand va Buxoro bo‘lgan. Rus elchisi Florio Beneveni ma’lumotiga ko‘ra, Buxoroning 12 ta darvozasi bo‘lib shaharda 15000 oila istiqomat qilgan. Shahar XVIII-asrning 70-yillarida qalin devor bilan o‘rab olingan. Shahar markazida ark, Minorai Kalon, bozor joylashgan, madrasalar miqdori 8 ta bo‘lgan. XIX asrning o‘rtalariga kelib madrasalar soni 100 taga, masjidlar soni esa 200 taga etgan.

Toshkentning Temuriylar davlati tarkibidan chiqib mustaqil mulkka aylanishi munosabati bilan, XV asrning oxiridan e’tiboran nufuzi tobora oshib borgan. Baroqxon va Ko‘kaldosh madrasalari, boshqa masjid va madrasalar, xonaqolar, bozor, karvonsaroylar, hammomlar, hunarmandchilik ustaxonalari va boshqa inshootlar XVI-asrda o‘zbek sultonlari tomonidan barpo etilgan. Shahar Shayboniylar davlatining tarkibiy qismiga aylanganidan keyin ham uning nufuzi, iqtisodiy, madaniy va siyosiy roli pasaymagan. Chunki Shayboniylar davrida Movarounnahr bilan Dashti Qipchoq o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar ko‘لامи ancha kengayganligi kuzatilib, Dashti Qipchoq va Movarounnahr chegarasida joylashganligi tufayli bu aloqalar aynan shu shahar orqali amalga oshirilgan.

XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmida soliq tizimi sohasida deyarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmagan. Soliqning asosini xiroj tashkil qilgan. Bu soliq XVI-XVIII asrlar manbalarida “*mol*”, “*moli jihot*” kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Xiroj, asosan natura shaklida olinib, hosilning 3/1, 4/1, 5/1, ba’zi hollarda 2/1 qismi miqdorida olingan. Ya’ni mamlakatdagi ichki vaziyat og‘irlashgan vaqtarda esa 50 % gacha ko‘tarilgan.

Mulk yerlaridan hosilning 10/1 miqdorida ushr solig‘i olingan. Shariatga ko‘ra, xiroj, zakot, jiz’ya kabi soliqlari undirilgan. Xirojdan tashqari, soliq va yig‘imlar asosan “doimiy”, “qonuniy”, va “favqulodda” turlarga bo‘lish mumkin. *Ixrojot* davlat harajatlari uchun olingan. *Ovarizat* favqulodda holatlar, ya’ni urush vaqtida dehqon va shaharlik aholidan olingan. Yuqoridagi ba’zi to‘lovlar to‘lasincha bo‘lmasa-da, ba’zan pul tarzida ham olingan.

Markaziy davlat hokimiysi foydasiga *dorug‘alik* solig‘i olingan. Urushlar vaqtida yig‘imlar miqdori oshirilgan. Shuningdek, *tagor* armiya ta’minoti uchun natura tarzida olingan, *oshlig‘* hukumat qo‘smini foydasiga olingan oziq-ovqat yig‘imi, vaqtiga bilan *peshkash* in’om tariqasida xon, sulton va hokimlar uchun olingan. Tutun solig‘i sifatida *dud*, *dudiy* solig‘i esa pul tarzida olingan. Shuningdek, pilla puli, savzi puli, xarbuza puli kabilar ham pul tarzida to‘langan. Shayboniyalar davrida singari Ashtarkoniylar davrida ham soliq- to‘lovlar natura shaklida olingan.

Bundan tashqari, suvdan foydalanish, lashkarni ta’minlash uchun (urush yillarida), bozorda o‘z mahsulotini sotganligi va qishda o‘tin yoqqanligi uchun to‘lovlar ham amalga oshirilgan. G‘ayridinlar esa, jiz’ya solig‘ini to‘lagan.

Qishloq va shaharliklar shu bilan birga turli majburiyatlarini *mardikorlik*, *xarji qal‘a*, *begar* kabilarni ham bajarganlar. Shularning orasida mardikorlik eng keng tarqalgan majburiyat bo‘lib, bunda aholi shahar devorlarini ta’mirlash, sug‘orish inshootlarini ta’mirlash, tozalash ishlariga jalb qilingan. Masalan,

Vaxsh daryosidan kanal tortish uchun Abdullaxon II tomonidan 10 ming kishi jalb etilgan. Ishlay olmaydiganlar ma'lum miqdorda haq to'lashlari lozim bo'lgan. Soliq yig'uvchilar soliqning ma'lum miqdorini o'z ixtiyorlariga olishlari mumkin bo'lgan. Bu esa o'z navbatida turli suiste'molliklar uchun yo'l ochib bergan.

Savol va topshiriqlar:

1. Shayboniyalar hukmronligi davrida yer-suv munosabatlari sohasida amalga oshirilgan tadbirlar to'g'risida nimalar bilasiz?
2. XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligida o'tkazilgan pul islohotlarini ta'riflab bering?
3. XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligida savdo munosabatlari qaysi davlatlar bilan yo'lga qo'yilgan?
4. XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligida soliq tizimining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
5. Shayboniyalar va Ashtarkoniylar davrida Buxoro xonligining boshqaruv sohasidagi xususiyatlarni qiyosiy tahlil eting?

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, 1989.
2. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1- va 2-jildlar. – Toshkent, 1966, 1969.
2. Mir Muhammad Amin Buxari. Ubaydullaname. Per. s tadj. s primech. A.A. Semenova . - Tashkent: AN Uzb. SSR, 1957.
3. Abdurraqman Daulat Tole (Tali). Istoriya Abdulfayz-xana. Per.s tadj., predisl., primech. i ukaz. A.A.Semyonova. - Tashkent: AN. Uz.SSR, 1959.
4. History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
5. Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.

6. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
7. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
8. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
9. Istorya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
10. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi: Ikkinci kitob. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

**MAVZU: XIVA XONLIGI ARABSHOHLAR
(SHAYBONIYLAR) DAVRIDA (XVI-XVIII ASRLAR
BIRINCHI YARMI).**

1. Xiva xonligining tashkil topishi.
2. Arabshohlar (Shayboniylar) sulolasining hokimiyatni markazlashtirish yo‘lidagi siyosati.
3. XVIII-asr birinchi yarmida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Kalit so‘zlar: Xorazm, arabshohlar, shayboniylar, legitimatsiya, Xiva xonligi, ichki siyosiy kurashlar.

1. Xiva xonligining tashkil topishi

Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr va Xuroson xududlarini egallahga qaratilgan harbiy yurishlarini amalga oshirar ekan Xorazmni buysundirishga ham katta e’tibor qaratdi. 1505-yilda Shayboniyxon qo‘smini Urganchni qamal qildi. Bu vaqtida Xorazmni Qo‘ng‘iroq So‘fiylari sulolasidan Chin So‘fi boshqarayotgan bo‘lib, u Sulton Husayndan yordam suraydi. Lekin ichki nizolar Sulton Husaynga yordam qo‘lini cho‘zish imkoniyatini bermaydi. Bir

necha oy qamal natijasida Xiva ham egallanib Xorazm Shayboniyalar davlati tarkibiga kiritildi. Biroq 1510-yilda Shayboniyxon vafotidan so‘ng, Eron shohi Ismoil Safaviy Xorazmni o‘z davlati tarkibiga kiritishga muvaffaq bo‘ladi.

Shu davrdan Xiva, Xazorasp, Urganch va Vazir kabi mulklar Eron noiblari tomonidan boshqarish uchun topshirildi. Abulg‘ozixonning “Shajrai turk” asari ma’lumotiga ko‘ra, masalan Urganch dorug‘asiga Subxonqli arab, Vazir dorug‘asiga Raxmonqli arab tayinlandi. Biroq 1510-yildan Xorazm xududlarida eroniylargacha qarshi xalq harakatlari boshlanadi. Voqealar tafsilotiga ko‘ra, qo‘zg‘olonchilar tomonidan ikki yil o‘tibgina eroniy noiblar va qizilboshli qo‘shinlari Xorazmdan butunlay quvib chiqarilgan.

1511-yilda Xorazmning eng obro‘li shayxlaridan biri Sayyid ota avlodidan bo‘lgan Sayyid Hisomiddin Xitol tashabbusi bilan Xorazm taxtiga Jo‘ji avlodidan Berka sultonning o‘g‘li Elbarsxon taklif etiladi. Abulg‘ozining yozishicha, bu voqeal 1511-yil qo‘y yilida bo‘lib, amaldorlar va xalq to‘planib Elbarsxonni Vazirga taxtsari etakladilar. Ogahiy ma’lumotiga ko‘ra esa, Elbarsxon Xorazmshoxlar tojini boshiga kiygan. Shundan so‘ng, Elbarsxon xalq bilan birgalikda eroniylarni mamlakat xududidan butunlay haydab chiqarishga kirishgan.

Elbarsxonni xorazmliklarning eng obro‘li vakillari taklif qilgan bo‘lsalar-da, barcha shaharlar ham birday uning hokimiyatini tan olmadi. Ayniqsa, Urganch va Xiva zodagonlari unga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Xonlik taxtiga o‘tirgach oradan 3 oy o‘tgach Elbarsxon eroniy qizilboshlilar nazorati ostidagi Urganch shahriga otliq askarlardan iborat qo‘shin tortib boradi. Urganch dorug‘asi Subxonqli arab navkarlari tor-mor etiladi. Natijada, qizilboshlar nafaqat Urganchni, balki Xiva va Xorazmni ham tark etadilar. Shunday qilib, 1512-yilda Xorazmda davlat tepasiga dashtiqipchoqlik, Buxoro Shayboniylariga qarindosh bo‘lgan yangi

sulola Arabshohlar sulolasiga vakillari kelib Xorazmni 200 yildan ziyod boshqardilar (Jo‘jining 5-o‘g‘li Shaybon va uning avlodi bo‘lgan Arabshoh nomidan olingan). Sulola Shayboniyalar deb ham yuritilgan. Adabiyotlarda bu davlat Xiva xonligi deb yuritildi.

Elbarsxon davrida (1511-1518) mamlakat xududlari hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Saraxs viloyati, Mang‘ishloq, Abulxon, Darun hisobiga ancha kengaytirildi. Barcha o‘rta asrlar Sharq mamlakatlari qatori, yangi sulola davrida ham, Xiva xonligi alohida mulklarga bo‘linib xon avlodi vakillari tomonidan boshqarilgan. Buning oqibatida, davlat birligi doimiy ravishda ta’minlanmadni, aksariyat hollarda viloyatlar markazga bo‘ysunmasdan mustaqil boshqarildi. Ko‘p hollarda, hukmron oila vakillari o‘z hokimiyatini mustahkam boshqarishda, turli urug‘-qabila boshliqlari bo‘lgan bek, biylarga suyanganlar.

Natijada, birinchi o‘n yillikda viloyatlarni boshqargan o‘zbek sultonlari yarim mustaqil, bora-bora o‘z xududlarini mustaqil boshqargan hukmdorlarga aylanib bordi. Shu jihatdan Elbarsxon tuzgan davlat avvalboshdanoq markazlashmagan bo‘lib, XVI-XVII-asrlar, ya’ni yuz yil davomida amakivachchasi Dinmuhammad sulton, Ali Sulton, Nurmuhammadxonlar Kopetdog‘ yon bag‘irlari va bir qancha yirik shaharlarni birlashtirgan Xorazm davlatining janubini mustaqil ravishda boshqargan. Bir-biriga qarindosh bo‘lgan xonadon vakillari o‘rtasida kechgan o‘zaro urushlarda Xorazm sultonlarini ko‘pincha Buxoro Shayboniyalar va Eron shohlari yordamiga tayanishga majbur qilgan.

Amudaryoninig o‘ng qirg‘og‘idagi xududlar Elbarsxon qarindoshlari tomonidan boshqarilib, ular xon chaqirig‘i bilan qo‘sish yuborish majburiyatini olganlar. Buning evaziga ular Amudaryo o‘ng qirg‘og‘ida to‘plangan barcha soliqlarni o‘zlashtirish huquqiga ega bo‘lgan. Bunday yondashuv separatizmni, ya’ni markazdan qochishni kuchaytirmasdan qolmadi va bu holat ayniqsa Elbarsxon o‘limidan keyin kuchaydi.

Urganch taxtini Elbarsxonning o‘g‘li Sultong‘ovi egallashi lozim edi. Boybars Sultonning o‘g‘li Sultonxoji bor yo‘g‘i bir yil (1518-1519) Vazirni boshqardi. Lekin boshqa o‘zbek sultonlari taxtga Abulakxon o‘g‘li Hasanqulini o‘tqazdilar. Sultong‘ovi tarafdarlari Hasanquliga qarshi harakat boshlab Urganchni qamal qildilar. Shahar aholisi hokimiyatning o‘zgarishi, yangi soliqlar yig‘ilishiga olib kelishini tushungan holda qattiq qarshilik ko‘rsatishadi. Lekin oziq-ovqat zahiralari tugab ochlik, qimmatchilik boshlanib, to‘rt oylik qamal natijasida Urganch egallangan hamda shaharni himoya qilgan siyosiy kuchlar jangda o‘ldirildi.

Shaharni qamal qilganlarning aksariyatini Aminakxon (Berka Sulton inisi) rahbarligidagi kuchlar tashkil qilgan edi. Shu bois, manbalarda keyingi siyosiy jarayonlarda Aminakxon o‘g‘illaridan Sufiyonxon, Bug‘achixon, Avaneshxon, Qolxon va Aqatoxxonlar hukmronligi tilga olinadi. Xususan, 30-yillarda Xiva, Xozarasp, Qiyotni egallagan o‘zbek sultonlari So‘fiyonxon atrofida birlashganlar. Ularning yordami bilan So‘fiyonxon Xorazmning janubiy-sharqiy xududlarini, shuningdek Kopetdog‘dan shimolda joylashgan viloyatlarni bo‘ysundirdi. Bu holat yerlarning yangicha taqsimotiga olib keldi. Ya’ni, Xorazmning Kaspiy dengizigacha bo‘lgan g‘arbiy va janubiy g‘arbiy xududlari Darun, Mang‘ishloq, Vazir, Yangi shahar, Tirsak bilan birga Sultong‘ovi ixtiyoriga bo‘lsa, Aminakxon o‘g‘illari Xiva, Xazorasp, Qiyot, Bog‘abod, Niso va boshqa xududlarni o‘z o‘rtalarida bo‘lib oldilar. Abulxon va Dabistonda yashovchi turkmanlar ularga buysundirildi. So‘fiyonxon va Sultong‘ovi o‘rtasidagi kurash So‘fiyonxon g‘alabasi bilan yakunlanadi. Berka Sulton avlodlari (Elbarsxon va Boybars farzandlari) Buxoroga chekindilar.

So‘fiyonxonning hukmronligi yillarida turkmanlarning xon hokimiyatiga qarshi harakatlari kuchaydi. Abulg‘ovi ma’lumotlariga ko‘ra, turkmanlarning ersali urug‘i tomonidan ko‘tarilgan

navbatdagi qarshilik harakatiga, Sufiyonxon tomonidan g‘aznaga zakot to‘lash buyuriladi. Natijada, soliq yig‘ishga yuborilgan xon amaldorlari turkmanlar tomonidan o‘ldiriladi. Bundan darg‘azab bo‘lgan xon ular ustiga yurish qilib, o‘ldirilgan har bir kishi uchun 1000 ta qo‘y to‘lash majburiyatini yuklaydi (“Shajarai turk”).

“Firdavs ul-iqbol” asarida yozilishicha, So‘fiyonxonidan so‘ng taxtga Bug‘achixon (Buchg‘axon, vaf. 1525-1526), keyin taxtga Avaneshxon (1536-1538) o‘tirdi. Avaneshxon davrida Xorazmga Buxoro xoni Ubaydullaxon 1537-1538-yillarda yurishlar qilib, Toshkent, Samarqand va Hisor qo‘sishnlari yordamida egallashga muvaffaq bo‘ladi. Qarshilik ko‘rsatishga jur’at qilmagan Avaneshxon Dashti Qipchoqqa qochib ketadi. Urganchni egallagan Ubaydullaxon Avaneshxon orqasidan qo‘sish yubordi va uni mag‘lubiyatga uchratib Avaneshxon o‘ldirildi. Xorazm hukmdori etib Ubaydulaxon o‘g‘li Abdulazizzon qoldiriladi. Biroq Buxoro xonligining hukmronligi uzoqqa cho‘zilmaydi, xorazmliklar buxoroliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradilar. 1538 yilda Xazorasp va Xiva shaharlari oralig‘idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo‘sishnlari mag‘lubiyatga uchraydi. Bu g‘alaba, afsuski Xorazmni hukmron doiralarini birlashtirmadi va aksincha hokimiyat uchun kurashning yangi to‘lqini paydo bo‘ldi va Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi. Mana shunday kurashlarda Xorazm Sultonlari ko‘p hollarda Eron shohi saroyidan panoh topganligi ma’lum bo‘ladi.

Aqatoyxon davrida (1547-1556) Xiva xonligida ham qarindoshlar orasida kurash avj olib, uning o‘zi ana shu jarayonlarning qurboni bo‘lgan edi. Jangda asir tushgan Aqatoyxon o‘z jiyani Qosim Sulton buyrug‘i bilan qatl etilishi o‘zaro sulolaviy kurashni avj oldiradi. Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa shuki, XVI-asr birinchi yarmida Xiva xonligining tashkil topishi bilan boshlangan jarayonlar, uning mintaqada o‘z mavqeiga ega bo‘lish

va uni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan tadbirlar ko‘p hollarda ichki sulolaviy kurashlarda aks etgan edi.

XVI-asr ikkinchi yarmida Xiva xonligida markaziy hokimiyatning nisbatan mustahkamlanishi va tashqi siyosatda kuchlar nisbatining o‘zgarishi bilan kechdi. 1557-yil siyosiy jarayonlari shuni ko‘rsatdiki, Avaneshxon o‘g‘li Ali Sultonni qo‘llab-quvvatlashi natijasida, Aqatoyxonni o‘g‘li Xojimxon Vazir shahri taxtiga o‘tirdi. Avaneshxon Dinmuhammadni davlatni boshqarish ishlariga jalg qilmagan edi. G‘alabalardan so‘ng u xonlik taxtiga o‘tirmadi. Shunday bo‘lsada, Buxoro shayboniylarini quvib chiqargan Dinmuhammad katta obro‘ga ega bo‘lgan hukmdorga aylangan.

Hojimxon (Hoji Muhammad, 1558-1602) hukmronligi davrida Xorazmdagi o‘zaro urushlarga biroz barham berilib, birmuncha tinchlik va osoyishtalik o‘rnataladi. 1558-yilda Xorazmga kelgan Antoni Jenkinson bu hukmdor “juda katta hayotiy tajribaga, obro‘-etiborga ega bo‘lgan, insofli, diyonatli va adolatpesha xon” bo‘lganligini ta’kidlaydi. U qo‘shti Buxoro, Rossiya va Eron davlatlari bilan aloqalarni imkoniyat darajasida mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi. Lekin bu aloqalarga ayrim siyosiy voqealar hamda manfaatlar to‘qnashuvi ta’sirida putur etgan. Shu jihatdan, Hojimxon mamlakatda hokimiyatni siyosiy barqarorlashtirishga to‘liq erisha olmadi. Jenkinson ma’lumotiga ko‘ra, “... birgina Urganch etti yil davomida to‘rt bor qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turdi”.

Buxoro xoni Abdullaxon II o‘z mavqeini mustahkamlab, davlatini kengaytirish uchun Xorazm yerlarini ham o‘z tasarrufiga kiritish uchun jiddiy harakatlar olib borgan. Buxoro tarixiga bag‘ishlangan asarlarda Abdullaxon II tomonidan 1575, 1593, 1595-yillarda Xorazmga davomli yurishlar qilingan bo‘lib, bu bevosita Xiva xoni va sultonlarining hatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Xususan, 1593-yilda Abdullaxon II yurish qilib Xiva xonligini egallaydi. Hojimxon Eronga qochib shoh Abbos saroyidan panoh

topadi. Oradan ma'lum muddat o'tgach Hojimxon o'z taxtini Eron shohi Abbos va turkmanlar yordamida qaytarib olishga urinib ko'radi. Lekin uning bu urinishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Faqat 1598-yilda Abdullaxon II o'limidan keyingina Hojimxon Xorazmni qaytarib olib yana xonlik taxtiga o'tiradi.

2. Arabshohlar (Shayboniylar) sulolasining hokimiyatni markazlashtirish yo'lidagi siyosati

Hojimxon vafot etgach, taxtga uning o'g'li Arab Muhammadxon (1602-1621) o'tiradi. Arab Muhammadxon hukmronligi davrida Xiva xonligi og'ir siyosiy inqiroz davrini boshidan kechirdi. Xususan, uning dastlabki davrda nayman va boshqa urug'lar tomonidan boshqa o'zbek sultonlarini taxtga o'tqazish harakatlari amalga oshiriladi. Bu harakatlarni bartaraf qilgan Arab Muhammadxonga, endilikda o'g'illari taxt va mansab talashish kurashlarini olib bordilar. Arab Muhammadxonning Asfandiyorxon, Habash, Elbars, Abulg'ozi, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg'on Sulton ismli 7 nafar o'g'li bor edi. Asfandiyor Hazoraspda, Abulg'ozixon Kotda, Habash va Elbars sultonlar Vazir va Urganchda hokim etib tayinlangan edi. Habash va Elbars sultonlar taxtga da'vogar bo'lib, otasiga qarshi chiqdilar va oxir-oqibatda bu qonli urushga aylanadi.

1621-yilda Toshli Yorilish arig'i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon tomonidan Asfandiyorxon, Abug'ozixonlar va Habash, Elbars sultonlar o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Arab Muhammadxon yengiladi. Bu vaqtda Asfandiyorxon Eronga va Abulg'ozixon Buxoroga qochib ketgan edi. Xiva xonligida hokimiyat Habash va Elbars sultonlar qo'liga o'tdi (1621-1623). 1623-yilda Arab Muhammadxon, ya'ni otasi o'limini eshitgan Asfandiyorxon turkmanlarning yordamida Urganchga yurish qildi. Urganch yaqinida Asfandiyorxon va Xabash, Elbarsxon qo'shinlar

o‘rtasidagi jangda aka-ukalar qo‘sini mag‘lub etiladi va isyonchilar barchasi qatl etiladi.

Asfandiyorxon (1623-1642/43) hukmronligi davrida turkmanlarning boshqaruv lavozimlariga jalb etilishi va imtiyozlar berilishi natijasida, o‘zbek urug‘larining noroziligi kuchayib boradi. Tarixchi Munisning ko‘rsatishicha, Asfandiyorxon yuritgan siyosat tufayli unga muxolif bo‘lib qolgan o‘zbek urug‘larining turli xududlarga ketib qolish hollari avj olgan. Xonning ukasi Abulg‘ozixon ham uning tazyiqi ostida mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘lgan edi. Asfandiyorxon xonlik taxtida mustahkamlanib olgach, Xuroson yerlariga te-tez hujumlar uyushtira boshlagan. Tarixshunoslikda “Xuroson isyoni” deb nom olgan bu voqeа tufayli, Asfandiyorxon o‘z mag‘lubiysi va Eron davlati bilan munosabatlarning buzilishi oqibatini tushunib, ukasi Abulg‘ozixonni “isyon” rahbari va garovga berilgan omonat sifatida Eron shohi huzuriga yuboradi. Qisqasi, Asfandiyorxon davrida ham tinlik va osoyishtalik o‘rnatilmadi, toju-taxt uchun kurashlar ilgarigi davrdagidek davom etdi.

Isfahondagi Taborak qal’asida o‘n yil yashagan Abulg‘ozixon yana bir necha yil muhojirlikda yurgach 1643-yil Asfandiyorxonning o‘limidan so‘ng taxtga ko‘tariladi. Abulg‘ozixonning (1643/44-1663/64)⁹ dastlabki hukmronlik yillari og‘ir kechdi, sababi Asfandiyorxon davrida katta imtiyozlarga ega bo‘lgan turkmanlarning davlat ishlarida ta’siri ortgan, boshqa tomonidan Buxoro hukmdorlarining ham xonlikning siyosiy hayotiga aralashuvi vaziyatni chigallashtirgan edi. Shularni e’tiborga olgan Abulg‘ozixon, dastavval asosiy e’tiborni davlat apparati va boshqaruv tizimini mustahkamlashga qaratdi. U turkman amaldorlarini davlat boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ular qo‘lidagi mol-mulklar, yer-suvlarni tortib oldi. Shundan so‘ng ular xonlik hududlarining chekka qismi hozirgi Turkmanistonning

⁹ Фирдавс ул-иқбол. -В. 90.

janubiy qismiga, Mang‘ishloq tomonlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar. Xususan, 1645-1650-yillarda Xuroson, hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Tajan, Murg‘ob, Atrek daryolari havzasidagi hamda Gurgan, Abulxon va Mang‘ishloq atroflaridagi turkmanlar ustiga yurishlar qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundirdi. Xiva-Buxoro munosabatlari ham uning diqqat markazida edi. Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, asosan, xonlikning janubiy qismi (hozirgi Turkmaniston janubiy qismi) va Xurosonda o‘z ta’sir doirasini kuchaytirish masalasida yuzaga kelgan edi. Abulg‘ozi Bahodirxon Buxoroga qarshi etti marta yurish uyushtirdi, shimoldan bo‘layotgan qalmiqlarning tajovuzlariga ham qaqshatqich zarba berdi va xonlikning shimoliy-g‘arbiy chegaralarini mustahkamladi.

Xonlikning barcha yuqori lavozimlari Xiva arabshohlari (shayboniylar) vakillari qo‘liga topshirildi. Xususan, ulardan 360 kishi xonlikning turli lavozimlariga tayinlandi va bundan tashqari, yana 32 tasi markaziy boshqaruvdagi obro‘li lavozimlarga saylandi. Abulg‘ozixonning o‘ziga xos islohatlaridan biri shuki, umum davlat ishlarida turkiy urug‘lari ishtirokini ta’minalash orqali uzoqni ko‘zlab tartib o‘rnatdi. Bu islohat natijasida, nafaqat qabilaviy kurashlar kamaytirildi, shu bilan birgalikda, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning o‘troqlashuvi tezlashdi.

Abulg‘ozixonning ichki siyosat sohasida o‘tkazgan muhim tadbiri Dashti qipchoqdan kelgan ko‘chmanchi qabilalarni butun voha bo‘ylab o‘troqlashtirish siyosati bo‘ldi. Mazkur ko‘chmanchi qabilalarni o‘zaro yaqinliklariga qarab, to‘rtta guruhga: *uyg‘urnayman*, *qo‘ng‘irot-qiyot*, *nukus-mang‘it* va *qang‘li-qipchoq* kabilarga bo‘linib, Darg‘onotadan to Orol dengizigacha bo‘lgan hududlarga joylashtirildi.

Dashti qipchoqdan kelgan ko‘chmanchilar va Orol bo‘yida yashayotgan qoraqalpoqlarning o‘troqlashuvi va ularning dehqonchilik sharoitiga o‘ta borishi bilan Xorazm vohasida yangi

yerlarni o‘zlashtirish, sug‘oriladigan maydonlarni ko‘paytirish, yangi ariqlar qazish, yangi qishloq va shaharlar barpo qilish zaruratini tug‘dirdi. Abulg‘ozixon hukmronligi davrida amalga oshirilgan islohotlar, ulkan qurilishlar, suv inshootlari xonlikda ekin maydonlarini kengaytirish, sug‘orish ishlarini yaxshilash aholi farovonligini oshirishga imkoniyat yaratdi.

Abulg‘ozixon Xorazm tarixshunoslik mакtabiga asoschisidir. U o‘zining «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» nomli tarixiy asarlarni yozgan. Xususan, hukmronligining so‘nggi yillarida “Shajarai turk” asarining asosiy qismini yozdi, lekin betobligi tufayli uni oxiriga etkazishni o‘g‘li Anushaxonga topshirdi. Bu borada, akad. Ya.G‘ulomov, Anushaxonning buyrug‘iga ko‘ra asarning dastlabki oltita bobi va 9-bobining yakuni Mahmud ibn Muhammad Urganjiy tomonidan yozilgan (“Xorazmning sug‘orilish tarixi” asari).

Abulg‘ozixon hayotlik davrida hokimiyatni o‘g‘li Anushaxon (Anusha Muhammad, 1663-1689)ga topshiradi. Anushaxon otasining markazlashtirish siyosatini tomonidan davom ettirdi va bu davrda Xiva xonligining mavqeい, qudrati yanada oshdi. U otasi boshlagan tashqi siyosatni davom ettirib Buxoro, Samarqand va Xurosonga harbiy yurishlar uyushtirdi. Anushaxon Xurosonga yurish qilib, Mashhad shahrini egalladi. Bu yurishlar natijasida behisob o‘ljalar, ko‘plab asirlar olib, xon xazinasini yanada boyitdi. Anushaxonning Buxoro xonligi yerlariga uyushtirgan hujumlari va hatto, Buxoro taxtini egallahdagi muvaffaqiyatiga xonlik ichidagi ziddiyatlar va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sabab bo‘lgan. Muhammad Yusuf Munshi ma’lumotiga ko‘ra, u Samarqandni egallach o‘z nomidan juma namozida xutba o‘qittirib, shuningdek o‘z nomidan tanga zarb ettirgan. Keyinchalik bu xon saroy amaldorlari tomonidan uyushtirilgan fitnaning qurboni bo‘ldi. Xiva xonligi taxtiga uning o‘g‘li Hudaydod (1687-1688) qisqa muddat o‘tirdi. Arangxon ibn Anushaxon (Muhammad Arnakxon, 1690-

1694) davrida Buxoro xonligi bilan ziddiyatlar saqlanib qoldi. Arabshohlar sulolasi davrida erishilgan siyoiy birlik Aminakxon xonadonining so‘nggi vakili Arangxon dan keyin barham topadi.

*XVI asrdan - 1770-yilgacha hukmronlik qilgan Arabshohlar
(Shayboniylar) sulolasi va boshqa hukmdorlar*

- Elbarsxon – 1511-1518
- Sulton Xoji - 1518-1519
- Sufiyonxon – vaf.1521/22
- Bug‘achixon (Buchg‘axon, vaf. 1525/26)
- Avaneshxon – 1536-1538
- Qolxon – 1539-1546
- Aqatoyxon – 1547-1556
- Dinmuhammad – 1557-1558
- Xoji Muhammad - 1558-1602
- Arab Muhammadxon – 1602-1621
- Asfandiyorxon – 1622-1642/43
- Abulg‘ozixon – 1644/45-1663/64
- Anushaxon – 1663/64-1687
- Hudoydod – 1687-1688
- Muhammad Arangxon (Arnakxon) – 1690-1694
- Valixon - 1697-1699
- Shohniyoz – 1698-1702
- Arab Muhammad – 1702-1715
- Sherg‘ozixon – 1714-1728 (Arabshoxlar sulolasi)
- Elbarsxon – 1728-1740 -(qozoq sultoni)
- Toxirxon - 1740-1741
- Nuralixon – 1741 (qozoq sultoni)
- Abulg‘ozixon II - 1741-1745)
- G‘oyib Sulton (Toibxon) -1745-1756 (qozoq sultoni)
- Temurg‘izi Sulton -1757-1762
- Tavkaxon - 1762-1764 (qozoq sultoni)

- Turkman yovmutlari - 1743, 1767-1770-yillar.

Savol va topshiriqlar:

- 1.XVI-asr birinchi yarmida Xorazmda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni izohlab bering?
- 2.Xiva xonligining tashkil topishi xususida Klaster tuzing.
- 3.Arabshohlar yoki Shayboniylar hukmdorlarining markazlashtirish siyosatiga oid misollar keltiring?
- 4.XVII-asr oxiri va XVIII-asr boshlarida Xiva xonligida kechgan siyosiy parokandalik sabablarini nimalar bilan izohlaysiz?
- 5.“Xonlar o‘yini” iborasiga izoh bering?

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 2.Abulg‘oziy Bahodurxon. Shajarayi turk / Mas’ul muharrir B.Axmedov. Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
- 3.Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtu saodat jannati). –T.: Yangi asr avlod, 2010.
- 4.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy / Tarixiy esse. –Toshkent: Kamalak, 1991.
- 5.History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
- 6.Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
- 7.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
- 8.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
- 9.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 10.Allaeva N. Xiva xonligi diplomatiyasi (XVI-XIX asrlar). – T., 2018.

11.Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi. 2019.

MAVZU. XIVA XONLIGI QO‘NG‘IROTLAR DAVRIDA (XVIII -ASR IKKINCHI YARMI-XIX ASR BIRINCHI YARMI)

Reja:

- 1.Qo‘ng‘irot inoqlarining hokimiyatga kelishi.
- 2.XVIII-asr ikkinchi yarmi – XIX-asr birinchi yarmida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol.

Kalit so‘zlar: Qo‘ng‘irotlar sulolası, hokimiyat, legitimatsiya, markazlashuv, turkmanlar, Qo‘ng‘irot, ichki va tashqi siyosat.

1.Qo‘ng‘irot inoqlarining hokimiyatga kelishi

Oldingi mavzuda aytib o‘tilganidek, Aminakxon xonadonining so‘nggi vakillari bo‘lgan Abulg‘oz va Anushaxon davrida Xiva xonligida kechgan siyosiy barqarorlik XVIII-asr boshlariga kelib yakunlanib, alohida qabilaviy guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun o‘zaro siyosiy kurashlar avjiga chiqdi. Qabila boshliqlarining siyosiy hukmronligi shu darajaga etdiki, ular siyosiy kuchlarni o‘z tomoniga og‘dirib u yoki bu xonni qo‘llab-quvvatlaydigan, o‘zlari xohlagan Chingiziy sultonlarni taxtga chiqaradigan bo‘ldilar. “Firdavs ul-iqbol” asarida aytishicha, XVII-oxiri va XVIII-asr boshlarida o‘zaro qabilaviy kurashlar natijasida Xiva taxtiga 7 dan ziyod xonlar almashgan. Ba’zi manbalarda, xonlik bu davrda “*Besh qal’ा*” deb atalgan, ya’ni Xazorasp, Xonqa, Urganch, Kot va Shovot qal’alari markaziy hokimiyatga yuzaki tobe bo‘lgan. Bu davrda markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalanib, Xorazmning

shimolida quyi Amudaryo oqimida joylashgan Orol viloyati markazi Qo‘ng‘irot bilan birgalikda ajralib mustaqil boshqarilgan.

Xonlikda hokimiyat uchun o‘zaro kurashlarda Buxoro xonlarining va Orol viloyati hokimlari aralashuvi bilan tayinlangan “*qo‘g‘irchoq xonlar*” almashinuvi avj oladi. Jumladan, Buxoro xoni Subhonqulixon o‘z odami Shohniyozni taxtga (1690/91-1707) o‘tqazadi. Bu hukmdor o‘z navbatida, hokimiyatini mustahkamlash uchun ham Buxoro, ham Xiva xonligidagi siyosiy kuchlar ta’siridan xalos bo‘lishga harakat qilgan. Buning chorasini rus hakumati bilan hamkorlik qilishda ko‘rgan xon, 1700-yilda Pyotr I murojaat etib, rus fuqaroligiga o‘tish niyati borligini bildirgan.

Arab Muhammadxon (1707-1715) hukmronligidan so‘ng, 1715-yilda Buxorodan Xorazm sultonlaridan Sultong‘izi Sultan avlodidan bo‘lgan Sherg‘ozixon (1714-1726) o‘tqaziladi. Bu hukmdor Arabshohlar orasida markazlashtirish siyosatini yuritgan so‘nggi hukmdor sifatida nisbatan barqarorlik o‘rnatishga erishdi. U dastavval, xonlikdagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etish, o‘zbek, turkman, qoraqalpoq katta mulk egalarini, o‘zboshimchalik bilan Xiva xonligidan ajralib, mustaqil bo‘lib chiqishga harakat qilayotgan orolliklarni o‘ziga tobe qilishga majbur qildi. Ana shundaylardan biri mang‘it urug‘iga mansub Sherdalibiy bo‘lib, u Orol viloyati taxtiga Xiva xoniga raqib sifatida Shohtemurni o‘tqazadi.

XVIII asr birinchi yarmi davomida Xiva xonligida kechgan ichki beqaror vaziyat, Xorazm diyorini o‘z manfaatlari yo‘lida bunsundirishni istagan boshqa davlatlar ayni muddao bo‘ldi. Shu maqsadda, Xiva xonligiga tajovuzkorlik harakatlari 1715-1717-yillardagi Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi hamda Eron shohi Nodirshox tomonidan 1739-1740-yillarda amalga oshirildi. Bu davrda Rossiyada Pyotr I kuchli tashqi siyosat olib borish davomida nafaqat G‘arbga qarab siljidi, balki xom ashyo zahirasiga ega bo‘lgan O‘rta Osiyon ham nazardan chetda qoldirmadi. Shu

maqsadda, 1714-1717-yillarda uyushtirilgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida ekspeditsiyaga xonlikni “Rossiya fuqoroligiga o‘tishi”, “harbiy otryadlar yordamida rus hukmronligini joriy qilish” ga qaratilgan topshiriqlar yuklangan edi. Lekin Xiva xoni Sherg‘ozixon 6000 askar, artilleriyadan iborat bu ekspeditsiyaga shubha ostida qarab, qo‘sinni xonlik shaharlariga bo‘lib tashlab halok qildirdi. Bu holat Rossiya hukumati tomonidan qanchalik qoralanmasin, mamlakat xavfsizligini ta’minlash nuqtai-nazaridan, qurol-yarog‘ va harbiy tayyorgarligi jihatdan o‘zidan bir necha ustun bo‘lgan qo‘sinni engish uchun boshqa chora topilmaganligini ko’rsatadi.

1728-1740-yillarda xonlik taxti Elbarsxon tomonidan boshqarilib, bu davrda Eron shohi Nodirshoh xonlik xududlariga bostirib kirdi. “Firdavs ul-iqbol” asarida, bu voqeа 1740 yil oktyabr oyida yuz berib, Eron shohi Buxoro xonligidan farqli ravishda qattiq qarshilikka uchragan. Biroq yaxshi qurollangan Eron qo‘sini xivaliklarni tor-mor keltirdi, Elbarsxon esa yaqinlari bilan birga o‘limga hukm qilindi. Nodirshohning bosqini xonlik hayotida salbiy oqibatlarga olib keldi. Eron artilleriyasi xonlikning ko‘pgina shaharlarini vayron qildi, 4 ming xivaliklar Xuroson, Obivard atroflariga ko‘chirildi, yana shunchasi qizilboshli qo‘sishlar safiga kiritildi, oziq-ovqat zahiralari talon-taroj qilindi. Bu holat mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi, xonlikda o‘zaro kurashlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu inqiroz bir necha o‘n yilliklarga xonlik rivojini orqaga surdi.

Elbarsxon o‘limidan so‘ng xivaliklar darhol Kichik qozoq juz xoni Abulhayrxonni xonlik taxtiga taklif etdilar. U Xiva taxtiga o‘tirgach, Nodirshohga maktub yo‘llab, sulh tuzishni taklif qiladi. Ammo Nodirshoh bu taklifni rad qilib, Xivaga qarab yurishni davom ettiradi. Bundan cho‘chigan Abulhayrxon bir necha kun xonlik qilgandan so‘ng Xiva taxtini tashlab, Dashti qipchoqqa qochib ketadi. Nodirshoh Xivani istilo qilib, Mang‘it o‘zbeklaridan

Ortiqbek va Xo‘rozbek inoqlarni Xivaga noib qilib qoldirdi. Shu bilan birga, Nodirshoh Xorazmni fath etgandan so‘ng mahalliy amaldorlar bilan kelishgan holda harakat qildi, mahalliy urf-odat va boshqaruv an’analarini, jumladan chingiziylar xonadonining hokimiyat legitimligidagi o‘rnini hisobga olib ish yuritgan. Munisning yozishicha, Nodirshoh tomonidan o‘tqazilgan Toxirxon (1740-1741) o‘ldirilgach, orolliklar xonlik taxtiga qozoq xoni Abulhayrxonni o‘g‘li Nuralixon (1741) o‘tqazishgan. Bu davrda xorazmliklarning aynan qozoq xoniga murojaat etishini bir qator sabablari bor edi. XVII asr oxirlarida Arabshohlar sulolasи hokimiyatining zaiflashib qolishi bilan Qozoq dashtidagi chingiziylarning vakillarini Xiva taxtiga taklif etish an’anasi yuzaga kelgan edi. Shunga ko‘ra, Xorazmning yuqori tabaqa vakillari Nodirshohdek kuchli raqibni bartaraf etishda Abulhayrxonning yordamiga umid bog‘lagan bo‘lishi mumkin. Nuralixon atigi 3 oy hukmdor bo‘lgach, Nodirshoh ruxsati bilan keyin taxtga Elbarsxonning o‘g‘li Abulg‘ozixon II (1742-1746) o‘tiradi. Lekin bu hukmdor mang‘it urug‘i yetakchilari Ortiqbek va Xo‘rozbek bilan kelisha olmay o‘ldiriladi.

Shundan so‘ng taxtga Abulhayrxonni kichik ukasi G‘oyib Sulton (Toibxon, Kaipxon) (1746-1756) o‘tiradi. G‘oyibxonning shafqatsiz siyosati, soliqlarni oshirish natijasida xalq isyoniga sabab bo‘ladi. Natijada u qozoq dashtlariga qochadi. Keyin taxtga 1757-yilda o‘zaro kurash olib borgan amaldorlar iltimosiga ko‘ra, Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy tomonidan Temurg‘ozi Sulton (1757-1762) yuboriladi. Temurg‘ozixon ham Xiva xonligida barqarorlikni o‘rnata bilmadi. O‘zaro taxt uchun talashuvlar keskinlashib ketdi. Xonlik taxtida etti yil o‘tirgan Temurg‘ozixondan so‘ng, taxtga undan so‘ng qozoq sultoni Tavkaxon (1762-1764) o‘tiradi.

Keyingi siyosiy jarayonlarda o‘zaro kurashuvchi kuchlarning o‘z tomoniga turkman qabilalarining jalb etilishi natijasida, XVIII-

asr 60-yillar o‘rtasida xonlik hokimiyati turkmanlarning yovmut qabilasi qo‘liga o‘tdi. U yoki bu tomonda ishtirok etgan turkmanlar shu asrning 40-70-yillarida siyosiy hayotda o‘z ta’sirlarini oshirib borib, bir necha bor deyarli butun mamlakatga egalik qildilar.

2. XVIII -asr ikkinchi yarmi - XIX -asr birinchi yarmida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol

XVIII-asr ikkinchi yarmi Xiva xonligida markazlashmagan siyosiy hokimiyat davri bo‘ldi. Bu davrda xonlar amalda hokimiyatni yo‘qotib kurashuvchi guruhlar qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylandilar. Ya’ni, ba’zi o‘zbek urug‘ boshliqlari amalda hokimiyatni egallab, taxtga o‘tqazilgan u yoki bu xonlar nomidan davlatni boshqardilar. Shu bois, bu davr ba’zi manbalarda “*inoqlar hukmronligi*” yoki “*xonlar o‘yini*” (*xonbozi*) davri deb ataldi. Mamlakatdagi siyosiy tarqoqlik o‘z navbatida iqtisodiy xo‘jalikni ham izdan chiqargan. Munisning guvohlik berishicha, ekinzorlar chakalakzor va tikonzorlarga aylangan, obod yerlar payxonzorga aylangan. Natijada, 1770-yilda Xorazmda ochlik, qimmatchilik, yuqumli epidemiya tarqalgan. Bunday kulfatdan qutulish maqsadida aholining mamlakatdan bosh olib chiqib ketishi kuchaygan.

Arabshohlardan keyin Xiva xonligi taxtiga, yangi mahalliy Qo‘ng‘irotlar sulolasining kelishi o‘ziga xos tarixiy jarayonni bosib o‘tgan. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi nafaqat davr talabi, balki ularning uzoq yillar davomida olib borgan tinimsiz kurashining natijasi edi. Bu kurashning birinchi bosqichi XIV-asrning 60-yillarida Qo‘ng‘irot so‘fiylarining siyosat maydonida paydo bo‘lishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, XVIII-asrning ikkinchi yarmida Muhammad Amin inoq sa’y-harakatlaridan boshlangan ikkinchi bosqich Eltuzarxonning taxtga o‘tirish bilan yakunlangan.

XVIII asrning 70-yillarida siyosat maydonida faollashgan Muhammad Amin inoqning harakatlari tufayli o‘zaro urushlarga,

tashqi hujumlarga barham berish, qo‘ng‘irot inoqlariga o‘z mavqelarini mustahkamlab olish uchun sharoit vujudga kelgan edi. “Firdavs ul-iqbol” asarida Muhammad Amin inoqning amaldagi hokimiyati 1762/63-yilda boshlanganligi qayd etiladi. Xalq va o‘z qabiladoshlarining ko‘magiga tayangan Muhammad Amin xonlikni birlashtirish yo‘lida avvalo, boshboshdoq bo‘lib ketgan turkman qabila boshliqlariga qarshi kurash olib bordi, shuningdek Orol viloyati atrofiga o‘rnashgan boshqa muxolif urug‘larga qarshi kurashdi. Jumladan, 1768-1770-yillarda Muhammad Amin inoq turkmanlarning chovdir va yovmut qabila boshliqlariga jiddiy zarbalar berib, ularni Mang‘ishloq, Gurlanga chekinishga majbur qildi.

1778-yilda orollik mang‘itlardan Jon Murod inoq Mang‘it qal’ani egallab, Abdurahmon Sultonni xon qilib ko‘tardi. 1779-yilda Jon Murod muhim strategik shaharlardan Xo‘jayli, Xazorasp va Vazirni egalladi. Munis guvohlik berganidek, shu tariqa “davlat bo‘linib ketdi”. Jon Murod inoq ustidan g‘alaba qozongan Muhammad Amin inoq Mang‘it qal’a aholisini Otaliq Orna kanaliga ko‘chirib keltirilishi natijasida yangi Mang‘it qal’asi barpo bo‘ldi. Shu davr mobaynida Muhammad Amin turkmanlarning yovmut qabilasiga tayanib, davlatdagi ayirmachi kuchlarga qarshi kurashdi. Davlatni amalda boshqargan Muhammad Amin inoq o‘z boshqaruviga qonuniy tus berish maqsadida, chingiziylargaga mansub xonlarni taxtga o‘tqizdirdi. Boshboshdoq kuchlarga qarshi qattiq kurash olib borgan bu hukmdor umrining oxirgi yillarida (1790) tinchlik o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. Shu tariqa, XVIII-asr so‘nggi choragida Xiva xonligida markazlashuv holatining kuchayishi sodir bo‘ldi.

Uning o‘limidan so‘ng taxtga o‘g‘li Avaz Muhammad (1790-1804) o‘tirdi. U ham otasi singari davlatni soxta xonlar nomidan boshqardi va davlatni markazlashtirish yo‘lida kurash olib bordi. 1793-yilda Orol viloyati mustaqil bo‘lib oldi va bu safar muxolif

orolliklarga aka-uka Xo‘jamurodbiy va To‘ramurod so‘filar boshchilik qildi. Akad. Ya.G‘ulomov Xiva inoqlariga orolliklar qarshilagini engib o‘z hukronligini mustahkamlash uchun 18 yil mobaynida (1793-1811) kurash olib borishga to‘g‘ri kelganligini ta’kidlaydi.

XIX-asr boshlariga kelib qo‘ng‘irotlar sulolasi hokimiyati bir muncha mustahkamlandi. Eltuzarxon (1804-1806) davrida rasman “xonlik” maqomini oldi. “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirilishicha, 1804-yil 17-noyabrdan Eltuzar inoq Qozoq chingiziylaridan bo‘lgan “qo‘g‘irchoq xon” Abulg‘ozixonni taxtdan tushirib, o‘zi “podshohliq tatig‘a julus qilgan” edi. Uning davrida zarb ettirgan tanga yozuvlaridan shuni anglash mumkinki, Eltuzarxon o‘z hokimiyatining legitimligini asoslashda mahalliy sulola vakili sifatida buyuk Xorazmshohlarning vorisi ekanligiga urg‘u bergen.

Eltuzarxon markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo‘lida faol siyosat olib bordi. 1804-yilda xonlikning Orol bilan chegaradosh yerdagi tayanch istehkom Xo‘jayli, 1805-yilda Orolning markazi Qo‘ng‘irot ham qo‘lga kiritilgan. Bu davrda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini tartibga soluvchi bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, soliq tizimi, davlat lavozimlarini tayinlash borasida Eltuzarxon sulton va amirlar uchun fuqarolar mulkidan olingan turli xil to‘lovlar (*vazoif, marsamat*)ni bekor qildi. “Firdavs ul-iqbol” asarida, sultonlar foydasiga raiyatdan olingan *salg‘ut* yoki ularni turli majburiy ishlarga (*begar*) tortish bekor qilindi, shu orqaliadolat bir muncha o‘rnatildi, deyiladi. Ma’muriy sohadagi islohati orqali, urug‘-qabila boshliqlari va viloyat hukmdorlarining huquqlari cheklandi. Turli viloyat hokimligi va qozilik lavozimiga xonga ishonchli bo‘lgan kishilar tayinlandi.

Eltuzarxon davrida ro‘y bergen jiddiy voqealardan biri Buxoro bilan Xiva xonligi o‘rtasidagi urush bo‘ldi. Bu urushning kelib chiqishiga asosiy sabab Xiva xonligi hududida Xiva savdo karvonlarining qaroqchilar tomonidan talanishi bo‘ldi. Buning

oqibatida ikki xonlik o‘rtasida munosabatlar buzildi. 1806-yilda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Shohabbos (hozirgi Beruniy) hududidagi jangda Xiva qo‘sishinlari tor-mor qilinadi. Daryoning narigi, so‘l qirg‘og‘iga kemalarda suzib o‘tishga shoshilgan Xiva askarlarining ko‘p qismi daryoga cho‘kib halok bo‘ldi. Eltuzarxon o‘tirgan kema ham daryoga g‘arq bo‘lib, xon ham halok bo‘ladi.

Shundan so‘ng taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) o‘tiradi. Buukmdor manbalarda jasur, tadbirkor, uzoqni ko‘ra biladigan, arab va fors tillarini puxta egallagan ma’rifatli shaxs sifatida tilga olinadi. U dastlab soxta xon Abulg‘oz mavqeini tikladi, so‘ng bir muncha vaqt o‘tib taxtni o‘z nomidan boshqardi. Uning davrida ajdodlari singari xonlikni birlashtirish yo‘lida ko‘p harakatlar qilindi. Davlat sarhadlarini kengaytirish va buysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida, 1807-1810-yilda xonlik sarhadlari va Jonidaryoda yashovchi qoraqalpoq qabilalarini buysundirdi. 1811-yilda Muhammad Rahimxon I Qo‘ng‘irotgaga yurish qilib qoraqalpoqlarni uzil-kesil buysundirdi. Orolning buysundirilishi mamlakat birlashuvidan muhim bosqich bo‘ldi. Xuddi shunday harbiy harakatlar orolliklarni qo‘llagan turkmanlarga qarshi qaratildi, buysundirilgan turkmanlar Mang‘ishloqqa ko‘chib ketdilar. 1813 yilda turkman dashtlariga yurish qilinib, ular shimoliy Xuroson chegaralarigacha siqib chiqarildi. 1812-yilda Sirdaryo bo‘yidagi qozoqlar buysundirildi va ular xonlikka o‘lpon to‘lash majburiyatini oldi. 1820-yilda yana bir marta qozoq dashtlariga yurish qilindi va bu orqali xonlik i Sirdaryoning quyi oqimlarigacha kengaydi.

Xiva tarixchilari ma’lumotiga ko‘ra, Muhammad Rahimxon I xonlikda ma’muriy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o‘tkazgan. Xiva shahrini obodonlashtirish, raiyat to‘g‘risida qayg‘urish doim uning diqqat markazida bo‘lgan. Bu davrda soliq tizimi tartib solindi, xirojni pul solig‘i (solg‘ut) bilan almashtirdi. Soliq to‘plash ishi markaziy hukumat qo‘liga o‘tdi. Xazinaga fuqarolardan

tushadigan daromadlar va sarf-harajatlar maxsus daftarda qayd etilib, xonning nazorati ostida bo‘ldi. Ko‘chmanchi aholi o‘troqlashuvining kuchayishi, o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi, yerga egalik tizimining o‘zgarishi hamda “urug‘chilik” bo‘linishning barham topishiga olib keldi.

Davlat appartida yangi markaziy va mahalliy boshqaruv idoralari va lavozimlari ta’sis qilindi. Shulardan biri Oliy Kengash edi. Shuningdek, 360 kishidan iborat amal va lavozimlar 100 kishiga qisqartirildi, markaziy va mahalliy boshqaruvga turli ma’muriy-harbiy va diniy amallarni tayinlash shaxsan xon nazorati bilan amalga oshirildi. Muhammad Rahimxon I o‘z atrofida ishonchli ijtimoiy tayanchni vujudga keltirgach davlat boshqaruv ishlarini takomillashtirishga kirishdi. Shu maqsadda u mamlakatda kattayer egalari tarqoqligining tayanchi bo‘lgan *kentlar* orqali boshqaruv tartibini bekor qildi. Davlat ma’muriy boshqaruv jihatdan hokimliklarga va *masjid qavmi* yoki *masjid jamoasi* bo‘lindi. Shunday qilib, XIX-asr birinchi choragida xonlikda amalgalashuvning markazlashtirish va siyosiy barqarorlik natijasida, xonlik O‘rta Osiyo ida kuchli davlatga aylandi.

Muhammad Rahimxon I dan so‘ng taxtga o‘tirgan o‘g‘li Olloqulixon (1825-1842) otasining tashqi siyosatini davom ettirib, hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Xuroson va Buxoroga qarshi harbiy yurishlar uyuştirib turdi. Uning hukmronligi yillarida Xurosonga besh marta, Buxoroga etti marta harbiy yurishlar uyuştirildi.

Uning davrida Rossiya bilan Angliya o‘rtasida O‘rta Osiyo xonliklariga o‘z ta’sirini o‘tkazish uchun raqobat ham kuchaygan edi. 1839-yilda Hindistondagi ingliz elchixonasining vakili Abbot Xivaga tashrif buyurib, Ollaqulixon bilan bo‘lgan muzokaralar paytida Rossiyaning xavfi, bosib olish ehtimoli borligi to‘g‘risida ogohlantiradi. Bu davrda Rossiya bilan munosabatlar keskinlashdi. Jumladan, xonlikda saqlanayotgan rus asirlarini ozod qilish

masalasida xon rozi bo‘lmanligi sababli, 1836-yilda Rossiyada bo‘lgan Xiva savdogarlari ushlanib mulklarini musodara etilgan. 1837-1838-yillardagi muvaffaqiyatsiz kelishuvlardan so‘ng, rus hukumati o‘z talablarini kuch bilan hal qilishga urindi. 1839-yil kuzda Xivaga Orenburgdan general Perovskiy boshchiligidagi katta qo‘sish yuborildi, biroq bu harbiy yurish tabiiy qulaysizliklar sababli muvaffaqiyatsiz tugadi. 1841-yilda rus elchisi kapitan A.Nikiforov Xivaga kelib, Olloqulixon oldiga Rossiya manfaatlarini ko‘zlovchi bir qancha talablar qo‘ydi, biroq xon bu talablarni ham rad etdi. Keyinroq, rus hukumati bilan ziddiyatlarni oldini olish maqsadida Olloqulixon rus asirlarini o‘z elchisi bilan Orenburgga yubordi.

Olloqulixon mamlakat obodonchiligi, me’morchilik, qurilish ishlariga ham katta e’tibor berdi. Uning zamonida Pahlavon Mahmud maqbarasi va ko‘hna ark koshinlar bilan bezatildi, ulkan Toshhovli saroyi, karvonsaroy, madrasalar qurildi.

Olloqulixondan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Rahimqulixon (1842-1845) o‘tirdi. Rahimqulixon otasi tashqi siyosatini davom ettirib, Marvga katta qo‘sish yubordi. Marv-Chorjo‘y masalasida Xiva-Buxoro ziddiyatlari saqlanib qoldi. Rossiya bilan bo‘lgan munosabatlarda xon otasining siyosatini qo‘llamadi va ruslarga yon berish siyosatini olib bordi. Ruslarning otasi Ollaqulixon rad etgan shartlarini qabul qildi. Bu shartlarga ko‘ra Xiva xoni Rossianing savdo ishlariga yaqindan yordam berishi va savdogarlarni himoya qilishi, ulardan mahalliy xalq qatori boj olishi, Xivada doimiy rus agenti bo‘lishiga rozilik berishi shart edi. Shuningdek, Sirdaryo sohillarida yashovchi qozoq-qirg‘izlarni Xiva xonligiga soliq to‘plashdan ozod qilindi. Bu shartlar 1842-yil 27-dekabrda Rahimqulixon imzosi bilan tasdiqlandi.

Olloqulixondan so‘ng ukasi Muhammad Amin (1845-1855) o‘tiradi. U Xorazmning ilgarigi shon-shuhratini tiklash uchun harakat qildi. Shu maqsadda katta qurilish ishlarini boshlab yubordi.

Ko‘hna arkning qibla tomonida katta madrasa va minora qurishga buyruq berdi. Madrasa qoshida qurilayotgan minora Buxoro va Xivadagi mavjud minoralardan baland bo‘lishi rejalashtirilgan edi. Muhammad Amin davrida ham hozirgi Turkmanistonning janubiy qismida va Xurosonda osoyishtalik bo‘lmadi. Turkman qabilalarining Xiva xonligiga qarshi g‘alayonlari davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida bosh ko‘targan qo‘zg‘olonchilar xonga bo‘ysunishdan bosh tortdilar va xon amaldorlari hamda soliq yig‘uvchilarni tutib qatl qildilar. Muhammad Amin Marv va Seraxsda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun qo‘sish tortib borishga majbur bo‘ldi va shu janglarda o‘zi ham haloq bo‘ldi.

*Xiva xonligida hukmronlik qilgan Qo‘ng‘irotlar sulolasini
hukmdorlari:*

- Muhammad Amin 1770-1790
- Avazxon 1790-1804
- Eltuzarxon 1804-1806
- Muhammad Rahimxon I 1806-1825
- Olloqulixon 1825-1842
- Rahim-quli xon 1842-1845
- Muhammad Aminxon 1845-1855
- Abdullaxon 1855-1856
- Qutluq Murodxon 1856
- Sayyid Muhammadxon 1856-1864
- Muhammad Rahim xon II 1864-1910
- Isfandiyorxon 1910-1918
- Sayyid Abdullaxon 1918-1920.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi to‘g‘risida ma’lumot bering?

2. Qo‘ng‘irotlar sulolasiga hukmdorlarining markazlashtirish siyosatiga oid misollar keltiring?
- 3.“Xonbozi - Xonlar o‘yini” iborasiga izoh bering?
- 4.XVII-asr oxiri va XVIII-asr boshlarida Xiva xonligida kechgan siyosiy parokandalik sabablarini nimalar bilan izohlaysiz?
- 5.XIX-asr 1-choragida Xiva xonligida markazlashgan davlatning yuksalishi omillarini ko‘rsatib o‘ting.

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. –T.: Yangi asr avlodi, 2010.
- 2.Ogahiy Muhammad Rizo. Zubdatu-t-tavorix” (Tarixlar sarasi) / Nashrga tayyorlovchi N.Jabborov. –Toshkent “O‘zbekiston”, 2009.
- 3.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy / Tarixiy esse. –Toshkent: Kamalak, 1991.
- 4.History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
- 5.Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
- 6.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
- 7.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
- 8.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 9.Allaeva N. Xiva xonligi diplomatiyasi (XVI-XIX asrlar). – T., 2018.
10. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: YAngi asr avlodi. 2019.

**MAVZU: XIVA XONLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY
MUNOSABATLAR (XVI-XIX ASR BIRINCHI YARMI).**

Reja:

1. Xiva xonligining xududi va ma'muriy bo'linishi.
2. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik.
3. Soliq va savdo munosabatlari.

Kalit so'zlar: Xorazm, ma'muriy bo'linishi, qishloq xo'jaligi, yer-suv munosabatlari, ishlab chiqarish, solg'ut, qazuv, arna, tranzit shahar.

1.Xiva xonligining xududi va ma'muriy bo'linishi

Xiva xonligi geografik jihatdan Orol-Kaspiy pasttekisligining shimoli-sharqiy qismi, xonlikning asosiy qismi bo'lgan quyi Amudaryodagi chegara yerlar bilan birgalikda, g'arbda Kaspiy va Orol o'rtasidagi Ustyurt platosi, Qoraqum cho'lining shimoliy qismi, janubda ba'zida Xuroson tog' tizmalari bo'y lab ketgan xududlar hamda shimoli-sharqda Qizilqumdan to Sirdaryo deltasigacha (tarmoqlangan joyi) bo'lgan xududlar kirgan. Xonlik chegaralari ba'zan barqaror bo'lмаган. Xonlik janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi va shimolda Qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Keng qumli cho'llik xonlikni ikki qismga: Amudaryo bilan sug'oriluvchi qism *Suvboye* (daryo tomon) va Kopettog'oldi xududlari *Tog' boye* (tog' tomonlar) bo'lingan.

Xonlik ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan janub va shimoliy qismga bo'lingan. Janubiy qism Xiva va uning atroflari, Honqa, Xazorasp, Urganch, Kot, Qushko'pir kabilar kirib, bu asosiy aholi zinch joylashgan va asosiy kanallar joylashgan sug'oriladigan yerdan iborat bo'lgan. Shimoliy qismi Qo'hna Urganch-Xo'jayli chizig'idan to Orol dengiziga qadar cho'zilgan edi. Bu ga Chumanay, Xo'jayli, Qo'ng'iroq va shimoldagi boshqa atrof dan iborat bo'lgan. Orol diyori deb atalgan aholisi XVII –XIX-asrlar boshlarida turkiy qabilalarining qo'ng'iroq, mang'it, qipchoq,

xo‘jayli va boshqa mayda qabilalardan iborat bo‘lgan. Odatda manbalarida Orol diyori va janubiy qism *Xorazm diyori* deb atalgan. Xorazm aholisi tub aholisi xorazmliklar tashkil qilib, turk tili guruhiga mansub bo‘lgan xorazm tilini tashkil qilgan. Qoraqalpoqlar va ularga qo‘shni xududda qozoqlar yashagan. Ular, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Xorazmdan g‘arb va janubda turkmanlar yashagan.

XIX-asrda Xiva xonligi 23 ta beklikka bo‘lingan va ularni hokimlar boshqargan. Mazkur bekliklar: Pitnak, Xazorasp, Honqa, Yangi Urganch, Qushkupir, Qazovot, Kot, Shohobod, Anbar-Manak, Toshovuz, Gurlan, Mang‘it, Qilich Niyozboy, Porsu, Ilali, Qo‘hna Urganch, Xo‘jayli, Shumanay, Qo‘ng‘irot kabilardan iborat bo‘lgan. Beshariq va Qiyot-Qo‘ng‘irot tumanlari noiblar tomonidan boshlangan. Xonlik aholisi taxminan 800 mingga yaqin bo‘lgan. Poytaxt Xiva bu davrda ikki qismdan: Ichon qal‘a va Dishan qal‘alardan iborat bo‘lgan. Davlat ahamiyatiga oid masalalar dastlab xon qarorgohi arkda, XIX asrdan boshlab Toshhovlida o‘tkazilgan.

Xiva xonligi monarxiya davlati hisoblanib, xon ma’muriy, fuqarolik va qonuniy ishlarni o‘z qo‘lida jamlagan. XVIII-asr boshlaridan 1770-yilga qadar xonlikda siyosiy beqarorlik hukm surgan *xonbozi* davrida, ya’ni “qo‘g‘irchoq xon” sifatida Xiva xonligi taxtiga o‘tqazilgan chingiziy sultonlarining tez-tez almashib turish holati bevosita, hokimiyat legitimligi va hukmdor mavqfeining mustahkamligini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan “chingizlar omili” bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘troq madaniyatning ko‘chmanchi Dasht hamda Eron davlatining boshqaruvi an’analari bilan o‘zaro ta’sir holatlari Xiva xonligida oliy hukmdorning taxtga o‘tirishi va hokimiyat legitimligini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan qoidalarda o‘z aksini topgan.

Qo‘ng‘irotlar hukmronligi davrida dargohda Oliy Kengash ishlagan. Masalan, Muhammad Rahimxon davrida unda “og‘ir masalalar va jinoyat ishlari ko‘rib chiqilgan”. 1819-yilda Xivada

bo‘lgan rus elchisi N.Muravyov bu haqda shunday ma’lumot beradi: “Kengash har xafthaning juma kunlari o‘tkazilib, odatda xonning o‘zi shaxsan qatnashgan. Oliy Kengash asosan fuqarolik va ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqqan”. Zarurat tug‘ilganda Oliy Kengash xonlik hayoti bilan bog‘liq masalalarini hal qilgan, xususan taxt vorisi masalasini ham. Masalan, Olloqulixonning o‘limidan so‘ng, 1842-yil 23-noyabrda Kengash ruxsati bilan uning o‘g‘li Rahimqulixon o‘tqazilgan.

Xonlikda eng yuqori mansablardani biri mehtar bo‘lib, Munis ma’lumotiga ko‘ra, Abulg‘ozixon davrida bu lavozim vazir sifatida mashhur bo‘lgan. Xiva manbalarida mextar lavozimi xonlikning fuqarolik ma’muriyatini boshqargan. Harbiy yurishlar davomida va hukmdor yo‘q vaqtlarida bu lavozim mamlakatni boshqargan. Ba’zi manbalarda, mextar o‘rnida *vazir a’zam*, *dasturi mukarram*, *nizom al-mulk* sifatlari ishlatilgan. Odatda, mextar o‘troq aholi vakilidan tayinlanib, xonlikning asosan janubiy qismini boshqargan.

Yana bir yuqori lavozim qushbegi hisoblangan. Bu lavozim qabila zodagonlaridan tayinlanib, odatda xonlikning shimoliy qismini, ya’ni ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qismini boshqargan. Qushbegi xonlik harbiy kuchlarini boshqargan va odatda amir unvonini olib, *sohibi devoni a’lo* sifati (epitet)ini olgan.

Boshqaruvning yuqori zinapoyasida yasovulboshi lavozimi turgan. U Kengashning doimiy a’zosi bo‘lgan. Yasovulboshi xavfsizlik xizmati, hisga olish, xonni qo‘riqlash, maxfiy farmonlarni saqlash kabilar kirgan. Barcha xonliklarda kabi sud ishlari qozi tomonidan olib borilgan. Qozi askar lavozimi harbiy tabaqa ishini olib borgan. Naqib ma’naviy-diniy hayotida muhim mansab bo‘lib, jamiyat diniy hayotiga ma’sul bo‘lib, sayyidlardan tayinlangan.

2. **Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik**

Xonlikda yer egaligi uch shakldan iborat bo‘lgan: *mamlakayi-podshohi*, xususiy yerlar (*mulk*) va vaqf yerlariga bo‘lingan. Yerlarning toifasi esa ikki qismga, ya’ni sug‘oriladigan (*ax’ya*) va sug‘orilmaydigan (*adra*) yerkunda ajratilgan. Aholining 95 foizi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Yerlarning asosiy qismi xon va uning qarindoshlari qo‘lida to‘plangan edi. Bunday yerdarda ijara qarindoshlari *yarmchilar* deb atalgan, sababi ular olgan hosilning yarmini yer egasiga topshirishlari lozim bo‘lgan.

Abulg‘oz va uning vorisi Anushaxon davrida sug‘orish tizimlarini qayta tiklanishi natijasida dashtiqipchoqlik qabilalarning markaziy va janubiy Xorazm xududiga o‘troqlashishiga imkon yaratdi. Yahyo G‘ulomov ta’kidlaganidek, “Daryolar va kanallar bo‘ylaridagi barcha sug‘oriladiganyerlarda dashtiqipchoqlik o‘zbeklar, qadimgi shaharlar atrofidagi sug‘oriladigan yerdarda mahalliy o‘troq aholi joylashgan edi”. Ikkala hukmdor davrida yirik magistral kanallardan G‘azovot, Yarmish, Shohobod kabilalar qayta tiklanib qurildi. 1646-yilda Abulg‘ozixon farmoni bilan Amudaryodan yangi ariq qazib, unga Urganch arna deb nom qo‘ydilar. Ana shu ariq yaqinida yangi shahar barpo qilinib, unga Yangi Urganch deb nom berdilar. Suv tanqisligidan azob chekkan Ko‘hna Urganch aholisi yangi Urganchga ko‘chirildi. O‘sha vaqtida Abulg‘ozixonning topshirig‘i bilan Gurlan qal’asidan 12 km shimoliy-g‘arbda kichik Vazir qal’asi bunyod etilib, katta Vazir shahri aholisi shu joyga ko‘chirildi. Undan tashqari Abulg‘ozixon davrida Madir kanali qaytadan qazdirilib, G‘ozibod arna deb ataldi. Bu kanal oxirida G‘ozibod qal’asi ham qad ko‘tardi.

Anushaxon hukmronlik qilgan yillarda Xorazmning eng yirik kanallaridan bo‘lgan Shohobod (Shovot) va Yormish kanallari qurib ishga tushirildi. Munis Xorazmiyning xabar berishicha, Yormish kanalining qurilishi Yangi Kat qal’asining bunyod qilinishi bilan bog‘liq edi.

XIX -asr boshlarida Amudaryodan Davzan arig‘i chiqarildi va keyinchalik bu ariq yerlarni sug‘orishni kengaytirish maqsadida katta kanalga aylantirildi. Davzan kanalida Porsu, Xo‘jayli va Ko‘xna Urganch yerlari sug‘orilgan. 1815-yil qazilgan Qilich Niyozboy kanalidan esa daryoning o‘ng sohilidagi yerlar sug‘orilgan. Ariqlar va kanallar qazish ishlari XIX -asr oxirlarigacha davom etdi.

Xonlikning asosiy iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligidan iborat bo‘lib, xonlik xazinasi ham qishloq xo‘jaligidaan tushgan daromad hisobiga to‘ldirib turilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, xonlikning 93 % madaniy yerlari asosan janubiy qismda joylashgan. Sug‘oriladigan yerlarda aholi o‘troq turmush tarzini olib borgan. Xonlik dehqonlari yerni ikki toifaga ajratganlar: asl qizil chakka tuproq, bu ancha unumdorlar yerlar bo‘lgan va sho‘rlashgan chakka tuproq asosan Amudaryo quyi oqimida keng tarqalgan. Mana shunday past unumdor yerlar alohida ishlovga muhtoj bo‘lgan. Sayyohatchilar ma’lumotiga ko‘ra, Xorazmda dehqonlar yerni 5, 10 va undan ortiq martagacha qayta-qayta ishlov bergenlar. Qishloq xo‘jaligida asosiy ekin turlari donli mahsulotlar tashkil qilgan. Masalan, XIX asrda asosiy ishlov berilgan yerlarga bug‘doy va jo‘xori, qolgan ekin maydonlarining 5/1 qismiga paxta, qolganiga guruch, kunjut, zig‘ir, mosh va poliz ekinlari ekilgan. Guruch asosan sug‘oriladigan yerlarga ekilgan va u oq sholi va qizil sholi det atalgan turlari bo‘lgan.

Xonlikda yer egaligi asosan uch shakldan iborat bo‘lgan. Davlat yerlari *mamlakayi podshohi* deb nomlanib, bunday yerlar jamg‘armasiga, shuningdek *zamini mayita, begar va bo‘z* kabi bo‘sh va quruq yerlar kirgan.

Xususiy yerlar (*mulk*), shartli va muqarrar yerlar toifasiga kiritilgan. Masalan, merosiylilik asosida o‘tiladigan yerlar *atoyi mulk* deb atalgan. Atoyi mulk yerlarning o‘z navbatida 3 ta darajasi bo‘lgan. *Adna* quyi, *avsat* o‘rta va *a’lo* yuqori toifalardan iborat

bo‘lib, birinchisi 5 tanopdan yuqori bo‘lmanan yerbarcha ega bo‘lganlar, 2 chisi 5 dan 10 tanopgacha, oxirgisi 10 tanopdan yuqori bo‘lganlar kirgan. Darajalarga bo‘lingan mulkdorlar salg‘utni bevosita 1, 2 va 3 to‘la tilla (yoki 2, 4, 6 mayda) tangalarda to‘lagan. Atoyi mulkdorlarning yerlari asosan unumdar va avvaldan sug‘orilib kelingan xonilik yerlaridan iborat bo‘lgan. Shunga o‘xshash holatni bajaruvchi boshqa yerlar oddiy mulklar va ularning egalari mulkdorlar deb atalgan. Davlat yerlarini xususiy yerbarcha aylantirilishi maxsus xon yorliqlari asosida hadya etilgan.

XIX-asr arxiv hujjati ma’lumotlariga ko‘ra, ishlov beriladigan yerlarning 30 foizi vaqfga etgishli bo‘lgan. Har qaysi diniy muassasa o‘z qo‘lida vaqfiya yoki vaqfnomasi bo‘lgan. Vaqf mulklarini nazorati va taqsimoti bilan mutavalli shug‘ullangan. Ishlov beriladigan vaqf yerlaridan 83 % idan ijrara solig‘i natura hisobida, 17% dan pul tarzida olingan. Ba’zi, ya’ni xonlik yorliqlariga ega bo‘lgan vaqf mulklari soliqdan ozod etilgan. Vaqf mulkini ushlab turganlar 10 tanoplilik yer uchun 1 ta odamni sug‘orish ishlarini tozalash va ta’mmirlashga berish majburiyatini olgan. Vaqf yerlarini ijara oluvchilar vaqfgarlarning ham a’lo, avsat va adna toifasi bo‘lganligi va ular ham yer solig‘i bo‘lgan solg‘utni to‘laganligi aytildi.



Xiva. Polvon darvoza. Ichangal'a darvozasi (XIX-asr).

3.Soliq va savdo munosabatlari

Xonlikdagi asosiy soliq turi yer solig‘i bo‘lib, *salg‘ut* deb atalgan. Davlat yerlarini ushlab turganlar natura solig‘i hisoblangan *dahyak* (1/10) to‘lagan. Bunda 1/10 berishi shart bo‘lmay, undan ko‘p yoki undan oz miqorda ham berilgan, ya’ni yerning toifasiga qaralgan. Bundan tashqari, halq 20 ga yaqin turli xil soliqlar va to‘lovlar to‘langan. Soliqlar bilan bir qatorda halq begar, qazu, ichki va obxura qazu kabi majburiy mehnat va hashar ishlariga ham jalb etilgan. Urush paytalarida soliqlar miqdori va majburiy hashar ishlari hajmi oshgan.

Xiva, Urganch, Qo‘ng‘iroq, Xo‘jayli kabi shaharlar asosiy hunarmandchilik va savdo markazlari hisoblangan. Shuningdek, xonlik Eron, Rossiya, Afg‘oniston hamda Buxoro va Qo‘qon xonliklari bilan tashqi savdo munosabatlarini olib borgan. Xonlikdan boshqa davlatlarga ip-gazlamalar, qorako‘l mo‘ynasi, gilamlar, mevalar, ipak va yarimipak mahsulotlar, tuya junidan

bo‘lgan matolar, qo‘zichoq mo‘ynalari, guruch, echki juni, choy va boshqa mahsulotlar olib chiqilgan. Savdogarlar *xivali*, *urganchli*, tatarlar esa xonlik aholisi tomonidan *no‘g‘aylik* va *qozoqlar* deb nomlangan.



Oltin tangalar. (Muhammad Rahimxon, 1812)

Rossiya imperiyasining “Sharq siyosati” da jumladan, uning Buxoro, Afg‘oniston, Eron, Hindiston singari Osiyo davlatlari bilan savdo va diplomatik aloqalarida Xiva xonligi o‘ziga xos bog‘lovchi ko‘prik sifatida muhim o‘rin tutgan. Shu jihatdan, Xiva xonligi xududi o‘zining joylashuviga ko‘ra, nafaqat mintaqqa, balki trans-mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Rossiya va Xivaning o‘zaro savdo munosabatlari rivojlanib borgan. Elchilik, savdo munosabatlari o‘z navbatida missiya topshiriqlarini ham o‘z ichiga olgan. Masalan, 1620-yilda I.Xoxlov, 1669-yilda Moskvadan Xivaga aka-uka Pazuxinlar boshchiligida elchilik, 1675-yilda Moskvadan tatar va fors tillarini yaxshi bilgan V. Davudov va M. Qosimov boshchiligida rus elchiligining kelishi va boshqalar shular jumlasidan hisoblangan.

Abulg‘ozixon Xiva xonligida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilib, qizg‘in tashqi aloqalarni olib borishga,

izdan chiqqan savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yishga katta e’tibor bergen edi. U diplomatik va savdo munosabatlarini mustahkamlash uchun Shihbobo va Shohjahonlarni elchi qilib Hindistonga yuborgan. O‘zining elchisi Davlatmand orqali esa, Rossiya-Xiva savdo aloqalarini mustahkamlash choralarini ko‘rgan. 1648-yilda Eron shohi Abbos II ga elchi yuborgan. Bu elchilik orqali xon ikki davlat o‘rtasida savdo va do‘slik aloqalarini mustahkamlashga erishgan.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Qo‘ng‘irotlar davrida davlatning ma’muriy-xududiy bo‘linishi to‘g‘risida ma’lumot bering?
- 2.Xiva xonligi yer-suv munosabatlarining asosiy xususiyatlarini gapirib bering?
3. Sug’orish sohasida Qo‘ng‘irotlar hukmdorlari amalga oshirgan tadbirlarning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot bering?
4. Xiva xonligining ichki va tashqi savdo aloqalariga misollar keltiring va Klaster tuzing.

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 1.Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. –T.: Yangi asr avlod, 2010.
- 2.Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy / Tarixiy esse. –Toshkent: Kamalak, 1991.
- 3.History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
- 4.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
- 5.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 6.Allaeva N. Xiva xonligi diplomatiyasi (XVI-XIX asrlar). – T., 2018.
- 7.Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod, 2019.

MAVZU: QO‘QON XONLIGI (XVIII-ASR IKKINCHI YARMI, XIX-ASRNING BIRINCHI YARMI)

Reja:

- 1.Qo‘qon xonligining tashkil topishi. Shohruhbiy va uning vorislari davrida Qo‘qon xonligi hududining kengayishi.
- 2.XIX-asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hukmdorlarining markazlashtirish yo‘lidagi siyosati.
- 3.Rossiya imperiyasi bosqini arafasida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol.

Kalit so‘zlar: minglar urug‘i, Qo‘qon xonligi, legitimatsiya, markazlashtirish siyosati, siyosiy tarqoqlik, parokandalik.

1.Qo‘qon xonligining tashkil topishi. Shohruhbiy va uning vorislari davrida Qo‘qon xonligi hududining kengayishi

XVIII-asr boshlarida Buxoro xonligida yuzaga kelgan og‘ir siyosiy vaziyat tufayli Farg‘ona vodiysi uning tarkibidan ajralib chiqdi. Buning asosiy sabablarini Buxoro xonligining siyosiy inqirozga yuz tutishi, Farg‘ona vodiysiga qalmoqlar singari ko‘chmanchilarning bosqinchilik harkatlari bilan izohlash mumkin. Yuzaga kelgan vaziyatdan vodiy aholisining ichki kuchlari foydalanib, Buxoro xonligidan alohida Qo‘qon xonligini tashkil qildilar. XVIII-asrda Qo‘qon xonligi dastlab faqat Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga olgan bo‘lsa, XIX-asr boshlariga kelib Toshkent vohasi, hozirgi Qirg‘iziston respublikasi hududlari, Janubiy Qozog‘iston va shimoliy Tojikiston hududlarini o‘z ichiga oldi.

Ashtarkoni Ubaydullaxon hukmronligi (1702-1711) davrida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat murakkablashib markaziy hokimiyat ancha zaiflashdi. Bunday siyosiy vaziyatdan foydalangan vodiy siyosiy kuchlari Buxorodan ajralib chiqishga harakat qildilar.

Jumladan, hokimiyat uchun shunday kurashlarda ming urug‘idan bo‘lgan Shohruxbiy ibn Ashurbiy Muhammadxo‘jalar (Mahdumi A’zam Kosoniy sulolasiga mansub xojagon jamoasi) ustidan g‘alaba qozonib, ular bilan ittifoq tuzadi. Shohruxbiy 1709-1721-yillarda hukmronlik qilib, davlati tarkibi asosan, Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara shaharlari va uning atrof xududlaridan iborat bo‘lgan. Yangi davlatning poytaxti vaqtincha Tepaqo‘rg‘on (Eskiqo‘rg‘on) bo‘lgan. Tepaqo‘rg‘onda o‘rda barpo qilinib, bozor va guzarlar qurilgan.

Mahalliy muarrixlardan Abdulkarim Namangoniy, Mirza Olim Maxdum xoji, Niyoz Muhammad Ho‘qandiy va boshqalar asarlarida Qo‘qon hukmdorlari kelib chiqishi “Oltin beshik” rivoyatiga bog‘lanadi. Unga ko‘ra, Shohruxbiy Zahriddin Bobur avlodiga borib taqaladi, ya’ni 1512 yilda Bobur Samarqanddan Farg‘ona orqali Hindistonga yo‘lga chiqqanda undan o‘g‘il farzand tug‘ilgan. Yo‘lda xavf-xatarning mavjudligi bois chaqaloq Farg‘onada qoldirilgan. Bola ming urug‘i ovulida tarbiyalanib uni Oltinbeshik deb ataganlar. Uning o‘g‘li Tangriyor Buxoro xonligi Farg‘ona viloyatining hukmdori bo‘lgach, “biy” unvonini olgan va Shohruxbiy uning o‘ninchи avlodi sanalgan. Lekin ba’zi tadqiqotchilar, bu haqda “Boburnoma” singari manbalarda tilga olinmaganligini ta’kidlashib, bu ehtimol Qo‘qon hukmdorlarining o‘z shajarasini Temuriylarga taqash orqali hokimiyat legitimligini mustahkamlashga intilishi bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Shohruxbiyning Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy va Shodibiy kabi o‘g‘illari bo‘lgan. Otasidan so‘ng taxtga o‘tirgan katta o‘g‘li Abdurahimbiy (1721-1734) davrida davlat hududlari ancha kengaydi va hatto, Buxoro xonligining ayrim mulklari ham tasarruffiga olindi. Xususan, Andijon va Xo‘jandda o‘z hukmronligini o‘rnatadi. O‘ratepani ham qo‘lga kiritib, qisqa vaqt Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarini egallaydi. Shahrisabz volysi bilan ittifoq tuzib, uning qiziga o‘ylanadi. Abdurahimbiy Qo‘qon (Ho‘qand)

qishlog‘i yaqinida katta shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki vaqtda bu shahar “Qal’ai Rahimbiy” deb atalgan. U qattiq kasallanib, 33 yoshida Xo‘jandda vafot etadi. Shundan so‘ng taxtga Namanganda valiahd bo‘lgan ukasi Abdukarimbiy (1734-1750) o‘tiradi. Abdukarimbiy yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Eskiqo‘rg‘ondan Qo‘qonga ko‘chirib keltiradi va Qo‘qon shahri davlatning poytaxtiga aylanadi. Shaharning Qatag‘on, Marg‘ilon, Toshkand, Haydarbek kabi darvozalari barpo etildi.

Abdukarimbiyning hukmronligi yillarida markaziy davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi va xon tomonidan halqning farovonligiga ko‘p e’tibor beriladi. 1745-1747-yillarda Farg‘ona vodiysiga qalmoqlar hujumi sodir bo‘ladi va ular O‘sh, Andijon, Marg‘ilon va boshqa joylarni egallab oladi. Shu vaqtda Abdukarimbiy qirg‘iz-qipchoqlar va O‘ratepa hokimi Fozilbek yordamida ular bilan urushlar olib boradi. 1749-yilda Abdukarimbiy qalmoqlar bilan sulh tuzadi. Sulh shartiga ko‘ra, qalmoqlar vataniga qaytuniga qadar qozoq dashtlarida yashab turish huquqiga ega bo‘ladi va o‘z navbatida, ular xonlik xududiga bostirib kirmaslikni zimmalariga oladi. Abdulkarimbiy davrida qalmoqlar hujumidan keyin ancha katta zarar etkazilgan mamlakat xo‘jalik hayoti yana rivojlanadi.

Abdukarimbiy 1750-yilda vafot etgach, uning o‘rniga o‘g‘li Abdurahmonbiy taxtga ko‘tariladi va to‘qqiz oy hukmronlik qiladi. So‘ng Marg‘ilonga hokim etib tayinlangach (1751), taxtga Erdonabiy ibn Abdurahimbiy (1750/51-1762) o‘tkiziladi. Manbalarda Erdonabiy Abdulqayumxon nomi bilan eslatilib, dastlabki qisqa vaqtlik hukmronlik yillarida xonlikni mustahkamlashga harakat qiladi. U O‘sh hamda O‘zgandni bo‘ysundiradi. Biroq Erdonabiy ham tez orada taxtdan tushiriladi va o‘rniga Bobobek ibn Abdukarimbiy (1752-1753) o‘tkaziladi. Biroq qalmoqlar tomonidan taxtga chiqarilgan Bobobek Beshariqda o‘ldirilgach, o‘rniga qaytadan Erdonabiy o‘tkaziladi. Erdonabiy

ma'lumotlarga ko'ra, 14 yil ba'zisida 12 yil hukmronlik qilganligi aytildi. Erdonabiy davrida qo'ldan chiqqan Xo'jand, O'ratepa yuz urug'idan tortib olinadi. Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiya" asarida, Muhammad Rahimbiy mang'it Erdonabiyni taxtga kelishini qo'llab-quvvatlagan va birgalikda O'ratepani mahalliy kuchlardan qaytarib olish harakatini olib borishgan¹⁰. Hukmronligining so'nggi yillarida xitoyliklar Oyrot xonligini tormor etib, O'rta Qozoq juzi xududidan Toshkentga yaqinlashib, sharqdan O'shni egallaydilar. Natijada, Erdonabiy xitoyliklar bilan tinchlik bitimini tuzdi va qaysiki unda Xitoy homiyligini tan olishga majbur bo'ladi. 1760 yilda qo'qonlik elchilar rasmiy ilk bor Pekinda Sin saroyida kutib olingan. Erdonabiy tashqi siyosatda ham faol harakat olib borgan. U xususan, mamlakat sharqida joylashgan O'sh va O'zganni bo'ysundirgan kam sonli Qo'qon hukmdorlaridan biridir. Hattoki, bu hududlar bilan chegaralanmasdan, 1757-1758--yillarda Xitoydagি Sin imperiyasi tomonidan bosib olingan Sharqiy Turkistonda ham o'z siyosatini yurg'izishga harakat qilib, bu hududga bir necha bor yurishlar qiladi. Keyinchalik, uzoq davom etgan xastalikdan so'ng 42 yoshida vafot etdi.

Erdonabiy vafotidan (1762/63) so'ng undan voris qolmagach, taxtga Shohruxbiyning uchinchi o'g'li Shodibiy o'g'li Sulaymonbek o'tqaziladi. Biroq u taxtda bor yo'g'i uch oygina hukmronlik qilib, keyin fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Shundan so'ng, taxtni Norbo'tabiy ibn Abdurahimbiy (Abdulhamidxon nomi ham yuritilgan, 1764/70-1799) egallaydi. Bu haqda Niyoz Muhammad Ho'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asarida: "Sulaymonxонни orадан ко'targach, barcha davlat xoslari va hurmat sohiblari ittifoq birla Norbo'taxon ibn Abdurahimxonni o'n to'rt yoshida hozirgi Mo'yi Muborak deb atalmish Qoratepadan olib kelib, davlat taxtiga izzat hurmat bilan o'tqazdilar" deyiladi. Norbo'tabiy yosh bo'lishiga

¹⁰Elektron resurs: Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Tarixi Shoxruxiy (Ibrat ul Xavoqin). Tarjimon Sh. Vohidov.

qaramay, davlatni yaxshi idora qildi va uning davrida mamlakat obodonchiligi yo‘lida katta ishlar amalga oshiriladi. Norbo‘tabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ko‘p harakatlar qildi. Dastlab u o‘zboshimchalikka intilgan Chust va Namangan beklarni markaziy hokimiyatga bo‘ysundirdi va Xo‘jandni ham egalladi. Norbo‘tabiy hokimiyat mustahkamlash yo‘lida o‘z inilari bilan murosa yuritdi. Hukmronligining oxirgi yillarida Toshkentni bosib olishga (1799) ham intilgan Norbo‘tabiy muvaffaqiyasizlikka uchradi va uning Xonxo‘ja boshchiligidagi qo‘shini Toshkent yaqinida mag‘lubiyatga uchradi.

Norbo‘tabiy davrida davom etgan o‘zaro adovat va nizolardan so‘ng bir muncha tinchlik hukm surdi va bu iqtisodiy hayotning rivojlanishiga turtki berdi. Manbalarga ko‘ra, bu davrda oldingi davrga nisbatan arzonchilik bo‘lgan. Jumladan, mayda tanga pul (*fulus*) keng muomilada bo‘lgan. Niyoz Muhammad Ho‘qandiy bir fulusga bitta qo‘y berilganligini aytadi. Bu davrda sug‘orish tizimi rivojlantirilib, qazilgan kanallar orqali sug‘oriladigan yer maydonlari kengayadi. Savdo-hunarmandchilik markazlari soni ortib, qurilishlar olib boriladi. Masalan, 1799-yilda Mir madrasasi qurib bitkaziladi. Norbo‘tabiy dastlabki hukmronlik davrida xonlikda bo‘lgan rus sayyohi Philipp Efrimov o‘z kundaligida, Norbutabiy mustaqil siyosat yuritgani, uning mustaqil xonligi Xitoy tomonidan tan olinganligini qayd etadi.

2.XIX-asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hukmdorlarining markazlashtirish yo‘lidagi siyosati

Norbo‘tabiy vafotidan so‘ng taxtga o‘g‘li Olimxon (1799/1800-1810) o‘tiradi. Olimxon yosh bo‘lishiga qaramasdan, xonlikda tartib o‘rnata oldi va uning hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining siyosiy mavqeい ancha oshdi. Olimxon dastlab harbiy islohotlar o‘tkazib, qo‘shinni ancha kuchaytirdi. Yollanma qo‘shin, asosan

tog‘li Darvoz, Qorategin, Qo‘lob va boshqa xududida yashovchi tojiklar (g‘alcha)dan tuzilib, bu qo‘shin unga hokimiyatni markazlashtirish yo‘lida katta yordam berdi hamda keyinchalik katta armiyaning shakllanishiga asos bo‘ldi. 1805-yilda etti yillik harakatlardan so‘ng Xo‘jand, 1806-yilda O‘ratepa zabit etib itoat etkizilgan bo‘lasa-da, tez orada O‘ratepa yana mustaqil bo‘ladi. Umuman, Olimxon Xo‘jand va O‘ratepa borasida bir necha bor Amir Haydar bilan o‘zaro urushlar olib bordi. Keyingi harbiy yurishlar davomida Angren vohasi, Toshkent, Chimkent va Turkiston ham bo‘ysundiriladi. Bu hududlar qo‘lga kiritilgach, Qo‘qon xonligining bevosita Rossiya bilan tashqi savdo aloqalari uchun yo‘l ochiladi.

Qo‘qon xonligi kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o‘zgardi. Dastlabki vaqtarda *biy* yoki *bek* unvonlarida davlatni boshqargan Qo‘qon hukmdorlari 1805-yilda Olimxon tomonidan joriy etilgan “xon” unvoni bilan yuritila boshlaydi. Misol uchun, uning davrigacha tangalar “bek” unvonida zarb etilgan bo‘lsa, endilikda “xon” unvoni bilan zarb etiladi. Bu holat uning hokimiyati mustahkamlanib, Toshkent va Qurama (1806) hisobiga mamlakat xududi ikki barobarga ortgani bilan bog‘lanadi. Boshqa tomondan, mazkur to‘liq qiymatli tangalar moliya va soliq tizimida tartiblar o‘rnatalishiga olib keldi.

Markaziy hokimiyatni kuchaytirish yo‘lida Olimxon bir qancha yirik amaldorlar va xon xonadoniga mansub kishilarni qatl ettirdi. U jasorat bilan diniy sohada ayrim choralarini qo‘lladi, xususan, diniy unvon bo‘lgan “eshon” unvonini bekor qildi. Quyi pog‘onada bo‘lgan tilanchi “qalandarlar”ga yer va chorvalar berilib, foydali jamoaviy ishlarga tortildi. Shariat me’yorlari va namoz tartiblari to‘g‘riliqi tekshirish uchun din arboblaridan imtihon olindi hamda yolg‘onchi va bilimsizlar jazolandi.

Bu esa ulamolar, hatto amaldorlar va beklarning Olimxondan noroziligi ortishiga olib keldi. Shu sababli, uning Toshkentda ekanligidan foydalanib xonning ukasi Umarbek taxtga chiqarildi.

1810 yilda fitnadan xabar topgan Olimxon o‘g‘li Shohruxxon bilan Toshkentga qaytayotgan vaqtida Oltiqush mavzesida andijonlik Qambarmirzo guruhi tomonidan otib o‘ldiriladi. Uning jasadi Qo‘qonga olib kelinib dafn etiladi.

Shundan so‘ng taxtni ukasi Umarxon (1810-1822) egallaydi. O‘zini “amir” deb atagan Umarxon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ko‘plab joylarida, xususan Chimkent va Turkistonda g‘alayonlar avj oldi. O‘ratepa hokimi unga bo‘ysunishdan bosh tortdi. Ammo davlatni boshqarishda katta ta’sirga ega bo‘lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo‘lib ish tutgan Umarxon bu g‘alayonlarni bostirib, xonlik hududlarini bo‘linib ketishidan saqlab qoldi. Uning davrida xonlik Rossiya bilan diplomatik munosabatlar olib boriladi. Shu maqsadda, Sankt-Peterburgga elchilik yuborilgan, lekin yo‘lda bir elchi kasallik tufayli vafot etadi, boshqasi esa bir rus askari tomonidan o‘ldiriladi. Bu holatni yumshatish maqsadida 1813 yil may oyida Qo‘qonga Filipp Nazarov degan kishi yuboriladi. Xon elchining o‘ldirilish sababini aniqlash maqsadida Nazarovni bir muncha vaqt ushlab turadi. Bu shaxs xonlikda bir yilga yaqin yashab 1814-yil oktyabrda qaytadi. Umarxon Toshkent, Turkiston shaharlarini egallaydi va ularga o‘z odamlarini qo‘yadi. Amir Haydarga qarshi Jizzax uchun olib borilgan kurashlar Umarxonga muvaffaqiyat keltirmadi.

1818-yilda Qo‘qonda katta Jome masjidi qurish haqida farmon berib, Umarxon din homysi sifatida ham o‘z mavqeini oshirdi va *amir ul-muslimin* unvonini ham qo‘lga kiritdi. Shu yili u mingboshi lavozimini ta’sis etdi. Umarxon hukmronligi davrida Qo‘qon xonligida bir qator ijobiliy va foydali ishlar amalga oshiriladi. Davlat ishlari tartibga solinadi. Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo bir qadar rivojlanib iqtisodiy ahvol yaxshilandi. Umarxon fan, maorif va madaniyatga katta e’tibor qaratdi. Hususan, uning davrida Qo‘qon xonligida adabiyot va she’riyat ancha yuksaldi. O‘zining ham nasriy qobiliyati bo‘lgan Umarxon saroyda eng yaxshi shoir,

hattot, rassomlarni to‘pladi. Ana shu adabiy muhitda uning rafiqasi Nodirabeginning ham o‘rni katta edi. Bu davrda maktab va madrasalar tashkil qilindi.

“Jannatmakon” nomini olgan Amir Umarxon 1822-yilda kasallanib vafot etdi va taxtni o‘g‘li Muhammad Alixon (Madalixon) egalladi. Madalixon (1822-1841) davrida Qo‘qon xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha yuksaldi va u bir qancha hududlarni, jumladan, O‘ratepa, Darboz, Qorategin, Qulob kabi joylarni qo‘lga kiritib o‘z noiblarini qo‘ydi. 1826-1829-yillarda Qoshg‘arda xitoyliklarga qarshi kurash olib bordi va halq unga “g‘oziy” unvonini berdi.

“Ansob as-salotin” asarining ma’lumotiga ko‘ra, uning davrida Qo‘qon xonligi rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga chiqqan. O‘sha davrda xonlik xududi taxminan 5 ming kvadrat mil bo‘lib, aholisi 2 mln. kishiga etgan. XIX-asrning 40-60-yillarida Buxoro amirligi bo‘lgan o‘zaro kurashlar, xonlikning inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Bu shuningdek, agrar sohadagi inqirozlar, tinimsiz urushlar xo‘jalik hayotini izdan chiqargan. Bu urushlarning hammasi halq zimmasiga yangi soliqlar solinishi va aholi turmushining og‘irlashuviga olib keldi. Halq g‘alayonlari kuchayadi. Hukmronligining so‘nggi yillarida davlat ishlaridan ko‘ra, ko‘proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalixondan norozi bo‘lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Davlat boshqarishda katta tajribaga ega bo‘lgan va xonning yaqin maslahatchisi mingboshi Haqqulining o‘ldirilishi ularga yanada qo‘l keldi. Fitnaga bosh qo‘shgan qozi kalon, Toshkent hokimi va boshqalar Madalini taxtdan ag‘darib tashlamoqchi bo‘ldilar. Shu maqsadda, ular Buxoro amiri Nasrullo elchi yuborib, o‘z niyatlarini amalga oshirishda undan yordam so‘radilar.

1841-yil kuzda katta qo‘shin bilan bostirib kelgan Amir Nasrullo Xo‘jandni egallaydi. 1841-yil noyabr oyida Madalixon ukasi Sulton Mahmudxon foydasiga taxtdan voz kechadi. 1842-yil aprelda Amir

Nasrullo Qo‘qonni egallaydi va uning farmoni bilan tutib keltirilgan Madalixon, uning onasi Nodirabegim, Sulton Maxmudxonlar qatl etiladi. Qo‘qonda 12 kun turgan Amir Nasrullo bu yerda Ibrohim dodxohni qoldirib o‘zi Buxoroga qaytadi. Ikki oydan ziyod hukmronlik qilgan Ibrohim dodxoh, shahar aholisiga qilgan zulmi natijasida xalq qo‘zg‘olon ko‘tardi. Muhammad Hakimxonto‘raning “Muntaxab at-tavorix” asarida, shu davrda xalq mulki musodara qilingan, turli soliqlar ko‘paytirilgan. Hattoki xalqqa tegishli bo‘lgan bog‘ va ariqlar bo‘yidagi mevali va mevasiz daraxtlarga ham 1/5 miqdorda soliq solingan.

Shunday vaziyatda, ayniqsa qirg‘iz va qipchoq zodagonlari noroziligi oshib, taxtga Sheralixon (1843-1845)ni o‘tqazdilar. Qo‘qon xonligining sharqiy qismida O‘sh tumani, Oloy tog‘larida qirg‘izlar yashagan bo‘lib, Qoshg‘arga boriladigan yo‘llar asosan qipchoqlar tomonidan qo‘riqlagan. O‘sh esa, asosan qirg‘iz-qipchoqlarning markazi hisoblangan.

Qirg‘izlarning yordami bilan Sheralixon Buxoro qo‘shinini tormor etgach dodxoh Buxoroga qochadi. Keyinroq Buxoro amiri bosqiniga tayyorlanish maqsadida, Qo‘qon atrofida mudofaa devorini qurishga kirishiladi. Avaz Muhammadning “Tarixi Jahonnomai” asarida, 18 kun (boshqa manbalarda 15 kun) o‘tib devor uch tomonlama bitgach, qo‘shin bostirib kelayotganligi xabari keladi, shunda sharqiy tomon chim bilan yopiladi.

1842-yil kuzida Amir Nasrullo Qo‘qonni egallah maqsadida katta qo‘shin bilan Qo‘qonga keladi. Qo‘qonliklar qattiq qarshilik ko‘rsatib qamal uzoq davom etgan. Sheralixonni butun Farg‘ona xalqi qo‘llab-quvvatlab, hatto qo‘qonliklarga Sirdaryoning o‘ng qirg‘oqidan oziq-ovqatlar etkazilib turilgan. Bu orada Xiva xonligi lashkarlarining Buxoro amirligi hududlariga hujum haqida habar kelgach, Amir Nasrullo qamalni to‘xtatib ortga qaytishga majbur bo‘lgan.

3. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol

Keyingi siyosiy jarayonlarda, davlat boshqaruvida asta-sekin qipchoqlarning mavqeい ortib bordi. Qo‘qonni himoya qilishda katta jonbozlik ko‘rsatgan Musulmonqul qipchoq mingboshi unvoniga sazovor bo‘ldi. Keyinchalik, qipchoqlar o‘rtasida xon hokimiyatiga qarshi norozilik kuchayib bordi. Natijada, ularga qarshi ko‘rilmoxchi bo‘lingan jiddiy choradan xabar topgan qipchoqlar poytaxtni tark etdilar. Keyingi xon va qipchoqlar o‘rtasida olib borilgan muzokaralar natijasida xon qipchoqlarga yon bosishga majbur bo‘ladi. Sheralixon shunday murakkab vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi, isyonchi qipchoqlarga yon bosadi, ko‘zga ko‘ringan zodagonlarni boshqaruvdan chetlatadi, ularning mulkclarini musodara qiladi. Bundan foydalangan Musulmonqul andijonlik va qipchoqliklar yordamida Namangan viloyatini egallaydi. Keyinroq esa butun hokimiyatni amalda qo‘lga oldi. Bundan norozi bo‘lgan boshqa muxolif kuchlar (xususan, qirg‘izlar) Olimxon va Umarxon vorislaridan boshqa nomzod izlashga tushadi.

Xususan, qipchoqlarga qarshi guruhlar 1845-yilda taxtga Olimxonning o‘g‘illaridan bo‘lgan Murodxonni taxtga o‘tqazadi, Sheralixon esa o‘ldiriladi. Shunday qilib, Murodxonni taxtga kelishida poytaxt zodagonlari bilan birga, qirg‘izlar (mazkur xon ona tomondan qirg‘iz urug‘idan bo‘lgan) katta rol o‘ynaydi. Boshqa tomondan bundan norozi bo‘lgan qipchoqlar va boshqa guruhlar 1845-yilda Andijonda taxtiga Sheralixonning 14 yoshli o‘g‘li Xudoyorxonni o‘tqazdilar.

Tez orada Musulmonqul qo‘sini yetib kelib, 11 kun taxtga o‘tirgan Murodxonni taxtdan tushirib qatl ettirdi. Taxtga o‘tqazilgan Xudoyorxon (1845-1858, 1-bosqich) hokimiyati nomigagina bo‘lib, amalda boshqaruvni Musulmonqul o‘z qo‘liga oladi. Bu holat 1850 - yilning oxirigacha davom etdi. Musulmonqulning cheksiz hokimiyat egasi bo‘lib qolganligi va qipchoqlarning mavqeい oshganidan norozi



bo‘lgan amaldorlar birlashib, Musulmonqulga qarshi 1846- va 1848-1849-yillarda kurash oli bordi. Bu orada u ikki bor chetlatildi va yana g‘alabaga erishdi. Ko‘p o‘tmay, unga qarshi kuchlar Toshkentga kelib,

Xudoyorxon

uning hokimi Normuhammad qushbegi boshchiligidagi isyon ko‘tardilar. Toshkentga uch bora yurish qilgan Musulmonqul oxiri 1852-yilda tor-mor etildi, o‘zi esa Chotqol tog‘lariga qochib ketdi.

1852-yilda Xudoyorxon Musulmonqulni mingboshi lavozimidan bo‘shatdi. O‘zi esa 1853-yildan mustaqil hukmronlik qila boshladi. Keyinchalik, asosiy zodagonlar qatlami qipchoqlarga qarshi kurash olib bordilar. Xudoyarxon ham ularni qo‘llay boshladi. Bu vaqtda esa tashqi dushman Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni kuchaytira boshlagan edi. Jumladan, 1853-yilda xonlikning tayanch qal’alaridan bo‘lgan Oqmasjid egallanadi. Keyinda ruslar qipchoqlar bilan muzokara yuritadilar, bundan xabar topgan xonlik amaldorlari ularga nisbatan chora ko‘rishni xondan talab qiladilar. Natijada, 20 ming qipchoq jazoga hukm qilinadi, Musulmonqul esa Qo‘qonda dorga osiladi. Keyinchalik, xon uning o‘g‘li Abduruhmonni oftobachi (mahram) lavozimiga tayinlaydi.

Keyingi siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatdiki, Xudoyorxon va uning katta akasi Mallaxon o‘rtasida o‘zaro kurashlar olib boriladi. 1857-yilda xonlikning shimoliy viloyatlarida (qozoq dashtlarini bir qismi, quyi Sirdaryo) ko‘tarilgan qo‘zg‘olondan Mallaxon unumli foydalanadi. Qo‘zg‘olonchilarga qarshi yuborilgan Mallaxon ularni o‘z tomoniga og‘dirib yana qo‘shin yig‘ib, Qo‘qonni egallaydi. Xudoyorxon Buxoroga qochadi.

1858-yilda Mallaxon (1858-1862) Qo‘qon xonligi hukmdori bo‘ladi. Uning davrida qirg‘iz va qipchoqlar yana yuqori lavozimlarni egallaydilar. Mallaxon davrida Buxoro bilan chegaradosh yerlarga yurish qilingan. Shuningdek, uning davrda ingliz, afg‘on va boshqa xorij elchilari kutib olingan. Manbalarda, bu davrda davlat ishlarida, harbiy ishlarda bir muncha tartib o‘rnatilgan, shariat va ulamolarning mavqeい oshgan. 1862-yil 25-fevralda Mallaxon o‘ldirilgach, uning o‘rniga Sheralixonning nevaralaridan bo‘lgan Shohmurod tayinlangan.

Bu vaqtida Buxoro amiri yordami bilan 1863-yil may oyida Xudoyorxon 2 chi bor Qo‘qon taxtiga o‘tiradi. Lekin hokimiyat uchun kurash davom etadi. Alimquli lashkarboshi (qipchoq) va Shodmonxo‘ja mingboshilar Xudoyorxonga qarshi kurash olib bordilar. 1863-yil iyulda Alimquli taxtga Mallaxonning o‘g‘li Sulton Saidni (1863-1865) o‘tqazadi. Alimquli keyinchalik davlatda harbiy va moliyaviy ishlarni tartibga soladi. Toshkent mudofasida ko‘rsatgan jasorati tahsinga loyiq. Keyinchalik ruslarga qarshi olib borilgan janglardan birida jarohat olib vafot etadi.

Xudoyorxon (1865-1875) 3 chi bor Amir Muzaffar yordamida Qo‘qonni egallasa-da, lekin uning keyingi hukmronligi og‘ir vaziyatlar bilan kechdi. Sababi, bir tomondan Rossiya imperiyasining shimoliy xududlarni egallashi, boshqa tomondan ichki qabilaviy isyonlar va kurashlar, soliqlar miqdorining oshirilishi xalq g‘alayonlariga olib keladi. Buning natijasida, masalan 1873-yilda O‘shda qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Bunga sabab, norozi bo‘lgan muxolif kuchlar hokimiyatni o‘z qo‘llariga olmoqchi bo‘ladilar. Shu maqsadda, xonning uzoqroq qarindoshi bo‘lgan Samarqandda yashayotgan Po‘latbek chaqiriladi. U esa bunga rad javobini beradi. Shunda soxta Po‘latbek nomi ostida Mulla Ishoq Xasan o‘g‘li boshchiligida tarixga “Po‘latxon qo‘zg‘oloni” nomi (1873-1876) bilan kirgan siyosiy kurashlar boshlanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Minglar sulolasining hokimiyatga kelishiga turtki bo‘lgan omillar to‘g‘risida nimalar bilasiz?
2. XVIII-asr birinchi yarmida Qo‘qon hukmdorlari tomonidan xonlik xududi qay tarzda kengaytirilib borildi?
3. Qo‘qon-Buxoro munosabatlari to‘g‘risida ma’lumot bering?
4. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni tahlil qilib bering?

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Niyoz Muhammad Ho‘qandiy. Tarixi Shohruxiy (Ibrat ul Xavoqin). – Toshkent, 2014.
2. Mulla Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. - Toshkent, 2009.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2001.
4. History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
5. Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
6. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
7. Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
8. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2019.

MAVZU: QO‘QON XONLIGINING IJTIMOIY- IQTISODIY HAYOTI

Reja:

1. Qo‘qon xonligining ma’muriy-xududiy bo‘linishi va aholisi.

2. Xonlikda agrar munosabatlar va shaharsozlik.
3. Hunarmandchilik, savdo aloqalari va soliq-to‘lovlar.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, ma’muriy bo‘linish, aholi, qishloq xo‘jaligi, agrar munosabatlar, hunarmandchilik, savdo aloqalari, soliq-to‘lovlar, majburiyatlar.

1. Qo‘qon xonligining ma’muriy-xududiy bo‘linishi va aholisi

XIX-asr o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligi xududi kengayishi natijasida, shimolda Rossiya imperiyasining Sibir okrugi bilan, sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi, janubda Qorategin, Darvoz va Qulob viloyatlari bilan chegaradosh edi.

Ma’muriy jihatdan xonlik viloyatlar, sarkorlik, oqsoqollik va aminliklarga bo‘lingan. Viloyatlarga, asosan Marg‘ilon, Andijon, Shahrixon, Namangan, Xo‘jand, Koson, Chust, Isfara, So‘x, O‘ratepa, Qurama, Mahram, Toshkent, Turkiston va boshqalar kirgan. Quyi ma’muriy birlik - oqsoqollik deb atalib, yirik yoki mayda qishloqlardan tashkil topgan. Oqsoqolliklar boshida amin va oqsoqol yoki ba’zi hollarda sarkorlar turgan.

Abdukarimbiy davridan xonlikda boshqaruvsda davlat organi Kengash faoliyat yuritgan. Uning tarkibida yirik umaro, ulamo va fuzalolardan iborat guruh bo‘lib, davlat ahamiyatiga molik masalalar ko‘rilgan. Markaziy boshqaruv tizimida xonning yuqori amaldorlaridan biri mingboshi sanalib, bosh vazir vazifasini bajargan. Lekin bu vazifani Norbutabiy davrida qushbegi lavozimi bajargan. Xo‘sh, keyinga borib, bu vazifa nima uchun mingboshiga o‘tayapti, degan savol tug‘iladi. Bizga ma’lumki, bu lavozim Umarxon davrida asos solingan, lekin keyinchalik amal majburiyatlarining taqsimoti o‘zgarishi natijasida bu holat yuz berdi. Davlatning moliyaviy ishlarini devonbegi boshqargan.

Farg‘ona vohasining o‘ziga xos geografik joylashuvi bu yerga nihoyatda turli xil etnik guruhlarning ma’lum sabablar bilan kirib kelib joylashishiga sabab bo‘lgan. Masalan, aholi qo‘sni Afg‘oniston, Eron, Pokiston (Peshovar, Chitral), Hindiston va Sharqiy Turkiston kabi xududlardan ko‘chib kelganlar, hattoki xonlikning ijtimoy-siyosiy hayotida davlat boshqaruvida muhim o‘rinlarni egallagan. Xonlikning asosiy aholisini tadqiqotchilar uchta asosiy subetnosga ajratadilar. Birinchisi, qadimdan yashab kelayotgan, urug‘-qabilachilik bo‘linishga ega bo‘lmagan guruh bo‘lib, ular qadimgi eron va turk tilli xalqlarning qo‘shilishidan shakllangan edi. Ikkinchisi, turkiylardan iborat bo‘lib, bular asosan Shayboniyxon davrigacha O‘rta Osiyoga kelgan edilar. Bularning qatoriga yag‘mo, qarluq, chig‘il, qavchin, jaloir, barlos, nayman, xitoy, ming, qirq, qang‘li, baxrin, norin va boshqa urug‘-qabilalar kirgan. Uchinchisi dashtiqipchoqlik turkiy qabilalar bo‘lib, ular asosan XV-asr oxiri va XVI-asr boshlarida Movarounnahrga kelgan.

Qo‘qon xonligi siyosiy hayotida ming, yuz, qipchoq, mang‘itlar faol ishtirok etganlar. Asosiy aholi o‘zbeklar, so‘ngra tojik, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, qoshg‘ar, hind va boshqalardan iborat bo‘lgan. XVIII-XIX-asrlar o‘rtalaridan Farg‘ona vodiysiga Sharqiy Turkistondan 300 ming dan 450 minggacha aholi ko‘chib kelgan. Birgina 12600 ta qoshg‘arlik oila 1826 yilda Madalixon buyrug‘i bilan unumdon yerlarga ko‘chirib keltirilgan.

2.Xonlikda agrar munosabatlar va shaharsozlik

Qo‘qonliklar asosan, dehqonchilikda donli ekinlar, paxta ekishgan, shuningdek polizchilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, sholikorlik, ipakchilik, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Xonlikda yer egaligi boshqa xonliklardan deyarli farq qilmagan. Davlat yerlari *mamlakai sulton*, *zamini mamlaka*, deb nomlangan. Yer fondining asosiy qismini xon yerlari tashkil etgan. Hujatlarda, ular

turlicha nomlar bilan, jumladan *xossa*, *xossagi*, *miri* deb atalgan. Lekin “*xossa*” atamasi faqat yerkirada nisbatan aytilmay, balki barcha xonlik mulklariga yer, suv, ishlab chiqarish korxonlari va boshqalarga nisbatan aytilgan.

Ikkinchi yirik yer egaligi *mulk* bo‘lib, asosan xususiy shaxslarga tegishli edi. Bunday yerlar ham oldi-sotdi qilingani bois, *zarxarid* deb ham nomlangan. Bu toifa yerlar xiroj, tanobona soliqlarini to‘lagani uchun *mulki-xiroji* deb ham aytilgan. Bundan yerlar sug‘oriladigan bo‘lsa 1/5 miqdorda, agar lalmi yerlar bo‘lsa 1/10 miqdorda xiroj olingan. Yerga egalik qilishda mulk, ijara, urg‘u, tanho shakllaridan ham foydalanilgan.

Xizmat ko‘rsatgan kishilarga *tanxo*, *tarxon* shaklidagi yerlar berilgan, bunday yerkirada olgan kishilar tanhodor, taxxon deb atalgan va soliqlardan ozod etilgan. Masalan, Umarxon 1818-yilda Bohodur Xojiga Saroy qishlog‘idan tushadigan soliq-to‘lovlardan umrbod foylanishni in’om tariqasida bergen. Bundan xulosa qilish mumkinki, u yoki bu mulkler xon yorlig‘i asosida merosiy bo‘lgan yoki bo‘lmasagan. Uchinchi toifa yer egaligi esa vaqf mulki hisoblangan.

XIX-asr birinchi yarmida Qo‘qon xonligi gullab-yashnagan. Bu davr Farg‘ona vodiysining sug‘orilishi tarixida yangi davrni boshlab berdiki, aynan shu davrdan boshlab, vodiyya yirik sug‘orish inshootlari, ariqlar, kanallar, to‘g‘onlar qurila boshlangan. Masalan, Umarxon Shahrixonsov kanali, uning davrida yana Norindan Yangi ariq qazilib Namangan yerkirada sug‘orilgan. Unig vorislari davrida Chinobod arig‘i, Ulug‘nahr, Andijonsoy kanali, Oltiariq, Mutag‘an arig‘i kabi sug‘orish tarmoqlari kengaydi. Lekin bu ko‘rilgan choratadbirlarga qaramay, xonlikda bo‘z (qo‘riq) yerlar ham mavjud edi. Bular Xo‘janddan g‘arbda, Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi Xo‘jand va Qo‘qon oralig‘idagi yerlar bo‘lib, ular *quruq yerlar* deb nomlangan. Bunday yerlar o‘zlashtiriladigan bo‘lsa, ulardan ham natura, ham pul tariqasida davlat g‘aznasiga soliq to‘langan.

Asosan, 1/5 miqdorda xon ulushi bo‘lgan *panjyak* xonning tegishli kishisi bo‘lgan quruqchi (bo‘z yerlar sarkori) tomonidan olingan.

Qo‘qon xonligida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, Chimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi. XVI-asrdayoq Zahriddin Muhammad Bobur xonlikni asosi bo‘lgan Farg‘ona vohasida oltita yirik shaharlarini qayd qilgan edi: Andijon, Marg‘ilon, Axsi, O‘sh, Isfara va Xo‘jand. Keyinchalik, xonlik tashkil topgach shaharlar soni kengayib bordi. Ana shunday shaharlardan biri poytaxt Qo‘qon edi. “Qo‘qon” toponomi dastlab arab-fors manbalarida “Xuvkend”, “Xuvand” deb tilga olingan. Shahar tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Mo‘g‘ullar bosqinidan keyin vayron etilgan joyda faqat bir necha qishloqlar mavjud edi.

Sulolaning dastlabki vakillari Tepaqo‘rg‘onda boshqaruvni amalga oshirgan. Xuqand qishlog‘i yaqinida qal‘a bunyod etilgan. 1740-yilda Abdukarimbiy boshqaruvni Eski Qo‘rg‘ondan yangi qal‘aga ko‘chiradi. Ana shu davrdan shaharning rivojlanishi boshlanadi. Shaharning keyingi taraqqiyoti Erdonabiy va Norbutabiy davrlarida davom etdi. XIX-asr boshlariga kelib shaharni arxitektura yodgoriklari boyitib bordi. Umarxon davrida Jome’ masjidi va shifoxona qurildi. Madalixon davrida “Dahmai Shohon” majmuasi quriladi. Rus elchisi E.Meyendorfning ma’lumotiga ko‘ra, “Qo‘qon Sirdaryodan 10 vyorst yuqorida joylashgan, 6000 xonadondan iborat bo‘lib, yirikligi jihatidan Buxoroga teng”. Qo‘qon shahrining 12 darvozasi bo‘lganligi sababli, o‘n ikki qismga bo‘lingan.

Davlatning Qo‘qondan keyingi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlardan biri Toshkent shahri edi. XIX-asr boshida


shaharda 11 mingta xonodon, 15 ta karvonsaroy va 11 ta hammom bo‘lgan. Shahar to‘rt dahaga bo‘lingan. Yana bir yirik shahar Namangan bo‘lgan. Shaharning mavqeい XIX-asr boshiga kelib oshadi. Bunga sabab, 1803-yilda Norin daryosidan Yangi ariq kanali qaziladi va 1819-yilda Umarxon davrida bu kanal sug‘orish ishlari natijasida kengaytiriladi. Natijada, shahar kengayib aholi soni ko‘paygan. 1842-1845-yillarda shahar mudofaa devori bilan o‘rab olingan. XIX-asrning 20-yillarida Namanganda taxminan 5000 xonodon hisobga olingan.

XIX-asr boshlarida xonlikda yangi shaharlar shakllanadi. Bulardan biri Shahrixon edi. Dilshod Barnoning “Tarixi muhohiron” asarida keltirilishicha, shaharga 1821-1822-yillarda Umarxon tomonidan asos solingan. Shaharga turli joylardan aholi ko‘chirib keltirilgan. Shahrixonsoy kanali o‘tkazilgach, shahar yanada kengayadi. Mahalliy aholi yashaydigan mahallalar katta yo‘llardan ajralib chiqqan mayda va tor ko‘chalardan iborat edi.

Xonlikning shaharlari qatoriga shuningdek, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Turkiston, Chimkent, Sayram va boshqalar ham kirgan. O‘sh shahri Qo‘qonni Qoshg‘ar bilan bog‘lovchi shahar hisoblangan. XIX-asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal‘a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga, Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To‘qmoq, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo‘ylab bunyod etilgan istehkomlar esa, nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. So‘nggi o‘rta asrlarda shaharlarning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rnini aniqlashda ularning hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida roliga alohida ahamiyat qaratilgan.

3.Hunarmandchilik, savdo aloqalari va soliq-to‘lovlar

Qo‘qon xonligi aholisi hayotida hunarmandchilik va kosibchilik muhim o‘rin tutgan. Xonlikda barcha hunarmandchilik turlari, jumladan to‘qimachilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqalar rivojlangan edi. Uzoq rivojlanish tarixiga ega bo‘lgan xonlik hunarmandchiligi haddan tashqari ixtisoslashgan edi. Hunarmandchilikning hatto bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar mavjud bo‘lgan. Buni ayniqsa, to‘quvchilik va temirchilikda yaqqol kuzatish mumkin edi. Ishlab chiqarishning bu sohalari asosan yirik shaharlar: Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, O‘sh, Xo‘jand, Turkiston kabilarda yaxshi rivojlangan bo‘lib, qishloqlarda ham bu soha ancha taraqqiy etgan edi.



Telpakfurush

Xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan mashhur bo‘lgan. Misol uchun, Qo‘qon shahri zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov berish, pichoqchilik, Marg‘ilon, Namangan va


Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o‘zining tikuvchilik, to‘quvchilik, cho‘yan, temir-mis mahsulotlari bilan nom qozongan.

Xonlikda yana bir ko‘zga ko‘ringan soha bu ipakchilik bo‘lgan. Arxiv ma’lumotlarga ko‘ra, 1868-yilda Qo‘qondan rus savdogarlari tomonidan 10000 pud, 1869-yilda 15000 pud xom ipak olib ketilgan. Qog‘oz ishlab chiqarish ham xonlikda rivojlangan soha bo‘lgan. Qog‘oz korxonalari asosan Muyimuborak darvozasidan tashqarida joylashganligi eslatiladi.

Davlatda qurolozlikka ham alohida e’tibor qaratilgan. Bu tarmoq shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining obro‘li sohalaridan biri hisoblangan. Qo‘qon shahrida zambarak, miltiq, qilich, pichoq, xanjar, qalqon, nayza va boshqa harbiy anjomlar tayyorlangan.

Xudoyorxon O‘rdasi (XIX asr)

Qo‘qon honligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g‘arb va janubda Buxoro, Xiva,



Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashg‘ar

orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko‘chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalari o‘rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikka yaponiyalik va ingliz savdogarlari ham kelganligi eslatib o‘tiladi.

Xonlikdan xorijga, asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Xorij davlatlaridan esa choy, metall, chinni, uy-ro‘zg‘or buyumlari, tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyifzal va boshqalar keltirilgan.

Qo‘qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Qoshg‘ar, Buxoro, Afg‘oniston va Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar o‘zaro ayirboshlangan. Rus olimlarining ta’kidlashicha, Buxoro, Qo‘qon, Toshkent va Qoshg‘arga Qobul orqali 10 mingdan 15 minggacha tuya yuk olib kelingan. Xitoy, Afg‘oniston va Eron bilan savdo munosabatlarini kamroq olib borgan.

Buxoro bozorlariga qo‘qonliklar rus metall buyumlari, cho‘yan, guruch, ipak, tamaki, ba’zi xitoy va mahalliy ipak matolar, choy, chinni buyumlar olib borganlar. Asosiy yuklar tuya va aravalarda tashilgan. Buxorodan Qo‘qonga karvonlar 20-22 kunda yetib borgan.

Qo‘qon-Rossiya munosabatlari yildan-yilga o‘sib borgan. Rossiyadan asosan, temir, mis, po‘lat, cho‘yan, va metall buyumlar, shakar, oynalar, ishlov berilgan terilar olib kelingan. Xonlikdan mahsulotlar orasida asosan paxtaga ehtiyoj katta bo‘lgan. Masalan, o‘n yil mobaynida (1840-1850) 18,119 rublik shu mahsulot olib ketilgan bo‘lsa, 1867-yilning o‘zida faqat 27.4293 rublik paxta olib ketilgan.

Xonlikda soliq-to‘lovlarning joriy etilishiga ko‘ra, bir nechta turga bo‘lingan. Shariat asosida xiroj, ushr va zakot olingan. Xon xazinasiga kelib tushadigan soliqlar *xossachi*, bek xazinasiga tushadigan soliqlar *beklik* deb yuritilgan. Boshqa joylardan tushadigan soliq turlariga: 1) mahsulot va chorvadan tushadigan

zakot, 2) Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj to‘lovlari, 3) tuz puli, 4) xossachi yer-mulklaridan olinadigan soliq, 5) turli shaharlarda xon mablag‘iga qurilgan do‘kon, karvonsaroy, omborlar uchun ijara puli, 6) to‘y marosimlari uchun va boshqalar shular jumlasidan edi.

Guruch, bug‘doy, jo‘xori va donli ekilgan maydonlardan 1/5 miqdorda, bog‘, uzumzor, paxtazor, va boshqa ekinzorlardan maydon hajmiga qarab olingan yana bir yer solig‘i tanobona bo‘lgan. Tanobona miqdori ekinzor turiga qaralgan. Masalan, terak va qayrag‘och egallangan yerdan 50 tiyin, sabzavotlar ekilgan yerdan 1 rubl, uzum va mevali bog‘lardan 2 rubl olingan. Rus tarixchilari ma’lumotiga ko‘ra, xonlikda shuningdek, 1) *savoin-zakot* tuyalarga egalik uchun soliq, 2) *sodluq-zakot* qo‘ylarga egalik solig‘i, 3) hunarmandchilik korxonalaridan olinadigan soliq, 4) *qo ‘sh solig‘i* dehqonchilik quroli, qo‘shdan olingan. 5) bozor solig‘i, 6) tarozi solig‘i, 7) tuz puli tuz ortilgan tuyadan olingan (20 tiyin), 8) yuk puli, 9) to‘y puli kabilar olingan.



Xudoyorxonning oltin va kumush tangalari

Soliqlardan tashqari aholi majburiy turli ishlarga kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga jalb etilgan. Soliq, to‘lov va majburiyatlarning yildan yilga oshib

borishi natijasida Qo‘qon xonligida xalqning noroziligi ortib borib, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi davlatning siyosiy inqirozini ta’minlab beradi.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Qo‘qon xonligining xududi va chegaralariga aniqlik kriting?
- 2.Xonlikning qishloq xo‘jaligi va sug‘orish tizimida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
- 3.Qo‘qon xonligi shaharsozligida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
4. Xonlikning hunarmandchilik, ishlab chiqarish sohalariga tavsif bering?
5. Qo‘qon xonligining tashqi savdo aloqalari to‘g‘risida ma’lumot bering.

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 1.Niyoz Muhammad Ho‘qandiy. Tarixi Shohruxiy (Ibrat ul Xavoqin). – Toshkent, 2014.
- 2.Mulla Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. - Toshkent, 2009.
- 3.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent, 2001.
- 4.History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
- 5.Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
- 6.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
- 7.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 8.Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2019.

MAVZU: BUXORO AMIRLIGINING SIYOSIY TARIXI (XVIII -ASR IKKINCHI YARMI –XIX-ASRNING BIRINCHI YARMI)

Reja:

1. Buxoro amirligining tashkil topishi.
2. Amir Shohmurodning hokimiyatni mustahkamlash borasida amalga oshirgan islohotlari.
3. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy ahvol.

Kalit so‘zlar: mang‘itlar sulolası, legitimatsiya, Buxoro amirligi, markazlashtirish siyosati, XIX asr birinchi yarmi, siyosiy beqarorlik, islohotlar.

1.Buxoro amirligining tashkil topishi

XVIII-asr birinchi yarmida Buxoro xonligida kechgan siyosiy tarqoqlik, o‘zaro qabilaviy urushlar Ashtarkoniylar sulolasining 150 yillik hukmronligini parchalanishiga olib keldi. Natijada, hokimiyat tepasiga mang‘itlar sulolası chiqdi. Ayniqsa, ikki sulolaning o‘zaro almashinuvi oxirgi hukmdor Abulfayzxon davrida chuqur siyosiy inqiroz bilan kechdi. Abduraxmon Tole’ “Abulfayzxon tarixi” asarida, “bu hukmdor davrida barcha joylarda qo‘zg‘olon va isyonlar kuchayib ketdi, urug‘-qabila boshliqlari o‘zaro bir-biriga qarshi kurashdi”, deb aytadi. Bu haqda XVIII-asr 20-yillarida xonlikka kelgan Florio Benevini ham xonlikning eng yirik viloyatlari bo‘lmish Toshkent, Xo‘jand, Balx, Badaxshon, Hisor, shuningdek Samarqand deyarli mustaqil mulkka aylanganligini qayd etadi.

Darhaqiqat, Mirza Abdulazim Somiy, Muhammad Vafo Karmanagiy kabi tarixchilarning tavsiyida Abulfayzxonning davlat ishlarini yuritishda befarqligi, irodasizligi sabab, markaziy hokimiyat zaiflashib borgan. Chunonchi, XVIII-asr 20-40 yillarida uning hokimiyati ta’siri poytaxtga yaqin tumanlardan Vobkent,

G‘ijduvon, Vardonze, Qorako‘l kabilarga yetgan edi, xolos. Shu o‘rinda, mazkur davrda davlatning ijtimoiy-siyosiy parokandaligiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri, bek va amirlarning markaziy hokimiyatga ayirmachiligi, bosh-boshdoqligining avj olishi hisoblanadi. Xususan, shahrisabzlik Ibrohim kenagas, Karmana hokimi Abdulkarim baxrin boshchiligidagi kuchlar birlashib, Abulfayzxon va u tayangan Hakimbiy otaliq boshliq hukumat kuchlariga qarshi kurash olib bordilar. Buning natijasida, qo‘sh hokimiyatchilik yuzaga kelib, Ibrohim kenagas, Rajab Sulton (urganchlik xonlar avlodiga qarindosh) boshchiligidagi Samarqandda alohida xonlik tashkil etdilar. Boshqa tomondan, bu kuchlarning hukumatga qarshi qozoqlardan yordam so‘rashi oqibatida, qozoqlar 20-yillarda Zarafshon vohasiga talonchilik yurishlarini amalga oshirdilar. Bu haqda, Yoqub ibn Doniyol Buxoriyning “Gulshan ul-mulk” aasarida “etti yillik tinimsiz bosqinchilik yurishlari dehqonchilik vohalarini vayron etib, xalqlar turli joylarga ko‘chib ketdilar”, deb iztirob bilan tilga oladi.

Xonlikdagi ichki vaziyatdan foydalangan Eron shohi Nodirshox 1736-yilda o‘g‘li Rizoqli boshchiligidagi qo‘shinni xonlik xududiga yubordi. Bu qo‘shin Qarshini qamal qildi, biroq tez fursatda Xiva xoni Elbarsxon dan yordam kuchi kelgach, eronliklar xududni tark etishdi. 1740-yilga kelib, Nodirshoh o‘z qo‘shini bilan Chorjo‘ydan Amudaryo orqali xonlikka yurish qildi. Buxorodan 4 farsax naridagi Choharbakr degan joyda Muhammad Hakimbiy boshchiligidagi hukumat vakillari Nodirshoh bilan muzokara olib borishdi va ikki o‘rtada tuzilgan sulu bitimiga ko‘ra, Buxoro xonligi Eronga tobelligini tan oladi. Bitimning asosiy shartlariga ko‘ra, Buxoro Eronga 200 ming harvar bug‘doy, arpa kabi mahsulotlar, shuningdek, qo‘shiniga 10 ming askar berishi belgilandi.

Nodirshohning noibi sifatida Hakimbiy mang‘it amalda hokimiyatni qo‘liga oldi, uning o‘g‘li Muhammad Rahimbiy esa Mashhadga olib ketilib, u yerda muhajoirlarni boshqardi. 1745-yilda

Rahimbiy Eron qo'shini bilan birgalikda, xonlikda ko'tarilgan isyonlarni bostirish uchun yuborildi. Bu siyosiy voqeiliklar orqali, Rahimbiy yuqori hokimiyatga intilib siyosiy mavqeini ko'tarib bordi. Keyinchalik, 1747-yilda Nodirshoh hamda Abulfayzxonning o'ldirilishi Muhammad Rahimbiyga taxtni egallashi uchun imkoniyat yaratdi.

Mavjud siyosiy vaziyatdan foydalanib, Raximbiy dastlab Abdulmo'min (1747-1751), Ubaydullaxon III (1751-1754) va Sherg'ozi (1754-1756)larni taxtga o'tqazdi. So'ng o'zi "Tuhfat al-xoni" asarida aytiganidek, 1756-yilda "oliy hukmdor" sifatida taxtga o'tirdi. Chingiziyalar avlodiga mansub bo'limgani uchun "amir" unvoni bilan taxtga chiqqan Rahimbiy hukmronligining legitimatsiyasi¹¹ uchun Abulfayzxonning qiziga o'ylanib, xon avlodini bilan qarindoshchilik rishtasini bog'ladi. Shunday qilib, 1756-yildan taxtga chiqqan mang'itlar sulolasasi Buxoro amirligi deb yuritilgan davlatni to 1920-yilgacha boshqarishdi.

Muhammad Rahimbiy (1756-1758) hukmronlikning dastlabki yillarida, hokimiyatini mustahkamlash maqsadida yirik amirlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatib, ularga tur xil tuhfa, sovg'alar berish yo'li bilan o'z tomoniga og'dirish yo'lini tutdi. Biroq Ashtarxoniyalar sulolasidan meros qolgan anarxiya (davlat hokimiyatini inkor etish), boshboshdoqlik kabilar markazlashtirish yo'lida olib borilgan siyosatga qarshi asosiy to'siq hisoblandi. Bu borada Hisor, Kabadiyon, Sherobod, Boysun, Nurotoa, Urgut, Shahrisabz xududlariga uyushtirilgan yurishlarda Raximbiy g'alaba qozondi. Shahrisabz kenagasariga qarshi bir necha marotaba, Qo'qon xoni Erdonabiy ko'magida O'ratepabekligi va qalmiqlarga qarshi yurishlar natijasida, Hisor, Samarqand, O'ratepa, Shahrisabz deyarli buysundirildi. Vaziyatni engillashtirish uchun siyosiy faol turli Miyonqoldagi etti urug', Nurotada burqut, Kobadiyonda

¹¹ Legitimatsiya (lot. *legitimus*) – davlat hokimiyatining qonuniyligini tan olinishi yoki tasdiqlanishi.

do‘rmon, Shahrisabz kenagaslari va hisorliklarni boshqa joylarga ko‘chirdi.

Biroq 1758-yilda Muhammad Raximbiy olamdan o‘tgach, 6 yoshli nevarasi Fozilto‘radan tashqari merosxo‘r qolmaydi va natijada faol shaxs bo‘lgan amakisi Amir Doniyolbiy (1758-1785) amalda hokimiyatni qo‘liga oladi. Amir Doniyolbiy uchun ham Rahimbiy davridan urug‘ boshliqlarining o‘zaro kurashi meros qolgandi. Siyosiy tarqoqlik va o‘zaro urushlardan charchagan raiyatning hunarmand va savdogarlar qatlami Doniyolbiyni qo‘llab quvvatladilar. Doniyolbiy buxoroliklar yordamida qarshi kuchlarlarning isyonini bostirdi. Lekin shu bilan qarshilik to‘xtamadi, O‘ratepa, Hisor Karmana, Nurota hokimlari markaziy hokimiyatga buysunishdan bosh tortib turdilar. Xususan, Miyonqoldan tortib, Shahrisabz, G‘uzor, Boysun, Sherobod va Hisorgacha bo‘lgan xududlar viloyat hokimlarining jang maydoniga aylangan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, Amir Doniyolbiy davrida qo‘g‘irchoq xon sifatida Abulfayzzon avlodidan bo‘lgan Abulg‘ozixon e’tirof etilgan.

Manbalarda Amir Doniyolbiy “olijanob va insonparvar”, “aqlli va yumshoq ko‘ngil” deb ta’riflansa-da, biroq uning davrida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og‘irligicha qoldi, turli amal va mansabdor vakillar zo‘ravonlikni amalga oshirganlar. Ahmad Donish ta’kidlaganidek, “*oluq-soluqdan* tortib *aminona, vakilona* va boshqa soliqlardan xalq yelkasini ko‘tarolmay qoldi”. Bunday vaziyatda xalq g‘alayonlari ko‘tarilib bordi, shundaylardan biri 1785-yilda Buxoroda ko‘tarilib, uning oqibatida ko‘plab aholi vafot etdi.

2. Amir Shohmurodning hokimiyatni mustahkamlash borasida amalga oshirgan islohotlari

Amir Doniyolbiy o‘limidan so‘ng taxtga uning katta o‘g‘li Shohmurod chiqadi. Amir Shohmurod (1785-1800) kamtarin, diniy aqidalarni o‘zlashtirgan va taqvodor hukmdor sifatida tarixda nom qoldirgan. “Amir ul-mo‘minin” deb o‘zini e’lon qilgan Shohmurod soxta xonlar boshqaruviga chek qo‘ygan. Uning davrida markaziy hokimiyat ancha mustahkamlanishga erishildi. Zulmdan ezilgan Buxoro xalqiga tarxon yorlig‘ini berdi va xalqqa nisbatanadolatsizlik qilgan mansabdor shaxslarni jazoladi. Amir Shohmurod Qarshi, Shahrisabz, Karmanadagi qarshiliklarni enggan. Eron va Afg‘onistoniga qilingan harbiy yurishlar davlatning janubiy chegaralarini mustahkamladi. 1786-yilda u Marvga yurish qildi, 30 ming marvliklar Buxoroga va uning atrofiga joylashtiriladi. 80-yillarda Xurosonga qilingan yurishlarda afg‘on amiri Temurshoh bilan kurash olib borib, Afg‘onistonning Maymana va Andxud kabi xududlarini amirlik tasarrufiga o‘tkazdi.

Amir Ma’sum, ya’ni “begunoh amir” deb nom qozongan bu hukmdor, ichki hayotni tartibga solishga katta e’tibor qaratdi va shu maqsadda, shariatga zid bo‘lgan yangiliklar bekor qilindi, tashlandiq vaqflar qayta tiklandi, masjid va madrasalar qayta tiklandi. 80-yillarda o‘tkazilgan pul islohoti natijasida, sof holda tilla va kumush tangalar zARB etildi. Bundan tashqari, aholidan ma’lum haq olish evaziga saroy qoshidagi zARBxonada tangalar zARB etishga ruxsat berildi. Shu bilan birgalikda, shariatga zid bo‘lgan yarg‘u, boj, yasoq, oluq va soluqlarni bekor qildi.

Bu davrda sud tizimi erkinlashtirildi. Viloyat va tumanlardagi qozilarni amirning o‘zi shaxsan tayinlagan. Ular o‘z faoliyatini amir tomonidan maxsus ishlab chiqilgan huquqiy risola (Ayn al-hikmat)ga asoslanib olib borishi lozim edi. Buxoroda 40 kishidan iborat Oliy sud palatasi tuziladi. Mazkur organ ishida amirning shaxsan o‘zi ishtirok etgan. Bunda shariat qoidalarini buzganlik uchun barcha tabaqa vakillari javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, Amir Shohmurod qo‘shtining moliyaviy ta’minoti tartibini ham

o‘zgartirgan. Lashkarboshilarga qo‘singa rahbarlik qilish evaziga berilgan yer-mulklar tortib olinib, vazifasiga qarab maosh tayinlanadigan bo‘ldi. Bunday ichki siyosat natijasida markaziy hokimiyat birmuncha mustahkamlandi va barqarorlik hukm surdi.

Amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandda ko‘plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar va turli binolar qurilgan. Samarqand va Buxorodagi bo‘sab qolgan madrasalar bu davrda yana ilmi toliblar bilan gavjum bo‘lgan. Shuningdek, Amir Shohmurod Samarqand madrasalarini tiklashda faol qatnashgan. Jumladan, 1455-yilda qurilib, «Madrasai safed» («Oq madrasa») nomini olgan ikki qavatli Xoja Ahror madrasasini Shohmurod qayta qurban. Amir Shohmurodning farmoni bilan Samarqanddagi Shayboniyxon va Ulug‘bek madrasalari ta’mirlandi va qayta tiklandi, qal’a va shahar devorlarining buzilgan qismlari ham qayta tiklandi. Ana shu davrda Shohizinda maqbarasi zinapoyasining tepe qismidagi o‘ziga xos ark-gumbaz tarmog‘i Chortoq binosi qurildi. Shohmurodning o‘zi qayta qurilajak shahar tarhini chizgan. Samarqandda Amir Shohmurod 24 ta yangi mavze qudirib, mamlakatning sharqiy viloyatlaridan buyerga aholini ko‘chirib keltirgan. Shahar markazida olti qirrali Chorsu - «Toqi musaddas» qudiradi. Chorsu baland burchakli bino bo‘lib, uning markazida baland gumbaz va undan ajraladigan olti yo‘lak bo‘lgan. Bu yo‘laklar shahar darvozalari Buxoro, Korizgoh, So‘zangaron, Feruza, Ohanin va Haydarobodga qarab ketgan. Samarqandning oltita asosiy darvozasi Amir Temur davrida ana shunday nomlangan. U Samarqand yaqinidagi Dahbed mavzesida joylashgan Mahdumi A’zam ziyyaratgohini ham qayta barpo qildirgan.

Amir Shohmurod amaldagi yoki butunlay faoliyat ko‘rsatmayotgan vaqflarni qayta ishga soldi, ulardan tushgan daromad va qo‘srimcha soliqlardan olingan daromadlarni yangi masjid, madrasa, xonaqoh va maktablar, ziyyaratgohlar barpo etish hamda ularni ta’mirlash uchun sarflashga buyruq berdi. Bu hukmdor

shuningdek, madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) to‘lashni joriy etdi.

3. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy ahvol

Amir Shohmuroddan so‘ng taxtni o‘g‘li Amir Haydar (1800-1826) egalladi va otasi siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Bu hukmdor ona tomondan Abulfayzxonga bog‘langan. Hokimiyat almashayotgan vaqtda siyosiy tarqoq kuchlar yana qo‘zg‘aladi. Amir Haydar dastlab o‘z inilari bo‘lgan Dinnosirbek va Husaynbek bilan kurash olib bordi. Shuningdek, markazdan qochishga uringan Shahrisabz va Hisor bilan kurashdi. Uning davrida ayniqsa, ommaviy qo‘zg‘alonlar avj oldi. Masalan, bu isyonlar Miyonqol vohasida, Samarqand, Urgutda 1821-1825-yillargacha davom etdi. 1800-yil Marv aholisi, bir yil o‘tib Karki atroflarida qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan.

Agar Amir Shohmurod davrida Buxorodan so‘ng Karmana muhim strategik bo‘lgan bo‘lsa, Amir Haydar davrida Qarshining nufuzi ortib bordi. Amir Haydar tashqi siyosatda Qo‘qon va Xiva xonliklari bilan ba’zi xududlar masalasida kurash olib bordi. Jumladan, Xiva xoni Eltuzar tomonidan 1806-yilda Buxoroga talonchilik yurishlari uyushtirib, atrof qishloqlar talandi. Bunga javoban, Amir Haydarning buxoroliklar bilan xivaliklarga qarshi qaratilgan harakati natijasida, Amudaryo kechuvida xivaliklar bilan xon Eltuzarxon daryoga cho‘kib ketdi. Lekin keyingi yillarda Muhammad Rahimxon I boshchiligidagi xivaliklar hujumi davom etib, Buxoro, Chorjo‘y atroflariga bosqinlar bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi bilan munosabatlarning buzilishiga strategik ahamiyatga ega bo‘lgan O‘ratepa sabab bo‘lgan. 1807-yilda Qo‘qon xoni Olimxon Buxoroning chegaradosh xududlariga yurish qildi. 1810-yillardagi navbatdagi yurishlarga javoban, Amir Haydar ko‘p

sonli qo'shin bilan Olimxonga qarshi yurish qildi. Keyinroq, Olimxon Samarqandni egallahsga kirishadi. Amir Haydar Samarqandni mudofaa qilib, Jizzax va O'ratepani qaytarib oldi. O'ratepa, Xo'jand uchun olib borilgan Buxoro-Qo'qon o'rtasidagi 20 yillik urushlar ikki tomonga ham foyda keltirmadi. 1817-yilda esa Amudaryo bo'yidagi mulklar Balx, Maymana va Badaxshonga yurish qildi. Ahmad Donish ta'kidlaganidek, Amir Haydar davri tinimsiz va o'zaro urushlar bilan kechgan va har 3-6 oyda isyonlar takrorlanib turgan.

Amir Haydar davrida Amir Shohmurod davrida boshlangan Buxoroning islom dini markazlaridan biriga aylanishi va ulamolar ta'sirining kuchayishi jarayoni davom etdi. U diniy bilimlarni chuqur egallagan kishi bo'lib, o'zi asos solgan madrasada mudarrislik qilgan. Abdul Karim Buxoriy, Abdulazim Somiy kabi tarixchilarining ta'kidlashicha, tinglovchilari soni 400 ming kishiga etgan. Siyosiy nizolarga qaramasdan, uning davrida ilm-fan rivojlanishda davom etgan.

Amir Haydardan keyin taxtga o'g'li Mir Husayn To'ra o'tirdi, biroq 2,5 oydan so'ng vafot etadi. Undan so'ng, biroz vaqt boshqa o'g'li Said Mir Umar o'tiradi. Lekin taxt uchun davom etgan kurashlarda uchinchi o'g'il Nasrulloxon g'alaba qozonib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Amir Nasrullo (1826-1860) ning 34 yillik hukmronligi davomida amirlik ijtimoiy-siyosiy hayotda og'ir damlarni kechirdi. Hokimiyatga qarshi bo'lgan siyosiy kuchlarga qarshi ayovsiz kurash olib borildi.

Amir Nasrullo davrida Buxoroda birinchi marta muntazam qo'shin tuzildi. Uning tarkibida 40 ming sarboz bo'lgan. Uning davrida Buxoroda zambaraklar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Amir Haydar davrida u bilan yaxshi munosabatda bo'lgan Shahrisabz hukmdorlari Amir Nasrullo hokimiyati o'rnatilgach, o'z mustaqilliklarini e'lon qiladilar. Amir Nasrullodan norozi bo'lgan zodagonlarning ko'pchiligi Shahrisabzga qochib bordi. U

Shahrisabzni bo‘ysindirish uchun 32 marta yurish qildi. Lekin faqat 1856-yilga kelibgina buysundirildi.

Amir Nasrullo o‘z mamlakati xududlarini qo‘shti xududlar hisobidan kengaytirishga harakat qildi. 1842-yilda u qisqa muddatga bo‘lsa-da, Qo‘qonni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Qo‘qon xoni Muhammad Alixon va yaqinlari uning buyrug‘i bilan o‘ldirtirildi. Shu orada Xiva xoni Buxoroga qarshi harakat boshlaganini eshitib, u asosiy kuchlari bilan Xivaga otlandi va 1843-yilda Xazorasp yaqinida Xiva xoni qo‘shtinlaridan engiladi. Shunday qilib, Amir Nasrullo davrida markaziy hokimiyatni mustaxkamlash uchun amir, beklar bilan, O‘ratepa, Xo‘jand uchun Qo‘qon xonligi bilan hamda Chorjo‘y, Marv xududlari uchun Xiva xonligi bilan urushlar olib bordi. Bu urushlar natijasida, qishloq xo‘jaligi tizimiga zarar etkazilgan bo‘lsa-da, boshqa tomondan markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi yo‘lida bu urushlarning ijobiy natijasi bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Buxoro amirligining tashkil topish omillari haqida nimalar bilasiz?
2. XVIII asr ikkinchi yarmida mang‘it hukmdorlarining ichki va tashqi siyosatini gapirib bering?
3. Buxoro amirligida markaziy hokimiyatga qarshi isyonkor bo‘lgan urug’-qabilalarga ta’rif bering?
4. Amir Shohmurodning boshqaruvi tizimida olib borgan islohotlariga aniqlik kriting?
5. XIX asr birinchi choragida amirlikda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritib bering.
6. Amir Nasrulloning ichki va tashqi siyosatini tahlil qiling.

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Traktat Axmad Donisha. Istoriya Mangitskoy dinastii. Per. I.A. Nedjavofoy. – Dushanbe, 1967.

2. Sami Mirza Abdalazim. Tarix-i salatin-i mangitiya. Pred. iprim. L.M. Epifanovoy. – M., 1962.
3. Mirzo Olim Mahdumhoji. Tarixi Turkiston. – T.: YAngi asr avlodi, 2009.
4. Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
5. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
6. Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
7. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012.

MAVZU: BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

Reja:

1. Buxoro amirligining boshqaruv tizimi va ma’muriy-xududiy bo‘linishi.
2. Qishloq xo‘jaligi, agrar soha va hunarmandchilik.
3. Soliq tizimi va savdo munosabatlari.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, xududi, ma’muriy bo‘linish, agrar soha, yer egaligi, ishlab chiqarish, soliqlar, savdo aloqalari.

1. Buxoro amirligining boshqaruv tizimi va ma’muriy-xududiy bo‘linishi.

Buxoro amirligi hozirgi O‘zbekistonning markaziy qismi, ya’ni Zarafshon, Qashqadaryo va Surxandaryo vohalari, shuningdek, Hisor, Xo‘jand, O‘ratepa, Panjakent, yuqori Zarafshon, Afg‘onistonning shimoliy, ya’ni Amudaryo bo‘ylab ketgan xududi Balx bilan birga, Turkmanistonning janubiy viloyatlari, xususan

Marv va Eronning bir qismi kirgan. XIX-asr boshlarida amirlik xududi taxminan 40 ming kvadrat chaqirimdan iborat bo‘lgan¹².

Amirlik shimolda Og‘atma, Qorag‘at¹³ kabi chegara punktlari bilan chegaradosh bo‘lib, Qorag‘at punktida Rossiyadan keluvchi karvonlarni tekshiruvchi bojxona bo‘lgan. Samarqanddan shimoliy-g‘arbda O‘ratepa qal’asi joylashgan bo‘lib, bu ham chegaraviy tayanch punkt hisoblangan. Shunday qilib, davlatning shimoliy chegarasi Qorag‘atdan O‘ratepagacha borgan. Amirlikning g‘arbiy chegarasi asosiy Marv sanalib, Marv chizig‘idan to Amudaryo va undan Hisorning markazi Denovga qadar amirlikning janubiy chegarasi o‘tgan. Davlatning sharqiy chegarasi Denovdan to O‘ratepa chizig‘i bo‘ylab ketgan.

Amirlikning markaziy qismi Zarafshon vohasi bo‘lib, bu nihoyatda unumli yerlarga boy bo‘lgan. Vohaning asosiy markazlari Samarqand va Buxoro bo‘lgan. Rus elchisi E. Meyendorf bergen ma’lumotlarga ko‘ra, XIX-asr 20-yillarida amirlikda aholi soni 2,5 millionga yaqin bo‘lib, shundan 1,5 milliondan ziyodini o‘zbeklar tashkil etganligi, qayd etiladi. XIX-asr o‘rtalariga kelib, aholi soni 2,5 millionga etgan. Aholining asosini o‘zbeklar va tojiklar, so‘ngra turkmanlar, qozoqlar, yahudiylar, arablar, eronilar va boshqalar tashkil etgan. Yuqoridagi elchilik ma’lumotiga ko‘ra, shu davrda qoraqalpoqlar 100 ming ta, yahudiylar 4000 ta, eroniylar 4000, qozon tatarlari 3000 ta, afg‘onlar 2000 ta, hind va qalmiqlar bir necha yuztani tashkil etgan.

Bu davrda davlat boshlig‘i garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo‘lsa-da, amirlik boshqaruvi tizimi, qonun-qoidalari va butun ijtimoiy tuzumi bilan birgalikda o‘rta asrlardagi shayboniylar, ashtaxoniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmagan. Davlat boshqaruvi monarxiya shakliga asoslangan edi. Ma’lumki, tarixda odatda sulolar o‘zlarini taxtda mustahkam turishlarini legitimatsiya

¹² 1 чақирим – 1,06 км тенг.


¹³ Тахминан ҳоз. Навоий вилоятига тўғри келади.

qilishda kelib chiqishlarini Chingizxoniga (shayboniyalar, ashtarxoniyalar, arabshohlar), chingiziylar va Amir Temur (Qo‘qon xonlari) hamda boshqa genealogik tarmoq orqali Payg‘ambarga bog‘lashda yarim afsona va qisman haqiqat izlash yo‘lidan borgan. Buxoro amirligi mang‘it hukmdorlari ham hukmronligini mustahkamlash asosida bir vaqtning o‘zida “amir”, “sayyid” hamda “xon” kabi unvonlarga egalik qilishgan.

Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo‘lgan amir tomonidan boshqarilgan. Amir Sayyid Olimxon o‘zining “Buxoro xalqining hasrati tarixi” asarida: “Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islam ulamolari amirni payg‘ambar xalifasi o‘rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo‘lardi. Buxoro hukmdorlarining turk odatlariga ko‘ra, to‘sakcha ustiga tabarrukona o‘tqazilib, sayyidlar, xo‘jalar va mullolar uni yerdan ko‘tarardilar” deb yozgan edi.

Amir Shohmurod davrida davlat va ma’muriy boshqaruvtizimiga katta ahamiyat berilib, maslahat Kengashi tashkil qilinib devon deb yuritilgan. Davlat ahamiyatiga molik masalalar shu Kengash orqali hal etilgan. Boshqaruv apparati ma’muriy, moliyaviy, sud, mirshablik va harbiy organlardan tashkil topgan.

Davlat boshqaruvi tizimi esa asosan, ikki bosqichli bo‘lib, markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat edi. Markaziy hokimiyat amir va saroy ayyonlari boshchiligidagi Buxorodagi bosh qarorgoh arkda, mahalliy boshqaruв esa viloyat noiblari qo‘lida bo‘lgan. Umuman, amirlikning ma’muriy tuzilishi viloyatdan boshlanib, tuman, qishloq, mavze, oqsoqollik, daha kabi ma’muriy birlik va aholi punktlari bilan yuritilgan.



Hukumat majlisi

Viloyatlar soni doimo bir xil bo‘limgan. Masalan, Amir Nasrulloxon davrida 40 ta, 1868-yilda ularning soni 21 ta, XIX-asr oxiriga kelib esa 27 ta ko‘rsatiladi. Eng katta viloyatlarga Nurota, Qorako‘l, Chorjo‘y, Qarshi, Kelif, Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob, Huzor, Qorategin, Boysun, Hisor, Dehnov, Qo‘rg‘on, Baljuvon, Ko‘lob, Qubodiyon, Darvoz, Ro‘shon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmetan va Maschohlar kirgan. Valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblangan. “Majmua al-arqom” asarida ma’muriy birliklar soliq yig‘ish tartibiga binoan, tuman (100 ming tanobdan iborat sug‘oriladigan yerlar) hazora (50 ming tanob) nimhazora (25 ming tanob) yerlar obxo‘ri (10-15 ming tanob), qariya (400 tanob) yoki mazraa (300 tanob) deb etiladi.

Markaziy va mahalliy boshqaruv tizimida ko‘p sonli amaldorlar vazifa va majburiyatlariga ko‘ra, ma’muriy, harbiy hamda diniy amal, mansablarga bo‘lingan. Bularning jumlasiga, qo‘shbegi, otaliq, devonbegi, parvonachi, dodhox, tug‘begi, chehraoqasi, mirzaboshi, qozi, mufti, rais va boshqalar kirgan. Amir Shohmurod

davrigacha bosh mansab otaliq bo‘lgan bo‘lsa, asta-sekin uning o‘rnini qo‘shbegi egallab borgan. Qo‘shbegi (*qo‘shbegikalon*) *vazoratpanoh* epitetini olib, mamlakatning moliya va soliq bilan bog‘liq boshqaruvning muhim sohalari, keyinchalik barcha davlat vazifalarini nazoratida jamlagan. Bunga sabab, markaziy hokimiyat ma’muriy-xo‘jalik masalalarga oid keng toifadagi amaldorlar shtatidan iborat bo‘lsada, davlat apparati vazifalariga ko‘ra alohida vazirliliklarga bo‘linmagan. Qo‘shbegidan so‘ng devonbegi turib u quyi qo‘shbegi (*qo‘shbegipoyon*) deb ham yuritilgan. U davlatning moliyaviy va devonxona ishlari, viloyatlardan kelgan xiroj tushumini nazorat qilgan. Diniy amallarning yuqorisida shayx-ulislom turgan, biroq XIX-asr ikkinchi yarmidan keyin bu vazifani qozikalon boshqargan.

Harbiy amaldorlar egallagan lavozimiga qarab oliy, o‘rta va quyi darajalarga ajratilgan. Oliy darajali harbiy amaldorlar inoq, dodxoh, to‘qsabo va to‘pchiboshilardan iborat bo‘lgan. O‘rta darajaga chig‘atoy begi, eshik og‘asi, mirohur mansablari mansub bo‘lsa, quyi darajali harbiylar qorovulbegi, jivachi, mirzaboshi, chuhra og‘alaridan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, yuqori toifaga mansub bo‘lmagan panjboshi, dahboshi, galabotir, sarbozlar, olomon singari harbiylar mavjud bo‘lgan. XIX-asr boshlariga kelib, hukmdorlar o‘z qo‘shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko‘p say-harakatlarni amalgalashirdilar. Xususan, Amir Haydar davrida mamlakat harbiy kuchlari ikki qismga muntazam qo‘shin - *navkariya* va nomuntazam qo‘shin - *qora cherikka* bo‘lindi. Amir Nasrullo davrida Buxoroning harbiy qudrati ancha oshdi. Uning davrida amirlikdagi muntazam qo‘shin - sarbozlar qo‘shini tashkil etildi.



Amirlikning boshqaruv sohasidagi yuqori darajali amaldorlar

2.Qishloq xo‘jaligi, agrar soha va hunarmandchilik

Amirlik qishloq xo‘jalogining asosini sug‘orma (obi yoki suvli yer) va lalmi dehqonchilik tashkil qilgan. Amirlikda asosiy sun’iy sug‘oriladigan va dehqonchilikka asoslangan yerlar Zarafshon, Qashqadryo, Surxondaryo va boshqa vohalarda mavjud edi. Dehqonchilik uchun yaroqli lalmi yerlar konkret shaxsga biriktirilmagan. Chunki bu yerlardan yaxshi hosil olib foyda qilish imkoniyatlari tor bo‘lgan. Shuning uchun, agar egalari tomonidan ishlov berilmay qo‘ysa bu yerlar boshqa kishiga berib yuborilgan. Yerlarga asosan, don ekinlari ekilib, ular umumiy ishlov beriladigan yerkarning 50% ini egallagan. Ekin maydonlaridan hosil yiliga ikki marta kuz va bahorda olingan. Ekinlar oq va ko‘k deb atalib, oq nomi ostida kechki kuzda ekilgan bug‘doy, kanop kabi ekin turlari,

ko‘k nomi ostida esa guruch, tariq, mosh, loviya, makkajo‘xori va boshqalari kirgan.

Abu Tohirxo‘janing “Samariya” asarida qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida paxta, ipak, tamaki, kunjut, zig‘ir ham etakchi o‘rinlarni egallagani aytildi. Shuningdek, bog‘dorchilik va polizchilik juda ham rivojlangan edi. Bu davrda qovunning 10 dan ortiq va uzumning 12 dan ortiq navlari yetishtirilgani eslatiladi. Chorvachilik ham muhim xo‘jalik tarmoqlaridan bir hisoblangan. Paxta asosan ichki xo‘jalik ehtiyojini ta’minlagach, ortgani bozorga chiqarilgan. XVIII-asr 2-yarmida paxta tolasi funti^{*} 10-15 kop., ip kalavasi esa 30-40 kop. bo‘lgan.

Dehqonchilik ehtiyojlari sug‘orish inshootlariga e’tiborni kuchaytirishni talab etgan. Bu davrda Zarafshon daryosi asosan Buxoro, Samarqand yerlarini kanallar orqali sug‘orib taqsimlagan. Ayniqsa, bunda ravoqlarning o‘rni muhim bo‘lgan va ravoq asosan 100.000 tanob yerni sug‘orishga mo‘ljallangan. Ravoqlar, asosan tosh ko‘priklar ostida arka shaklida qurilib, bu orqali suv nazorat qilingan. Masalan, Samarqand yaqinida Zarafshon daryosi suvini butun viloyatga taqsimlash uchun 21 ta ravoq bo‘lgan. Bu ravoqlar orqali, asosan Samarqanddan Karmanagacha bo‘lgan masofadagi yerlar sug‘orilgan.

Amir Shohmurod davrida sug‘orish tizimiga katta e’tibor berilgan. Xususan, bu davrda Zarafshon daryosi bo‘ylab 11 ta ariq qazilgan. Darg‘omdagи to‘g‘on ta’mirlangan, Urgutda Qozonariq, Sheruz tumanida Toymonariq, Zarafshonning o‘ng tomonida Qorariq, To‘g‘izariqlar hamda Qoradaryoni o‘ng tomonida Olloberdiqora arig‘i shular jumlasidan edi. Sug‘orish tizimlarini ta’mirlash, yangilash kabi ishlar oddiy aholi zimmasiga tushgan. Bunday ishlar begar, hashar, mardikorlik deb atalgan. Masalan, begar ishida har bir soliq to‘lovchi yilning muayyan bir davrida 12 kun davlatga ishlab berishi lozim edi. Hasharlar, asosan

*Фунт – 409,5 гр. га тенг.

umumjamoa ish bo‘lib, asosan sug‘orish ishlari uchun chaqirilgan. Masalan, Cho‘ponota yaqinida Zarafshon ikki qismga Oqdaryo va Qoradaryoga bo‘lingan, bu yerda bahor va kuzda hashar o‘tkazilgan. Manbalarda, bu hasharda odatda 5000 ming kishi qatnashib, shundan qaysiki 2000 kishi Kattaqo‘rg‘on va Payshamba bekliklaridan, 3000 kishi Ziyavuddin bekligidan qatnashganligi aytildi. Butun qishloq aholisini jamoat ishlariga jalb etgan majburiyatlar *mardi viloyat* deb yuritilgan.

Qishloq xo‘jaligi, asosan sun’iy sug‘orishga asoslangan, bunda ko‘p yillik tajriba va usullardan foydalanilgan. Buning natijasida, juda ko‘plab yer maydonlari kengaytirilgan. Buning natijasida, XVIII-asr oxirlarida ko‘chmanchi qabilalarning o‘troqlashish jarayonini kuchaygan. Boshqa tomondan mang‘it amirlari turli urug‘-qabilalarning o‘zaro ziddiyatlarini bartaraf etish maqsadida ularni alohida yerlarga ko‘chirgan. Bunday sug‘oriladigan yerlarda urug‘larni o‘troqlashishi oson kechgan. Masalan: Zarafshon vohasida Juyixurmo va Juyisarazm kabi kanallar shu maqsadda qurilgan. Yangi barpo etilgan aholi punktlari urug‘lar nomi bilan atalgan masalan, Kenagas, Sanchiqul, Qo‘ng‘iroq, Mang‘it, Xazora va boshqalar.

XVIII-asr ikkinchi yarmi va XIX-asr birinchi yarmiga kelib, Buxoro amirligida oldingi davrlar kabi yer egaligining asosan, uch turi davlat (*amlok*, *zamini mamlaka*, *podsholik*), xususiy (mulk) va vaqf yerlaridan iborat bo‘lgan. Bularning ichida yerlarning asosiy qismini davlat yerlari tashkil qilgan. Bu yerlarning asosiy qismi mayda dehqonlarga berilgan va ular bu yerlardan asosiy xiroj va boshqa soliqlarni to‘lagan. Shu bilan birgalikda, bu yerlar yer fondi sifatida davlatga ko‘rsatgan xizmatlari uchun yirik urug‘ boshliqlariga, amaldorlarga, harbiylarga, ulamolarga suyurg‘ol, tanho sifatida berilgan. Bunday siyosat natijasida, ko‘p hollarda yer maydonlari qisqargan, g‘aznaga to‘lanadigan xiroj va soliqlar

miqdori kamaygan. Davlat soliqlaridan ozod qilingan maxsus *mulki hurri xolis* yerlari bo‘lgan.

Nafaqat davlat yerlari, balki xususiy yerdardan *molu jihot* va xiroj kabi yer soliqlari olingan. Shuningdek, yarlarning ma’lum qismi ko‘chmanchi chorvadorlar qo‘lida bo‘lib, ular o‘z urug‘i - yurtlarga tegishli bo‘lgan yarlarni qarindosh-urug‘lari bilan birgalikda foydalanishgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar orasida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kechgan. Urug‘ boshliqlari biylar eng yaxshi hosildor yarlarni egallahsga harakat qilgan.

Amirlikda hunarmandchilikning barcha sohalari rivojlangan edi. Amirlikka tashrif buyurgan rus va xorij sayyoohlari Xiva va Buxoro hunarmandchiligini ta’riflab turib Buxoroda bu soha yuqori darajada rivojlanganligini qayd etganlar. XIX-asr 1-yarmida amirlikda hunarmandchilikning ayniqsa to‘qimachilik sohasi nihoyatda rivojlangan edi. Kiyim-kechak asosan paxta, ipak, jun matolaridan, shuningdek olacha, baxmal, shoyi, kanoviz, beqasab, parcha, movut kabi matolar ishlab chiqilgan. Kulolchilik, temirchilik, bo‘yoqchilik va boshqa sohalar ham tarqqiy etgan. Hunarmandlar asosan o‘z ishlab chiqarish sohalar nomi bilan yuritilgan, masalan chitgar, zargar, kulolgari, charmgar (ko‘nchi), kafshdo‘zi, cho‘yangar, degréz (cho‘yan quyuvchilar), shonagar, najar (yog‘ochsozlar), qog‘ozgar va h.z. XIX-asrning o‘rtalariga kelib temirchilik, misgarlik mahsulotlari Rossiyadan keltirilgan xom-ashyodan ishlab chiqarila boshlandi. Hunarmandchilik sexlari kasaba deb yuritilib, ular mayda hunarmandlar shirkatidan iborat edi. Ularga oqsoqollar boshchilik qilib, maxsus Risola asosida ish tartib-qoidasi olib borilgan.

3.Soliq tizimi va savdo munosabatlari

Buxoro amirligi davrida soliq tizimi ham deyarli o‘zgarmadi. Soliqning asosini xiroj tashkil qilgan. Bu soliq, asosan davlat va


xususiy yerlardan olingan. Xiroj asosan, hosilning miqdoriga qarab natura hisobida olingan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanib borishi bilan XIX-asr boshida xiroj amirlikning qishloq va yirik shahalaridan pul tariqasida ham olina borilgan. Hosilni yig‘ish oldidan amlokror, oqsoqol tomonidan hosil maydoni (tanop) o‘lchanib, xiroj maxsus qog‘ozga qayd qilinib muhr bosilgan. Dehqon shu rasmiy hujjat asosida hosil yig‘imini boshlagan. Xiroj sun’iy sug‘orishga asoslangan yerlardan 1/3, 1/5 miqdorida olingan. Lalmikor yerlardan esa 1/6 miqdorida olingan.

Yana bir soliq-to‘lovlardan *kafsan* olingan. Barcha donli va paxta maydonlaridan amlokrorlar ta’mnoti uchun olingan. Amin, oqsoqol, va boshqa amaldorlar uchun olingan shu toifadagi soliqlardan yana biri *kafsan* *dorug* ‘a bo‘lgan. Kafsanni olinishi dehqon qo‘lida atigi ma’lum miqdorda hosilning qolishiga, ba’zan esa faqat ekilgan urug‘ uchun qolishiga olib kelgan. Har qaysi tanop bog‘ va ekinzorlardan *tanop puli*, bedazorlardan *alaf puli* olingan. Bu ikkala soliq ko‘p hollarda *tanobona* deb yuritilgan. XIX-asr o‘rtalaridan yangi soliq *qo‘sh-puli* joriy qilindi. Bu soliq har faslda 50-60 tanop yerni plug bilan ishlov beruvchi juft chorvasi bor aholidan olingan. Zakot solig‘i shariat asosida 1/40 miqdorida o‘z mulki daromadidan muslimonlardan olingan (yillik soliq sifatida davlat g‘aznasiga tushgan). Savdogarlardan bu zakot bir necha bor olingan va bu o‘ziga xos ichki boj solig‘iga aylangan. Chorvadorlardan zakot natura hisobida olingan. Ya’ni, 5 ta tuyadan bir qo‘y, 40 ta qo‘ydan bir qo‘y yoki echki hisobida bo‘lgan.

Harbiy yurishlar faollashgan davrda yo‘l solig‘i olingan. Shuningdek, dalol puli, boj, suv puli, taxta-joy, bozor solig‘i, tarozi puli, tuz puli, soun (sog‘iladigan chorvadan), qarag‘ay puli, o‘tin puli, chup puli kabilar olingan. Shuningdek, agar dehqon qo‘sh ot yoki ho‘kiz bilan yerda ishlasa *yaksara*, bitta ot yoki xo‘kizdan foydalansa *nimsara* solig‘ini to‘lagan. Ariq va kanallarni tozalashga bormaganlar *boqi pulini* to‘lagan. Harbiy xarajatlarni qoplash


maqsadida amirlar qo'shimcha soliqlar joriy qilgan, shunday soliqlardan biri Amir Shohmurod joriy qilgan *jul* bo'lib, bu 20 tangani tashkil qilgan.

Amirlik xududi tabiiy xom-ashyo zahiralariga boy edi. Lekin siyosiy munosabatlar, mutaxassislarning yo'qligi va eski texnologiya kabilar konchilik sanoatining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. O'sha davrdayoq oltin, mis, temir, ko'mir, neft, qimmatbaho toshlar, marmar, granit zaxiralari aniqlangan edi. Lekin ulardan tabiiy boyliklarni qazib olish primitiv usullar bilan, juda oz miqdorda amalga oshirilar edi. Qazib olinib eritilgan metall aholi ehtiyojini qondira olmas edi. Shuning uchun, Buxoro amiri Rossiya hukumatiga tabiiy boyliklarni qazib olishda yordam berishni so'rab murojaat qiladi. Lekin ish tabiiy boyliklarning yangi zahiralarini aniqlash bilan chegaralanadi. Ularni ishga solish uchun esa katta mablag'lar zarur edi.



XIX-asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari

Mang‘itlar hukmdorlari bundan oldingi davrda xonlikda kechgan ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik natijasida savdoning pasayishi kabi holatlarni e’tiborga olib, ichki va tashqi savdo rivojlanishiga katta e’tibor qaratdilar. Amirlikda ichki savdo muhim o‘rin tutgan. Xususan, savdoning markazlari Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Qarshi shaharlari bo‘lgan. Marx-navo asosan, shu shaharlar bozorlarida belgilangan. Haftalik bozorlar ham ichki savdoda muhim sanalgan. XIX-asr boshlarida zamondosh mualliflar ma’lumotiga ko‘ra, Samarqandda va Qarshida yakshanba va chorshanba, Karmanada dushanba, Kattaqo‘rg‘onda shanba kunlari bo‘lgan. Buxoroda savdo yanvar-may oylarida juda avjiga chiqqan. Ichki savdoni o‘sishi ba’zi shaharlaning ixtisoslashgan savdo markazlariga aylantirib borgan. Masalan, Qarshidan boshqa shaharlarga tamaki, don mahsulotlari, tuz, ko‘nchilik, jun mahsulotlari, Shahrisabzdan anor, xom ipak, paxta ip-gazlamalar, Samarqanddan paxta, guruch, xo‘l va quruq mevalar, oyoq kiyimlar chiqarilgan.




Tayyor kiyim-kechaklar sotuvchisi

Ana shu davrda yarmarkalar ham ishlagan. Shaharlarda ichki va tashqi savdo munosabatlarida chorsu, tim, toqi va karvonsaroylar muhim ahamiyat kasb etgan. Misol, XIX-asrning 20-yillarida Buxoro shahrida karvonsaroylar 14 ta, 30-yillarda 25 ta, 40-yillarda 38 taga etgan. Karvonsaroylar maxsus savdoga ham ixtisoslashgan edi. XIX-asr hujjatlariga ko‘ra, Buxorodagi “Paxta” karvonsaroyi ip-gazlamalarga, “Tamaki” saroyi tamaki, amirning Yangi saroyi qorako‘lga, Badriddin saroyida Qobul, Peshovar va Kashmirdan keltirilgan mahsulotlar, Eski Barra saroyi indigo, No‘g‘ay saroyi rus mahsulotlariga ixtisoslashib, ko‘tara savdo olib borilgan. Karvonsaroylarda shuningdek, xorijlik savdogarlar joylashgan bo‘lib, Hindi, Badriddin, Qo‘sibegi, Mirzacho‘l, Jo‘yborxo‘ja saroylarida 300 ga yaqin hindlar yashagan.



Shoyi ip tayyorlash



Buxoro arki

Buxoro amirligi XIX-asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy va Xiva, Qo'qon hamda ko'chmanchi dasht xududlar bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borgan. Hindlar tomonidan Buxoroga bo'yoqchilik mahsulotlari, qimmatbaho toshlar, marvarid va nozik matolar, shuningdek Hindistondan Qobul orqali novshadil, kimxob, shakar, xina, ziravorlar olib kelingan. Ayniqsa, hindlar tomonidan olib kelingan indigo - nil bo'yog'i hunarmandlar uchun zarur bo'lgan. Qo'shni Afg'oniston va Eron bilan ham savdo faol olib borilgan. Qobuldan Buxoroga ziravor, qurol, pichoq, kamonlar, guruch va ba'zan tulki mo'ynalari keltirilgan. Erondan esa turli bo'yoqlar, mato, simob, qurollar, kumush hamda ko'plab qo'lyozma kitoblar keltirilgan.

Amirlik savdosida muhim o'rinni Rossiya egallagan. Xususan, 1787-1796-yillarda Buxorodan 4,5 mln. rublik mahsulot Rossiyaga keltirilgan. Xuddi shu vaqtda Rossiyadan Buxoroga 3,6 mln so'mlik mahsulot eksport qilingan. Buxorodan Rossiyaga, asosan gazlama matolar, chophonlar, qimmat narxda sotiladigan kulrang buxoro qorako'li, feruza va boshqa qimmatbaho toshlar, quruq mevalar olib

borilgan. XIX-asr boshlarida Rossiyadan Buxoroga fabrika matolari, mis, jez, temir, cho‘yan, simob, shakar olib kelingan. Buxorodan olib ketilgan mahsulotlarning 75 % ini paxta mahsulotlari tashkil etgan. Buxorodan karvon orqali Orenburgga 70 kunda borilgan. 1832-yil 1-iyuldan boshlab O‘rta Osiyolik savdogarlar faqat 1 marta bojsiz savdoni qo‘lga kiritish huquqini olganlar. 1816-yilda Buxorodan Orenburgga 6126, Xivadan esa 2335 tuya yuk mahsuloti olib kelingan.

Buxoroga Qoshg‘ardan va Qo‘qon xonligi orqali Xitoydan taxtachoy (qizg‘ish), oqquyruqchoy (yashil)lar, marmar, kumush quymalar (yombi) va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Buxorodan Yorkent orqali Xitoyga esa, munchoqlar, feruza, qorako‘l mo‘ynalari, tulki terilari va boshqa tovarlar olib ketilgan. Umuman olganda, amirlikdan boshqa davlatlarga chiqarilgan paxta, ipak, jundan bo‘lgan ip-gazlamalar, kiyim-kechaklar mashhur bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Buxoro amirligining ma’muriy-xududiy bo‘linishi to‘g‘risida gapirib bering?
2. Qishloq xo‘jaligi sohasida mang‘it hukmdorlari tomonidan qanday ishlar amalga oshirilgan?
3. Amir Shohmurodning ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirgan islohotlariga misollar keltiring?
4. Buxoro amirligi davrida soliq tizimida qandan o‘zgarishlar bo‘ldi?
5. Amirlikning ichki va tashqi savdo munosabatlari to‘g‘risida ma’lumot bering.

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Traktat Axmad Donisha. Istoriya Mangitskoy dinastii. Per. I.A. Nedjavofoy. – Dushanbe, 1967.

2. Sami Mirza Abdalazim. Tarix-i salatin-i mangitiya. Pred. iprim. L.M. Epifanovoy. – M., 1962.
3. Mirzo Olim Mahdumhoji. Tarixi Turkiston. – T.: YAngi asr avlodi, 2009.
4. Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – Tashkent: Fan, 1993.
5. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
6. Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.

MAVZU: TOSHKENT BEKLIGI VA UNING O‘RTA OSIYO IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Reja:

- 1. XVIII-asrda Toshkent tarixi va “chor hokimlik” davri.**
- 2. Toshkent bekligining tashkil topishi.**
- 3. Toshkent bekligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.**

Kalit so‘zlar: Toshkent, “chor hokimlik”, dahalar, o‘z-o‘zini boshqarish, Yunusxo‘ja, Toshkent bekligi, savdo-tranzit markazi.

1.XVIII-asrda Toshkent tarixi va “chor hokimlik” davri

Toshkent qadimdan Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan shaharlardan bo‘lib, uning qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixi arxeologik izlanishlar va yozma manbalar asosida tadqiq etilgan. Arab manbalarida Toshkent Shosh, Madinat ash-Shosh nomlari bilan tilga olinadi. O‘z navbatida Beruniy ham bu atamaning turkcha ko‘rinishi haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi: “Shosh turk tilidagi shaharning nomidan olingan aynan “Toshkand”, ya’ni “Tosh qishloq” deganidir”. Toshkentning shu nomda atalishi Mahmud

Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida Shosh viloyatining poytaxti sifatida eslatiladi. Toshkent tarixi aks etgan turli manbalarda shahar 2 ming yillikdan ziyod tarixga ega bo‘lib, 2009 yilda YUNESKO ishtirokida Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlandi.

XVIII-asr birinchi yarmida nafaqat O‘rta Osiyo, balki Buxoro xonligida kechgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tushkunlik bir qancha viloyatlarning markazlari bilan birga mustaqil siyosat yuritishiga olib keldi. Shulardan biri Toshkent edi. Bu davrda Toshkentning boshqaruv tizimida mahalliy xo‘jalarning roli ortdi. Muhammad Amin Buxoriy “Ubaydullanova” asarida qayd etishicha, Toshkentda 1709-yildayoq o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan xo‘jalar hokimiyyati o‘rnatilgan va xo‘jalar tomonidan Ashtarkoni Ubaydullaxon ga maktub yuborilgan.

Manbalarda aytilishicha, 1723-yilda Toshkent qalmoqlar qo‘l ostiga o‘tgan. Rus ma’lumotlariga ko‘ra, 1723-1758-yillarda Yo‘lbars, To‘labiy, Kusekbiy kabi qozoq xonlari va ularning vakillari orqali idora qilingan. Bu davrda Toshkent hukmdori va xo‘jalar o‘rtasida ziddiyatlar bo‘lgan. Shunday hukmdorlardan biri qozoq xoni noibi Bohodir Farmon 1747-yilda xo‘jalar tomonidan qulatilgan, natijada Toshkentda hokimiyat to‘lasincha xo‘jalar qo‘liga o‘tgan. Shunday qilib, Toshkent to‘lasincha jung‘orlar hokimiyatidan mustaqil bo‘lgan, lekin 1770-yillarning o‘rtalarigacha O‘rta qozoq juzi xoniga o‘lpon to‘lashda davom etgan.

Manbalarga ko‘ra, shahar hukmdorlari soni 10 ta bo‘lgan. Ular shahar markazidagi joylashgan qo‘rg‘onda istiqomat qilganlar. Qo‘rg‘onning oltita darvozasi bo‘lib, u Eski Toshkent deb nomlangan. Bu yerda bozor, karvon-saroy, qozixona, shahar boshqaruvi va boshqalar joylashgan bo‘lgan.

Xo‘jalar shahar boshqaruviga doir barcha masalalarni o‘zlari hal qilib, xonlarni bu ishlarga aralashtirmaganlar. Toshkentning XVIII-

asr tarixi bo‘yicha asosiy manbalardan biri Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkent” asaridir. Muallifning ma’lumotlariga ko‘ra, bu davrda Toshkent 4 dahaga bo‘lingan: Sebzor, Shayxontohur, Ko‘kcha va Beshyog‘och. Bu dahalar nufuzli urug‘ vakillari bo‘lgan hokimlar tomonidan boshqarilgan. Masalan, asarda Shayxontohur dahasini Avlayqulixoniy (Ablay Sulton) avlodidan Boboxonto‘ra, Beshyog‘och dahasini Ashtarkoniylardan Rajabbek, Ko‘kcha dahasini Chig‘atoy avlodidan Muhammad Ibrohimbek va Sebzor dahasini Jo‘chi urug‘i vakillari boshqargan¹⁴. Tarixda bu boshqaruv “chor hokimlik deb yuritiladi. Bu Osiyoda juda kamadan-kam uchraydigan boshqaruv edi. Bora-bora bu hukmdorlar o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

1. Toshkent bekligining tashkil topishi


“Tarixi Jadidiy” asarida qayd etilishicha, bu davrda hokimlar o‘rtasida ziddiyatlar kuchaygan. Jumladan, uch daha hokimlari birlashib, Avlayqulixon avlodlariga qarshi urushgani aytiladi. Lekin qattiq janglardan so‘ng, Salimsoqto‘ra va Bobxonto‘ra boshchiligidagi Avlayqulixon avlodlari birin-ketin dahalarni egallab Shayx Xovand Tohur avlodlaridan Yunusxo‘jani viloyat voliysi etib saylaganlar. Bu voqeа yangi Toshkent davlatining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi.

Hokimiyat tepasiga kelgan Yunusxo‘ja oldidagi muhim vazifalar sirasiga iqtisodiy hayotni tiklash, shahar mudofasini mustahkamlash, qo‘ldan boy berilgan chegara xududlarni qaytarish kabi vazifalar turdi. U Toshkentni boshqaruvida hukmdor har bir dahadan chiqqan nufuzli soha vakillari bilan bamaslahat ish ko‘rdi. Shuningdek, o‘z o‘g‘illari Muhammadxo‘ja, Xonxo‘ja, Hoshimxo‘ja, Sultonxo‘ja va Homidxo‘jalarni Toshkent atrofidagi qal’a va qo‘rg‘onlarga hokim etib tayinladi. Natijada, Toshkentda

¹⁴ Sultonov O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi Jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent, 2009. -B. 89.

turli qatlamlar jalb etilgan o‘ziga xos davlat boshqaruvi shakli joriy etildi.

Ilmiy adabiyotlarda Toshkentda bu boshqaruv tizimi G‘arbiy Evropadagi ba’zi shahar-respublikalar bo‘lmish Genuya, Venetsiya, Florensiya, Gamburg, Novgorod kabilarga qiyoslangan. Bu borada shahar o‘zini-o‘zi boshqargani haqida Karl Miller ham ma’lumot bergen. Rus tarixchisi P.I.Richkov ham buni XIX-asrni oxirida o‘zining “Istoriya Orenburgskaya. 1730-1750 gg.” asarida qayd qilgan. Shuningdek, Toshkent Ganza Ittifoqiga qiyoslanib O‘rta Osiyo Gamburgi deb atalgan.



Toshkent shahri xaritasi (XIX-asr boshlari)

Yunusxon hukmronligi davrida davlat xududini kengaytirish siyosatini olib bordi. 1784-1796-yillarda Toshkentga Chimkent, Sayram, Turkiston va o‘nlab qishloqlar qaytarib olindi. Oradan uch yil o‘tar-o‘tmas, ya’ni 1799-yilda Turkistondan Chu daryosigacha va Qorako‘l mavzei Toshkent bekligiga qo‘shib olinadi. Bu yillarga kelib, Yunusxo‘ja qozoqlar orasida katta obro‘ga ega bo‘ladi. Yunusxo‘ja qo‘sining asosiy kuchini Katta juz qabilalari tashkil etgan va ular Qo‘qon xoniligidagi qarshi yurishda ham jonbozlik ko‘rsatishgan.

Savdo yo‘li chorrahasida joylashgan Toshkent, Qo‘qon va Buxorni Qozog‘iston, Orenburg va Sibirga o‘tadigan Turkiston, Sayram va Chimkentni o‘z qo‘lida tutib, O‘rta osiyo va Rossiya savdosida yetakchilikka intilishi Qo‘qon va Buxoro bilan o‘zaro savdo munosabatlarilaning keskinlashuviga olib keladi. Chunonchi, siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda muhim rol o‘ynagan Toshkent Qo‘qon xonlarini e’tiborini chetda qoldirmadi. Toshkentni buysundirish maqsadida, Norbo‘tabiy va Olimxon keskin choralar ko‘ra boshlaydi. 1799-yilda Yunusxo‘ja Chirchiq bo‘yidagi Qorasuv mavzeida Norbo‘tabiyga juda qattiq zarba beradi va Sirdaryoning o‘ng sohilidagi Qurama mavzeini o‘ziga qo‘sib oladi. Buning natijasida, Toshkentning siyosiy mavqeい yanada mustahkamlanadi.


Shundan so‘ng, Qo‘qon xonligi shu xudadlarni qaytarib olishga kirishadi va Toshkent bekligi bilan urush olib boradi. Navbatdagi bu urush Sirdaryo bo‘yidagi G‘urumsoy (Namangan) yaqinida bo‘ladi va bunda Toshkent qo‘sini engiladi. Tez orada Yunusxo‘ja kasalikka chalinib vafot etgach, o‘g‘illari Muhammadxo‘ja, so‘ng Sultonxo‘ja hokimiyatni egallaydi. Lekin 1808-yilda Toshkent Olimxon qo‘slnlari tomonidan egallanadi. Ammo shahar aholisi Qo‘qon xonligi hukmronligiga qarshi doimo qo‘zg‘olon ko‘tarib turgan. Shunday qilib, Toshkent bekligi yigirma yildan ziyod yashagan.

2. Toshkent bekligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

XVIII-asrning boshlariga kelib, Toshkent shahri O‘rta Osiyo shimoliy sharqiy qismining yirik siyosiy va iqtisodiy markaziga aylanadi. Shahar tarixini yozgan Muhammad Solih ma’lumoti shuni ko‘rsatadiki, Toshkent taxminan 16 km² maydonni egallagan, 80.000 aholi (Rossiya bosqini arafasida 100.000) istiqomat qilgan shahar bo‘lgan. Hozirgi eski Toshkent deb atalgan qism o‘sha davrdagi Toshkentning o‘zagini tashkil qilgan.

Shaharning shimoliy chegarasi Kaykovuz daryosi, sharqiy chegarasi Anhor daryosi bo‘ylab o‘tgan, janubiy chegara Beshyog‘ochdan Samarqand darvozasi ko‘chasi bo‘ylab to Kukchagacha borgan. Bu qism shaharning g‘arbiy qismi hisoblangan. Shahar ushbu chegaralar doirasida “Katta shahar” deb atalgan. Shaharning markaziy qismi bo‘lgan qo‘rg‘on “Eski Toshkent” deb nomlanib, devor bilan o‘rab olingan. Karl Miller ma’lumotiga ko‘ra, devorning balandligi 4,3 m, M. Pospelovaga ko‘ra esa 10 m, eni esa bir yarim metrni tashkil qilgan, deb aytildi.

XVIII-asr boshlarida Toshkent juda ham boy va chiroyli shahar bo‘lgan. Turli yo‘nalishlarga qaratilgan bir nechta darvozalari bo‘lgan. XVIII va XIX-asrlar boshlariga oid manbalarda darvozalar soni to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar beriladi. Masalan, Nur Muhammad Alimov ma’lumotiga ko‘ra 32 ta (1735), Karl Miller (1739) 8 ta: Samarqand, Beshyog‘och, Tersarak, Shayxontohur, Taxtapul, Tarsaxon, Qopqon (keyinroq Qorasaroy), Ko‘kcha. Filipp Nazarov esa 12 ta darvoza borligini aytib o‘tadi. Bu ma’lumot Muhammad Solih ma’lumotlari bilan qiyoslanib, keyingi ma’lumotlarga ko‘ra, shahar darvozalarining nomi shimoliy sharqiy qismda, Labzak, Qoshg‘ar, sharqiy qismida Qo‘qon va Qo‘ymas, Beshyog‘och, janubiy sharqda Kamolon, janubda Samarqand, g‘arbda Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Qorasaroy, shimolda Taxtapul, deb nomlangan.



Shaharda faqat yirik masjidlar soni 400 ga yaqin, madrasalar soni 10 ta bo‘lgan. Toshkentni tadqiq qilgan N. Mallitskiy, shaharda ko‘plab uzun va qisqa, tor va keng ko‘chalar bo‘lganligi, ularni Moskvadagi ko‘chalar bilan solishtirtirganda, ularni ma’lum reja asosida emas, balki tabiiy ravishda vujudga kelganligini ta’kidlaydi. Markaziy Osiyo bo‘ylab sayyohat qilgan va 1873-yilda Toshkentga kelgan amerikalik Yujin Skayler: “Osiyodagi hech bir shahar Eski Toshkent singari turli-tuman emas. Uning ko‘chalari ajib egri-bugri bo‘lib, ulardan yurar ekansiz goh balandga chiqadi, goh pastga tushadi”.

Bir nechta ko‘chalar mahallalarga birlashgan. Mahallalarning topografik nomi ham ular joylashgan yerga qarab atalgan. Tadqiqotchi N.Maev Toshkentda 1876-yilda 149 ta mahalla bo‘lgani haqida yozgan va ularning nomlarini dahalar bo‘yicha qayd etgan. Mazkur mahallalardan 48 tasi Shayxontohur, 38 tasi Sebzor, 31 tasi Ko‘kcha, 32 tasi Beshog‘och dahasiga qarashli ekanligini ta’kidlagan.

Shaharga suv Chirchiq daryosidan Bo‘zsuv kanali orqali ta’milnib, hamda Kalkovuz, Anhor, Labzak, Chorsu, Tarloq va boshqa ariqlarga, qisqasi 12 ta katta ariqqa tarmoqlangan. Ariqlar

ham o‘z navbatida kichkina ariqchalarga bo‘linib hovlilar orqali o‘tkazilgan. Bu esa shaharning ichida ham bog‘dorchilikni rivojlantirish va poliz ekinlarini ekish imkonini bergen.

Shahar aholisining ijtimoiy tarkibi turlicha bo‘lgan: yirik yer egalari, savdogarlar, aslzoda va diniy tabaqa vakillaridan tortib hunarmandlargacha bor edi. Keyinchalik shaharni Qo‘qon xoni tomonidan tayinlagan bek boshqargan, unga mingboshilar buysungan. Mingboshilar shaharni to‘rtta dahasini boshqargan. Dahalar mahallalarga bo‘linib ularni yuzboshilar boshqargan. XIX-asr manbalarida har bir mahallada 50 dan 150 gacha oila yashaganligi ma’lum qilingan. Mahalalar nomi aholi kasbi, etnik tarkibi (O‘zbekmahalla, Tojikko‘cha), ayrimlari joylar relefi va tabiiy xususiyatiga ko‘ra (Sassiqhovuz, Chuqurko‘prik, Balandmasjid) nomlangan.

Toshkent yirik hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda to‘qimachilik, kiyim va poyabzal tayyorlash, ko‘nchilik, kulolchilik, yog‘och va metallga ishlov berish, zargarlik va boshqalar rivojlangan edi. Eng rivojlangani to‘qimachilik bo‘lib, paxta, ipak va jun matolar ishlab chiqarilib, ayniqsa shaharda “moviy, oddiy bo‘z” mashhur bo‘lgan. Shaharning Sebzor qismida bo‘yoqchilik hunarmandchiligi bilan shug‘ullanilgan. Kulolchilik ustaxonalari asosan Beshyog‘och, Ko‘kcha qismlarida joylashgan. Shu munosabat bilan ba’zi mahalalar hunarmandchilik nomi bilan atalgan, masalan: Degrez, Pichoqchilik, Egarchi, Zargarlik va hokazo.

Toshkent qozoq dashtlari bilan chegaradosh bo‘lgani uchun tashqi savdoda ular bilan tovar ayriboshlash rivojlangan. Toshkent savdo-tranzit markazi sifatida, bu yerga Sibir, Rossiyaning yirik savdo markazlaridan, Xitoy, Afg‘oniston, Hindiston, Buxoro va Xiva xonliklaridan savdogarlar kelib savdo-sotiq olib borilgan. Toshkentga kelgan rus savdogarlari ma’lumot berishicha, qalmiqlar bu yerga ko‘plab chorvalar, qoshg‘arliklar esa ko‘plab mahsulotlar

olib kelganlar. V. Velyaminov-Zernov qayd etishicha, Qo‘qon xonligi poytaxti Toshkent bilan raqobatlasha olmaydi, chunki asosiy savdo yo‘llari Toshkent bilan kesishgan edi.

Toshkentlik savdogarlar Rossiyaning Orenburg, Troitsk, Semipalatinsk va Petropavlovsk hamda, Sibir shaharlari bilan faol savdo olib borishgan. U xududlardan Toshkentga metall, movut, shakar kabi tovarlar keltirilgan. Manbalarda, 1746-yilda Yamishevskka Toshkentdan 137 parcha zandana matosi, 18 bo‘lak bo‘z, 81 darpardalar olib kelingan. Shu yili Tomskka buxorolik savdogar tomonidan 100 parcha Toshkent ip-gazlamalari keltirilgan.

Qo‘qon xonligining yirik miqdordagi tashqi savdosi Toshkentda jamlangan edi. Bu yerga xonlik markazlaridan “paxta, ipak, mevalar, tuz, qurilish materiallari, bo‘z, jun matolar, teri, bo‘yoqchilik mahsulotlari va b. lar keltirilgan. Toshkentdan o‘z navbatida, xonlik markazlariga “rus manufakturna mahsulotlari, shakar, metall, hind baqqollik mahsulotlari va boshqalar yetkazilgan”. Toshkent Buxoro bilan savdo munosabatlarini olib borgan. Toshkentlik savdogarlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Qulob va boshqa markazlarga Rossiya mahsulotlaridan: temir, po‘lat va cho‘yan, ipak, xitoy va mahalliy mahsulotlar, choy va chinni buyumlar keltirilgan. Buxorodan Toshkentga o‘z navbatida, o‘simlik bo‘yoqlari, paxta, ipak matolar va boshqa ko‘plab mahsulotlar olib kelingan. Toshkentda bojxona tizimi mavjud bo‘lib, shahar tashqarisida karvonlar bojxona ko‘rigidan o‘tgan. Masalan, qo‘qonlik va buxorolik karvonlar Qoplonbek, Chinoz va Chirchiqda bojxonadan o‘tishgan.

XIX-asr o‘rtalarida Toshkentda 18 ta karvonsaroylar va 4500 dan ortiq do‘qonlar bo‘lgan. Karvonsaroylar to‘rtburchak shakldagi hovli va barcha tomonlarda rastalar bo‘lgan. Karvonsaroylar ma’lumotga ko‘ra, turli kishilar: xon, amir, diniy tabaqa vakillariga, savdogar, yirik amaldorlarga tegishli bo‘lgan. Markaziy bozor Chorsuda joylashgan edi. Bundan tashqari, yiriklariga Eski Jo‘va,

Registon va Kappon bozorlari kirgan. Savdodan olinadigan foyda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham shahar aholisi nufuzining oshishiga olib keldi. Rus sayyo Hatchilari fikricha, asosiy bozorning uzunligi qariyb 855 metr (400 sajen), kengligi qariyb 214 metr (100 sajen) bo‘lgan. Unda 2400 ta do‘kon-rastalar bo‘lgan.

Asosiy bozorning turli qismlari maxsus mahsulot turlarining sotilishiga moslashgan va mahsulot nomi bilan atalgan. Xususan, bozor 26 ta maxsus qismlardan tashkil topgan. Ularning orasida mashhuri Baqqol bozori bo‘lib, bu yerda quruq va xo‘l mevalar sotilgan. Shuningdek, Qozoqpurush bozori bo‘lib, uning 200 ta rastasi bo‘lgan. Arpa bozorida donli mahsulotlar, Ko‘n bozorida ko‘nchilik mahsulotlari sotilgan. Savdo faol bo‘lgan bozorlar sirasiga Nonvoy bozor, Kavushbozor, Yog‘och bozorlar ham kirgan.

Toshkentda ham O‘rta Osiyo shaharlari singari maxsus bozorlar haftada ikki bor bo‘lgan. Savdo kunduzi bo‘lgan. Muhammad Solihning qayd etishicha, Amazon va Xayit bayramlarida aholi kechqurun savdo tashkil qilishib, xursandchilik qilishgan. Toshkent aholisi savdo va hunarmandchilikdan tashqari, dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorva boqish bilan shug‘ullangan. Shahar hayoti bevosita qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Quyi Chirchiq bo‘yi va Sirdaryo bo‘ylarida aholi baliqchilik bilan shug‘ullangan. Chirchiq va Ohangaron vodiysidagi o‘nlab mayda shaharlar va qishloqlar Toshkentga bo‘ysungan. Jumladan, Sayram, Parkent, Xojikent, Zarkent va boshqalar kirgan. XVIII-asr oxirlarida Chimkent va Turkiston ham tarkibiga kirdi.

Toshkent shahrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, shaharliklarning shahar tashqarisida hovli-joylari bo‘lib ular “mavzelar” deb nomlangan. Mavzelarda aholi dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Bularning qatoriga Oqqo‘rg‘on, Darxonariq, Yalang‘och, Ayrilish, Oqtepa, Yunusobod, Qorasaroy, Unqo‘rg‘on, Achavot, Beshqayrag‘och, Qorasuv va boshqalar kirgan.

Savol va topshiriqlar:

1. XVIII-asr birinchi yarmida Toshkent tarixi to‘g‘risida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
2. Toshkentning “chor hokimlik” davriga ta’rif bering?
3. Toshkent bekligining tashkil topishi va Yunusxo‘ja yuritgan siyosat haqida misollar keltiring?
4. Toshkent bekligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar bering?
5. Toshkentning O‘rta Osiyo savdo-tranzit tizimida qanday o‘rin tutadi?

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Sultonov O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari. – T., 2007.
2. Mallitskiy N.G. Toshkent mahalla va mavzelari. - T., 1996.
3. Muqminova R. To‘rt asr oldingi Toshkent. - T.: Fan, 1984.
4. Muhammadkarimov A. Toshkentnoma. - T., Movarounnahr, 2004.
5. Xodjiev E. Ekonomicheskie i politicheskie svyazi Tashkenta s Rossiey. (konets XVIII – nachalo XIX v.). – T., 1992.
6. Muhammadjonov A. Qang‘ – qadimgi Toshkent va toshkentliklar. – T.: Sharq, 2009.
7. Sultonov O‘. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi Jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent, 2009.

MAVZU: XVI-ASR-XIX ASRLARNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

Reja:

1. Qoraqalpoqlarning etnik va siyosiy tarixi.
2. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti .

3. Qoraqalpoqlarning madaniy hayoti.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoqlar, etnik tarixi, siyosiy bosqichlar, qipchoqlar, mang’itlar, Quvondaryo, Xiva xonligi, Qalliko‘l, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, madaniyati.

1. Qoraqalpoqlarning etnik va siyosiy tarixi

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, qoraqalpoqlarning qadimgi ajdodlari sak-massaget qabilalaridan bo‘lib, aynan mil. avv. VI-asrga oid Behustun yozuvlarida eslatilgan saka tigraxaudalar hozirgi Qoraqalpog‘iston ida yashagan qabilalar deb hisoblaydilar. Manbalarga ko‘ra, VI-VIII-asrlarda Orol dengizi atroflarida bijanak va o‘g‘uz etnik guruhlari shakllanadi. Tadqiqotchilar ko‘ra, bijanaklar qoraqalpoqlarning ajdodi hisoblanadi. VIII-X-asrlarda qoraqalpoq xalqi tashkil topa boshlagan davrda, Orol atrofi Kerder viloyati deb atalgan.

O‘rta asrlarga oid (X-XII) rus yilnomalarida qoraqalpoqlar “chorniye klobuki”, mahalliy manbalarida esa “qora bo‘rkli” nomi bilan tilga olinadi. “Qoraqalpoq” etnonimi qachon paydo bo‘lganligi noma’lum. Har holda 1598-yil Abdullaxon II tomonidan Sig‘noqdagi muqaddas Ziyoruddin maqbarasiga berilgan yorliqda qoraqalpoqlar shu nom tilga olingan.

XIV-asr oxirlariga kelib, mo‘g‘ullar bosqini va uning oqibati (1221y), Amudaryo to‘g‘onining buzib tashlanishi, Amudaryoni asosiy o‘zanini o‘zgarishi natijasida, quyi Amudaryo xududi cho‘llashib, Kerder viloyatining ham suvsiz qolishiga olib keladi. Natijada, qoraqalpoqlarning asosiy qismi o‘z xududlarini tark etishga majbur bo‘ladi. Ularning bir qismi Volga va Ural daryolari bo‘ylariga, bir qismi Xorazmning shimoliy-g‘arbiy qismi, Ustyurt, Sirdaryoning yuqori oqimlari tomon qo‘chib ketadilar.

XVI-XVII-asrlarda ham qoraqalpoq urug‘ va qabilalari keng xududlarda joylashgan edilar. Bu davrda qoraqalpoqlar joylashgan markazlardan biri Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi bo‘ylari bo‘lgan, yana biri esa Volga, Ural, Emba daryolari oralig‘ida, yana ozroq qismi Urganch va Oq-qal’a tumanlarida istiqomat qilgan.

XVI-XVII-asrlarda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimida yashovchi qoraqalpoqlar Buxoro va Toshkent o‘troq aholisi bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlar olib borganlar. Akad. B.Ahmedov aytishicha, 1578-1582-yillarda qoraqalpoqlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashgan. Abulg‘oz ma’lumotlariga ko‘ra, Turkistonlik qoraqalpoqlar Xorazm bilan ham siyosiy va savdo aloqalarini olib borganlar. Masalan, Xorazmda sulolaviy kurashlar, xususan aka-ukalar Xabash Sulton va Asfandiyorxonlar o‘rtasidagi kurashlar avj olgan davria Habash Sulton Sirdaryodagi qoraqalpoqlar huzuridan panoh topganligi aytiladi.

Bu davrda mazkur xududda yashagan qoraqalpoqlar Kichik Juz qozoqlari bilan qo‘snnichilikda yashab, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qozoq xonlariga tobe bo‘lganlar. Ularning boshqaruvi qozoq sultonlari qo‘lida bo‘lgan, ularning harbiy yurishlarida ishtirok etgan.

XVIII-asr boshlarida qoraqalpoqlar Sirdaryoning yuqori oqimi bo‘ylab Toshkent vohasi, shuningdek Farg‘ona vodiysi tomon siljib bordilar. Shunday qilib, manbalarda ko‘rsatilgan davrda qoraqalpoqlar joylashgan yerlar sifatida - Turkiston atroflari, quyi Sirdaryo bo‘ylari, janubiy xududlardan, xususan Farg‘ona vodiysi xududlarida joylashganligi eslatiladi. 1714-yilda Sirdaryo bo‘ylarida qoraqalpoqlar Eshimxon (Eshmuhammad)ni xon ko‘targanlar. Qoraqalpoq xonligiga Orol bo‘ylari ham qaragan. Eshimxon Qorao‘zak tumanida Eshimyop kanalini qazdirgan.

XVIII-asr boshlariga kelib, qoraqalpoqlar taqdiri ikki siyosiy zarbalarga duchor bo‘ldi. O‘rta va Quyi Sirdaryoning unumdar, aholi zich joylashgan yerlari jung‘orlarning (1723) bosqiniga duchor

bo‘ldi, qishloqlar, sug‘orish inshootlari vayron etilgan. Jung‘orlarning bosqini natijasida qoraqalpoqlar uzil-kesil: “yuqori” va “quyi” qoraqalpoqlarga bo‘linib ketdi. Qoraqalpoqlarning katta qismi (“quyi”) Quyi Sirdaryo va Quvondaryo bo‘ylariga, boshqa qismi (“yuqori”) Sirdaryoda, qolganlari jung‘orlarga tobe bo‘ldi yoki Toshkent, Farg‘ona va Zarafshon vodiylarining dehqonchilik xududlariga kirib bordilar.

“Quyi” qoraqalpoqlarning keyingi taqdiri ular joylashgan xududga Kichik Juz xoni Abulhayrxon 1743-yilda bosqin uyushtirib, qishloqlari vayron etildi, ularning mol-mulkleri talontaroj qilindi. Abulhayrxon va boshqa Kichik Juz xonlarining bosqini natijasida, endi qoraqalpoqlar ko‘pchiligi o‘zlashtirgan xududlarini tashlab, g‘arbga tomon Jonidaryo va Xiva xonligining quyi Amudaryodagi Orol viloyatiga ko‘chib keladilar.

Shunday qilib, XVIII-asrda voqealar jung‘orlar va Kichik Juz xoni Abulhayrxonning bosqini qoraqalpoq xalqini O‘rta Osiyo xonliklari xududlariga ham kelib joylashishiga sabab bo‘ldi. Albatta, ularning asosi qismi quyi Amudaryo va Orol bo‘ylariga zinch joylashib, bugungi kunga qadar yashab kelmoqda.

XVIII-asr birinchi yarmi Xiva xonligida kechgan siyosiy beqaror vaziyat, qabilaviy o‘zaro kurashlar avj olgan edi. Undan keyingi davrda siyosiy hokimiyatga qo‘ng‘irotlarning kirib kelishi yuz berdi. Qoraqalpoqlarning keyingi taqdiri bevosita Xiva xonligida kechgan jarayonlar bilan bog‘lanib ketdi. Shermuhammad Munis ma’lumotlariga ko‘ra, Muhammad Amin qo‘ng‘irot Xiva xonligi taxtini egallagach, muxolif turkmanlarga qarshi kurashish uchun qoraqalpoq qabila boshliqlari yordamini olgan. Boshqa manbalarda, shuningdek Muhammad Amin o‘z tomoniga ko‘zga ko‘ringan qoraqalpoq biylaridan Esankeldi mahram va Oydustbiy (qoldovli urug‘i) kabilarni og‘dirgan. Jumladan, Muhammad Aminning qo‘llashi bilan Oydustbiy biy unvonini olib, qoraqalpoq ulusiga hokim etib tayinlangan.

Lekin keyingi voqealar shuni ko‘rsatdiki, aynan Xiva xonlariga qarshi asosiy kuchlar Orol xududida joylashgan edi. 1778-yilda orollik mang‘itlardan Jon Murod inoq Mang‘it qal’ani egallab, Abdurahmon Sultonni xon qilib ko‘tardi. 1779-yilda Jon Murod Xorazmning muhim strategik shaharlaridan Xo‘jayli, Xazorasp, va Vazirni egalladi. Munisning guvohlik berishicha, shu tariqa “davlat bo‘linib ketdi”. Ogahiyning bergen ma’lumotga ko‘ra, Jon Murod inoq ustidan g‘alaba qozongach Muhammad Amin inoq tomonidan, Oroldagi Mang‘it shahri aholisi Otaliq-Orna kanaliga ko‘chirib keltirilib, bu yerda Yangi Mang‘it qal’asi barpo etilgan.

Xiva xonlari Eltuzar va Muhammad Raximxon I lar davrida Orol mulkidagi muxolif kuchlarga qarshi qattiq kurash olib borildi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon I markazlashtirish siyosati yo‘lida, bir tomondan xonlik tasarrufida bo‘lgan qoraqalpoqlarni buysundirishni, boshqa tomondan Xiva alohida qo‘shni bo‘lib yashayogan ikkinchi qism jonidaryolik qoraqalpoqlarni tobe qilishni maqsad qildi.

1809-yil yanvardan boshlab Rahimxon I Amudaryo etaklarida yashovchi qoraqalpoqlar ustiga yurish qildi. 1810-yilda Qo‘ng‘irot va Jonidaryo qoraqalpoqlarini to‘liq buysundirdi. 1811-yilda Orol viloyati hokimini boshqaruvdan mahrum qilib, to‘rt bor yurish qilib markaz Qo‘ng‘irot qo‘lga olindi, shu bilan Orol bo‘yi qoraqalpoqlari Xiva xonligiga buysundirildi.

2. **Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti**

Manbalarga ko‘ra, XVI-asrdan boshlab Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimi, Quvondaryo, Jonidaryo bo‘ylarida yashagan qoraqalpoqlar, chorvachilik bilan birga dehqonchilik, baliqchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Rus olimi S.Tolstovning qayd qilishicha, XVIII-XIX-asrlar qoraqalpoq yodgorliklari, asosan qoraqalpoqlar tomonidan qaytadan qurilgan yirik sug‘orish tizimiga

ega bo‘lgan. Quyi Amudaryo bo‘ylariga kelib joylashgach, yetakchi xo‘jalik sifatida dehqonchilik muhim bo‘lib qolgan. XIX-asr birinchi yarmida qoraqalpoqlar xo‘jaligini kuzatgan sayyoohlar fikricha, bu xo‘jalik “asosiy va hattoki yagona xo‘jalik turi” deb qayd etishgan.

XIX-asr birinchi choragida qoraqalpoqlar joylashgan yerlarda yangi sug‘orish tizimlarini barpo etib, yangi yerkarni o‘zlashtirdilar. Natijada, qoraqalpoqlarning uchta dehqonchilik vohasi vujudga keldi. Bular: Qallikul, Kushkanatov va Kegeyli edi. Qallikul vohasi Amudaryo chap qirg‘og‘ida shakllanib, Lovdin, Shanglibasuv Shumanay, Qiyot-Jargan kanallaridan suv olgan. Amudaryo o‘ng qirg‘og‘i, hozirgi Chimboy shahrining shimoli-g‘arbida shakllangan Kushkanatov vohasi Amudaryoning tabiiy irmog‘i Qorabaylidan suv olgan. XIX-asr oxirlariga kelib, Jonidaryodan ko‘chirib keltirilgan (Rahimxon I) mang‘it, xitoy va boshqa qabila-urug‘lar Kegeyli suv yo‘liga joylashib, vohani o‘zlashtirdilar va shu asosda Kegeyli dehqonchilik vohasi shakllangan.

XIX-asr o‘rtalarida qoraqalpoqlar joylashgan xududlarda yana ikkita Chimboy va Qo‘ng‘irot xo‘jalik tumanlari shakllanadi. XIX-asr ikkinchi yarmiga kelib, ularning xo‘jalik hayoti asosini beshta Chimboy, Davqara, Talliq, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli kabi tumanlar tashkil etgan.

Qoraqalpoq aholisining yerga egalik munosabatlari borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, Tadqiqotchi A. Qoshchanov yer munosabatlariga xos xususiyatlar to‘g‘risida quyidagilarni keltiradi:

- 1) qoraqalpoqlarda yer urug‘-qabilachilik munosabatlari va an‘analari bo‘yicha taqsimlangan. Ya’ni, yerga jamoa bo‘lib foydalanish xususiyati mavjud bo‘lgan. Masalan, XIX-asr ikkinchi yarmida xonlik hukumati tomonidan Qo‘ng‘irot ahliga 146220 tanob yer ajratilgan bo‘lib, ushbu yerlar urug‘ bo‘yicha taqsimlangan. Masalan: 39 changarak (oila)ni birlashtirgan Bog‘ali Boboniyoz otaliqqa 2340 tanob yer, ya’ni har qaysi changarakka

28,5 tanob ahya (ishlov beriladigan) va 31,5 tanob adra (ishlov berilmaydigan) yerkarni taqsimlab berilgan. Shu tariqa, qoraqalpoqlar o'rtasida yer bilan bog'liq asosiy masalalar xo'jalik bo'yicha emas, ko'proq urug'-aymog'chilik bo'yicha hal qilingan. Amudaryo o'zanini o'zgarib turishi va toshqinlarni ko'tarilishi esa, gohida sug'oriladigan yerkarni o'zgarishi, hattoki aholi ko'chishiga sabab bo'lган.

Xiva xonligini boshqa xududlari singari qoraqalpoqlar joylashgan xududda ham yerga egalikning shakllari: 1) davlat (mamlaka), 2) xususiy (mulk), 3) vaqf yerlaridan tashkil topgan. Davlat yerkarni qoraqalpoq dehqonlariga ma'lum muddatga ijaraga berilgan. Xiva xonligi arxiv hujjatlariga ko'ra, XIX-asr o'rtalari qoraqalpoqlarda yirik xususiy yer egaligi ham mavjud bo'lган. Qozoyoqli urug'idan bo'lган Abdullabiy 6370 tanop yerga, qipchoq urug'idan Yaxgiboy 6000 tanop, qayshli urug'idan Qurbonbiy esa 50250 tanop yerga egalik qilgan. Qoraqalpoqlarda xususiy yerkarni sotish mahalliy qoidalarga muvofiq, bir muncha ta'qiqlangan. Yer egasi, avvalo o'z qarindosh-urug'iga taklif qilmasdan turib begona urug'ga sota olmagan. Bora-bora yerkarni urug'-aymoq qo'lida bo'lishi nomigagina bo'lib, yirik zodagon qabila boshliqlari qo'liga o'tib borgan.

Yerga asosan, ho'kiz qo'shilgan omoch va mola bilan ishlov berilgan bo'lib, asosan donli ekinlardan bug'doy, sholi, jo'xori, suli, yog'li ekinlardan kunjut, kanop, poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, qovoq, mosh va boshqalar ekilgan. XIX-asr o'rtalaridan boshlab Qo'ng'irot tumanida paxta etishtirshi ham yo'lga qo'yilgan. Bog'dorchilikda jiyya, o'rik, shaftoli, olma ko'plab yetishtirilgan.

Aholi chorvachiligida yirik shohli hayvonlar ko'paytirilgan. Juni, teri, sut va go'sht uchun echki va qo'ylar boqilgan. Ot va tuyalardan yuk tashish va chig'ir aylantirishda ham ishlatilgan. Misol uchun, yirik chorvadorlarning 1000 ta yirik shoxli chorva hamda 1500 dan ziyod qo'ylari bo'lган. Xo'jalikda baliqchilik ham

rivojlangan. Baliqchilar Orol, Amudaryo, Quvanishdaryo, Davkar, Qo‘ng‘irot, Qora Teren ko‘llarida tirikchilik qilganlar.

Bu davrda hunarmandchilik ham rivojlanib borgan. Qoraqalpoqlar olacha, dag‘al ip-gazlama matolar, gilam to‘qiganlar, yog‘ochdan turli buyumlar yasaganlar, egar, yugan, ayil, kigiz tayyorlash bilan ham shug‘ullangan. Xiva xonligida savdo munosabatlarining kuchayishi bilan qoraqalpoqlar o‘zlarining dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari bilan faol qatnashganlar. Karvon yo‘llari Chimboy, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot shaharlarini Xiva bilan bog‘lagan. Aynan shu shaharlar orqali Kazalinsk, Povolje, Uralsk, Orenburgga boradigan savdo yo‘llari o‘tgan.

Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida urug‘-qabilachilik an’analari ustun edi. XIX-asr boshlarida qoraqalpoq yerlarida yangi-yangi urug‘lar vujudga keldi. Masalan, 1810 yilda qiyotli qoraqalpoqlar biyi Ekinlikning 400-500 o‘toviga qo‘ng‘irot va mang‘itlardan 200 o‘tov qo‘shilgan. Bunday holat boshqa o‘tovlarda ham sodir bo‘lgan. Natijada, O’n to‘rt ulus deb nom olgan yirik urug‘lararo birlashma tashkil topgan. XIX-asr o‘rtalaridan boshlab qoraqalpoq yerlarida ham urug‘-qabilachilik munosabatlarida o‘zgarishlar yuz bergen. Ijtimoiy tabaqalanish natijasida yirik mulkdorlar ajralib chiqqan. Ayni paytda yerga jamoa bo‘lib egalik qilish ham barham topib borgan. Endilikda uning o‘rnida yirik zamindorliklar qaror topgan.

Har bir qabila uyushmasiga yirik yer-mulk, chorva egasi bo‘lgan biylar boshchilik qilgan. Shuningdek, ma’muriy boshqaruв sohasida biy, juzbasi (yuzboshi), mahram (zakot yig‘uvchi), mirob, qozi, rais kabi amal-mansablar bo‘lgan. Asosiy bosh mansab biy bo‘lib, urug‘-qabiladan xon xazinasiga soliqlar yig‘ish, urug‘-qabila ichidagi mojarolarni hal qilish, yer-suv munosabatlari va jinoiy ishlarni hal etish vazifalarini bajargan.

Qoraqalpoqlarda boshlang‘ich ma’muriy birlik ovullar bo‘lib, ularni hukmron tabaqa vakillaridan iborat Oqsoqollar kengashi boshqargan. Asosiy ma’muriy markazlar Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Chimboy, chap qirg‘og‘ida esa Qo‘ng‘irot bo‘lgan.

Soliq-to‘lovlardan asosan, yer solig‘i *salg‘ut-kesma* yer sifatiga qarab olingan. Xorazmda o‘troq aholidan tanop bo‘yicha olinsa, qoraqalpoqdan yer urug‘-jamoa bo‘lib foydalanganlik uchun olingan. Chorvadorlardan shariat bo‘yicha zakot (40/1) olingan. Bundan tashqari, turli majburiyatarni o‘tashi lozim bo‘lgan, masalan 12 kunlik ishlab berish majburiyati, urush davrida 1000 nafardan 2000 nafargacha navkar etkazib berish kabilar shular jumlasidan hisoblangan. Bundan tashqari, urush paytida har bir xo‘jalik *qozon* solig‘i to‘lashga, sug‘orish inshootlarini qurish va ta‘mirlash majburiyatlarini olganlar.

Qoraqalpoqlar 1827-yilda Oydo‘stbiy boshchiligidida qo‘zg‘olon ko‘tarishgan. Bunga sabab, mahramlarining soliq yig‘ishda yo‘l qo‘ygan jabr-zulmi va boshqa tomondan yuqori mansabda bo‘lgan Oydo‘stbiyning Olloqulixon davrida o‘z imtiyozlaridan ayrilishi sanalib, u xalq noroziligidan foydalanib qo‘zg‘olonga bosh bo‘ladi.

3. Qoraqalpoq xalqi madaniyati

Qozoq ma’rifatparvari Cho‘qon Valixonovning “qoraqalpoqlar sahrodagи birinchi shoir ham qo‘sinqchilar, shundan keyin qirg‘izlar ham turkmanlar. Qoraqalpoqlar o‘z xotiralarida minglab doston, qissa, qo‘sinqlarni saqlaganlar” degan so‘zlar bejizga aytilmagan. Darhaqiqat, qoraqalpoq xalqining boy ma’naviy va madaniy meroslaridan biri - folklor hisoblanadi. Qoraqalpoq folklorida shu xalqning an’ana, odatlari, ma’naviy dunyosi va tarixiy tajribasi o‘z ifodasini topgan. Folklorga, asosan qo‘sinq, aytishuv, topishmoq, maqola, ertak, afsona, doston, to‘qimalar kirgan. Qoraqalpoq folklor namunalarining 20 jildligini nashr etilgani fikrimizning isbotidir.

Qoraqalpoqlar o‘z to‘y-ma’rakalarini qo‘shiqsiz, dostonlarsiz, tarixiy hangomalarsiz o‘tkazmaganlar. Ularning halq og‘zaki ijodi juda boy. Ular o‘z so‘z ustalari bo‘lgan chechanlarni, jirov-baxshilarini qattiq sevgan. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma’lum. Ulardan “Qirqqiz”, “Alpomish”, “Ko‘blan”, “Edigey”, “Shariyor” dostonlarida qoraqalpoqlarning boy tarixi kuylanadi. O‘zbeklarning afandisi bo‘lsa, ularning Umirbek laqqasi bo‘lgan. Qoraqalpoqlarning halq qo‘shiqlarida el yo‘lboshchilari, qahramonlaridan Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo‘stbiy, Ernazar biylar kuylangan.

Qoraqalpoqlarda boshqa xalqlar singari ta’lim tizimi maktab, qorixona va madrasalarda olib borilgan. Har bir jamoa - masjid-qavmida, qishloq yoki ovulda mакtab o‘z mullasi bilan bo‘lgan. Xususiy maktablar ham mavjud edi. Qoraqalpoq yoshlari Buxoro va Xiva shaharlarida o‘qib qaytgach, o‘z yurtlarida mакtab va madrasalar tashkil qilganlar. XIX-asr boshlarida 318 ta mакtab, Qoraqum Eshon, Kalila oxun, Egambergan oxun, Oyimbet eshon, Eshim oxun, Prim eshon va boshqa madrasalar shular jumlasidan hisoblanadi. Shularning ichida eng yiriklari Qoraqum eshon va “Tosh madrasa” yoki Xojiniyozbiy madrasalari bo‘lgan. Xojiniyozbiy madrasasi 1841-yilda Qipchoq shahri hokimi Xojiniyozbiy tomonidan asos solingan. Madrasalarda ham islom qonunshunosligi, fiqh, Sharq allomalari asarlari, mantiq kabi fanlar o‘qitilgan.

Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII-asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan “Qirqqiz” dostoni alohida o‘rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalqining qahramonlik eposidir. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o‘zining qirq nafar dugonasi va o‘z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda qalmoqlar xoni Surtoysha hujumidan yurtini himoya qilishi

tasvirlangan. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o‘zbek va qozoq halqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir qatorda jang qilgan Oltinoy, O‘tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik hislatlari o‘z ifodasini topgan.

XVIII-asrdan boshlab qoraqalpoq yozma adabiyoti shakllanib rivojlanana boradi. XVIII-XIX-asrlarning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan qator namoyandalari qalam tebratdiki, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi. Shulardan biri Jiyen Jirov (1730-1784) edi. U mashhur baxshi sifatida kamol topdi. Ayni paytda she’rlar ham bitdi. “Xayr endi, do‘sstar”, “Yuragimda ko‘p dog‘im”, kabi she’rlarida jamiyatdagi nohaqliklardan noliydi. Jien Jirav hajviy asarlarning ham ustasi edi. U “Hoy xonimiz, xonimiz” kabi hajviy she’rlarini yaratgan. Ma’lumki, qozoq xoni Abulhayrxonga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar engilib, ular azob-uqubatlarga duchor etilgan. Xususan, Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ko‘chib ketganlar. Mana shu mashaqqatli ko‘chishlarning guvohi bo‘lgan Jien Jirov o‘zining “Darbadar el” nomli dostonini yaratgan.

Qoraqalpoq adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Kunxo‘ja Ibrohim o‘g‘li (1799-1830) edi. Uning butun umri muhtojlikda o‘tganligi aytildi. Shoirning “O‘roqchilar”, “Oq qamish”, “Cho‘ponlar” kabi she’rlari diqqatga sazovordir. Shuningdek, Ajiniyoz Qasibay o‘g‘li (1811-1878) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri. Mo‘ynoqdagi eski maktabda o‘qigan. Keyin Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida ilm olgan. Shoirning “Bo‘zatov” dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko‘chib ketishiga majbur etilganligi katta mahorat bilan bayon etilgan. Ajiniyoz shoir she’rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari ustun turadi. Shoir Ajiniyozi butun O‘rta Osiyoda tanitgan asari “Qiz Mengash bilan aytishuv” asari bo‘lgan.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq (1827-1900) nomi bilan mashhurdir. Berdaq yoshligidan ota-onasidan etim qolib, tirikchilik uchun ovulma-ovul ish qidirishga majbur bo‘lgan. U ijodini 18-19 yoshlarida do‘mbira chertib she’r aytishdan boshlangan. 25 yoshida iste’dodli shoir sifatida xalq orasida tanilgan. Uning she’rlarida xalqning hayoti aks ettirilgan. Berdaq tarixiy mavzularida ham qalam tebratgan. Uning “Avlodlar”, “Omongeldi”, “Oydosbiy”, “Ernazarbiy” kabi asarlarida xalq qahramonlari kuylangan.

Savol va topshiriqlar:

- 1.Qoraqalpoqlarning etnik tarixi haqida so‘zlab bering.
- 2.Qoraqalpoqlarning siyosiy tarixi bosqichlarini sanab bering.
3. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayotini tasvirlab bering.
- 4.XIX-asr birinchi yarmida qoraqalpoqlarning xo‘jalik turlari, yer egaligi munosabatlarini Klaster metodida ifodalab bering.
- 5.Qoraqalpoqlar madaniy hayotining o‘ziga xos jihatlarini gapirib bering.
- 6.Qoraqalpoq xalqi adabiyotida Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq qanday o‘rin tutadi.
- 7.Qoraqalpoq folklorini Klaster uslubida tasvirlab bering.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

- 1.Polvonniyozov K. Istoki rojdeniya Karakalpakistana. - Nukus, 1994.
- 2.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
- 3.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 4.Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi. 2019.

MAVZU: O‘RTA OSIYO XONLIKLARI DAVRIDA TASHQI SIYOSAT.

Reja:

1. Buxoro xonligining tashqi siyosati (XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmi) tarixi.
2. Buxoro amirligi tashqi siyosati tarixi.
3. Xiva xonligi tashqi siyosati tarixi.
4. Qo‘qon xonligining tashqi siyosati tarixi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, xonliklar, tashqi siyosat, diplomatiya, Rossiya, Eron, Hindiston, Usmonli turklar, Sharqiy Turkiston, Sibir, karvon yo‘llari, savdo aloqalari, Angliya va Rossiya raqobati.

1. Buxoro xonligining tashqi siyosati (XVI-XVIII-asrlar birinchi yarmi)

Shayboniylar va Ashtarxoniyalar juda ko‘plab davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni olib borganlar. Qozoq va Yorkent xonliklari bilan bo‘lgan munosabatlar ba’zida tinchlik va ba’zida harbiy xususiyatga ega bo‘lgan. Biroq har ikkala xudud aholisining xo‘jalik munosabatlari Xorazm singari, o‘zbek va qozoq sultonlarining o‘zaro ziddiyatli munosabatlari davrida ham uzilmagan.

XVI-asr birinchi o‘n yilligida Buxoroning Eron bilan munosabatlari yomonlashdi. Asosiy urush Xuroson, xususan Hirot va Balx mulklari uchun olib borilgan. Shu bois, Xuroson yerlari bir necha bor Safaviyalar tomonidan qo‘lga kiritilgan. Ko‘rilayotgan davrda Buxoro va Eron o‘rtasida keskin munosabatlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ikkala davlat savdo aloqalari to‘xtab qolmagan. N. Veselovskiy bergen ma’lumotlarga ko‘ra, 1594-yilda rus podshosi Fyodor Ivanovich tomonidan Andrey Zvenigorodskiy

Eronga elchi qilib jo‘natilgan. Elchi shoh saroyida bo‘lganida, saroyda turk va buxoro savdogarlari bo‘lishgani, ular rus sovg‘asalomlariga qiziqishlarini aytib o‘tgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bu davrda rus hukumati Sibir xonligiga ta’sir o‘tkazishga uringan. Chunki Abullaxon II va Sibir xoni o‘rtasida yaxshi kelishuv munosabati olib borilgan. Ikkala davlat o‘rtasidagi yozishmalarda, Abdullaxon Sibirga rus kazaklarini qaytarishda Kuchumxonga yordam bergenligi aytiladi. Sibirdan Buxoroga keltirilgan suvsar, tulki mo‘ynalari, bu yerdan Eronga olib borilgan. Bundan ko‘rinadiki, Rossiya, Hindiston va Eron mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarida Buxoro vositachi vazifasini o‘tagan.

XVII-asr ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro-Eron munosabatlari yaxshilanishi kuzatiladi. XVII-asrda O‘rta Osiyoga jo‘natilgan rus elchilarining ma’lumotlari O‘rta Osiyo va Eron aloqalariga oydinlik kiritadi. Masalan, 1647-yilda Buxorodan Eronga Abdulazizzonning Hasan qo‘shbegi boshchiligidagi elchilari kelishgan. Elchilar Eron shohiga Buxoro xoni sovg‘asi qatorida, oltin qulfli oltin sandiq olib kelishgan. Shuningdek, Abdulazizzon Nodirmuhammadga yordam bergen Eron shohi Abbasga minnatdorchilik bildirgan va Eron shohiga Qadahorni egallahsha yordam berilishi bildirilgan. 1649-yilda Eronga Buxoro xonining boshqa elchisi tashrif buyurgan. Bu elchi birinchisi singari, Buxoro xoni Eronning Qandahorda hokimiyatini o‘rnatishda yordam va qo‘llashga kelgani aytilgan.

Buxoro xonligining uzoq geografik xududda joylashgan Istambul bilan o‘zaro ittifoqchilik munosabatlari o‘sib borgan. Masalan, Shayboniy Navro‘z Ahmadxon (Baroqxon) keyinroq, Abdullaxon II va boshqa xonlarning Usmonli turklar bilan munosabatlari yaxshi bo‘lgan. Xususan, Usmonlilar qo‘mondoni bo‘lgan Saydi Ali Raisning (turk admirali, sayyoh) “Mir’ot al mamolik” asari ma’lumotiga ko‘ra, O‘rta Osiyoda XVI-asr o‘rtalarida Buxoro xonligining harbiy qo‘shini safida yanicharlar

(turk askarlari) ham bo‘lgan. 1551-1556-yillarda Navro‘z Ahmadxon davrida siyosiy tarqoqlikka birmuncha barham berilib, markazlashtirish siyosati olib borilgan. Baroqxon shayboniylardan Burxon Sulton bilan bo‘lgan janglarda, uning yonida 150 ga yaqin turk (rumlik) nayzabozlar bo‘lgan, qolganlari uning o‘g‘illari yonida turgan.

Saydi Ali Raisning Eron hukmdori Shoh Taxmasp (1524-1575) bilan uchrashuvi haqidagi ma’lumotlari ham qiziqarli. Shoh uni huzuriga chaqirib: “Rum diyoridan Baroqxonga yordam berish uchun 300 ta yanichar yuborilgan ekan” deb so‘raganida, Ali Rais: “ular Baroqxonga yordam berish uchun emas, balki shayh Abdulatif hazratlarini qo‘riqlab Rumga olib ketish uchun yuborilgan edi, chunki Astraxan yo‘li xavf-xatarga to‘la. Agar yordam berish uchun yuborilganda, nafaqat 300 ta, balki bir necha ming askar yuborilgan bo‘ldi”, deb javob bergenligi aytildi.

Abdullaxon II davrida bu aloqalar yanada rivojlanib har ikki tomonidan vakillar borib-kelib turgan. Muhammad Yusuf Munshi o‘z asarida, Abdullaxon II ning o‘g‘li Abdulmo‘min Usmonlilar sultonasi Murod III ga yo‘llagan maktubida o‘zaro Eronga qarshi birgalikda kurashish imkoniyatlari borligini yozganligini, esga oladi.

Buxoro xonligi markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash yo‘lida Hindiston bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. XVI-asr ikkinchi yarmidan har ikkala xududda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi, o‘zaro siyosiy va savdo munosabatlarini rivojlantirishga asos bo‘ldi.

1572-yoldayoq Hindistonga Akbarshoh huzuriga (1542-1605) Buxoroning 1-elchisi bo‘lgan Xo‘ja Altamish o‘zining Abdullaxon II tomonidan berib yuborilgan maktubini olib kelgan. Buxoro hukmdori o‘z maktubida, o‘zaro do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishiga e’tibor qaratgan. Biroq bu elchilik muvaqqiyat bilan yakunlanmagan. Chunki Hindiston bu davrda faqatgina qo‘shni davlatlar ahvolini kuzatish bilan kifoyalangan, xususan Eron-

Buxoro munosabatlarida Akbarshoh Buxoroga javoban o‘z elchisini yuborishga shoshilmaydi.

Abdullaxon II tomonidan yuborilgan keyingi elchilikka Abdurahim boshchilik qilib u 1577-yilda kelgan, bunda Buxoro hukmdori uni Eron yerlarini bo‘lib olishga undagan. Akbarshoh tomonidan elchilikka javoban Buxoroga Mirzo Fulad boshchiligidagi elchi yuborilgan. Bu elchilarning vazifalari butunlay siyosiy masalalarga qaratilgan bo‘lib, Boburiylar Erondagi Qandahorni, Buxoro xoni esa Badaxshonni o‘z davlati tarkibiga qo‘sib olishni rejalashtirgan edi. Shuningdek, Akbarshoh Badaxshonni Abdullaxon tasarrufiga o‘tishini istamagan edi.

Eronda bu vaqtda ahvol og‘ir bo‘lib Shoh Taxmaspning (1524-1576) o‘limidan so‘ng, saroy va qabila kuchlarinig o‘zaro urushlari kuchayib ketdi. Usmonlilar sultoni Murod III taxtga kelgach, vaziyatdan foydalanib Eronga qarshi urash olib bordi. Bunday foydalangan Abdullaxon II chi qo‘smini Xurosonga bostirib kirib Mashhad, Nishapur boshqa shaharlarni egalladi. 1588-yilda Hirot shahri egallandi. Abdullaxon II tomonidan ayniqsa Xuroson poytaxti Hirot egallangach, uning davlati qudrati va obro‘yi Moskavaga qadar yoyiladi. Podsho Fedor bu holatdan bezovtalangan. Ayniqsa, Abdullaxon II ning Sibir xoni Kuchumxonni qo‘llab-quvvatlashidan tahlikaga tushib, qozoq sultonlariga ta’sir o‘tkazishga, ularni Eron shohi bilan birgalikda Abdullaxon II chiga qarshi chiqishga undaganligi haqida ma’lumotlar bor.

Bu borada Hindiston hukmdori ham Eronning ojizlanganligidan foydalanib, Qandahorni olishga urindi. Buxoro-Hind munosabatlarida iz qoldirgan yana bir holat, bu Badaxshon masalasi bo‘lgan. Abdullaxon II ning siyosiy maqsadlari nafaqat Xurosonga, balki Badaxshonga qaratilgan bo‘lib, bundan Akbarshoh ham yaxshi xabardor edi. 1584-yilda Badaxshon Abdullaxon tassarufiga o‘tadi. Shu vaqtda Hindistonga Buxorodan Mir Quraysh boshchiligidagi

elchilar tashrif buyurgan. Elchilik zimmasiga Badaxshon masalasi, Abdullaxonning Eronga yurishlarida Buxoro-Hind munosabatlariga aniqlik kiritish lozim edi. Bunda Abdullaxon II tomonidan Akbarshohga maktub yo‘llangan bo‘lib, unda “Badaxshonni kofirlardan himoya qilish, Makka va Madinaga haj ziyyoratini amalga oshiruvchilarning xavsizligini ta’minlash maqsadida bosib olinganligi” tushuntirilgan. Akbar Mir Quraysh elchilarni uzoq vaqt qabul qilmaydi, tarixchilarning ta’riflashicha, Akbar Kashmirni o‘z davlatiga qo‘shib olgandan so‘ng elchilarni 1586-yili martda qabul qilingan. 1586-yilda Buxoroga Mir Quraysh bilan birga Hakim Humom va Sadr Jahon boshchiligidagi javob elchiligi Akbarshohni Buxoro bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikka qaratilgan edi.

1590-yilda Hindistonga Buxorodan yana bir Mavlono Husayn boshchiligidida yuboriladi. Bu vaqtda Shayboniyalar hali ham Hirot va Mashhadni egallab turgan edi. Lekin Eronda yosh va kuchli Abbos I ning taxtga kelishi, Xuroson yerlarini qaytarib olish maqsadida, Turkiya va Hindiston bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga harakat qildi. Shunday so‘ng, Abdullaxon II janub tomon yurishlarini to‘xtatdi. 1596-yili Xoji Ashraf Naqshband va Sulton Husayn Lakxnav boshliq Akbarshoh elchilari Buxoro tomon yo‘lga chiqadi. Elchilar Abdullaxonga Akbarshohning katta sovg‘a-salomlari bilan o‘zaro do‘stlikni mustahkamlashni ta’kidlovchi maktub ham olib kelishadi.

Buxoro xonligi va Hindiston munosabatlari Ashtarxoniy Imomqulixon hukmronligi davrida qaytadan yangilandi. Muhammad Yusuf Munshi ma’lumotiga ko‘ra, Buxoro xoni “Akbarshoh o‘g‘li Jahongirshoxga (1605–1627) taxtga o‘tirgani bilan tabriklash uchun sovg‘a-salomlar yuborgan”. Jahongirshox (1605-1627) bu elchilarni iltifot bilan kutib oglani aytildi. Bunga javoban Hindistondan Movarounnahrga zamonasining atoqli olimi Hakim Hoziq boshliq elchilar keladi. Elchilarga qimmatbaho sovg‘alar qo‘shib jo‘natilgan. Sovg‘alar orasida qimmatbaho toshlar

qadalgan chodir kishining diqqatini o‘ziga tortgan. Aytishlaricha, bu chodir unga qadalgan oltin va qimmatbaho toshlarning narxi bir yillik xiroj solig‘iga barobar bo‘lgan.

O‘z navbatida 1625-yilda hind elchisi Mir Baraka Juybor shayxlaridan bo‘lgan Xo‘ja Abdurahim bilan birga o‘z vataniga qaytib ketgan. Buxoro elchisi sovg‘a sifatida ot, mo‘yna va terilar, qo‘lyozma manbalarni olib borgan. Bundan tashqari, Xo‘ja Abdurahim Hindiston hukmdoriga butun bir viloyat xiroji miqdoriga teng bo‘lgan qimmatbaho tosh – la’lni tuhfa qilgan. Bu elchi shuningdek, Hindistonga Xurosonni Buxoro va Hindiston o‘rtasida bo‘lib olish taklifi bilan kelgan.

Akbarshoh (1556–1605), Jahongirshoh (1605–1627) va Shoh Jahon (1628–1659) davrida Hindiston bilan Markaziy Osiyo o‘rtasida o‘rnatilgan siyosiy munosabatlar Avrangzeb (1659–1707) davrida ham davom etdi. Buxoro va Hindiston o‘rtasida Shohjahon (1627–1658) davrida harbiy ittifoqchilik aloqalari olib borilgan. Bu davrda Ashtarkoniylar davrida Balx va Buxoro o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashgan, biroq keyin vaziyat ijobiy tomonga o‘zgargan va bu o‘zgarish Buxoro-Hindiston munosabatlarini sovuqlashishiga sabab bo‘lgan. Shohjahon o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kechgan kurash tugab, Avrangzeb hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng uni qutlash uchun birinchi bo‘lib, Buxoro xonligidan, ya’ni ashtarkoniylar Abdulazizzon tomonidan elchi kelgan.

Abdulazizzon elchi sifatida naqshbandiya tariqati vakillaridan bo‘lgan vakilni yuborgan. Bu elchilik tashrifi, o‘rta asrlarning diplomatik munosabatlarida o‘ziga xos xususiyat kasb etib, taxt tepasiga biror yangi hukmdor kelganda uni qutlash maqsadida atrofdagi davlatatlardan elchilar yuborilgan. 1661-yil dekabrda Avrangzeb Buxorodan tashrif buyurgan elchi Xo‘ja Ahmad al-Husayni Naqshbandiyni qabul qiladi. Elchi Hind podshohiga Buxoro xoni Abdulazizning maktubini topshiradi hamda unga otlar, tuyalar, qimmatbaho buyumlar sovg‘a qiladi. Abdulazizzon

maktubida Avrangzebni taxtga chiqishi munosabati bilan ikki o‘rtadagi do‘stona munosabatlar davom etishiga ishonch bildiradi. 1665-yilning iyulida Hindistondan Buxoroga Mustafoxon Xofiy boshchiligidagi elchilar Avrangzebning javob maktubini yetkazadi. Abdulazizzon siyosati bu vaqtda kuchli davlatlar bilan kelishib ish ko‘rishga qaratilgan bo‘lib, Hindiston bu davrda dunyodaning eng yirik iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lish bilan birga, Buxoro xonligiga asosiy iqtisodiy hamkorlik qiluvchi va o‘z mahsulotlarini katta miqdorda sotish imkoniyatini beruvchi mamlakat hisoblangan. Subxonqulixon davrida ham Avrangzeb bilan munosabatlar davom etgan.

Buxoro-Rossiya. XVI-asr o‘rtalaridan boshlab, Moskva davlati tomonidan Qozon va Astraxan xonliklari egallangach, Rossiyaning O‘rta Osiyoga bo‘lgan qiziqishi kuchaydi. Chunki, XVI-asr boshlarida Rossiya uchun bosh bozor Turkiya hisoblangan bo‘lsa, keyinroq Eron, O‘rta Osiyo, Sibir, Xitoy bilan aloqalarga katta e’tibor qaratadi. Ya’ni, “Sharq savdosi” Rossiya uchun daromadli va iqtisodni o‘sishiga turtki berishiga ishongan. 1583-yildan 1600-yilgacha Moskava davlati 17 ta kamida elchilik qabul qilgan bo‘lsa, shundan Markaziy Osiyodan 8 tasi buxorolik, 3 tasi xivalik va 2 tasi qozoq elchilari bo‘lgan. Tadqiqotchilar fikricha, Qora dengiz va turk bozorlarida turk, grek, gruzinlar ustunlik qilgan bo‘lsa, Astraxan va Sibir orqali savdoda esa, buxorolik va boshqalar ustun bo‘lishgan.

Buxoro xonligiga yuborilgan Rossiyaning Antoni Jenkinson (1558-1559), Ivan Xoxlov (1620), aka-uka Pazuxinlar (1669), Daudov va Muhammad Kosimov (1675), Bekovich-Cherkasskiy, Florio Benevini va boshqa elchiliklari Xiva va Buxoroga faqatgina savdo-diplomatik munosabatlar o‘rnatish bilangina kelmagan edi. Ulardan ko‘pchiligi, O‘rta Osiyo davlatlari orqali Hindiston bilan ham sado aloqalarini o‘rnatishga qiziqqan. XVII-asrda Buxoro va Xiva xonliklarida Rossiyaning 9 ta elchisi bo‘lgan.

Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi bo‘lgan. Jenkinson Rossiya podshosi Ivan IV ning ishonch yorlig‘i bilan Buxoroga keladi. Podsho O‘rtta Osiyo bilan savdo aloqalarini o‘rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergen. Jenkinsonning Rossiya nomidan O‘rtta Osiyoga jo‘natilishi Rossianing O‘rtta Osiyo savdosida ma’lum bir manfaati bo‘lganini tasdiqlaydi va Rossiya bilan O‘rtta Osiyo o‘rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo‘l ochdi. Jenkinson Moskvaga qaytayotganida u bilan birga, Buxoro, Urganch, Balx elchilarini ham birga borishgan. Mazkur elchi “Buxoroda savdogarlarning har yilgi yig‘ilishi bo‘lib, u yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa davlatlardan savdogarlar katta karvonlar bilan kelib qurultoy o‘tkazishini”, qayd etgan.

XVI-asrda Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlardan jonlangan. Abdullaxon II davrida 1585-yil buxorolik elchi Muhammadali Rossiya podshosi Fyodor Ivanovichga Abdullaxon nomidan tortiqlar olib borgan, hadyalar tarkibida 40 pud nil bo‘yog‘i ham bo‘lgan.

1620-yilda Buxoro xoni Imomqulixonning elchiligidagi javoban, tasdiqlangan yorliq bilan Ivan Xoxlov O‘rtta Osiyoga jo‘natilgan. 1669-yilda aka-uka Pazuxinlar elchiligi Buxoro, Balx va Urganchga kelgan. Bu elchilarga Hindistonga boruvchi eng qulay yo‘llarni topish topshirig‘i berilgan. Bu elchilarga shuningdek, Buxoro, Xiva xonlarining Eron shohi, Turk sultonasi va Hindiston, Gruziya bilan qanday siyosiy munosabatlarda ekanligini aniqlash yuklatilgan.

1670-yilda Buxoro elchisi Mulla Farrux Tobolsk, so‘ngra Moskvaga keladi. 1675-yilda rus podshosi Aleksey Mixailovich tomonidan V.Davudov bilan Muhammad Yusuf Qosimovni Buxoro va Hindistonga elchi qilib jo‘natiladi. Shu elchilikning Daudov vakili orqali Adbulazizzonga yorliq berib yuboriladi. Yorliqda ikkala davlat o‘rtasidagi do‘stona munosabatlari, rus qullarini ozod qilish aytiladi.

Pyotr 1 tomonidan Xivaga elchilik niqobi ostida Bekovich-Cherkasskiy qo'shini yuborilishi, o'z navbatida Buxoro xoni Abulfayzxonni bezovtalantirgan edi. Shuning uchun, 1716-yilda Xonqli to'pchiboshi boshliq 61 kishidan iborat elchilar Peterburgga jo'natiladi. Abulfayzxon o'z maktubida, ikki davlat o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishi va savdo aloqasini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Bu elchilik 1717-yil oktyabrga kelibgina Pyotr I (Evropadan qaytgach) qabulida bo'ladi. Keyinchalik, Abulfayzxonga javoban, Pyotr I asli italiyalik bo'lgan Florio Benevinini 1721-yilda jo'natadi. Uch yil Buxoroda turgan Beneveni Buxoro-Xiva munosabatlari, harbiy holat va tabiiy boyliklar to'g'risida ma'lumot to'playdi. 1732-yilda Kichik juz, 1739-1740-yillarda O'rta juz, 1747-yilda Katta Juzlar Rossiya tobelligiga o'tadi. Buning natijasida, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo tomon harakatlari uchun imkoniyat yaratadi. Faqat XVIII-asrda Qozoq juzlari xududida 46 ta katta, 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar quriladi.

Xulosa qilib aytganda, XVI-asr boshlari – XVIII-asr birinchi yarmida Buxoro xonligi tashqi siyosatda Hindiston, Eron, Rossiya va Usmonli Turklar bilan, shuningdek Xiva, Qozoq va Yorkent xonliklari bilan o'zaro aloqalarini olib borgan.

2. Buxoro amirligi tashqi siyosati

Amir Doniyolbiy davrida Buxoro davlatining Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarining yangi davriga tamaltoshi quyilgan edi. Doniyolbiy otaliq 1774-yilda Ernazar Maqsud o'g'li boshchiligidagi o'z elchilarini Rossiyaga jo'natib, yaqin diplomatik va savdo aloqalarini o'rnatgan. Bu paytda u yerda Ekaterina II (1762-1797-yy.) hukmronlik qilar edi. Ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari o'rnatilishida Ernazar elchining o'ziga yarasha o'rni bo'lgan. Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o'g'li XVIII-asrda yashab o'tgan

yirik savdogar va elchi bo‘lib, u Buxoro amirligining Rossiyaga yuborgan elchilari rahbari bo‘lgan. U madrasada o‘qigan bo‘lib, 1745-yildan boshlab, Rossiyaga bir necha marta tijorat maqsadida borib, imperator Elizaveta qabulida bo‘lgan. Savdo ishlari bilan Xuroson va Hindistonga ham borgan. Keyinchalik Buxoro hukmdori Doniyolbiy otaliq tomonidan 1774-1776-yillarda va 1779-1780-yillarda Rossiyaga yuborilgan 2 ta elchilik missiyasiga boshchilik qilgan.

Doniyolbiy otaliqdan so‘ng Amir Shohmurod taxtga kelgach, tashqi savdoni rivojlantirishda Rossiya bilan savdo aloqalariga alohida e’tibor qaratdi. Uning davrida Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqasi o‘tgan davrlarga nisbatdan sezilarli darajada kuchaydi. Amir Shohmurod hukmronligidan keyin ham Buxoroning Rossiya bilan savdo aloqalari rivojlanishda davom etdi. Orenburgda 1804-yili Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda 20 ta xonadon istiqomat qilgan.

Buxoro amiri Haydarning Rossiya imperatori Aleksandr I ga yozgan xatida, Rossiyaga qarshi fransuzlarning hujumi boshlangan vaqtarda Buxoro savdogarlari qozoqlarning talonchilik guruhlari tomonidan talon-taroj etilganligi to‘g‘risidagi xabar bayon qilingan. XIX-asrning boshiga kelganda Buxoro-Rossiya savdo aloqalarining borgan sari yuksalishi natijasida, birinchi navbatda savdo yo‘llarining xavfsizligini taminlash va savdo munosabatlarini yanada mustahkamlash bu ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

Buxoro va Rossiya savdo aloqalarining yuksalishi bilan bu ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlар ham tobora mustahkamlanib bordi. 1804-1808-yillarda Buxoro xonligidan Rossiyaga Miralouddin, 1816- hamda 1819-yilda Mirza Muhammadyusuf qo‘rchiposhi boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiya ham amirlik bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o‘z elchi va missiyalarini yubordi. Masalan, 1803-yilda

Goverdovskiy, 1809-yilda Abdulnosir Subhonqulov elchiligi va 1820-yilda A.Negri boshliq katta diplomatik missiya yuboriladi. A.Negri boshchiligidagi o‘z tarkibida olimlardan G.Meyendorf, E.Eversman, Budrinlarga ega bo‘lgan ikkinchi missiya amirlik haqida ko‘proq ma’lumot yig‘ish uchun kelgan edi.

1834-yilda Buxoroga yangi missiya yuborilgan. Bu missiya mutlaqo josuslik maqsadidagi topshiriqlarni bajargan. Bu missiyaga turkiy tillarni va bu xalqlarning tarixini yaxshi bilgan Qozon universitetining sharqshunoslik fakulteti talabasi P.Demizon rahbarlik qilgan. Unga tatar mullasi Mirza Jafar nomi bilan soxta passport va diplomatligini tasdiqlovchi hujjat beriladi. Unga yuklatilgan vazifa o‘ta muhim bo‘lib, Rossiya bilan Xiva o‘rtasida urush kelib chiqsa Buxoro bunga qanday munosabatda bo‘lishini aniqlashdan iborat edi.

1835-yilda praporshik Vitkevich maxfiy ko‘rsatmalar bilan Buxoroga jo‘natildi. 1839-yil aprelda Buxoroga muhandis-geolog, kapitan Kovalevskiy boshchiligidagi ekspeditsiya yuborildi va unga Turkiston dagi mavjud oltin va boshqa madan konlarini xaritalashtirish topshirildi. Shuningdek Buxoro amirligining geologik tuzilishi, Buxoroda oltin buyumlar bilan savdo qilishning ahvoli va amirlikning tashqi savdo munosabatlari haqida statistik ma’lumotlar to‘plash vazifasi yuklatilgan edi.

1841-yil Buxoroga N.Xanikov boshchiligidagi missiya o‘z tarkibida N.Zalesov, Leman kabi olimlar bilan birgalikda keldi va O‘rta Osiyo flora va faunasini o‘rganishga kirishdi. 1843-yilda N.Xanikov o‘z safar natijalari haqida hisobot to‘plab Tashqi ishlar vazirligiga topshirdi va shu yiliyoq hisobot tegishli idoralar uchun yollanma sifatida ”Opisanie Buxarskogo xanstva” nomi bilan kitob holida nashr etildi. Bu kitob O‘rta Osiyoga yurish qiladigan qo‘shtinzing zabit va askarlariga tarqatish uchun Orenburg general-gubernatorligiga jo‘natildi. Kitobda Buxoro xaritasi, Samarqand shahri plani ilk marta e’lon qilindi.

1842-yilda Buxoro amirligiga yuborilgan K.Butenevga yanada maxfiy topshiriq berildi. U bu topshiriqlarni qoyil qilib bajardi, rus hukumatiga "Buxoroga qo'shin tortib borish imkoniyatlari" deb atalgan maxfiy ish topshirdi. Unda amirlikni bosib olish mumkinligi aniq tavsiflab berilib rus hukumati va generallarini amirlikni tezroq bosib olishga undadi.

XIX-asr o'rtalariga kelib Rossiya imperiyasi va Angliya davlatlarining mustamlakachilik siyosatidagi manfaatlari O'rta Osiyoda to'qnashdi. Har ikki davlatning Turkistonga bo'lgan qiziqishlari bundan ancha avvalroq boshlangan bo'lib, har ikki davlat ham Turkistonni o'z manfaatlari doirasiga kiritishga harakat qildilar.

XIX-asr boshlaridanoq Angliya o'zining Hindiston va Afg'onistondagi mulkidan turib O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalarini boshlab yubordi. Angliya siyosatchilari Rossianing xonliklar bilan tobora iqtisodiy jihatdan yaqinlashib borayotganidan tashvishga tushib, ularni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishidan xavfsirardi. O'z navbatida, Rossiya ham Buyuk Britaniyaning Turkiston va Kaspiy dengizi sharqidagi yerlarni bosib olishdan tashvishga tushgan edi. Bu siyosiy o'yinda Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni birlashtirib, Rossiya impreriysi tomonidan bosib olinishiga yol qo'ymaslik va shu bilan birga O'rta Osiyo bozorlarini egallahdan iborat edi.

Angliya o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun XIX-asr 30-yillaridan boshlab O'rta Osiyo xonliklariga o'z elchilari va missionlarini yubora boshladi. Fors va turk tillarini yaxshi bilgan A. Byorns, Stoddart, Konnoli, Abbot, Shekspir kabi bir qancha ingлиз missionyerlari XIX-asrning 30-50-yillari davomida bir necha bor o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun kelgan bo'lsalar-da, ularning hammasi o'z maqsadlariga yeta olmadi. 1831-1833-yillarda Ost-Indiya kompaniyasi leytinanti Aleksandr Byorns Buxoroga keladi. Xususan, amirlikka kelgan Stoddart Amir Nasrullaxon

tomonidan zindonga tashlangan. Buni eshitgan ingliz hukumati Konollini uning orqasidan yuborishadi. Biroq u ham zindonga tashlanadi. 1842-yilda har ikkalasi ham o‘ldiriladi. 1844-1845-yillarda Iosif Volf Buxoroga keldi. Bu vaqtida Turkiya Rossiya istilosiga qarshi Angliya bilan hamkorlikda, xonliklarni ittifoqini vujudga keltirishga harakat qiladi. Shuning uchun, Volf bir vaqtning o‘zida Buxoro, Qo‘qon va Xivada bo‘ladi.

3. Xiva xonligi tashqi siyosati

XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Xiva xonligining asosiy diplomatik va iqtisoiy munosabatlri ko‘zlangan davlatlardan bu Rossiya bo‘lgan. XVI-XVII-asrlarda Xiva bilan Hindiston o‘rtasida ham do‘stona siyosiy va iqtisodiy savdo munosabatlari o‘rnatalgan. 1645-yilda Xiva xoni Abulg‘ozixon Hind hukmdoriga xat yozib, unda “... ilgari Urganch va Hind shoxlari tinchlikda yashab, savdogarlar bir-birlari tomoniga qatnab turganligini” aytib, endilikda ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘sha do‘stlik va savdo aloqalarini davom ettirishni taklif qilgan. 1646-yil 7-noyabrdada Astraxanga borgan Xiva elchisi Shayxbobo ma’lumotiga ko‘ra, Xiva xoni Hindiston shohi bilan do‘stlik aloqalarini o‘rnatgan bo‘lib, savdogarlar bir-birining mamlakatiga qatnab turgan.

XVI-XVIII-asrlar manbalariga ko‘ra, Rossiya-Xiva o‘rtasida yuzaga kelgan siyosiy va savdo munosabatlari to‘g‘risida gapiriladi. Bu ikkala davlat o‘rtasidagi asosiy masala - savdo aloqalarini kengaytirish, rus savdogarlarini Xivada va xivaliklarning Rossiyada savdo olib borishiga qulay sharoitlar yaratish masalasi bo‘lgan.

Ayniqsa, Rossiya va Xivaning o‘zaro savdo munosabatlari rivojlanib borgan. Elchilik, savdo munosabatlari o‘z navbatida missiya topshiriqlarini ham o‘z ichiga olgan. Masalan, 1620-yillarida I.Xoxlov, elchi Ivan Fedotov 1669-yil iyunda Xiva xoni Anushaxon huzurida bo‘lgan va Rossiyaga qaytib kelgach, o‘z

axborotida buxoroliklar va xivaliklar o‘zaro savdo qilishi, bozorlardagi tovarlar, ularning narx-navosi haqida ma’lum qilgan. 1669-yilda Moskvadan Xivaga aka-uka Pazuxinlar boshchiligidagi elchilik, 1675-yilda Moskvadan tatar va fors tillarini yaxshi bilgan V. Davudov va M. Qosimov boshchiligidagi rus elchiligi yuborilgan.

O‘z navbatida, Xiva tomonidan Petr I ga qadar Rossiya bilan aloqalar o‘rnatish maqsadida 1585-yilda Xo‘ja Muhammad boshchiligidagi, 1641-yilda Muhammad Amin Bahodir, 1646-yilda Nazar Nodirqulov, shu yilning o‘zida Shohbobo rahbarligidagi bir qancha elchilik missiyalari va nihoyat Petr I ning o‘zi davrida Shohniyozxon elchiligi amalga oshirilgan.

Keyin Pyotr I ning 1714-yil 29-mayda farmoniga ko‘ra, Xivaga Bekovich-Cherkasskiy yuborilgan. Bu ekspeditsiyaning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi orada ikki davlat munosabatlarini uzib qo‘ygan. 1720-yilda Sherg‘ozixon tomonidan Avaz Muhammad boshchiligidagi elchi savdo aloqalarini yangilash maqsadida yuborilgan. Biroq bu elchi imperator buyrug‘i bilan asir olingan 1721-yilda vafot etgan. Bu elchilikdan faqat bir kishi Xivaga qaytib Peterburgda vafot etgan elchi to‘g‘risidagi maktubni olib kelgan.

1726-yilda Xivadan Subxonqulibek boshliq elchilik missiyasi Peterburgga kelib Ekaterina I saroyida qabul qilingan. Elchilikning maqsadi Petr I davrida Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati tufayli uzilib qolgan savdo-iqtisodiy munosabatlarni tiklash edi. 1726-yil 17-sentyabrda Oliy maxfiy kengash Rossiyadan Xivaga savdogarlarini jo‘natish xivaliklar uchun ham, Xivadagi rossiyaliklar uchun ham foydali, savdoning ta’qiqlanishidan ham xazina va ham savdogarlar zarar ko‘rmoqda, degan xulosaga kelgan. Shundan so‘ng, Subxonqulibek elchilik missiyasiga javoban Rossiya Oliy maxfiy kengashi Xiva bilan savdo munosabatlari o‘rnatish to‘g‘risida maxsus qaror chiqargan.

Keyingi munosabatlarda Elbarsxon elchilaridan Yodgor Alimov (1728), Ortiq Razumboyev (1739) missiyalari borgan. 1729-yilda Yodgor Samarcandiy Rossiyaga Buxoro va Xiva xonlari nomidan elchilik yorliqlari bilan keladi. Xususan, unda Xiva xoni Rossiya savdogarlarining xavfsizligini ta'minlash majburiyatini olgan edi. 1753-yilda Orenburgdan yirik karvon Xivaga qarab savdo maqsadida chiqadi. Uning tarkibida Samaratik savdogar Daniel Rukavkin bo'lgan.

1793-yil aprelda Xivadan Orenburgga ikkita elchilik savdo karvoni bilan borgan. Iskandar Olloberdiev va Raximbiy Do'stmurotovlar ko'zi ko'r bo'lgan Fozilbiyxonni davolash uchun do'xtir so'rab murojaat qilganlar. Blankennagel boshchiligidagi do'xtir bu hukmdorni davolay olmagan, lekin bu do'xtir qiziqarli ma'lumotlar bilan orqaga qaytgan.

1819-yilda Nikolay Muravyov boshchiligidagi elchilik 17 ta tuyaga bilan xonlikning Elgeldi qal'asiga kelishgan. 48 kunlik tutqinlikdan so'ng u xon qabuliga kiritilgan. U Kaspiy dengizi sohillarida qal'a qurish va xiva karvonlarini Mang'ishloqqa emas, balki Krasnovodsk portiga yo'llash masalasida Xiva xoni bilan uchrashadi. Biroq, Raximxon I bunga rozi bo'lmaydi. U turkmanlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, xonlikning harbiy kuchi, shaharlari, savdo va boshqalar to'g'risida ma'lumot to'playdi. Muravyov missiyasi Xiva xonligini bosib olish Rossiya uchun Buxoro va Hindistonga yo'l ochadi va butun O'rta Osiyon Rossiya ta'sirida ushlab turish imkoniyatini beradi, degan xulosaga kelgan. Bu xulosaga tayanib Muravyovning maslahatlariga amal qilgan graf Perovskiy rus hukumatining roziliginini olib, 1839-yil Xivaga yurish qiladi va to'la mag'lubiyatga uchraydi. Yurish ishtirokchisi M.Ivanin "Opisanie zimnego poxoda v Xivu (1839-1840g)" nomli asarida Xiva xonligi ustidan tamomila o'lim hukmini chiqarish va unga xatto kerak bo'lsa ekologik urush e'lon qilish, yani, Amudaryoni Kaspiy dengiziga burib yuborish takliflarini kiritadi.

1841-yilda Rossiya Nikiforovni Xivaga jo‘natadi. Uning vazifasi xivaliklarni Rossiya qaramog‘idagi qozoqlarga xujum qilmaslik kabi shartlarni qo‘yish edi. Lekin, Nikiforov buni uddalay olmagach, G. Danilevskiy yuboriladi. U Olloqulixon bilan uchrashib, 1842-yil dekabrda shartnoma tuzishga kelishadi. Biroq, Olloqulixon vafot etgach, bu “Majburiyatlar akti” nomi bilan tarixga kirgan shartnomaga Raximqulixon imzo chekadi.

1858-yil O‘rta Osiyoga yuborilgan polkovnik Ignatev boshchiligidagi missiya o‘z ishini tugatar ekan, ”O‘rta Osiyo xonliklari bilan teng asosdagi savdo va boshqa aloqalar foyda bermaydi. Elchilarni kutish va jo‘natishga ketadigan barcha harajatlarni harbiy yurishglarga sarflab, bu hududlarni bosib olish kerak” mazmunidagi o‘ta shovinistik va bosqinchilik ruhi yaqqol namoyon bo‘lgan xulosalarni chiqaradi. Manbalar guvohlik berishicha, 18 ta Xiva elchilaridan faqat 7 tasi imperiya poytaxtiga kiritilgan. Qolganlari turli bahonalar bilan Astraxan, yoki Orenburga qabul qilingan. Rossiyaning Xivaga elchiliklaridan faqat ikkitasi muvafaqiyatsizlikka uchragan: Bekovich-Cherkasskiy va Garber karvoni qirg‘izlar o‘rdasi tomonidan talangan.

4. Qo‘qon xonligi tashqi siyosati

Qo‘qon xonligi Buxoro xonligidan ajralib chiqqach, Buxoro amirlari o‘z xududlarini qaytarib olish uchun ziddiyatli kurash olib borganlar. Bu holat ayniqsa, XIX-asr birinchi yarmida kuchaydi. 1842-yilda Qo‘qon vaqtincha egallandi, xon va uning yaqinlari qatl qilindi. Rossiya imperiyasi xonlik xududiga yaqinlashaver gach, ikkala xonlik o‘rtasidagi noittifoqlik kuchaygan. Masalan, Toshkent mudofaasida yordam so‘ralgan Buxoro amiri orqadan Qo‘qon xonligi yerlariga yurish qilgan edi.

Qo‘qon-Xiva munosabatlari o‘zaro do‘stona edi. Bu ayniqsa, 1842-yilda Xiva xoni tomonidan Buxoro amirligi yerlariga

qo‘qisdan hujum qilishi va Amir Nasrulloning Qo‘qondan orqaga qaytishga majbur etdi. Bu bilan xivaliklar qo‘qonliklarga g‘alaba keltirishga imkon berdilar. Qo‘qon-Rossiya munosabatlarining tobora keskinlashib borishi natijasida, Qo‘qon xoni 1858-yilda yordam so‘rab Xivaga elchi yubordi. Lekin Xiva xoni turkmanlarga qarshi kurashayotganligini aytib rad javobini berdi. 1861-yilni oxirida Mallaxon Xiva xoniga rus qo‘shinlariga qarshi kurashish maqsadida, yana odam yubordi. Lekin xon bu gal ham Mallaxonni qo‘llab-quvvatlay olmadi. 1862-yilning o‘rtasida Qo‘qondan yana ittifoqlik tuzishga qaratilgan elchilik keldi. Lekin Xiva xoni nafaqat rad javobini berdi, balki ularga qarshi kurashmaslikni maslahat berdi.

Qo‘qon xonligining Xitoy bilan aloqalarida Sharqiy Turkiston alohida mavqega ega bo‘lgan. Chunki Qo‘qon xonligi Sharqiy Turkiston bilan bevosita chegaradosh hamda uning Xitoy bilan bog‘laydigan karvon yo‘llari Sharqiy Turkiston orqali amalga oshirilgan. Sharqiy Turkiston 1760-yilda Sin imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, Xitoy davlati unga Sinszyan “Yangi chegara” yoki “Yangi xudud” nomini bergen. Tadqiqotchilar fikricha, Sharqiy Turkiston bilan O‘rta Osiyo o‘rtasida serqatnov karvon yo‘llariga Farg‘ona vodiysidan o‘tgan Andijon, O‘zgand, Chadirko‘l va Toinboshi daryosi orqali Qoshg‘ar, boshqasi Terekto-Dovon orqali Qoshg‘arga borilgan.

XIX-asrning 20-yillarida Qo‘qon va Xitoy munosabatlari chigallashgan. Bunga sabab, Muhammadalixonning Sharqiy Turkistondagi 1825-yilda ko‘tarilgan milliy-ozodlik harakatiga aralashishi sabab bo‘lgan. Natijada, 1828-yilda Xitoy hukumati Sharqiy Turkistonda Qo‘qonning savdo faoliyatini bekor qildi. Bunga qarshi Muhammadalixon Haqquli boshchiligidida katta qo‘shin yuboradi. Natijada, birlashgan qo‘shin qoshg‘arlik Yusufxo‘ja boshchiligidida Qoshg‘arni egallaydi. Endigi navbat Yorkentni egallahsga qaratiladi. Bunga javoban, Xitoy ham qo‘shin

yuboradi. Qo‘qon qo‘shini Buxoro bilan munosabat sabab qaytariladi, qo‘shin orasida nobirdamlik sabab, Yusufxo‘ja ko‘pgina uyg‘urliklar bilan vodiyga qaytadi.

Qo‘qon xonligi o‘z xududini Sharqiy Turkiston hisobiga kengaytirishni davom ettirgan. Bu vaqtda Xitoy moliyaviy qiyinchilik sabab, Qo‘qonga qarshi ochiq harbiy harakatlar qila olmaydi. Natijada, 1832-yilda Qo‘qon bilan Xitoy o‘rtasida Pekinda tinchlik sulhi imzolanadi. Shartnomagan muvofiq, qo‘qonliklar Oqsu, Uch-Turfan, Qoshg‘ar, Yangi Xisor, Yorkent va Xo‘tan kabi shaharlarda O‘rta Osiyolik savdogarlardan savdo bojini olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu masala Qoshg‘arda istiqomat qiluvchi, rezident va konsul huquqiga ega bo‘lgan qo‘qonlik oqsoqolga yuklatiladi. Boshqa tomondan, Qoshg‘arda Qo‘qon savdogarlariga bojsiz savdo qilishga ijozat beriladi. Bu holat bir tomondan, Qo‘qon-Qoshg‘ar savdo munosabatlarini jonlantirgan bo‘lsa, boshqa tomondan Qo‘qon-Xitoy munosabatlarining Qoshg‘ar uchun raqobati kuchaydi. Sharqiy Turkiston Xitoy amaldorlari zulmidan ozod bo‘lib, Qoshg‘ar vaqtincha mustaqil davlatga aylanadi.

Qo‘qon xonligi Usmonlilar davlati bilan diplomatik munosabatlarni olib borganlar. Umarxon 1820-yilda Istambulga Qurbonxoji boshchiligidagi elchilik vakillarini yuboradi. Qaytishda ularga Usmonlilar davlatining vakili qo‘shilib keladi. Ikkala davlat o‘rtasidagi o‘zaro qo‘yilgan masalalardan biri bu Usmonlilar davlati orqali Makkaga boradigan qo‘qonlik ziyyoratchilarning xavfsizligini ta’minlash bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar boshqa xonliklarga nisbatan kechroq boshlangan. Xonlikning Rossiyadan ancha olisda joylashganligi aloqalar o‘rnatalishiga imkon bermagan. Vaholanki, Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, qo‘shni Xitoy, Hindiston, Qozoq dashtlari bilan jadal diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlarni olib borgan.

Rus hukumati Rossiyadan O'rta Osiyoga jo'natilayotgan elchiliklariga maxsus topshiriqlar bergan. Xususan, 1813-yili Sibir korpusi tarjimoni Filipp Nazarov maxsus topshiriqlar bilan, Qo'qonga, ya'ni Petropavlovskda Peterburgdan kelayotgan Qo'qon xoni elchisining o'ldirilishi oqibatida kelib chiqqan noxushlikni hal qilish maqsadida kelgan va 1813-1814 yillarda xonlikda bo'lган. Rossiya imperiyasi Qo'qon-Buxoro munosabatlariga qiziqib, 1820-yilda L. Negri boshchiligida Buxoroga elchilik yuboriladi. Unga vazifa etib, Qo'qon xonligidagi vaziyat, tabiy boyliklari, savdo, boshqaruv, Qo'qon-Buxoro munosabatlarini o'rganish qo'yilgan.

1828-yilda Omsk shahriga qo'qonlik elchilar Sadr Gamaldar Tursunxo'ja Nayzaxo'ja va Xo'ja Mir Qurbon Mamat Qosimovlar Rossiya imperatori Nikolay I ga ikki mamlakat o'rtasida do'stona aloqalar o'rnatish taklifi bildirilgan Qo'qon xoni yorlig'ini topshirish uchun kelgan. Osiyo departamentida elchilar juda yaxshi kutib olingan hamda ularga Qo'qon xonligidan keladigan elchilar va savdogarlarni imperiya o'z himoyasiga olishi bildirilgan.

Biroq Rossiya imperiyasining O'rta Osiyonini bosib olish niyatidagi harakatlari natijasida, Qo'qon bilan Rossiya munosabatlari asta-sekin yomonlashib borgan. 1822-yilda qo'qonlik elchilar rus imperatori huzuriga kiritilmagan. 1828-yildagina faqat "hayrihoxlik" bilan kiritilgan. 1831-yilda Muhammadalixon Peterburgga o'zlariga konlarni aniqlovchi muhandis va tajribali zabitlarni xitoyliklarga qarshi kurashda foydalanish uchun yordam so'rab vakil yuborgan. Lekin bu elchilik qabul qilinmagan, chunki rus hukumati Xitoy bilan munosabatlarini murakkablashtirishni istamagan.

Savol va topshiriqlar:

1. Buxoro xonligi va Rossianing dastlabki diplomatik aloqalari haqida qanday ma'lumotlar bilasiz?

- 2.XVII-XVIII-asrlar birinchi yarmida Buxoro-Rossiya munosabatlari haqida gapirib bering.
- 3.Buxoro amirligi tashqi siyosatida qo'shni davlatlar qanday o'rin tutgan?
- 4.Buxoro-Qo'qon munosabatlarini tahlil qilib bering.
- 5.Xiva-Eron munosabatlari to'g'risida ma'lumot bering.
- 6.Qo'qon va Sharqiy Turkiston munosabatlariga tarixiy misollar keltiring.
- 7.Angliya va Rossianing O'rta Osiyo masalasida raqobati to'g'risida tushuncha bering.

Asosiy manba va adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.2.
Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -Toshkent: SHarq, 2000.
3. O'zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. - Toshkent: 2003.
4. Gulyamov X.G. Diplomaticeskie otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiey v XVIII - pervoy polovine XIX veka. - T.: 2005.
5. Istorya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
6. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi. 2019.
7. Alimova R. O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari (XVI-XX asrlar boshlari rus tarixshunosligi va manbalari asosida). –Toshkent, 2017.

MAVZU: O‘RTA OSIYO XONLIKHLARI DAVRIDA MODDIY VA MA’NAVIY MADANIYAT

Reja:

1. O‘rta Osiyo xonliklari davrida ta’lim tizimi.
2. XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligi va amirligida madaniy hayot.
2. XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Xiva xonligi madaniyati.
3. XVI-XIX-asrlar birinchi Qo‘qon xonligi madaniyati.

Kalit so‘zlar: islom dini, maktab va madrasalar, ilm-fan, “Chor unsur”, tarixnavislik, “Dastur ul-mulk”, “Ubaydullanova”, adabiyot, san’at, me’morchilik.

1. O‘rta Osiyo xonliklari davrida ta’lim tizimi

XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Markaziy Osiyoda kechgan murakkab siyosiy voqeliklarga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot barqarorligini ta’minlashda xonliklarda yashagan mehnatkash, ijodkor xalq qatlamlarining roli muhim bo‘lgan. Zero, ular o‘zlarining ko‘p asrlik an’ana va tajribalari bilan keyingi davr rivojiga munosib hissasini qo‘shib borgan. Bugungi kunga kelib, o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosi jahon hamjamiyati tomonidan yuksak baholangan.

O‘rta Osiyo xonliklarida ilm-fan va madaniyatni rivojlanishida sohalarga homiylik qilgan, qo‘llab-quvvatlagan hukmdorlar roli ham katta bo‘lgan. Masalan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Subhonqulixon, Amir Shohmurod, Abulg‘ozixon, Muhammad Rahimxon I, Umarxon va boshqalar shular jumlasidan hisoblanadi. Xonliklar ma’naviy hayotini birlashtirib turishda o‘zbek tilining ahamiyati katta bo‘lgan. Ayni paytda davlat idora ishlarida fors tili ham qo‘llanilgan. Ijtimoiy hayotda o‘zbek va fors

tillari qo‘llanilgan. An’anaga ko‘ra, ta’lim tizimida va ilmu-fanlarda arab tili muhim o‘rin tutgan.

Madaniy hayotning asosi hisoblangan ta’lim tizimi aholining ma’naviy-madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Deyarli barcha Markaziy Osiyo xonliklarida an’anaviy maktablar bir xil maqom va darajada bo‘lgan. Ko‘zdan kechirilayotgan davrda mavjud maktablarni uch turga bo‘lish mumkin: 1) shahar va qishloqlarda bunyod etilgan maktablar; 2) masjidlar qoshida ochilgan maktablar; 3) maktabdor xonardonida ochilgan xususiy maktablar.

Xonlik davrida o‘g‘il bolalar va qizlar alohida-alohida o‘qitilgan. Qizlar otinoyi hovlisida barpo etilgan maktabda otinoyidan saboq olgan. Maktablarda haq to‘lashning qat’iy oylik yoki yillik me’yori bo‘lmagan. Ayrim maktablarga mulkdorlar vaqf mulki ta’sis etgan. Masjidlarda maktab, odatda, masjidni qurdirgan shaxs tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, 10-30 ta bola joylashadigan xonadan iborat edi. Bu maktabda o‘qish 2-5 yil davom etgan. Maktabda darslar jadvali, qat’iy dastur va muayyan o‘quv kursi bo‘lmagan. O‘qitish sinf-dars tizimida olib borilmagan, balki bir domladan saboq oluvchilarning hammasi bir xonada o‘qigan.

Maktab dasturi asosan quyidagi kitoblardan iborat bo‘lgan:

1. “Chahor kitob” (to‘rt kitob) – diniy urf-odatlarni o‘rgatuvchi mazkur darslik to‘rt kitobdan iborat bo‘lgan: a) Sharif Buxoriyning “Nomi xaq” asari bo‘lib, unda tahorat, uning tartiblari va namoz tartib – qoidalari; Ramazon oyida Ro‘za tutish qonun qoidalari haqidagi asoisy tushunchalarni bergen; b) “Kulliyot – Chahor Fasl” – o‘quvchini islom dinining imon, ahkom va arkon kabi tushunchalar bilan tanishtirishga mo‘ljallangan; v) “Muhimmat ul-muslimin” (Musulmonchilikning muhim masalalari) musulmon kishi uchun farz bo‘lgan asosiy tushunchalar haqida ma’lumot bergen; g) Farididdin Attorning “Pandnomai Attor”. Kitob mashhur

so‘fiy shoir Shay Farididdin Muhammad bin Abu Bakr Ibrohim Attor qalamiga mansub.

2. “Xaftiyak” – forscha so‘z bo‘lib, “Qur’oni Karimning ettidan biri” degan ma’noni anglatadi va bu o‘quvchilarga atroflicha o‘rgatilgan.

3. “Ahloqnama” – ahloq-odob qoidalari bayon etilgan.

4. Fors va turk tillarida bitilgan So‘fi Olloyor, Fuzuliy, Bedil, Alisher Navoiy, F. Attor she’rlari va asarlari shular jumlasidan hisoblangan.

Ma’lumki, Amir Temur va Temuriylar davri madrasalarida ta’lim tizimi, o‘qitish ancha yuqori saviyada bo‘lgan. XVII-asrdan keyin esa madrasalardagi ta’lim saviyasi pasayib borganini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, madrasalarning darsliklar tizimida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Aniq va tabiiy fanlarga nisbatan diniy fanlarga e’tibor kuchaytirilib, bunda diniy muttassiblikning ta’siri sezilarli bo‘ldi.

Xonliklar davrida madrasalar asosan, uch bosqichga bo‘lingan:

1) “adno” – quyi bosqich hisoblanib, “Avvali ilm” deb nomlangan, islom dinining asoslarini o‘rgatuvchi savol-javob tarzida tuzilgan fors tilidagi o‘quv qo’llanmasini o‘rganish bilan boshlangan; 2) “avsat” – o‘rta bosqich, bu bosqich talabalar “Aqoid”ni tamomlab, “Mulla Jalol”gacha bo‘lgan kitoblarni o‘qiganlar; 3) “a’lo” – yuqori bosqich hisoblanib, talabalar “Mulla Jalol”dan “Matni faroiz”gacha bo‘lgan asarlarni o‘rganganlar. Bundan tashqari, talabalar qiziqliklari va mudarrislar salohiyatiga qarab, handasa, tibbiyat, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san’ati kabi fanlardan ham bilim olishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, madrasalarda faqatgina diniy asosdagi fanlar o‘qitilmagan. Shuningdek, ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda alohida fanlar tahsili yo‘lga qo‘yilgan.

Masalan, XIX-asrning birinchi yarmida Xivada 22 ta, Qo‘qonda 15 ta, Buxoroda 60 ta yirik madrasalar faoliyat ko‘rsatgan. Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farqli o‘larоq, Xiva madrasalarida o‘qitish ko‘p hollarda turkiy tilda, qisman arab va fors tillarida olib borilgan. Madrasa muallimlari “oxunlar” yoki “mudarrislar” deb yuritilgan. Mudarrislar davlat va jamiyatning eng ko‘zga ko‘ringan, madaniy-ma’naviy muhit rivojiga hamda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta hissa qo‘shgan faol shaxslar bo‘lgan. Ularning aksariyati diniy mansab egalari bo‘lish bilan birga madrasalarda talabalarga saboq berish bilan ham mashg‘ul edilar. Mudarrislar soni madrasaning katta-kichikligiga bog‘liq bo‘lgan.

Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada to‘rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya’ni, yakshanbadan chorshanbagacha, yakshanba, juma, shanba kunlari esa dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentyabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Madrasalarda o‘qish talabalar iqtidoriga qarab 10-12 yoki 18-21 yilgacha ham davom etgan.

2. XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Buxoro xonligi va amirligida madaniy hayot

Buxoro xonligi Shayboniylar davri tarixshunosligida Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodi, Muhammad Solih, Fayzulloh ibn Ro‘zbexon Isfaxoniyilar (“Mehmona-nomai Buxoro”) Shayboniyxon topshirig‘i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asar yozganlar. Bundan tashqari, Abdulloh ibn Muhammad Nasrullohiyning “Zubdat al-asor”, Xofuz Tanish Buxoriyning “Sharafnomai shohiy” (Abdullanoma), noma’lum muallifning ”Tavorixi guzidayi Nusratnama” asarlari, shuningdek Zaynudin Vosifiyning ”Ba’doye ul vaqoe” Zahriiddin Muhammmad

Boburning "Boburnoma" asari, Mirzo Muhammad Haydarni "Tarixi Rashidiy", Muhammadiyor ibn Arab Qatag'onning "Musaxxir al-bilod" kabi asarlari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan ma'lumot beradi. Kuchkinchixon topshirig'i bilan Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari o'zbek tiliga o'girildi.

XVII-XVIII-asrlar Ashtarxoniyalar davri tarixshunosligida qomusiy bilim sohibi Muhammad ibn Valining (1636) «Baxr ul asror» (Sirlar dengizi), Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-mulk" (Podshohlar uchun dastur) asari (Subhonqulixon davri), Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova", Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning "Muhit ut-tavorix" (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi", Muhammad Yusuf Munshining "Muqimxon tarixi", Muhammad Vafo Karminagiyning "Tuhfat al-xoniy" asarlari shu davrning ijod mahsuli sanaladi.

Buxoro amirligi tarixshunosligida Yaqub ibn Amir Doniyol Buxoriyning (1711-1831) "Gulshan ul-mulk", Mirza Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya" asari, Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoro" va boshqa asarlar muhim o'rin tutadi.

Bu davrda aniq fanlarning rivojlantirilishiga oldingi davrlarda yashagan allomalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shib ketgan hissasi asos bo'lib qolaverdi. Jumladan, Al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek hamda uning samarqand maktabi vakillari bo'lmish Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi va boshqalarning asarlaridan foydalanilib keltingan.

Matematika sohasida Samarqand maktabi davomchilaridan Muhammad al-Xodi Toj as-Sa'idiy (1598)ning "Ashkal at-ta'sis", "Jaybi tartibi dayra" va boshqa asarlari, matematika va astronomiya sohasidagi yozilgan kitoblardan Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'min Obodiyning "Hisobi amali shabaka" (Shabaka jadvali amali hisobi, 1550), Bobokalon muftiy Samarqandiyning "Risola dar ilmi


hisob”, ”Vaziyat bar chahor qismi”, Tursun Zomiyning ”Tuhfayi amir”, Muhammad Xusayin Munajjim Buxoriyning ”Ma’rifati samti qibla” (Qibla tomonini topish ma’rifati), Muhammad ibn Axmad Forsiyning ”Risola dar muaddimli kamar” (Oy fazolarining tengligi haqida risola, 1517), Soqimuhammad Soniy Chaxoriyakiy 1681-1704-yillarda hisob bo‘yicha risolalar yozilgan. Tojus-Sand Muhammad Toxir ibni Abulkosimning ”Ajoyib ut-taboqat” (1545-1550) asarlari va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Buxoro amirligi amaldorlari yer-soliq ishlarini yuritishda Mirza Badi Devonning “Majma al-arqom” asaridan foydalanishgan. Aniq fanlar sohasida qalam tebratgan olimlar faoliyati o’sha davr uchun katta jasorat edi. Ana shunday olimlardan biri Mutribiy bo‘lib, u dunyo haritasini chizgan. Samarqandlik Muhammad Xusayn as-Samarqandiy tibbiyot va dorishunoslikka oid ”Tabiblik dusturul amali” asarini yozgan.

Buxoro xoni Subhonqulixon astronomiyaga oid “Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati” asarini yozgan. Subhonqulixon tibbiyot ilmi ishtiyoqmandi bo‘lib, Buxoroda mahsus shifoxona qurdirgan. Unda bemorlarni davolash bilan birga bir qatorda tibbiyot ilmi ham o‘rganilgan. Buxoroda madrasa qurdirib uning o‘zi tibdan dars bergan. Said Muhammad Tohir ibn Abulkosim 1645-1650-yillarda ”Ajoyib ut-tabobat” asarini yozgan.

Sultonali Samarcandiy 1526-yili ”Dastur al iloj” asarini yozgan. Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusuf o‘z davrining etuk tib olimi bo‘lib, Toshkand hokimi Darvishxonning buyrug‘iga binoan 1598-yilda ”Shifo ul ilal” (Kasalliklar shifosi) asarini yozdi. Asar 500 varaqadan ko‘p bo‘lib, uzoq vaqtgacha tib ilmidan asosiy qo‘llanma tarzida foydalanilgan. Uning bir necha bitik nusxasi bizgacha etib kelgan. Uning ko‘z kasalligiga doir asosiy kitobi ham bo‘lgan. Shohali bin Sulaymon Qahhol Toshkent hokimi Baroqxonning farmoniga ko‘ra 1544-yilda tibga oid ”Zubdayi manzuma” (Nazmlar sarozi) asarini yozgan. So‘ng X-asr olimi Ali

ibn Isoning “Tazkirat ul kaxholim” (Ko‘z tabiblariga esdalik kitob) asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qiladi. Har ikkala asarning qo‘lyozma nusxalari O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.



Samarqand. Sher dor madrasasi XVII-asr.

XVI-asrda Shayboniyalar hukmronligi davrida madaniy hayot rivojlantirishga sulola namoyondalari ham o‘z hissalarini munosib qo‘shtigan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon (Shayboni, Shabani), Kuchkinchixon va Ubaydullaxonlar (Ubaydiy, Qul Ubaydiy), Abulazizzon (Aziziy) o‘z davrining nihoyatda o‘qimishli kishilari bo‘lganlar. Shuningdek Shayboniyxon, Abulazizzon va Abdullaxonlar kutubxonalari o‘z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo‘lgan. Shayboniyxon she’riy devon yaratgan, hozirgi kunda uning yagona qo‘lyozma nusxasi Turkiyada saqlanadi. Kamoliddin Binoiy qalamiga mansub “Shayboniynoma” asarini Shayboniyxon ko‘chirgan nusxasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Ubaydiyni she'rlar to'plami uch tilda (fors, o'zbek va arab) tuzilgan. She'rlaridan iborat 3 devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqdan iborat. Shayboniylar saroyi shoir yozuvchilaridan Muhammad Soliq, Podshoxo'ja (taxallusi Xo'ja), Binoiy, Fayzulloh Ro'zbehon, shoirlardan Majlisiy, Hofiz Merosiy, Vosifiy, Afsoriy va boshqalar bo'lgan. Bu davrda adabiyot sohasining yirik vakili Zahriddin Muhammad Bobur bo'ladi.

XVII-XVIII-asrlar adabiyotida Sayido Nasafiy (1637-1710), shoir Turdi Farog'iy (1702 vaf.)ning ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Subhonqulixon va uning amaldorlarga qarshi ko'tarilgan halq qo'zg'oloni qatnashchisi, she'rlarida halqni zulmga qarshi birdamlikka, birlashishga da'vat etgan shoir sanalgan. So'fi Olloyor diniy-didaktik mazmunda "Tuhfat at-talibin", "Murod al-orifin", "Sabot al-ojizin" kabi asarlari bilan mashhur bo'lib xalq mehrini qozongan. O'z davrining "Malik ush-shuar" faylasufi, mutafakkiri, ulug' shoiri Mirzo Bedil (1644-1721) edi. Bedildan "Tilsimli xayrat", "Muhitiy a'zam", "Chor unsur", "Irfon", "Nukot" kabi asarlar qolgan.

Saroyda emas o'z viloyati va shaharlarida yashab ijod qilgan shoirlardan G'afur Samarqandiy (attor), Mase'xo (temirchi), Manzur Samarqandiy (etikdo'z), Adoiy (dexqon), Mulla Sarafroz, Fitrat Samarqandiy, Azmiy Buxoriy, Unvon Samarqandiylar shular jumlasidandir. Mirzo Sodiq Munshi ashtarxoniyilar sulolasiga xonlarning kirdikorlarini fosh qiluvchi "Dahmai shohon" majmuasini yozgan. Muhammad Balxiy "Subxonqulinoma" masnaviysini bitgan.

Xasanxoji Nisoriyning "Muzakkir al-ahbob" nomli tazkirasida 288 Movarounnahr, Turkiston va qo'shni davlatlarda yashovchi shoirlar haqida ma'lumot bergen. Mutribiyning "Tazkirat ush-shuar", Malexo Samarqandiyning "Muzakkir-i asxob", Mulla

Sodiq Samarqandiyning “Riyoz ush-shuaro” kabi tazkiralarida davr ilmiy muhiti haqida keng tasavvur berilgan.

Buxoro xonligi davrida 1535-1536-yillarda qurilgan Mir Arab madrasasi, 1540-1541-yillardagi masjidi Kalon, 1549-yili Abdulazizzon qurdirgan koshinli xonaqohi, Magoki Attori masjidi (qayta ta’mirlangan), 1559-yili qurilgan Toki Zargaron, Toqi Sarrofon, Toki Kitobfurushon, Karmanadagi Hazrati Qosimshayx xonaqohi, 1582-yili qurilgan uch darvozali Timi Kalon, 1581-yili bino qilingan Modarixon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi, 1580-yili bino qilingan Govkushon madrasasi, 1586-yili qurilgan Fatxulla qushbegi madrasasi, 1585-yili qurilgan Fayzobod xonaqohi, Do‘stim madrasasi, 1577-1578-yillarda qurilgan Abdullaxon madrasasi, Tim, Chorsular shular jumlasidandir.

Samarqandda ham Shayboniylar davrida Shayboniyxon tomonida boshlangan va 1515-1516-yillarda qurib bitkazilgan Shayboniyxon madrasasi va Abdurahim Sadr madrasasi, Toshkentda Baroqxon madrasalari qurilgan. 1582-yil Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustida ko‘prik qurilgan.



Mirza Bade’ Devon “Majma al-arkom” asari.

XVII-asrda me'morchilik sohasida ham katta yutuqlarga erishildi, Samarqand Registoni shakllandi. Samarqand hokimi Yalangtush mablag‘iga Sherdor va Tillakori madrasalari qurildi. Imonqulixon Madina shahrida Chorbog‘, Makkadagi Ka’baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog‘och zina qurdirgan. Buxoroda Imomqulixonning amaldori Nodir devonbegi masjid, Hovuz madrasadan iborat me’moriy majmua bunyod etdi, Samarqandda Xoja Ahror madrassasi yonida madrasa va nomozgoh bino qildi. Abdulazizzon qurdirgan Buxorodagi madrasa muxtashamligi, nafis naqshli koshinlar bilan ajralib turgan.



Abdulazizzon madrasasi (XVII asr)

3. XVI-XIX-asrlar birinchi yarmida Xiva xonligi madaniyati

Xiva xonligining ilm-fan sohasi rivojida Xorazm tarixshunoslik maktabining o‘rni kattadir. Bu maktabning asoschilaridan

Abulg‘oziy Bahodirxon sanaladi. Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug’ullangan Abulg’ozixon tarixchi, tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. 1657-yilda Abulg’ozi tabobatga oid “Manafi ul-inson” (“Insonga foydali narsalar”) nomli asarini yozgan bo‘lsa, 1658-1664-yillarda “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” nomli tarixiy asarlarini yozdi. Abulg’ozi Bahodirxonning ikkinchi qimmatli asari «Shajarai turk» bo‘lib, uni oxiriga qadar yozib tugata olmadi. Bu asarni Abulg’ozi vafotidan so‘ng o‘g‘li Anushaxonning topshirig‘iga ko‘ra urganchlik mulla va Abulg’ozining qarindoshi Mahmud Ibn Muhammad Urganjiy yozib poyoniga yetkazadi. Bu taxminan 21 sahifani tashkil etgan qo‘sishimcha edi, xolos.

“Shajarai turk” asari qisqa muqaddima va to‘qqiz bobdan iborat bo‘lib, Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlarigacha kechgan hodisalar, shunindek Shaybon avlodidan Xorazmda hukmronlikholik qilgan Shayboniyalar (Arabshohlar) to‘g‘risidagi zikrni o‘z ichiga oladi. Vengriyalik yirik sharqshunos olim A.Vamberi bu asarga yuksak baho berib: “Jahon “Shajarai turk” asari uchun undan minnatdor”, deb yozgan edi. Bu asar juda ko‘p xorijiy tillarga tarjima qilingan. “Shajarai tarokima” asarida turklarning afsonaviy hukmdori O‘g’uzxon, uning avlodi va ularning zamonida yuz bergen voqealar qisqacha bayon etilib, turkman urug’lari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Abulg’ozixon o‘zining bu asarlari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos solgan edi.

Abulg’ozixon boshlagan hayrli ishlarni uning izdoshi Munis Xorazmiy (1778-1829) davom ettirdi. Munis Xorazmiy nafaqat tarixchi, ayni paytda u shoир, tarjimon, hattot ham edi. 1804-yilda u ”Devon” tuzdi. 1806-yilda ”Xiva xonlari” tarixiy asarini yozishga kirishdi. Ammo bu asarni tugallash nasib etmadni. Munisning ”Arnalar” asari xonlikdagi yer-suv munosabatlari hamda sug‘orish inshootlari masalasiga bag‘ishlangan edi. Munis Xorazmiy shoир

sifatida yozgan asari "Munis ul-unshok" (Oshiqlar do'sti) degan devon edi. Bu devon 18.000 misradan iborat bo'lgan. Munis Eltuzarxon maslahati bilan "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarini yozgan.


Xorazmning yirik tarixchisi olimlardan yana biri Munisning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) edi. Ayni paytda u ham shoir, ham tarjimon bo'lgan. U yozgan she'riy asar "Ta'vis ul-inshok" (Oshiqlar tomiri) deb ataladi. Bu asar 18 ming misradan iborat bo'lgan. Ogahiy "Riyoz ul-davla" (1844 yil), "Zubdat ut-tavorix" (1845 y), "Jome' vaqsoziy sultoniy" (1855 y), "Gulshani davlat" (1865 y) kabi tarixiy asarlar muallifidir. Munis va Ogahiylar Mirxondning etti jildlik "Ravzat us-safo" asarini o'zbek tiliga tarjima qilganlar. Ogahiyning tarixga oid asarlarida Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) dan to Muhammad Rahim II (1864-1910) gacha xonlik tarixi o'z aksini topgan.

Xonlik poytaxti Xiva o'sha paytda xonlikning nufuzli ilmiy-ma'rifiy markazi sanalgan. Xivadagi Arab Muhammadxon, Sherg'ozixon, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon soniy madrasalarida Xivaning taniqli tarixchilar, shoir va adiblari, islomiy ilmlarning yirik bilimdonlari, huquqshunoslari, musiqa ilmining ustalari tez-tez to'planib, ijodiy ishlari xususida suhbatlashishgan, babs-munozaralar o'tkazib turganlar.

Xiva madrasalarida tahsil olgan Munis, Ogahiy, Bayoniy, Komil Xorazmiy, Rasul Mirzo, Laffasiy, Tabibiy, Chokar, Bobojon Tarroh kabi ziyorilar madaniyatimiz tarixida yorqin iz qoldirgan olim, shoir, adib, tarjimon, mohir xattot va musiqashunos sifatida shuhrat topishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX-asrning 40-yillarida Ichan qal'ada xon saroyidan tashqari 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va katta bozor bo'lgan. XX-asr boshlarida xonlikda jami 130 madrasa, 1636 masjid bo'lgan.

Xorazmda hattotlik va husnixatlik san'ati ham rivoj topgan. Munis, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Bayoniy, Yusuf Rojiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Panoh Xorazmiy, Hudoybergan

Muhrkan, Abdulla Bolta o‘g‘li va boshqalar Xiva xattotlik maktabining peshqadam vakillaridan sanalgan. Manbalarning guvohlik berishicha, XIX-asrda Xiva xonligida 90 ga yaqin iste’dodli xattotlar faoliyat ko‘rsatgan. Yozuv san’atining mohir ustasi bo‘lgan Munis 1804-yilda xattotlik san’atiga bag‘ishlab o‘zining ”Savodi ta’lim” qo‘llanmasini tayyorlagan. Bu risola Xiva madrasalarida talabalarga darslik sifatida o‘rgatilgan.



Shermuhammad Munis va Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol» asari.

Xiva xonligida XVII-XIX-asrlarda bunyod etilgan bir yuzdan ortiq masjidlar, etmishga yaqin madrasalar, maqbaralar va minoralar Xorazm me’morchilik san’atining yuksak namunasidir. Shulardan Arab Muhammadxon (1616), Muhammad Amin Inoq (1765), Qutlimurod Inoq (1809), Sherg‘ozixon (1719-1728), Olloqulixon (1831-1835), Muhammad Aminxon (1852-1855), Muhammad Rahimxon (1870) va boshqa madrasalar shular jumlasidandir. Shuningdek, Xazoraspdag'i Raxmonqulixon inoq saroyi, Olloqulixon tomonidan qurilgan Xivadagi Toshhovli nomi bilan ataluvchi ikki qavatli qasr (1832-1841) binolari sernaqsh va qoshinli bo‘lib, Xorazm me’morchiligini o‘ziga xos uslubini o‘zida aks

ettirgan. Olloqulixon madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi ham qoshinlar bilan bezatilgan. Bu madrasa yonidagi Kaltaminor ham moviy tusdagi qoshin bilan qoplangan. Bundan tashqari, Olloqulixon karvonsaroyi va bozor (1835) hamda Polvon darvoza (Muhammad Rahimxon, 1806) o'sha davr me'morchiligining yorqin namunasidir.

4. XVI-XIX-asrlar birinchi Qo'qon xonligi madaniyati

Qo'qon xonligida ham tarixnavisik sohasi rivojlangan edi. Mazkur davr tarixchilaridan Abdukarim Fozil Namongoniy Amir Umarxonning topshirig‘iga binoan "Shohnoma" masnaviysini yozib tugatgan. U 5000 bayonatdan iborat tarixiy manzuma bo‘lgan. Yana "Majmuai shoiron" tazkirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif "Shohnomai Umarxon" tarixiy asarini yozgan. Amir Umarxon davrning ko‘zga ko‘ringan tarixchisi Muhammad Xakimxon to‘ra ibn Sayid Ma’sumxon (1802-1870)dir. U ona tomonidan Qo'qon xoni Norbutabekning nabirasi Muhammad Alixon davrida quvg‘inga uchrab, Rossiya, Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo‘lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o‘zining "Muntaxab ut-tavorix" asarini yozdi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim manbalardandir.

Amir Umarxon davrining yana bir etuk tarixshunosi mulla Niyoz Muhammad Xo‘qandiydir. Harbiy lavozimlarda ishlagan va XIX-asrning 70-yillarida "Tarixiy Shohruxiy" asarini yozadi. Unda 1872-yilgacha bo‘lgan ko‘pincha o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va bo‘lgan voqealarni bayon etadi. Amir Umarxon davrida 1872-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo‘lgan yana bir tarixiy asar "Tarixiy Jahonnamoyi" deb nomlanadi. Uning muallifi Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiydir. Yana bir tarixchi mulla Ali

Qori Qunduziy (1786-1858) "Tavvorihi manzuma" asarini yozgan. Asarda 1822-1848-yillar tarixi bayon etilgan. Ma'rifatparvar shoir va tarixchi olima Dilshod Barno "Tarixi muxassara" (Qamal tarixi), "Sabot ul-basharmaa tarixi muxojiron" (Inson matonati va muxojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

Shoir va davlat arbobi amir Umarxon (Amiriyyuning umr yo'ldoshi, mashhur shoira Nodirabegimlarning o'zлari ijodkor bo'lganliklari tufayli, Qo'qon adabiy muhiti vujudga kelgan. Ularning sayi-harakatlari tufayli saroyga iste'dodli shoirlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar to'plangan edilar. Amiriyy Boqixon to'ra, Gulxaniy, Yoriy, Zavqiy, Zoriy, Maxjub, Maxmur, Mushrif, Nizomiy, Nodir, Nozillar hamda shu adabiy muhitning gultojilari bo'lmish Dilshod Barno, Nodira, Uvaysiylar o'z davrida samarali ijod qilganlar.

Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuarо", Qori Rahmatullo Vozexning "Tuxmat ul-axbob fi tazkirat ul-ashob" tazkiralalarida 200 nafarga yaqin shoir va olim ijodiga to'xtab o'tiladi. Ana shu adabiy jamoani amir Umarxonning o'zi boshqargan. U barcha shoir, adib, musavvir, hattot va musiqa bilimdonlariga homiylik qilgan. Uning hukumronligi davrida ko'plab masjid, madrassa, maktablardagi kitoblar iste'dodli hattotlar tomonidan ko'chirilgan. Amiriyyning o'zbek va fors tillarida yozgan g'azallar devoni 1881-yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etildi.

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Mahmur XVIII-asr oxirida tug'ilib 1844-yili vafot etgan. Uning she'riy devoni mavjud. Qo'qondagi Madrasai Mirda o'qigandan keyin Amir Umarxon qo'shinida sipohlik qilgan. She'rlarida halqqa jabr qilgan amaldorlarni hajv etadi. "Xapalak", "Ta'rifi viloyati Qurama" she'rlarida mamlakatning tushkun manzarasi, aholining ayanchli ahvoli tasvirlangan. Bu davr adabiyotning yana bir yirik namoyondalaridan biri Gulxaniy (Muhammad Sharif) bo'lgan. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan.

Boshlang‘ich ta’limni qishlog‘ida olgan va muhtojlik oqibatida Namanganga kelib qolgan. Mardikorlik bilan birga, ayni paytda ijod bilan ham shug‘ullangan. Keyinchalik, u Qo‘qonda istiqomat qilib, bu yerda hammomda gulxan (o‘t yoquvchi) bo‘lib ishlaydi. U ”Gulxaniy” tahallusi bilan ijod qilgan. Gulxaniydan katta adabiy meros qolgan. U o‘zbek adabiyotida masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo‘lib kiritgan ijodkor edi. Ayni paytda u ham o‘zbek tilida ham tojik tilida ijod qilgan. Gulxaniy o‘zining satira va xajviy she’rlarida zamonasining illatlarini, hukmron tabaqaning xalqqa o‘tkazgan zulmi, xalqning og‘ir turmush sharoitini katta mahorat bilan bayon etgan. Gulxaniyning mashhur asari ”Zarbulmasal” edi.

Xo‘ja Nazar Huaydo vodiyning Chimyon qishlog‘idan chiqqan (vaf. 1780) iste’dodli shoir bo‘lgan. Uning ”Devon” nomli to‘plamida o‘zbek mumtoz adabiyotining barcha janrlarini to‘plagan. Huvaydo g‘azallarining asosiy qismida sevgi-muhabbat hislari ifoda topgan.

Qo‘qon adabiy muhitini Jahon otin Uvaysiy (1780-1841) va Moxlaroyim Nodiralar ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uvaysiy 1780-yilda Marg‘ilonda tug‘ilgan, oilasi o‘z davrining ilg‘or va ma’rifatli oilasi edi. Otasi ham o‘zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oilasidagi muhit Uvaysiyda ijod qobilyatini yuzaga chiqaradi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Xofiz va Jomiy ijodlarini qunt bilan o‘rganadi. O‘zbek shoiralaridan ma’rifatparvar davlat arbobi Moxlaroyim Nodira (1792-1842) Andijonda tug‘ilgan. Otasi Raxmonqulibiy Andijon hokimi bo‘lib, Qo‘qon xoni Olimxonning tog‘asi edi. Umarxon Marg‘ilonga hokim etib tayinlagandan keyin Nodiraga uylangan. Nodira shu xonadonda she’rlar mashq qiladi. Shoira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o‘qitish uchun muallimlikka taklif qiladi. Nodira xonlikka qarashli shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar va naqqoshlarni Qo‘qonga to‘plagan. Nodira ko‘pgina kitoblarni qayta ko‘chirgan. Uning o‘zi ham o‘zbek, ham tojik tillarda ijod qilgan,

she’riyati asosini lirika tashkil etgan. She’rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohfig‘onlari kuylangan. Bundan tashqari Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g‘azallariga muhammaslar yozgan.

Qo‘qon xonligida ijod qilgan iste’dodli shoirlardan biri Boborahim Mashrab (1640-1711) bo‘lib, u Namanganda tug‘ilgan. 7 yoshligida xat-savodi chiqqach, 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan. 18 yil mobaynida dunyoning juda ko‘p mamlakatlarini kezib chiqqan. U ulamo, eshonlarning avom xalq ruhini do‘zax va ohirat azoblari bilan daxshatga solayotganligi ularga qarata aytgan jasoratli inson ham edi. Ana shu jasorati uchun Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yili g‘animlari ig‘vosi bilan Balx hokimi Mahmudbiy qatag‘on tomonidan o‘limga hukm etiladi.

Amir Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroldan Ettisuvgacha egallab, Oqmasjid (Qizil O‘rda) Avliyo ota (Jambul), Pishpak (Bishkak) qal’alarini bunyod etdi. Uning davrida Qo‘qonda va boshqa nohiyalarda ko‘plab binolar qurilgan. Shuningdek, xonlikda Norbutabiy madrasasi (1799), Muhammad Alixon madrasasi, Madrasai Kalon qozi (1820), Madrasai Tunqator, Madrasai Moxlaroyim, Madrasai Haqquli Mingboshi (1825), Madrasai Miyon Xazrat, Madrasai Moxlaroyim, Madrasai Xakim To‘ra (1795), Madrasai Xonxoja eshon (1789), Madrasai Buzruqxo‘ja (1801), Madrasai Pirmuhammad Yasovul (1802), Madrasai Xojabek (1805), Madrasai Oxund devonbegi Jome’ (1817), Madrasai Norbutabiy (1827) kabi inshootlar qurilgan edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xonliklar davrida boshlang‘ich maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat bo‘lgan?

2. Islom dini va uning jamiyat ijtimoiy, ma'anviy va madaniy hayotida tutgan o'rniga izoh bering.
3. Madrasalar turlari va ularning ta'lif tizimi to'g'risida so'z yuriting.
4. Buxoro xonligi tarixnavisligi haqida gapirib bering.
5. Xorazm tarixshunoslik maktabi haqida nimalar bilasiz?
6. Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xosligi, ayol ijodkorlarning o'rni qanday bo'lgan?
7. Xonliklar davridagi ilm-fan masalasini Venn diagramasida yoritib bering.
8. Xonliklar davri me'moriy obidalarini guruhlang va Klaster tizimida ko'rsatib bering.

Asosiy manba va adabiyotlar:

- 1.Abulg'azi. Shajarai turk. - T.: Cho'lpon, 1990.
- 2.Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalari
- 3.tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Andijon: Nashriyotsiz, 1995.
- 4.Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
- 5.Matniyozov M., Ollamov YA. Xorazm davlatchiligi tarixi. – Urganch, 2009.
- 6.Mirzo Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. – T.: Yangi asr avlod, 2009.
- 7.Istoriya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). – Tashkent: Fan, 2012.
- 5.Aliyev M. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni (1800-1876 yy.). Tarix fan. nomzod avtoreferati. –Toshkent 2012.
- 6.Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta'lif tizimi tarixi. – Toshkent, 2017.
- 7.Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlod. 2019.

GLOSSARY

Atama o‘zbek tilida nomlanis hi	Atama ingliz tilida nomlanis hi	Atama rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
<i>xon</i>	<i>khan</i>	<i>xan</i>	turkiy xalqlar va mo‘g’ul hukmdorlarining unvoni
<i>tanho</i>	<i>tanho</i>	<i>tanxo</i>	O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan suyurg’olning bir ko‘rinishi bo‘lib, davlatga ko‘rsatgan xizmatlari uchun berilgan yer, mol-mulk hadyasi.
<i>ulamo</i>	<i>ulamo</i>	<i>ulamo</i>	islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari, shuningdek, diniy muassasalarga, qozilik mahkamalariga, o‘quv yurtlariga mutasaddi bo‘lgan barcha musulmon dindorlari ulamolar deb yuritilgan
<i>tabaqa</i>	<i>class, estate</i>	<i>soslovyo</i>	xonliklar jamiyati tuzilmasidan o‘rin olgan, huquq va imtiyozlari qonuniylik asosida belgilangan ijtimoiy guruhlar
<i>iqto</i>	<i>iqta</i>	<i>ikta</i>	davlat yerlari xon tomonidan harbiy yo‘lboshchilar va amaldorlarga umr bo‘yi yoki merosiylid tariqasida berilgan
<i>biy</i>	<i>biy</i>	<i>biy</i>	urug’ va qabila oqsoqoli, boshlig’i
<i>xiroj</i>	<i>khijoj</i>	<i>xaradj</i>	yer solig’i; O‘rta Osiyoda davlat tomonidan hosilning 10-25% hisobida olinadigan soliq.

<i>devon</i>	<i>divan</i>	<i>divan</i>	boshqaruv tizimida idora tuzilmasi
<i>shayxulislom</i>	<i>shaykhulislam</i>	<i>sheyx ul-islam</i>	oliy din peshvosi, mamlakatda islom dini ahkomlari va amallarining bajarilishini nazorat qilgan.
<i>madrasa</i>	<i>madrase</i>	<i>medrese</i>	oliy o'quv dargohi. Arab tilidan olingan, dars o'tiladigan joy.
<i>qorixona</i>	<i>qorikhona</i>	<i>karixana</i>	o'quv dargohlarining bir turi edi. Unda asosan Qur'on hofizlarini tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan
<i>mulk</i>	<i>mulk</i>	<i>imushestvo</i>	xususiy yer egalariga qarashli yyer-mulklar
<i>vaqf</i>	<i>waqf</i>	<i>vakuf</i>	masjid, madrasa va muqaddas joylar uchun ajratilgan mulk bo'lib, ular soliqdan ozod etilgan.
<i>sayyid, xo'jalar</i>	<i>sayid, khojas</i>	<i>seyidyi, xodjyi</i>	Muhammad s.a.v. payg'ambar avlodlari.
<i>urug'dor</i>	<i>urugdor</i>	<i>urugdar</i>	O'rta Osiyo aholisi o'rtasida urug'-qabilaviy tarzda bo'lingan va doimiy xizmat ko'rsatib tanilgan nufuzli turki urug'lari.
<i>sipohiy</i>	<i>sipokh</i>	<i>sipox</i>	xonliklar davlat boshqaruvidagi asosan harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilgan atama.
<i>fuqaro</i>	<i>fukaro</i>	<i>fukaro (prostolyudnyi)</i>	Xonliklar davrida raiyat, xalq tabaqasi fuqaro deb yuritilgan.
<i>xutba</i>	<i>khutba</i>	<i>xutba</i>	juma va ulug' ayyom kunlari masjidda imom xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pand-nasihatlar.

<i>otaliq</i>	<i>atalik</i>	<i>atalik</i>	“ota o‘rniga ota” degan mazmunga ega bo‘lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash, ularni balog’atga yetguniga qadar boshqarishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, davlat boshqaruvida yuqori mansablardan biri
<i>tanhodor</i>	<i>tankhodar</i>	<i>tanxadar</i>	davlat tomonidan amaldorlarga in’om tariqasida berilgan turli daraja va miqdordagi yer-muliklar kirgan. Tanhodan tushgan daromad tanhodorning o‘ziga rasmiylashtirilgan.
<i>mulki devon</i>	<i>mulki devon</i> (state land)	<i>mulki divan</i> (gosudarstve nniye zemli)	davlatga qarashli yerlar bo‘lib “mulki sultoniy” deb ham yuritilgan.
<i>rabot</i>	<i>rabat</i>	<i>rabat</i>	bu tushuncha shaharning tashqi qismi, qo‘rg’on, istehkom bilan birgalikda, mehmonxona (karvonsaroy) ma’nosida ham tushunilgan.
<i>sardoba</i>	<i>sardoba</i>	<i>sardoba</i>	pishiqlik g’ishtdan qurilgan gumbazli hovuz; suvxona.
<i>sulola</i>	<i>generatio n</i>	<i>dinastiya</i>	bir urug’dan yoki avloddan tarqalgan podshohlar yoki xonlar nasli. Masalan, somoniylar, mang’itlar, qo‘ng’irotlar h.k.
<i>ushr</i>	<i>ushur</i>	<i>ushr</i> (desyatina)	mulk yerlarining bir qismidan, ya’ni hosilning 1/10 miqdorida olinadigan soliq
<i>sarboz</i>	<i>sarboz</i>	<i>sarbaz</i>	harbiy qo‘shin askari

<i>devonbegi</i>	<i>devonbegi</i>	<i>divanbegi</i>	davlatning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirishni ustidan nazoratni ham devonbegi olib borgan.
<i>qushchi qushbegi</i>	<i>qushchi</i>	<i>kushchi (sokolnichiy)</i>	XV-XIX asrlarda xon va hukmdorlar qushxonasining mutasarrufi bo‘lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o‘tkazish vazifalari yuklatilgan.
<i>suyurg’ol</i>	<i>suyurgol</i>	<i>suyurgol</i>	hukmdorlar tomonidan ma’lum ijtimoiy-siyosiy statusiga qarab mansabdorlarga in’om etilgan yer-mulklar.
<i>aminona</i>	<i>aminona</i>	<i>aminona</i>	xonliklarning ayrim xududlarida chorva va oziq-ovqat mollarini sotuvchi kishilardan undiriladigan maxsus bozor haqi. Shuningdek, O’rta Osiyo hududidagi aminlar foydasiga yig’ib olinadigan soliq ham aminona deyilgan.
<i>muhtasib</i>	<i>muhtasib</i>	<i>muxtasib</i>	rais ham deyilgan, shariat qonunlarining bajarilishi, masjidlarga borib namoz o’qish, bozorlardagi tosh-tarozining to’g’riligini tekshirgan, nazorat qilgan. Ayni paytda u ichkilikbozlik, qimorbozlik, sudxo’rlikka ham qarshi kurashgan.
<i>parvonachi</i>	<i>parvonachi</i>	<i>parvanachi</i>	Buxoro va boshqa xonliklarda mavjud bo’lgan mansab; vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Biror bir shaxs biror lavozimga tayinlanganida, bu haqdagi

			yorliqni o'sha shaxsga va boshqalarga yetkazuvchi amaldor.
<i>ellikboshi</i>	<i>elikbashi</i>	<i>elikbashi</i>	harbiy-ma'muriy unvon. O'rta Osiyo xonliklarida yuzboshidan keyingi mansab. 50 nafar askardan iborat harbiy qism qo'mondoni yoki 50 nafar askar ajrata oluvchi mahalla, qishloq yoki ovul rahbari.
<i>yasovul</i>	<i>yasavul</i>	<i>yasaul</i>	o'rta asrlarda O'rta Osiyodavlatlarida saroydagi kichik mansabdor. Oliy hukmdorning amru-farmoyishlarini bajaruvchi shaxsiy xizmatkori.
<i>farsax</i>	<i>farzakh</i>	<i>farsax</i>	Fors.farsang, arab.farsax (tosh)-masofa o'lchov birligi. Bir farsax 6-8 km. ga teng bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza.– Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Abulg'ozi. Shajarai turk. - T.: Cho'lpon, 1990.
3. Mirzo Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. – T.: YAngi asr avlod, 2009.
4. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari / Sultonov O'.A. – T.: O'zbekiston, 2009.
5. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. Nashrga tayyor. I. Adizova. www.ziyouz.com kutubxonasi;
6. Bartold V.V. Istoriya Turkestana. Uzbekskie xanstva // Sochineniya, T. II, chast 1. M.: Nauka, 1963;
7. Ziyaev X. XVIII asrda O'rta Osiyo va Ural bo'yłari. – T., 1973;
8. Mukminova R.G. Ocherki po istorii remesla v Samarkande i Buxare v XVI v. – T.: Fan, 1976;
9. Beysembiev T. "Ta'rix-i Shaxruxi" kak istoricheskiy istochnik. - Almata: Nauka, 1987;
10. Mixaleva G.A. Uzbekistan v XVIII – pervoy polovine XIX veka: remeslo, torgovlya i poshlinyi. – T.: Fan, 1991;
11. Istoriya Uzbekistana / Otv. red. Mukminova R.G. – T.: Fan, 1993;
12. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994.
13. Bobobekov X Qo'qon tarixi. - T., 1996;
14. Burton Y. The Bukharans a Dinastic, Diplomatic and Commercial History. 1500-1702. – Great Britian, 1997;
15. Sagdullaev A. va b. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000;
16. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000;
17. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. – T.: SHarq, 2000;
18. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T.: SHarq, 2001;

19. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan. Tarixiy ocherklar va lavhalar. - Toshkent: 2003.
20. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: Adolat, 2004;
21. Gulyamov X.G. Diplomaticheskie otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiey v XVIII - pervoy polovine XIX veka. - T.: 2005.
22. Anke Fon Kyugelgen. Legimitatsiya Sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov (XVIII-XIX vv.). – Almatы: “Dayk-Press”, 2004;
23. Gulomov X. Diplomaticheskie otnosheniya gosudarstv Sredney Azii s Rossiey v XVIII –pervoy polovine XIX veka. – T., 2005;
24. Vohidov sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari). – T.: Yangi asr avlodi, 2006;
25. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T.: Universiteti, 2007;
26. Alimova D.A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. V 2-x t. T.1.– T.: Uzbekistan, 2008;
27. Matniyozov M., Ollamov YA. Xorazm davlatchiligi tarixi. – Urganch, 2009;
28. Babadjanov B.M. Kakanskoe xanstvo: vlast, politika, religiya. – Tokio-Tashkent, 2010;
29. Rossiya – Srednaya Aziya: Politika i islam v nachale XVIII – nachale XIX veka.– M., 2010.T.1.
30. Istorya Uzbekistana (XVI – pervaya polovina XIX v.). Otv.red. D. Alimova. – T.: Fan, 2012;
31. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2014.
32. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2015.
33. Alimova R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shti davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari (XVI-XX asr boshlari rus tarixshunosligi va manbalari asosida). –Toshkent, 2017.

34. History of Central Asia. Volume V. Development in contrast: from the sixteenth to the mid-nineteenth century. - UNESCO Publishing, 2003.
35. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi. 2019.

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-4
Mavzu: Mavarounnahrda Shayboniylar hukmronligining o‘rnatilishi va Buxoro xonligining tashkil topishi.....	5-23
Mavzu: Buxoro xonligi Ashtarkoniylar davrida.....	23-38
Mavzu: Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot (XVI- XVIII asr birinchi yarmi).....	38-57
Mavzu: Xiva xonligi Arabshohlar (shayboniylar) davrida (XVI-XVIII asr birinchi yarmi).....	57-69
Mavzu: Xiva xonligi Qo‘ng‘irotlar davrida (XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asr birinchi yarmi).....	69-81
Mavzu: Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (XVI-XIX asr birinchi yarmi).....	81-90
Mavzu: Qo‘qon xonligi (XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi).....	90-102
Mavzu: Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	103-113
Mavzu: Buxoro amirligining siyosiy tarixi (XVIII asr ikkinchi yarmi-XIX asrning birinchi yarmi).....	113-122
Mavzu: Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	123-137
Mavzu: Toshkent bekligi va uning O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni.....	137-147
Mavzu: XVI asr-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar....	148-158
Mavzu: O‘rta Osiyo xonliklari davrida tashqi siyosat	158-178
Mavzu: XVI-XIX asr birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklari madaniyati.....	178-197
Glossariy.....	198-202
Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....	203-205

GO'ZAL NORMURODOVA

O'ZBEKISTON TARIXI

(XVI-XIX ASRLAR BIRINCHI YARMI)

DARSLIK

(tarix mutaxassisligi talabalari uchun)

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

O. Sharapova
X. Rahimova
B. Egamberdiyev

ISBN 978-9943-8852-2-6

2022-yil 06 noyabrda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2022-yil 16 noyabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garniturasi.

Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 13,0.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma №312

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



